maktabida maxsus musiqa xonasi /kabineti/ bo`lishi, dastur, darsliklar, tavsiyanomalar, ishlanmalar, uslubiy qo`llanmalar, ko`rgazmali qurollar, texnika vositalari, badiiy yuksak musiqa ijrolari yozuvlari, maxsus nota chiziqlari chizilgan taxta /doska/, milliy va umumbashariy musiqa san`ati namoyandalari portretlari va boshqa jihozlar muhayyo qilingandagina o`quvchilarning darsga qiziqishlari oshadi, ayniqsa sifatli musiqa asboblardan foydalanish dars samaradorligiga ijobiy ta`sir qiladi.

Hozirgi kunda aksariyat o`quvchilarning zamonaviy ijrochiligiga qiziqishlarini hisobga olib, musiqa tinglash jarayonida shu uslubda ijro etilgan mumtoz milliy musiqa namunalari bilan foydalanish orqali ham dars samaradorligini ma'lum darajada oshirishga erishish mumkin.

Xullas, musiqa maktabida og`zaki an`anadagi kasbiy /ustozona/ janrlarni o`rganish uchun barcha imkoniyatlar yaratilayapti, o`quvchilar barcha musiqa namunalari bilan bir qatorda an`anaviy mumtoz musiqa namunalari bilan tanishib, ularni o`rganib, o`zlashtirib borsalar, ma`naviy kamolotga yetadilar, deb o`ylaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Maktabda musiqa tarbiyasi metodikasidan lektsiyalar kursi (tezislar) Tuzuvchi: D.Omonullayev, Toshkent. 1990.
2. Buxoro shashmaqomi va an`anaviy musiqa. Maqola muallifi O'lmas Rasulov. Ta'lim islohoti va uni takomillashtirishning ayrim muammolari (ilmiy to'plam) da 228-231 betlar. Toshkent, Ma'naviyat. 1999.
3. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. Toshkent., 1993.
4. M.M.Xayrullayev., Forobiy va uning falsafiy risolalari., T.,1963.
5. Yu. Rajabiy. Musiqa merosimizga bir mazar. Toshkent, 1978.
6. H.Nurmatov, N.Yo'ldosheva. O'zbek xalq musiqa ijodi. Toshkent, 2007.

TEMURIYLAR DAVRIDA BUNYODKORLIK ISHLARI

Abdig'apparov Sayfiddin Mamatmo'min o'g'li

Xo'jaqulov Asilbek Nizomjon o'g'li

Denov tadbirkorlik va pedagogika institutining talabalari

Annotatsiya: *Maqolaning mazmuni XIV-XV asrlarda Movarounnahr va Xurosonda hukmronlik qilgan Amir Temur davrida amalga oshirilgan obodonchilik va bunyodkorlikning rivojlanishiga qaratilgan. Chunki aynan shu davr Sharqdagi "Uchinchi Renessans"ni boshlab bergan hisoblanadi.*

Kalit so'zlar: *temuriylar, Markaziy Osiyo, «Qubbat ul-ilm val-adab», Go'ri Amir, Gavharshodbegim, Oqsaroy, Bo'stonsaroy.*

Amir Temur va uning avlodlari hukm surgan tarixiy davrni nazardan o'tkazar ekanmiz, bunda ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyotning yuksak marralari sari ko'tarilgan Movarounnahr va Xurosonning butun yorqin manzarasi ko'z o'ngimizda namoyon bo'ladi. Markaziy Osiyo xalqlari sivilizatsiyasi va madaniyati ravnaqining yuqori cho'qqisi hisoblangan Temuriylar davri nafaqat shu mintaqa doirasida, balki umumjahon miqyosida ham o'ziga xos yuksak bosqich bo'ldi. Uning qudratli akssadosi asrlar osha avlodlar qalbi va tafakkurini hamon nurlantirib kelmoqda. Ona tariximizning mana shu muhim bosqichida xalq dahosi, qudrati bilan betimsol moddiy va ma'naviy madaniyat namunalari, mislsiz osori atiqalari monumental me'moriy obidalar bunyod etildi. Ilm-fan yuksaldi. Bunday yuksalish Amir Temur va uning avlodlarining ilm-fan, ma'rifat ravnaqiga alohida rag'bat, katta sa'y-harakat bog'laganliklari natijasi bo'ldi. Xususan, Amir Temur siymosiga to'xtaladigan bo'lsak, uning o'zi yuksak ma'rifatparvar hukmdor sifatida xalq ichidan chiqqan qanchadan-qancha noyob iste'dodlar, ilmu urfon va din ahllari, me'moru hunarmandlarni parvarishlab o'stirish barobarida mamlakat obodonligi, ravnaqi uchun ham doimiy harakatda, izlanishda bo'ldi. Sohibqironning bunyodkorlik sohasidagi tarixiy xizmatlari beqiyosdir. Tarix bu ko'hna dunyoda o'tgan ko'p jahongirlarni biladi. Ularning aksariyati faqat buzgan. Amir Temurning ulardan farqi shundaki, u umr buyi bunyodkorlik bilan mashg'ul bo'lgan. Uning «Qay bir joydan bir g'isht olsam, o'rniga o'n g'isht qo'ydim, bir daraxt kestirsam, o'rniga o'nta ko'chat ektirdim», degan so'zlari buning yorqin isbotidir. Amir Temurga har bir zafarli voqea va sevinchli hodisani muhtasham me'morlik obidasi barpo etish bilan nishonlash odat bo'lgan. Shu maqsadda Hindiston, Sheroz, Isfahon va Damashqning mashhur usta-hunarmandlari mamlakatda hashamdor imoratu inshootlar bino qilganlar. Amir Temur zabt etgan mamlakatlarning bir qator shaharlari (Bag'dod, Darband, Baylaqon)ni qayta tikladi. Amir Temur Tabrizda masjid, Sherozda saroy, Bag'dodda Madrasa, Turkistonda mashhur shayx Ahmad Yassaviy qabri ustiga maqbara qurdirgan bo'lsa-da, lekin asosiy e'tiborini ona shahri Kesh va poytaxti Samarqandga qaratdi. Keshda otasining qabri ustiga

maqbara, o'g'li Jahongirga maqbara bilan masjid qurdirdi. Amir Temur hukmronligining ilk davrida Kesh shahrini poytaxtga aylantirish niyatida bo'lib, uning obodonchiligiga katta ahamiyat berdi, bu yerda mashhur Oqsaroy qad ko'tardi. Amir Temur Keshni Movarounnahrning madaniy markaziga aylantirishga harakat qildi. Shu boisdan bu shahar «Qubbat ul-ilm val-adab» unvoniga ega bo'ldi. Saltanat poytaxti Samarqand Amir Temur davrida ayniqsa gullab-yashnadi. Shaharda Isfahon, Sheroz, Halab, Xorazm, Buxoro, Qarshi va Kesh shaharlarining me'moru binokorlari qo'li bilan saroylar, masjidlar, madrasalar, maqbaralar quriladi. Shahar tashqarisida esa bog'-rog'lar va bo'stonlar barpo etiladi. Xususan Shohizinda me'moriy majmuasiga mansub Shodimulk og'o maqbarasi, Shirinbeka og'o maqbarasi va boshqalar quriladi. Sohibqiron Amir Temur Movarounnahrdagi mo'g'ul bosqinchilarining 150 yillik hukmronligiga barham berib, o'z zamonasining kuch-qudratda tengsiz markazlashgan saltanatiga asos solgan. Amir Temur o'zining 35 yillik hukmronligi davrida Hindiston hamda Xitoydan Qora dengizga qadar va Orol dengizidan Fors qo'ltig'iga qadar g'oyat katta hududni o'z ichiga olgan ulkan bir saltanatni vujudga keltirgan. Bundan tashqari, yana u Osiyoning janubiy-g'arbiy tomonlari, Kichik Osiyo, Suriya, Misr va shimoliy-g'arbda Quyi Volga, Don bo'ylari, shimoliy-sharqda Balxash ko'li va Ili daryosi bo'ylari hamda janubiy-sharqda Shimoliy Hindistongacha bo'lgan hududlarni o'ziga bo'ysundirishga muvaffaq bo'ldi. Temur zamonasining buyuk saltanatini barpo qilgan bo'lsa-da, ammo u umrining oxirigacha o'zini bu davlatning «qonuniy» xoni deb e'lon qila olmagan. Chunki, u nasl-nasabi jihatidan bevosita chingiziylar sulolasiga mansub emas edi. Shuning uchun ham chingiziylar tomonidan belgilangan an'anaga ko'ra, Temur avval o'z huzurida Movarounnahrning Chingizxon avlodidan bo'lgan o'ttizinchi xoni Suyurg'atmishni (1370-1388) uning vafotidan keyin esa Suyurg'atmishning o'g'li Sulton Mahmudxonni (1388-1402) rasmiy xon qilib ko'tarib, hatto umrining oxirigacha ularning nomidan yorliqlar chiqartirgan, pullar zarb ettirgandi. Ammo har ikki xon ham nomigagina «xon» bo'lib, davlatning siyosiy hayotiga va Temur bergan farmoyishlarga mutlaqo aralashmasdilar. Shunga qaramasdan, Temur mamlakatda o'zining bevosita hukmronligiga qonuniy tus berish va uni mustahkamlab olish maqsadida chingiziylar avlodidan bo'lgan Qozonxonning qizi Saroy Mulkxonimga uylandi. 1370 yilda Saroy Mulkxonim bilan bo'lgan nikoh tufayli Temur o'zining amirlik darajasiga «ko'ragon», ya'ni «xonning kuyovi» unvonini qo'shib oldi va rasmiy hujjatlarda «Amir Temur ko'ragoniy» nomi bilan yuritilishiga musharraf bo'ldi. Shaharda Bibixonim jome masjidi, Amir Temurning qarorgohi Ko'ksaroy va Bo'stonsaroylar qad ko'taradi. Umuman olganda Samarqand shahri Amir Temur davrida o'zining qadimgi o'rni Afrosiyobdan birmuncha janubroqda butunlay yangidan qurildi. Shahar tevaragi mustahkam qal'a devori bilan o'ralib, Ohanin, Shayxzoda, Chorsu, Korizgoh, So'zangaron va Feruza kabi nomlar bilan ataluvchi 6 ta darvoza o'rnatildi. Movarounnahrning dehqonchilik vohalarida, xususan Zarafshon vodiysida o'nlab sug'orish tarmoqlari chiqarilib, dehqonchilik maydonlari kengaytirildi. Yangi qishloqlar barpo etildi. Ibn

Arabshohning yozishicha, Amir Temur Samarqand atrofida qad ko'targan bir qancha yangi qishloqlarni Sharqning mashhur shaharlari Dimishq (Damashq), Misr, Bag'dod, Sultoniya va Sheroz nomlari bilan atadi. Amir Temurning fikricha, Samarqand kattaligi, go'zalligi hamda tevarak-atrofining obod etilganligi jihatidan dunyodagi eng yirik shaharlardan ham ustunroq turmog'i lozim edi. Hofizi Abro'ning yozishicha, Amir Temur turk, arab va eronliklar tarixini chuqur bilgan. U davlat ahamiyatiga ega bo'lgan har bir masalani hal etishda, shu sohaning bilimdonlari va ulamolari bilan maslahatlashardi.

Xulosa: Odatda u tibbiyot, riyoziyot, falakiyot, tarix, adabiyot, tilshunoslik ilmi namoyandalari, shuningdek ilohiyot va din sohasidagi mashhur ulamolar bilan suhbatlar o'tkazardi. Amir Temur saroyida ulamolardan mavlono Abdujabbor Xorazmiy, mavlono Shamsuddin Munshiy, mavlono Abdullo Lison, mavlono Bahruddin Ahmad, mavlono Nu'monuddin Xorazmiy, Xo'ja Afzal, mavlono Alouddin Koshiy, Jalol Xokiy va boshqalar xizmat qilardi. Alisher Navoiyga Amir Temurning ilm va ma'naviyat aqliga ko'rsatgan g'amxo'rliqi juda yoqar edi. Bu haqda Navoiy shunday degandi: «Agar Temur qayerda fan, madaniyat va san'at ahlini uchratsa, ularni o'z homiyligiga olar, ularga izzat-ikrom ko'rsatar, ularning tarbiyasiga ahamiyat berar hamda bu zotlardan o'z oliy majlisida nadim (maslahatchi) sifatida va boshqa lavozimlardan foydalanardi». Ulug' ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan moddiy va ma'naviy madaniyatning yuksak namunalari, dur-u javohirlari mana necha asrlardirki, jahon ahlini hayratga solib, minnatdor avlodlar ardog'ida e'zozlanib kelmoqda

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Temur tuzuklari [fors tilidan Alixon Sog'uniy va Habibullo Karomatov tarjimasini], T., 1991,
2. Temur tuzuklari [fors tilidan Alixon Sog'uniy va Habibullo Karomatov tarjimasini], T., 1991
3. Ahmedov B., Tarixdan saboqlar, Toshkent "O'qituvchi" 1994,
4. Temur tuzuklari [fors tilidan Alixon Sog'uniy va Habibullo Karomatov tarjimasini], T., 1991,
5. Ahmedov B., Tarixdan saboqlar, Toshkent "O'qituvchi", 1994,
6. Ahmedov B., Tarixdan saboqlar, Toshkent "O'qituvchi", 1994,

BUYUK IPAK YO'LI

Xatamov Avazbek Sobir o'g'li
To'rayev O'lmasbek Safarali o'g'li
Boboyev Ali O'tkir o'g'li

Denov tadbirkorlik va pedagogika institutining talabalari

Annotatsiya: Agar geografik xaritaga e'tibor beradigan bo'lsak, O'rta Osiyoni qadimgi sivilizatsiyalar o'zaro aloqalar tizimining markazida joylashganligini kuzatishimiz mumkin. Aynan mana shunday geografik joylashuv tufayli qadimgi O'rta Osiyoda muhim etnik jarayonlar (hindevrova, hind-eroniy, turklarning ko'chishi, ko'chmanchilar migratsiyasi) bo'lib o'tishiga, madaniyatlarning o'zaro ta'sir doirasi faollashuviga keng imkoniyatlar yaratildi. Buyuk Ipak yo'li bo'ylab keng miqyosdagi savdo-sotiq jarayonlari bo'lib o'tdi, diplomatik shartnomalar hamda harbiy ittifoqlar tuzildi.

Kalit so'zlar: Kalitso'zlar:Ipak,Buyuk, Xan, Chjan Syan, Dovon, Xitoy, Rixtgofen, tranzit, U-Di, Tangiy Ganfu, Kurona, xunlar, Qang'kiya, gazlama, Sian, Zarias, O'rtaOsiyo, Jahon savdo yo'li.

BUYUK IPAK YO'LI — qadimda va o'rta asrlarda Sharq va G'arb mamlakatlarini ilk bor o'zaro bog'lagan qit'alararo karvon yo'li (mil. av. 2-a.— mil. 15-a.).[1: 814-b.] Buyk ipak yo'li atamasi ushbu yo'ldan tashilgan qimmatbaho tovar — Xitoy ipagi bilan bog'liq.[1: 814-b.] G'arb mamlakatlari uzoq vaqtgacha ipakchilik sir-asrorlaridan bexabar bo'lishgan. Tadqiqotchilaming fikrlariga qaraganda, mil. avv. III asrning oxiri-II asrlarda xalqaro ahamiyatga va aniq yo'nalishga ega bo'lgan savdo tranzit yo'li shakllana boshlaydi. Bu yo' l XIX asrning ikkinchi yarmida (1877) nemis olimi Ferdinand Paul Vilgelm Rixtgofen tomonidan dastlabki marta —Ipak yo'li" degan nom oldi va keyinchalik butun dunyo tadqiqotchilari tomonidan —Buyuk ipak yo'lill deb e'tirof etildi.[2:96-b.]Ushbu yo'lning vujudga kelishi Xan imperiyasi elchisi Chjan Syan sababchidir.Chjan Syan – xitoylik diplomat va sayyoh bo'lib, Xitoy uchun uzoq davrlar davomida yopiq bo'lgan O'rta Osiyoga birinch marta borib,ushbu mintaqadagi yo'llar, mamlakatlar va xalqlar haqida ma'lumot to'plab kelgan birinchi davlat elchisidir[3: 146-b.].Manbalarda keltirilishicha mil.avv.140-yilda Xan sulolasi taxtiga Lyu Che[mil.avv.156-87]o'tiradi shu munosabat bilan unga,xitoyliklar ananasiga ko'ra U-Di [jangovor xoqon]deb nom beriladi[4: 17-bob.54-b.].Azaliy dushmanlari xunnlarga qarshi ittifoqchi topish uchun elchi Chjan Syanni mil.avv.138-yil asli kelib chiqishi xunnlardan bo'lgan,serg'ayrat tarjimon Tangiy Ganfu xamrohligida sharqqa jo'natadi.Ammo ular ko'p yurmasdan Kurona mamlakatida xunlar qo'lga tushib qoladi.[4: 17-bob,54-b.].Oradan 10 yil o'tgandan so'ng u yerdan qochib,Farg'onaga yetib boradi.Chjan Syanning shaxssan o'zi Farg'ona, Da-Yueji, Baqtriya, Qang'kiya kabi davlatlarga borgan.[5: 67-bob.67-75-

b.] Ularning atrofidagi 5-6 davlat haqida boshqalar orqali surishtirib bilib, ularning hududi, boyligi va iqtisodiy ahvoli to'g'risida o'z hukmdori U-Di ga axborot bergan.[5: 67- bob.67-75-b.]Elchi Chjan Syanning bosgan qadami va yurgan yo'li orqali keyinchalik "Buyuk ipak yo'li"nomini olgan savdo yo'li vujudga keldi. Xitoy manbalarining ma'lumot berishicha, bu davrda Davan davlatida 70 dan ortiq shaharlar mavjud bo'lib, ular Buyuk Ipak yo'li yo'nalishlarida joylashgan edi, ular bilan mahalliy ahamiyatga molik yo'llar orqali bog'langan edi. Bu shaharlar Buyuk Ipak yo'li shakllangan dastlabki davrlardan boshlab Farg'ona vodiysining muhim iqtisodiy va madaniy markazlari, ayrimlari (Ershi, Sho'rabashat) esa siyosiy-ma'muriy markazlar sifatida mintaqaning ichki va tashqi aloqalarida faol ishtirok etib kelgan.[9]. Buyuk Ipak yo'lining Farg'ona vodiysi shaharlari orqali o'tgan asosiy yo'nalishlari Asht dashtlari orqali Xo'jandga ,Eski Chotqol tog'laridagi Qamchiq va Rezak dovonlari orqali Choch vohasiga olib kelgan. Bu yo'llar Ohangaron va Chirchiq daryosi vodiylaridagi shaharlar va makonlar orqali Sirdaryodagi muhim kechuvlar tomonga yo'nalgan. Tadqiqotchilarning fikrlariga ko'ra, mil.avv. III—II asrlarda Toshkent vohasida keyingi davrlar uchun ham katta ahamiyatga ega bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar bo'lib o'tadi va bu jarayonda aloqa yo'llarining ahamiyati ulkan bo'ldi. Bu holat birinchi galda, vohaning qudrati Qang' davlati shakllangan hudud sifatidagi o'rni bilan hamda qadimgi shaharlarning paydo bo'lishi va ularning ijtimoiy-iqtisodiy, ma'muriy-siyosiy ahamiyati oshib borishi bilan izohlanadi.[10: 54-b.] Toshkent vohasidagi qadimgi shaharlarning Sirdaryoning o'ng qirg'oq hududlarida, Ohangaron va Chirchiqning quyi oqimlarida O'z navbatida O'rta Osiyoning bu ikki tarixiy-madaniy viloyatlari o'rtasidagi qizg'in iqtisodiy-madaniy munosabatlar xamda vohani Sug'diyona bilan bog'lovchi aloqa yo'llari jadal faoliyat ko'rsatganligi ta'kidlanadi.[11: 122- b.] Ustrushona va Toshkent vohasidan Zomin va Jizzax orqali kelgan savdo yo'li Sug'diyonaning poytaxti Afrosiyob (Samarqand)ga olib kelgan. Bu shaharning o'sha davr O'rta Osiyoning ichki va tashqi iqtisodiy va madaniy aloqalarida muhim o'rin tutgan yirik savdo yo'llari chorraxasida joylashganligini alohida ta'kidlash lozimdir. Afrosiyobdan Amudaryo kechuvlariga tomon ketuvchi yo'llar bu davrda Janubiy So'g'd, hozirgi Qashqadaryo viloyati hududlari orqali o'tgan. Kesh (Uzunqir), Nikshapa (Yerqo'rg'on), Naxshab kabi yirik shaharlar vohaning ichki va tashqi iqtisodiy-madaniy aloqalarida muhim ahamiyatga ega bo'lgan.[12: 512-b.] Sug'diyonadagi yo'llar Buyuk Ipak yo'li shakllanib, mintaqaning tashqi iqtisodiy aloqalari rivojlanib borishiga mos ravishda kengayib boradi. Samarqanddan quyi Qashqadaryo vohasi orqali Amudaryoning o'rta oqimidagi kechuvlarga olib chiquvchi yo'llar Sug'diyonaning mintaqaviy ahamiyatga ega karvon yo'llari edi. IIk o'rta asrlarda so'g'dlar, rivojlangan o'rta asrlarda Movarounnahr va xorazmliklar, so'nggi o'rta asrlarda buxoroliklar va xivaliklar xalqaro aloqalarda katta o'rin tutib, turli hududlar xalqlarini o'zaro bog'lashda asosiy vositachi bo'lgan edilar.[16] Milodning III asrning ikkinchi yarmi - IV asrda O'rta Osiyoning o'troq dehqonchilik vohalariga ko'chmanchi xalqlar - kidariylar, xioniylar va eftaliylar bostirib kiradilar. Buning

natijasida ko'chmanchi va o'troq xalqlar o'rtasida qonli urushlar boshlanib etnik hududlar o'zgaradi, eski sulolalar inqirozga uchrab yangilari paydo bo'ladi, madaniyatlar o'zgarib, yangi ijtimoiy-iqtisodiy tuzum paydo bo'ladi. Yuzaga kelgan vaziyat, geosiyosiy o'zgarishlar Buyuk Ipak yo'lidagi savdo jarayonlariga, G'arb va Yaqin hamda Uzoq Sharq mamlakatlari o'rtasidagi madaniy va diplomatik munosabatlarga o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmadi. O'z ahamiyatini yo'qota boshlagan yo'llar o'rniga mavjud ijtimoiy-siyosiy vaziyatga bog'liq holda xalqaro tranzit aloqa yo'llarining yangi tarmoqlari vujudga kela boshlaydi. Ma'lumki, XV asrning oxirlarida yuz bergan buyuk geografik kashfiyotlar natijasida xalqaro dengiz yo'llarining ochilishi tufayli Yevropa va Osiyo davlatlarining ko'pchiligi hayotida, xalqaro aloqalar va savdo yo'llari tizimida keskin o'zgarishlar ro'y bera boshladi.

XULOSA Xulosa qilib, shuni aytishimiz mumkinki, Mil. avv.1 ming yillikning oxiri-milodiy I ming yillikning boshlariga kelib Tinch okeanidan Atlantika okeaniga qadar cho'zilgan ulkan geografik hudud madaniyati yuksak rivojlangan sivilizatsiyalarning yagona tizimiga birlashadi. Bu hududda joylashgan davlatlar Xitoydagi Xan saltanati, Kushon podsholigi, Qang' davlati, Parfiya davlati, Rim saltanatining chegaralari bir-biriga tutash edi. Ushbu zabardast saltanatlar va sivilizatsiyalar markazlari insoniyat tarixidan birinchi bo'lib —Buyuk ipak yo'l deb nomlanuvchi bir yo'l bilan bog'landilar. Umumiy uzunligi 12 ming km bolib, Xitoydan O'rta Yer dengizining shimoliy qirg'oqlariga qadar cho'zilgan bu yo'l orqali ko'pgina xalqlar va elatlar turli tomonlama munosabatlar o'rnatdilar. Podsholarning o'zaro elchilar yuborishlari, bir-birlariga har xil sovg'alar in'om etishlari an'anaga aylandi. Sharq bilan G'arb madaniyatining bir-biriga ta'siri kuchaydi. O'sha davrdagi ko'plab madaniy o'xshashliklar ham shu tufayli yuzaga keldi. Buyuk ipak yo'li orqali nafaqat savdo karvonlari, balki xalqlarning erishgan madaniy yutuqlari, ma'naviy qadriyatlari, diniy g'oyalari ham jahonga tarqalib borar edi. Buddizm Kushan davlatidagi boshqa dinlar bilan birga hukm surgan bo'lib, bu yerdan to Xitoygacha tarqalgan. Eramizning birinchi asrlarida Kichik Osiyodan bu yerga xristianlik dini kelib yetgan. Arab xalifaligining qattiqqo'l harbiy navkarlari VII asrda islom ta'limotini olib kelganlar. Savdogarlar va targ'ibotchilarning o'tkazgan yo'llari bo'ylab mo'g'ullar sahrolaridan Yevropa tekisliklarigacha Chingizxon sahroyi bosqinchilari quyundek o'tgan. Buyuk Ipak yo'lining qoq yuragi bo'lgan Samarqand shahridan o'rta asrlardagi Sharqning buyuk sarkardasi Amir Temur o'z yurishlarini boshlab, zafar quchar edi

REFEENCES :

- 1.O'zbekiston Milliy Enskklopediyasi I jild.Toshkent 2005.814-bet
- 2.O'zbekiston tarixi-R.H.Murtozoyev.Toshkent.2005.96-101-bet.
- 3.Buyuk ipak yo'li-A.Xo'jayev.Toshkent.2007/146-bet
- 4.Shi-Ji{Tarixiy xotiralar}-Sima Yan,Sima Chyan.130 bob/17-bob;54-bet.
- 5.Xan-Shu{Xan sulolasi tarixi}-Ban Gu.200 bob/67-bob;67-75-bet.
- 6.Qadimgidavr{Iqism}B.Boymenov,U.Shoimov,F.Bozorboyev,F.Sultonov,Sh.Yodgorov,Toshkent/2006. 149-150-bet.
- 7.Vatan tarixi-R.Shamsuddinov,Sh.Karimov,Toshkent;2010./89-90-bet.
8. O'zbekiston tarixi:I jild{eng qadimgi davr-XIX asr o'rtalarigacha} Toshkent:20014./163-bet.
- 9.Tangday sichou chjilu yuy Chjungya lishi dili yanjyu{Qadimgi ipak yo'li va Markaziy Osiyo Tarixiy geografiyasiga doir tadqiqotlar}-Shyuy Shyuan .Sian:2000./129-bet
- 10.Buyukipakyo'lidagiFarg'onashaharlariB.X.Matboboyev,R.T.Shamsuddinov,A.Mamajonov.Andijon:Meros:1994./54-bet
- 11.Farg'ona tarixiga oid ma'lumotlar-A.Xo'jayev.;Farg'ona:2013./122-bet
- 12.O'zbekistonda moziy e'tiqodlari tarixi-X.Karomatov;Toshkent.2008./512-bet.
- 13.Sog'diyona tarixidan lavxalar-B.Eshov.Toshkent.2002.
- 14.O'zbekistonning tarixiy o'tmishi-E.Rtveladze.Toshkent/2009.
- 15.Markaziy Osiyoning qadimgi yo'llari:shakllanishi va rivojlanishi bosqichlariO'.Mavlonov.Toshkent./ Akademiya.2008.
- 16.Velikiy shelkoviy put{Buyuk ipak yo'li}-E.Rtveladze.Toshkent/Sharq.1999

O'RTA OSIYO DAVLATLARINING XVIII-XIX ASR BIRINCHI YARMIDAGI TARIXIY GEOGRAFIYASI VA KARTOGRAFIK TADQIQOTLAR

Xatamov Avazbek Sobir o'g'li
To'rayev O'lmasbek Safarali o'g'li
Tursunmurodov Otabek Shuxrat o'g'li

Denov tadbirkorlik va pedagogika institutining talabalari

Annotatsiya: *XIX asrga kelib. Buxoro amirligining hududi qariyb 200 ming kv. km.ni tashkil etdi. Uning chegaralari janubda Amudaryoning soT qirg'og'idan boshlanib, Sirdaryogacha cho'zilib, qozoq juzlari bilan chegaradosh edi. Amirlik sharqda Pomir tog'laridan, g'arbda Xiva xonligi chegaralarigacha boTgan hududni egallab turardi. Buxoro va Samarqand kabi yirik shaharlar joylashgan Zarafshon vodiysi amirlikning markaziy qismi hisoblanardi.*

Kalit so'zlar: *O'rta Osiyo, geografik chegara, tarixiy geografiya, Shimoliy Baqtriya, Katta Xorazm, Marg'iyona, So'g'diyona.*

Hozirgi kunda aynan O'rta Osiyo hududida joylashgan tarixiy viloyatlar, davlatlar, arxeologik komplekslar va arxeologik madaniy yodgorliklarning joylashgan o'rnini, chegaralarini o'rganilish masalasi dolzarb muammo bo'lib kelmoqda. O'rta Osiyo sivilizatsiya o'chog'i hisoblangan Baqtriya hududida davlatlarning paydo bo'la boshlashi, uning hududiy chegaralari, So'g'diyonaning tarixiy geografik chegaralarini aniqlash, Katta Xorazm masalalari va Xorazm sivilizatsiyasining ilk kurtaklari qachondan paydo bo'lganligi hozirgi kunda aniq ravshan dalillar asnosida hech bir olim, arxeolog aniq fikrlarni ayta olmayapti. Arxeologik tadqiqotlardan ma'lum bo'ldiki, Baqtriya, Marg'iyona va So'g'diyonaning qadimgi tarixiy geografiyasi, madaniyati o'zining xilma-xilligi, har bir davr va ularning tarixiy ketma-ketlikda intensive rivoj topgan bosqichlari bilan insoniyat tarixida katta madaniy meros qoldirgan. Biroq bu juda boy va rang-barang madaniy meros hozirgacha umumlashtirilmagan va aniq bir ilmiy tizimga solib, maxsus tadqiqot ob'ekti sifatida tadqiq qilinmagan. XX asrning 50-yillaridan esa M.M.Dyakonov tomonidan «Shimoliy Baqtriya» tushunchasini ilmiy muomalaga kiritildi[1]. Bu hududga shimoldan Hisor tog' tizmalari, g'arbdan Ko'hitang tizmasi, janubdan Amudaryo, sharqdan Pomir tizmalarigacha bo'lgan keng hududlarni qamrab olgan. Bu atamadan kelib chiqib, shimoli-sharqiy va Shimoli-G'arbiy Baqtriya atamalari ham paydo bo'ldi. ShimoliG'arbiy Baqtriya atamasining kelib chikishi Shimoliy Baqtriya hududiy chegaralarining ancha kengayishiga va uning tarkibiga Turkmanistonning Kelifdan Kerkigacha bo'lgan janubi-sharqiy hududi va hatto Chorjuyning ham kiritilishiga sabab bo'ldi[2]. B.Ya.Staviskiy Baqtriyaning shimoliy chegaralari masalasining yechimiga arxeologiya va epigrafikaga oid yangi ma'lumotlarni keng jalb qildi hamda kushonlar davrida janubga va shimolga Amudaryodan boshlab Hisor tizmalariga qadar bo'lgan hudud etnik va madaniy

munosabatlarda yagona tarixiy-madaniy viloyatni o'zida aks ettirganligini ko'rsatib berdi. Amerikalik olim R.Frayning fikriga ko'ra, Baqtriya keng qamrovli viloyatning madaniy markazi bo'lib, uni shimoldan, sharqdan va janubdan tog'lar o'rab to'rgan, uning erlarini sug'oruvchi Amudaryo uni ikki qismga: janubiy, ya'ni Afg'on Turkistoniga va Shimoliy, o'ng qirg'oq, ya'ni Tojikistonga ajratib turgan. Bir qator olimlar bu fikrga qo'shilmaydilar. Ular antik davr manbalariga tayanib yuqorida ko'rsatilgan viloyat So'g'diyonaga qarashli bo'lgan va Baqtriyaning shimoliy chegarasi Amudaryo-Oks orqali o'tgan deb hisoblaydilar[3]. Har bir beklikni amir tomonidan tayinlab qo'yiladigan hokimlar beklar idora qilgan. Hokim quzurida yuzlab mahalliy ma'murlar xizmat qilgan. Manbalar, amiriikda mahalliy ma'muriar shtati 30 ming kishini tashkii etganligidan guvohiik beradi. Hokim va uning xizmatkorlariga maosh davlat xazinasidan berilmas edi, ular mahalliy aholidan olinadigan turli-tuman soliq va to'lovlar hisobiga tirikchilik qilishganlar. Xiva xonligi janubda Eron, sharqda Buxoro amirligi, g'arbda Kaspiy dengizi, shimolda qozoq juzlari bilan chegaradosh edi. Suvsiz va poyonsiz Qoraqum, Qizilqum sahrolari Xiva xonligini geografik jihatdan boshqa mamlakatlardan ajratib qo'ygan edi. Amudaryo sohillarida joylashgan Xiva, Urganch, Kat, Ko'qna Urganch, Xazorasp, Qo'ng'irot, Xo'jayli, Kurdar (hozirgi Chimboy) shaharlari xonlikning yirik shaharlari hisoblanar edi. O'rta Osiyoning eng boy savdo markazlaridan biri bo'Mgan Xiva shahri 1598-yildan boshlab xoniikning poytaxti bo'lgan. Shahar ikki qism -Ichan qal'a (shahaming ichki qismi) va Dishon qal'a (shaharning tashqi qismi)dan iborat edi. Ichan qafada xon qarorgohi va harami, 17 ta masjid, 22 ta madrasa, karvonsaroy va bozor joylashgan. 1842-yilda Dishan qal'a qurilib, devor bilan o'rab olingan. Dishan qal'ada hunannandlar, savdogarlar, mardikorlar, qisman dehqonlar istiqomat qilganlar. Ma'muriy-hududiy jihatdan Xiva xonligi Xazorasp, Gurlan, Xonqa, Ko'hna-Urganch, Qo'shko'prik, Pitnak, G'azovot, Kat, Shohabbos, Shovot, Toshhovuz, Ambor-manoq, Urganch, Xo'jayli, Shumanay, Qo'ng'irot kabi beklik va viloyatlarga bo'lingan. Xonlik tarkibida Beshariq va Qiyotqo'ng'irot noibliklari ham bo'Mgan. Bekliklami xon tomonidan tayinlangan beklar, noibliklarni noiblar idora qilgan. Bek va noiblar quzurida ularga xizmat qiluvchi ko'pdan-ko'p mansabdorlar bo'lgan. XIX asming birinchi yarmida Qo'qon xonligi hududiy jihatdan O'rta Osiyodagi yirik davlat edi. Xonlik sharqda Sharqiy Turkiston, g'arbda Buxoro amirligi va Xiva xonligi bilan chegaradosh bo'lgan. Qo'qon xonligi bilan Rossiya o'rtasida Mirzacho'l va Muyunqul cho'llari yastanib yotgan. Xonlikning janubiy chegaralari Qorategin, Ko'lob, Darvoz, Sho'g'non singari tog'li o'lkalarni o'z ichiga olib, bu hududlar uchun Buxoro amirligi bilan tez-tez to'qnashuvlar bo'Tib turgan. Qo'qon xonligining hududi Buxoro amirligi va Xiva xonligidan farqli o'laroq, sersuv daryolar, soTnn vodiylar, serhosil yerlarga boy edi. Xonlikning markaziy shaharlari Qo'qon, Marg'ilon, O'zgan, Andijon, Namangan Farg'ona vodiysida joylashgan edi. Toshkent, Chimkent, Turkiston, Avliyoota, Pishpak, Suzak, Oqmachit kabi yirik shaharlar ham Qo'qon xonligi tasarrufida edi. Qo'qon xonligi 15 beklik, ya'ni harbiy okrugga bo'Tingan bo'Tib, ularning yarmidan ko'piga xonning o'g'illari yoki yaqin

qarindoshlari hokimlik qilganlar. Hokimlar o'z hududidagi harbiy kuchlar qo'mondoni hamda fuqaro boshqaruvining boshlig'i edi. Ular o'z tasarrufidagi qo'shinni o'zlari moddiy jihatdan ta'minlaganlar. Hokimlar harbiy yurishlar oldidan xonning birinchi da'vati bilan o'z qo'shinlari bilan belgilangan joyga etib kelishlari shart edi. Qo'qon xoni zaruriyat tug'ilganda oziq-ovqat ortilgan 12 ming aravaga ega bo'lgan 60 mingtacha sipohni yig'a olardi. XLX asrning birinchi yarmida Buxoro amirligida 2 million atrofida aholi istiqomat qilardi. Aholining katta qismi amirlikning sersuv vohalarida yashar, jazirama issiq, suvsizlik hukmronlik qiluvchi Qizilqum sahrolari va cho'lari deyarli kimsasiz yastanib yotardi. Zarafshon vodiysida 300-350 ming, Qashqadaryo vohasida 500 ming, Surxondaryo vohasida 200 ming, Sharqiy Buxoroda 500 ming aholi yashar edi. Amirlikning yirik shaharlari - Buxoroda 60 ming, Samarqandda 50 mingga yaqin kishi istiqomat qilardi. Aholi etnik jihatdan ko'pgina qavm-urug'lardan iborat bo'lib, ularning qariyb 57 foizi o'zbeklar edi. O'zbeklar bir qancha elatlardan tashkil topgan bo'lib, ular orasida mang'it, saroy, qo'ng'iroq, jabg'u, qarluq, qalmoq, nayman, qipchoq, ming, yuz qabilalari ko'pchilikni tashkil etardi. Ular asosan, Zarafshon, Qashqadaryo va Surxondaryo vohalaridagi shahar va qishloqlarda istiqomat qilardi. Qo'qon xonligida aholi nisbatan zich joylashgan bo'lib, unda taxminan 3 millioncha kishi istiqomat qilgan. Xonlikning poytaxti Qo'qonda 80 ming, Toshkent shahrida 60 ming aholi yashagan. Qo'qon xonligi aholisining ko'pchilik qismi o'zbeklar, shuningdek, tojiklar, qirg'izlar, qozoqlar, uyg'urlar, qoraqalpoqlardan iborat edi. Bular bilan yonma-yon yahudiylar, tatarlar, hindlar va boshqa elatlarning vakillari ham istiqomat qilganlar Xiva xonligida aholining ko'pchilik qismini o'zbeklar tashkil qilib, ulardan eng kuchli va ko'p sonlilari qo'ng'iroq, nayman, qiyot, uyg'ur, nukuz, qang'it, xitoy, qipchoq qabilalari edi. O'zbek qabilalari, asosan, Amudaryo tarmoq yoygan qismida, kanal bo'ylarida joylashgan. Aholining anchagina qismini (taxminan to'rtinchi birini) turkmanlar tashkil etgan. Turkmanlar qadimgi o'g'izlarning avlodlari bo'lib, forscha so'zlashuvchi mahalliy xalqlar va o'zbeklar bilan qorishib ketgan edi. Qoraqalpoqlar yashaydigan Amudaryoning quyi havzasi va Orol dengizining janubiy qirg'oqlari ham Xiva xonligi tasarrufida edi. Dehqonchilik, chorvachilik, baliqchilik, ovchilik qoraqalpoqlarning asosiy mashg'uloti edi. Buxoro amirligida aholining aksariyat qismi dehqonchilik chorvachilik bilan shug'ullangan. Sug'oriladigan yerlarda paxta, bu'doy, sholi, jo'xori ekilib, boq va poliz mahsulotlari ham yetishtirilgan. Chorvachilikda qo'ychilik, qorako'l yetishtirish; hunarmandchilikda gilamdo'zlik, o'ymakorlik, zardo'zlik, teginnonchilik, ko'nchilik, to'quvchilik, temirchilik, kulolchilik, beshikchilik, sandiqchilik, etikdo'zlik, moyjuvozlik, sovungarlik keng rivojlangan. Amirlikning iqtisodiy hayotida qoloqlik, turg'unlik hollari mavjud edi, aholining tunnushi past darajada edi. Yerga egalik shakli ming yillar davomida o'zgarib kelmoqda edi. Shuningdek, aholiga solinadigan soliq va jarimalar haddan tashqari ko'p edi. Aholining sotib olish qobiliyati pastligi hunarmandchilikning rivojlanishiga to'siq qilardi. Hunarmandlar o'zgina daromadga ham qanoat qilardi, ustaxonalarni kengaytirishga mablag' topolmasdi. Qo'qon xonligida 1803-yilda bunyod etilgan

Xon va Zarbak, 1819-yildagi Yangiariq kanallari vodiya sug'orish ishlarining unumini ancha oshirdi. Xiva xonligida Muhammad Rahimxon I hukmronligi davrida o'tkazilgan soliq islohoti, bojxonaning joriy etilishi, oltin pul chiqarilishi xo'jalik ishlariga o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatdi. O'z vaqtida yig'ib olingan soliqlar xonlik xazinasi, daromadini oshirdi. Xonlikda sun'iy sug'orish borasida oldingi asrlarga qaraganda ko'p ish qilingan. Xonliklarning savdo munosabatlarida hamon ayirboshlash usuli davom etardi. O'rta Osiyo jahon bozorida ajralib qolgan, bu yerda yagona ichki bozor ham tashkil topmagan edi.

XULOSA

XX asrning o'rtalaridan boshlab «Shimoliy Baqtriya» atamasi ilmiy muomalaga kiritilgan bo'lib, bu hudud shimoldan Hisor tog' tizimi, g'arbdan Kuhitang tizmasi, janubdan Amudaryo, sharqdan Pomir tog'lari bilan chegaralanuvchi qadimgi tarixiy-madaniy viloyatni o'z ichiga oladi. Ushbu masala yuzasidan tadqiqotchilar orasida ko'pgina bahslar bo'lib o'tganligiga qaramasdan, arxeologik ma'lumotlar natijalarini yozma manbalar bilan solishtirish natijasida masalaga ko'pgina aniqliklar kiritildi. Shimoliy Baqtriyadan o'tuvchi qadimgi yo'llar va ularning yo'nalishlari (Balxdan Amudaryo kechuvi orqali Temir darvozadan G'uzor yo'nalishi bilan Keshgacha), viloyatlar va qal'alarning joylashuvi (Paretaka, Bubakena, Sizimitr, Gabaza, Branxiylar shahri va boshqalar) masalalari mumkin qadar o'z yechimini topdi deyish mumkin. Ushbu ma'lumotlarga asoslanadigan bo'lsak, mil.avv. IV asr o'rtalarida Amudaryo yuqori oqimining o'ng qirg'og'idagi yerlar - Surxon vohasi va qisman Janubiy Tojikiston yerlari Baqtriyaning tarkibiga kirgan. Ammo, o'sha davrda bu hududlar qanday umumiy nom bilan nomlanganligi hozircha ma'lum emas. Buning sababi esa bu davrga doir yozma manbalar yoqligida

ADABIYOTLAR VA MANBALAR:

1. Aminov O. XVI - XX asrlarda O'rta Osiyoning Rossiya bilan tarixiy va iqtisodiy aloqalari. -T., 1958.
2. Ziyayev H. Turkistonda Rossiya tajovuzi va hukmronligiga qarshi kurash (XVIII-XX asr boshlari). - T.: Sharq, 1998.
3. Yo'ldoshyev M. Xiva xonligida feodal yer egaligi va davlat tuzilishi. — T., 1959.
4. KopoiceneecKuu H.JI. K wcTOpwn pa3BHTW5i KapTorpa^wn h reorpa^miecKHx npejiCTaBJieHHH o TeppHTopHH Cpe^new Ashh h YsbeKHCTaHa b XVIII BeKe // AH CCCP. 1949, I.
5. JlymiH E.B. PlcTopnfl ysbeKHCTaHa b HCTOWHHKax. Hsbccthh nyTeinecTBeH-HHKOB, reorpa

TEMURIYLAR DAVRIDA IKKINCHI RENESSANS VUJUDGA KELISHIDA YARATILGAN SHART- SHAROITLAR

Usmonova Maxfirat Murodullo qizi

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi

Annontatsiya : *Amir Temur va Temuriylar davrida iqtisodiyot rivojlangani, ilm-fan, san'at-madaniyat gullab-yashnaganini bugungi sinchilar ham tasdiqlaydilar va bu davr chinakamiga insoniyat tamaddunidagi ikkinchi Renessans deb baholangan. O'shanda san'at va adabiyotda, xususan, me'morchilikda yetti yuz yildan keyin ham yetib bo'lmaydigan yutuqlar qo'lga kiritilgandi. Natija shunchalik betimsolki, sirini ochmagan, ya'ni hozirgi taraqqiyot bosqichida kashf qilina olmayotgan mo'jizalar (olaylik, buyoqlarning tarkibi) hamon mavjud. Ha, bu silsila bir shaxs faoliyatidan yuksalib, jahonshumul ko'lam kasb etdi.*

Kalit so'zlar : *"Ziji Ko'ragoniy" , Ibn Xaldun , Ibn Arabshoh , Samarqand , O'rta Osiyo, ikkinchi renessans, ilm fan*

Tarixdan ma'lumki O'rta Osiyo hududi qadimdan turli xil bosqinchilar uchun juda yaxshi makon bo'lib kelgan. Miloddan avvalgi VI-V asrlar Ahamoniylar, Mil. Avv. IV asr Aleksandr Makedonski, milodiy VII-VIII asrlarda arablar bosqini va XII-XIII asrlarda Mo'g'ullar bosqinlarini aytish mumkin. Har bir bosqinchilik yurishlari o'zining salbiy oqibatlarini qoldirdi. VII-VIII asrlarda arablar bosqini O'rta Osiyo hududiga o'zining salbiy jihatlari bilan birgalikda ijobiy tomonlarini ham ko'rsatdi. Arablar bosqinidan so'ng sharqda ilk uyg'onish davri aynan O'rta Osiyo hududida ro'y berdi. Bu davrda ko'plab buyuk zotlar allomalar yetishib chiqdiki ularning ma'naviy dunyosi hali hamon oramizda yashayotganligini xis etishimiz mumkin. Ikkinchi ana shunday uyg'onish davri ham aynan sharqda vujudga keldi bu Amir Temur va Temuriylar davriga to'g'ri keldi va bu davr tarixga ikkinchi uyg'onish davri bo'lib kirdi.[1]

Amir Temurning o'zi o'qimishliligi zukkoligi adabiyot va san'atga qiziqishi shuning bilan birgalikda o'z ona tilidan tashqari boshqa bir nechta tillarni ham yaxshi bilishi, shuning asosida turli xil davlatlardan olib kelingan olimu fuzalolar, allomalar bilan ko'plab suhbatlar uyushtirib turardi, keyinchalik Amir Temurning bunday olib borgan oqilona siyosati zamirida XIV-XV asrlarda sharq musulmon olamida IX- XII

asrdan so'ng yana bir uyg'onish davrini renessansni vujudga kelishida juda katta omil bo'lib xizmat qildi desak aslo mubolag'a bo'lmaydi. Amir Temur har bir sohaga alohida e'tibor qaratdi shu jumladan ta'lim, ilm-fan sohasiga asosiy e'tiborini qaratdi. Ayniqsa mo'g'ullardan so'ng ezilgan xalqning o'tmishini ajdodlarining qanday buyuk shaxslar ekanligini bilishi uchun tarix sohasini rivojlantirdi. Temurning o'zi ham tarixiy adabiyotlarni mutoala qilib borar edi. Bu haqda Amir Temur saroyida 12 yoshida keltirilgan tarixchilik bilan shug'ullangan Ibn Arabshoh o'zining Amir

Temur tarixi kitobida shunday keltiradi: "Temur tarix (kitob) lari, Xudoning rahmati va salomi bo'lg'ur anbiyolar «Qissalarni podshohlar siyratlari va o'tgan salafklar haqidagi hikoyalarni doimo-saafarda, ham xadarda ham o'qutib, qunt bilan tinglar edi».¹ Ko'rinib turibdiki Amir Temurning tarixga, o'tmishga, ajdodlari merosiga befarq qaramasligi uning ezilgan xalqni qaytadan ma'naviy jihatdan birlashtirishiga katta yordam berdi. Amir Temur davlatida ilm- fan bilan shug'ullanish uchun juda katta imkonoyatlar yaratishi bilan birgalikda olimlarni har jihatdan qo'llab quvvatlagan. Amir Temur yurishlari vaqtida qaysi davlatga bormasin birinchi navbatda ilm ahllarini, olimlarni va yozuvchilarni alohida e'tibor bilan ulug'lagan, izzat-ikrom ko'rsatib ularni o'z davlatiga olib kelgan va ilm bilan shug'ullanish uchun barcha sharoitlarni yaratib bergan. Shunday Amir Temurdan ro'shnolik ko'rgan o'zi sevgan ilmi bilan shug'ullanish imkoniyatiga ega bo'lgan o'z davrining buyuk shaxslaridan biri Ibn Xaldun: "Tangriga xamd bo'lsinki, qimmatimni biladigan, xizmatimni qadrlaydigan va hurmatimni o'rniga qo'yadigan kishini menga ato qildi" deb yozadi. Keyinchalik Ibn Xaldun Amir Temur bilan tanishgandan so'ng ungacha bo'lgan davrini besamar ketganligini anglaydi va afsus chekadi. Amir Temur olimlar bilan suhbat va bahslar uyushtirishni yaxshi ko'rgan, g'oliblarga qimmatbaho tuhfa bergan. Amir Temur o'qimishli, dono kishilar davrasini, ular bilan suhbat qilishni yoqtirgan, davlat ishlarini yo'lga qoyishda ular bilan maslahatlashib ish ko'rgan. Shuning uchun ham u o'zining "Tuzuklari"da qayd etilgan 12 toifa va tabaqaning ikkinchisiga aqlli kishilar va kengash sohiblarlarni kiritdi va ularni e'tiborli shaxslar deb bildi.[2]

Madrasalar, kutubxonalar, maktablar barpo etildi. Buning natijasi o'laroq, Temuriylar davrida ilm-fan ravnaq topib, bu jahon tarixida "ikkinchi renessans" nomi bilan tilga olindi. Tarixdan ma'lumki, qayerda tinchlik osoyishtalik va barqarorlik hukm sursa o'sha davlatda yuksalish jamiyat hayotida yangilanish ro'y beradi va davlat har tomonlama rivojlanadi. Amir temur davlatida shunday barqarorlik va tinchlik asosiysi ilm - fan bilan shug'ullanuvchilar uchun juda yaxshi sharoit yaratilgan edi. Qayerda tinchlik va qulay sharoit bo'lsa azaldan olimlar ilm ahli va hunarmandlar o'sha yerga talpinganlar. Amir Temur va Temuriylar davlatining poytaxti Samarqanda ko'plab ijodkor aholi yig'ilgan edi. Ularning orasida hunarmandlar, jahonning turli joylaridan olimu fuzalolar, muhandisalar va hunarmandalar, to'langan edilar. Tarixchi muarrir Hofiz Abro'ning yozishicha "...xazrat Amir Temurning humoyun va saodatli ayyomida Movarounnaxr er yuzi mamlakatlarning poytaxtiga aylandi. Jahonning turli joylaridan olimu fuzalolar, muxandislar va hunarmandlar bu erga oqib kelib, yashab ijod eta boshladi." Bunday yaratilgan shart sharoitlar natijasida XIV-XV asrlarda turkiy davlatlar tarixida ikkinchi maratoba uyg'onish davri yuzaga kelishida va uni keyinchalik kurtak yoyishiga bizgacha yetib kelgan juda katta ma'naviy olamni yaratilishiga imkon tug'dirdi.[3]

Umuman ilm-fan, madaniyat, ma'naviyat, san'at sohasiga homiyliigi g'amxo'rlik qilgani musatqillik davri adabiyotlarida alohida ta'kidlanadi, xususan "Amir Temur jahon tarixida" kitobida XIV-XV asrlardagi ikkinchi renessansni Amir Temurning

fidoyiligi bunyodkorligining natijasi ekanligi ta'kidlab o'tiladi. Temur va temuriylar davrida rivojlangan ayrim fanlar xususan matematika, geografiya, gemetriya, astronomiya, tarix, falsafa, tibbiyot va adabiyot sohalarida shunday ajiyib asarlar yaratildiki bu asarlar nafaqat sharq renessansi rivojida balki yevropada ham uyg'onish davrining vujudga kelishida va keyinchalik Evropa fan yaraqqiyotining rivojlanishiga katta ahamiyat kasb etdi. Amir Temurdan keyin uning bu ishlarini uning avlodlari nabiralari davom ettirdi. Amir Temurning sevimli nabiralaridan biri buyuk olim Mirzo Ulug'bek davrida ilm-fan, ma'naviyat, madaniyat va san'at bobosi davridagidek rivojlandi. Ulug'bekning Samarqanda qurdirgan observatoriyasida Astronomik jadval tuzdi u yerda olib borilgan astronomik kuzatishlar yordamida 1018 ta qo'zg'almas yulduzlarning joylashuvini aniqladi. Bu observatoriyada olib borilgan astronomik kuzatishlar va astronomik jadval XVII asrga kelib yevropada astronomiya sohasidagi yutuqlarga asosiy qo'llanmalardan biri bo'lib qoldi. Bundan tashqari Ulug'bekning astronomiya faniga doir "Ziji Ko'ragoniy" asarining yaratilishi astronomiya fani uchun katta kashfiyot bo'ldi. Ulug'bek bobosi kabi ilm-fan sohasiga ham homiylik qildi, uning o'zi qurdirgan madrasalardan " biriga ilm olish har bir musulmon yigit va qiz uchun farzdir" degan o'giti ilm ma'rifat uchun katta ahamiyat kasb etadi. Ulug'bekning o'zi ham adabiyot san'at sohasi bilan shug'ullanib turgan. Xususan Alisher Navoiy o'zining "Majolisun Nafosi" da Ulug'bek adiblarning homiysigina emas, balki sheryatning qadriga etuvchi edi, o'zi ham sher yozar edi, deb ko'rsatgan" Shundan ko'rinib turibdiki Ulug'bek har tomonlama ilm-fan, madaniyat va san'atning rivojla nishiga katta xissa qo'shgan.[4]

Temuriylar davrida bundan tashqari juda ko'plab olimlar, yozuvchilar, tarixchilar, mashoyiqlar, hunarmand ustalar, xattotlar yetishib chiqdiki ular ham ikkinchi uyg'onish davrining vujudga kelishi rivojlanishi va taraqqiy topishida alohida rol o'ynaganlar desak aslo mubolag'a bo'lmaydi. Xulosa qilib aytganda, Temuriylar davrida vujudga kelgan ikkinchi uyg'onish davri ilm-fani, ma'rifati, ma'naviyat va madaniyati jahon sivilizatsiyasi rivojiga ulkan hissa bo'lib qo'shildi. Bunda ulug' bobomiz, davlat arbobi, sarkarda sohibqiron Amir Temurning xizmatlari beqiyos va benazirdir. Buni hammamiz to'g'ri anglamog'imiz lozim, ul ulug' zot ila faxrlanishimiz barchamizning burchimizdir. Milliy mustaqillik tufayli jahon ma'naviyati va ma'rifati sahnida o'z o'rinlariga ega bo'lgan piru komil ajdodlarimizni va ular qoldirgan boy ma'naviy-ma'rifiy merosni teran anglash, o'rganish va ulug'lash imkoniyati yuzaga keldi. Muhtaram prezidentimiz Sh. M. Miromonovich ta'kidlab o'tgan yangi O'zbekiston va yangi renessans ostonasida ekanmiz ajdodlarimizning ikkinchi uyg'onish davrida amalga oshirgan ilm-fan sohasidagi islohotlarni chuqur o'rganmog'imiz va uni hayotga tadbiq etmog'imiz darkor bo'ladi. Ikinchidan, o'sha davrda yaratilgan ulkan ma'naviy olamni yoshlarimiz, jamiyatimiz ongiga singdirishimiz va renessans nima ekanligini va unga qanday o'z hissalarini qo'sha olishlarini uqtirish shuningdek qiziqtirish orqali yangi O'zbekistonni birgalikda qurishga da'vat etmog'imiz zarur bo'ladi. [5]

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :

1. Ibn Arabshoh. Amir Temur tarixi. 2-kitob.
2. Бурибой Ахмедов. Амир Темур сабоклари 2-Том. Гафур Гулом номидаги Адабийот ва санъат нашрийоти. Тошкент. 1999й.
3. K. Sulstonov. Amir Temur siyosiy, huquqiy, va ma'naviy - ma'rifiy qarashlarining milliy o'zlikni anglashdagi ahamiyati. Toshkent. " Ma'naviyat" 2019.
4. Amir Temur va Temuriylar davrida madaniyat va san'at. Toshkent. G'afur G'ulom nomidagi adbiyot va san'at nashriyoti. 1996-yil.
5. Амир Темур Жахон тарихида. Шарк нашрийоти. Тошкент. 1996.

“BUYUK IPAK YO’LI-MULOQAT YO’LI”

Abdullayev Afzalbek Otabek o’g’li
Tursunmurodov Otabek Shuxrat o’g’li
Jumayev Humoyiddin Shuxrat o’g’li

Denov tadbirkorlik va pedagogika insituti talabalari

Anotatsiya: *Ushbu maqolada Qadimgi davrlarda vujudga kelgan, Qadimgi Sharq va ‘arbni bog’lashga va G’arb va sharq o’rtasida savdo aloqalariga kata hissa qo’shgan”Buyuk ipak’yo’li haqida so’z boradi. Bu borada Buyuk ipak yo’lining kelib chiqishi haqida qsqacha ma’lumot berilib,”Buyuk ipak” yo’linig hozirgi zamondagi o’rni, Hozirgi zamon uchun Tarixiy axamiyati, tarixni o;rganishdagi rolihaqida fikr yuritiladi shuningdek “Buyuk ipak” yo’li doirasida amalga oshiriladigan Ishlarning axamiyati haqda va shu bilan birga “TRASEKA” loyxasning axamiyati va Islom Karimovning bu boradagi izoxlari haqida ma’lumot beriladi.*

Kalit so’zlar: *“TRASEKA”, “shoh yo’li”, “Lazurit yo’li”, Evropa –Kavkaz-Osiyo transport yo’lagi, Toshkent-Andijon-O’sh-Irkeshtom-Qashqar yo’li, “G’arbiy meridional yo’l”.*

Abstract: *This article talks about the Great Silk Road, which was created in ancient times, and which greatly contributed to the connection of the Ancient East and the West and trade relations between the West and the East. In this regard, brief information about the origin of the Great Silk Road, the place of the "Great Silk" road in the present time, its historical significance for the present time, the role in the study of history and the "Great Silk" road are discussed. the importance of the work to be carried out within the framework of the project, as well as the importance of the "TRASEKA" project and Islam Karimov's comments on this matter.*

Key words: *"TRACEKA", "Royal Road", "Lazurite Road", Europe-Caucasus-Asia transport corridor, Tashkent-Andijan-Osh-Irkeshtom-Kashkar road, "West Meridian Road".*

Аннотация: *В данной статье рассказывается о Великом Шелковом Пути, который был создан в древности, и который во многом способствовал соединению Древнего Востока и Запада и торговым отношениям между Западом и Востоком. В связи с этим краткие сведения о происхождении Великого шелкового пути, месте «Великого шелкового пути» в настоящее время, его историческом значении для настоящего времени, роли в изучении истории и «Великого шелкового пути». дорога, обсуждаются важность работ, которые будут проведены в рамках проекта, а также важность проекта «TRASEKA» и комментарии Ислама Каримова по этому поводу.*

Ключевые слова: «ТРАСЕКА», «Королевская дорога», «Лазуритовая дорога», транспортный коридор Европа-Кавказ-Азия, дорога Ташкент-Андижан-Ош-Иркештом-Кашкар, «Западно-Меридианная дорога».

Biz qadimgi davr tariximizga nazar tashlar ekanmiz, kishilik jamiyatining bronza davridan e'tiboran, ba'zi joylarda undan ham ancha avval, ma'lum ixtisoslashgan yo'llar paydo bo'lganligini bilamiz. Ularning paydo bo'lishida qabilalar, xalqlar va davlatlararo aloqalardan kelib chiqqan iqtisodiy, etnik, siyosiy va madaniy ehtiyojlar sabab bo'ldi. Tarixda miloddan avvalgi VI-IV asrlarda Eron ahmoniylari saltanati davrida uning hududi bo'ylab "shoh yo'li" tarkib topganligini bilamiz. Lekin unga qadar O'rta va Yaqin SHarqda Badaxshon lazuritiga bo'lgan ehtiyoj "Lazurit yo'li"ning vujudga kelishiga olib kelgan. Ana shunday qadimgi yo'llardan biri, G'arb bilan SHarqni bir necha ming yillar davomida bir-biriga bog'lab kelgan "Buyuk ipak yo'li" edi. Bu yo'l orqali SHarqdan (Xitoydan) G'arbg(Vizantiyaga) oqib borgan savdo mollari, asosan, Xitoy ipagi bo'lsa-da, bu yo'l fanga atigi XIX asrning 70 yillarida nemis olimi K.Rixtgofen tomonidan "Ipak yo'li" nomi bilan kiritildi. Unga qadar "Ipak yo'li" "G'arbiy meridional yo'l" deb kelinardi. "Buyuk Ipak yo'li" haqidagi ilk yozma ma'lumotlar miloddan avvalgi 138 yilga to'g'ri keladi

SSSRning inqirozga yo'l tutib parokanda bo'lib ketishi natijasida, ilgari sobiq SSSR tarkibidagi respublikalar mustaqil davlatga aylanadi. Hozirgi kunda mustaqillikni o'z qo'liga kiritgan davlatlar xalqaro miqyosda jahon xo'jalik tarkibida faol qatnashib, dunyoning barcha mamlakatlari bilan iqtisodiy, siyosiy, madaniy aloqalarni olib bormoqdalar. Markaziy Osiyo hududida joylashgan O'zbekiston, Qozog'iston, Turkmaniston, Qirg'iziston va Tojikiston davlatlari ham hozirgi kunda jahon xo'jalik tarkibiga asta-sekinlik bilan kirib bormoqda. Jahon xo'jalik tarkibiga kirib borishda Markaziy Osiyo davlatlari uchun "Buyuk ipak yo'li"ning roli benihoyat kattadir. Har bir davlatning iqtisodiyotida avtomobil, temir yo'l, dengiz va havo yo'llarining ahamiyati qanchalik ekanligini yaxshi bilamiz. Davlatning geografik joylashishiga bog'liq holda turli xildagi yo'llarning ahamiyati turlicha dengizlardan uzoq, berk havzada joylashgan Markaziy Osiyo respublikalarida yuk tashishda asosan avtomobil va temir yo'l transportlaridan foydalaniladi. Hozirgi texnik taraqqiyot va jadal iqtisodiy rivojlanish davrida faqat qo'shni davlatlar bilan bo'ladigan iqtisodiy aloqalar bizni kanoatlantirmaydi.[1] Biz tovarlarimizni dunyo bozorlariga olib chiqishimiz zarur, tovarlarni ichki bozorlarimizga olib kirishimiz zarur. Buning uchun esa avtomobil va temir yo'l transportlaridan tashqari dengiz transportlaridan ham foydalanishimiz kerak. Markaziy Osiyo davlatlariga masofa jihatidan eng yaqin dengiz yo'li Qora dengiz hisoblanadi. 1993 yil may oyida Bryusselda Evropa Komissiyasi Markaziy Osiyo hamda Kavkaz mamlakatlari, shuningdek, Evropa Ittifoqi davlatlari vakillari uchrashuvi bo'lib o'tdi. Unda Evropa va Osiyoni bir-biriga bog'laydigan Evropa-Kavkaz-Osiyo transport yo'lagi "TRASEKA"ni barpo etish masalasi ko'rib chiqildi. Aytish mumkinki, ayni shu

uchrashuv «Buyuk ipak yo'li»ni tiklash borasida dastlabki amaliy qadam bo'ldi. Hozirga qadar jahonning 50 mamlakatlari TRASEKA yo'llari orqali o'z yuklarini manzillarga yetkazmoqda.[2] Mazkur yo'llardan Sharq ham, G'arb ham birday manfaat topadi. Markaziy Osiyo va Kavkaz uchun jahon bozoriga keng yo'l ochiladi. Evropa va Osiyoni tutashtiradigan ana shu yo'lning asosiy bo'g'inida O'zbekiston joylashgan. Markaziy Osiyo va Qozog'iston davlatlarining ham markazida davlatimizning joylashishi qadimdan "Ipak yo'li"ning eng serqatnov trassalari o'tishiga sababchi bo'lgan. Hozir ham Markaziy Osiyoni Evropa va Osiyo bilan bog'lab turuvchi avtomobil va temir yo'llarning asosiy qismi davlatimiz hududidan o'tadi. Hozirgi paytda jadal sur'atlar bilan Toshkent-Andijon-O'sh-Irkeshtom-Qashqar yo'li qurilmoqda. Bu yo'lning asosiy qismi O'zbekiston hududiga to'g'ri keladi. Ana shu yo'l Evropa va Osiyoning eng katta shaharlarini, ya'ni Parij va Shanxayni bir-biri bilan bog'laydi. Qadimdan davlatlar o'rtasida yo'llar har jihatdan qulay joylarda o'rnatilgan. "Buyuk ipak yo'li" ham qumli cho'llar, baland tog'lar, bepoyon dashtlar orqali o'tib, shaharlar va qishloqlarni birlashtirgan. Hozirgi serqatnov katta avtomobil yo'llarining ko'pchiligi "Ipak yo'li"ga to'g'ri keladi. 1998 yil sentyabr oyida Ozarbayjon poytaxti Boku shahrida Evropa –Kavkaz-Osiyo transport yo'lagini (TRASEKA) rivojlantirish bo'yicha xalqaro anjuman bo'lib o'tdi.[3] Una 32 davlatning rahbari, 10dan ortiq xalqaro tashkilot vakillari ishtirok etishdi. Respublikamizning birinchi Prezidenti I.A.Karimov TRASEKA loyihasining ahamiyatini quyidagicha izohlagan edi:

TRASEKA loyihasining amalga oshirilishi bizni ham G'arb, ham Sharq dengiz yo'llariga chiqishimizga imkon yaratdi va eksport, import tovarlarimiz ancha arzonga tushadi.

Kavkazorti va Markaziy Osiyo bozorlariga Evropa va Osiyo davlatlarining kirib kelishiga yo'l ochiladi.

TRASEKA loyihasining kuchga kirishiga shunga o'xshash boshqa loyihalarning amalga oshishiga imkoniyat beradi. Bu esa Evropa bilan Osiyoning Tinch okean hududlaridagi davlatlar bilan savdo aloqalarini yanada kuchayishiga sharoit yaratadi. Loyhalar bo'yicha quriladigan yo'llar aksariyati "Buyuk ipak yo'li"ning tiklanishi deb atasak, xato qilmaymiz.

Bu davrga kelib O'rta Osiyoda ko'p sonli qabilalar va etnik guruhlar joylashgan bo'lib, Qoraqum va Qizilqum cho'llarining ichki hududlari hamda Pomir va Oloyning yuqori mintaqalaridan tashqari barcha hududlar o'zlashtirib bo'lingan edi. Bu hududlardagi moddiy madaniyat umumiy holatda ikki guruhga-chorvachilik xo'jaligi sohiblari bo'lgan Andronovo tarixiy-madaniy jamoalari (shimoliy mintaqqa) va dehqonchilik xo'jaligi yuritgan Namozgoh tarixiy madaniy jamoalariga (janubiy mintaqqa) bo'linadi. Ular va ularga qo'shni bo'lgan hududlar o'rtasida turli aloqalar mavjud edi. Ushbu aloqalar chorvador va o'troq dehqonchilik aholisi o'rtasida almashinuv-savdo munosabatlarining jadallashuviga imkoniyat yaratdi. Ma'lum hududlarda tayyorlangan mahsulotlar yoki xom ashyoning boshqa bir hududlardan topilishi shu jarayondan dalolat beradi. Misol uchun, Andronovo madaniyatiga xos idishlar Marg'iyona, Baqtriya, So'g'diyona hududlaridan topilgan bo'lsa, Xorazmda tayyorlangan sopol va metall buyumlar shimoliy hududlarda ko'plab uchraydi. Zamonbobo va Gujayli yodgorliklaridan Badaxshon lojuvardidan tayyorlangan mahsulotlar topilgan.

Yuqoridagilardan shunday xulosa chiqarish mumkinki, qadimgi savdo-tranzit yo'llari bronza davridayoq paydo bo'ladi. Ko'pchilik tadqiqotlar bu yo'lni "Lojuvard yo'li" deb ataydilar. Bronza davridagi O'rta Osiyoning savdo yo'llaridan biri Baqtriya va Marg'iyonani qadimgi Xorazm, So'g'diyona, Markaziy Qozog'iston va Ural bilan bog'langan. Mil. avv. III ming yillikda Mesopotamiyada Badaxshon lojuvardi mashhur bo'lgan. Tadqiqotchilarning fikricha, bronza davridagi yana bir yo'l Badaxshondan janubi-sharqqa tomon Afg'oniston orqali O'rta Osiyoning qadimgi xalqlarini Mesopotamiyaning shaharlari-Ur, Uruk, Kish, Lagash va boshqalar bilan bog'lagan. Bronza davrining uchinchi yo'li O'rta Osiyoning janubidagi Baqtriya va Marg'iyonani Hindistondagi Xarappa va Erondagi Mohinjo Daro madaniyat

markazlari bilan bog'langan. Mil. avv. II ming yillikka kelib Farg'ona va Choch hududlari ham Qadimgi Sharq bilan aloqalar o'rnatadi. Arxeologik tadqiqotlar natijalariga ko'ra bu davrda Mesopotamiya shaharlaridan chiqqan savdo yo'llari Eron va Janubiy Turkmaniston orqali Baqtriya va So'g'diyonadan o'tib Farg'onaga kelgan. Bu yo'lning bir tarmog'i Farg'onadan g'arbga Qozog'iston cho'llari orqali Ural va Volga bo'yiga ketgan. Yana bir tarmog'i esa Farg'onadan sharqqa Dovon orqali Sinszyan, Shimoliy Xitoyga ketgan.

Bronza davri yo'llarida qatnagan ot, eshak va tuya karvonlari orqali qimmatbaho toshlar, fil suyagi, metall va undan ishlangan buyumlar, taqinchoqlar, ba'zi hollarda mayda chorva va g'alla tashilgan. Turli hududlardan topilgan arxeologik topilmalar shu jarayonlardan dalolat beradi.

Mil. avv. I ming yillikning birinchi yarmiga kelib, Gretsiya va Misrdan O'rta Osiyo va Hindistonga qadar ulkan hududlarda tashkil topgan Ahmoniyalar davlati ko'pgina davlatlar, xalqlar va elatlarning turli tomonlama munosabatlarida muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Bu o'rinda ayniqsa, bu davrda paydo bo'lgan va tarixiy adabiyotlarda "Shoh yo'li" deb ataluvchi yo'lning ahamiyatini ham ta'kidlash joizdir. Bu yo'lning bir tarmog'i mil. avv. VI-IV asrlarda Kichik Osiyo shaharlarini hamda O'rta Yer dengizi bo'yidagi Efes, Sardi shaharlarini Eronning markazlaridan biri Suza bilan bog'lagan bo'lsa, yana bir tarmog'i Erondan Baqtriya orqali So'g'diyona, Toshkent vohasi va Qozog'iston hududlaridan o'tib Oltoygacha borgan.

Tadqiqotchilarning fikrlariga qaraganda, mil. avv. III asrning oxiri-II asrlarda xalqaro ahamiyatga va aniq yo'nalishga ega bo'lgan savdo-tranzit yo'li shakllana boshlaydi. Bu yo'l XIX asrning ikkinchi yarmida (1877) nemis olimi Ferdinand Paul Vilgelm Rixtgofer tomonidan dastlabki marta "Ipak yo'li" degan nom oldi va keyinchalik butun dunyo tadqiqotchilari tomonidan "Buyuk ipak yo'li" deb e'tirof etildi.

Buyuk ipak yo'lining qisqacha tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, Xan imperiyasining U-di hukmronligi davrida (mil. avv. 140-86 yy.) mamlakatning g'arbiy hududlariga bo'lgan qiziqish kuchayadi. Xitoyliklar bu hududlarda o'sha davrda ancha xavfli bo'lgan harbiy kuchlar-xunlar bilan to'qnashadilar. Xunlarga qarshi kurashda ittifoqchilar topish va ular bilan harbiy ittifoq tuzish maqsadida imperator U-di mil. avv. 138 yilda diplomat, sayohatchi va savdogar Chjan Syanni O'rta Osiyoga jo'natadi. Chjan Syan bir necha yil xunlar qo'lida asirlikda bo'ladi va mil. avv. 128-126 yillarda Farg'ona (Dovon)ga keladi. Dovon hukmdorlari bilan harbiy ittifoq tuzishda muvaffaqiyatsizlikka uchragan Chjan Syan ko'p qiyinchiliklardan so'ng yurtiga yetib keladi. Chjan Syan missiyasi Xitoy uchun G'arbiy o'lkalarga chiqishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Keyinchalik Xitoy imperatori bilan Dovon hukmdorlari o'rtasida qonli urushlar bo'lib o'tdi. Bu urushlarga asosiy sabab xitoyliklarni hayratga solgan Dovon "samoviy otlari" edi.

Mil. avv. 111-105 yillarda imperator U-di Parfiya (Xitoy manbalarida Ansi deb eslatiladi) podshohlariga, Qang' hukmdorlariga, keyinroq esa Baqtriya yerlariga (Kushonlar) o'z elchilarini jo'natib ular bilan diplomatik-savdo aloqalarini o'rnatadi.

Shu tariqa, mil. avv. II-I asrlarda Sharq bilan G'arbni bog'lovchi Buyuk ipak yo'liga asos solinadi. O'z davrida nihoyatda katta ahamiyatga ega bo'lgan bu yo'lining dastlabki tarmog'i Xitoydagi Sian shahridan boshlanib, Sharqiy Turkiston, O'rta Osiyo, Eron, Mesopotamiya orqali O'rta Yer dengizigacha cho'zilgan.

Xitoyning Anosi shahriga kelib, Ipak yo'li bir necha tarmoqlarga bo'linib ketgan. Xususan bir tarmoq Anosi-Xami-Qoshg'ar orqali Qo'qonga, undan esa Toshkentga o'tgan. Bu yerdan Jizzax va Samarqand orqali Buxoroga kelgan yo'l Urganch orqali Guryevga, u yerdan Oqsaroy orqali Qora dengiz bo'ylariga chiqqan. Yana bir tarmoq esa Dunxuan orqali Xo'tanga, undan Lohurga o'tib ketgan.

Undan tashqari, Buxoroga kelgan tarmoq ikkiga bo'lingan. Bu tarmoqning janubiy yo'nalishi Buxoro-Qarshi-G'uzor-Kesh-Termiz orqali Nishopurga o'tgan va Hirot orqali Hindistonga o'tib ketgan. Nishopurdagi tarmoqlardan biri Tehron-Qazvin-Hamadon-Bog'dod-Palmira yo'nalishi bo'ylab O'rta Yer dengizi bo'yidagi Tir shahrigacha cho'zilgan. Umuman olganda Ipak yo'lining janubiy tarmog'i O'zgan orqali O'shga o'tib, Quva-Marg'ilon-Qo'qon orqali Xo'jand, Samarqand, Buxoroga o'tgan. Shimoliy yo'nalishi esa Xazar xoqonligi va Bulg'or davlati orqali Kiyev Rusi va Yevropa mamlakatlariga borib, bu tarmoq VI asrdan boshlab rivojlana boshlagan. Ipak yo'lining asosiy karvon yo'llaridan tashqari ichki savdo yo'llari ham mavjud edi.

Mil. avv. I ming yillikning oxiri-milodiy I ming yillikning boshlariga kelib Tinch okeanidan Atlantika okeaniga qadar cho'zilgan ulkan geografik hudud madaniyati yuksak rivojlangan sivilizatsiyalarning yagona tizimiga birlashadi. Bu hududda joylashgan davlatlar-Xitoydagi Xan saltanati, Kushon podsholigi, Qang' davlati, Parfiya davlati, Rim saltanatining chegaralari bir-biriga tutash edi. Ushbu zabardast saltanatlar va sivilizatsiyalar markazlari insoniyat tarixidan birinchi bo'lib "Buyuk ipak yo'li" deb nomlanuvchi bir yo'l bilan bog'landilar. Umumiy uzunligi 12 ming km bo'lib, Xitoydan O'rta Yer dengizining shimoliy qirg'oqlariga qadar cho'zilgan bu yo'l orqali ko'pgina xalqlar va elatlar turli tomonlama munosabatlar o'rnatdilar. Podsholarning o'zaro elchilar yuborishlari, bir-birlariga har xil sovg'alar in'om etishlari an'anaga aylandi. Sharq bilan G'arb madaniyatining bir-biriga ta'siri kuchaydi. O'sha davrdagi ko'plab madaniy o'xshashliklar ham shu tufayli yuzaga keldi.

Agar geografik xaritaga e'tibor beradigan bo'lsak O'rta Osiyoni qadimgi sivilizatsiyalar o'zaro aloqalar tizimining markazida joylashganligini kuzatishimiz mumkin. Aynan mana shu geografik joylashuv tufayli O'rta Osiyoda muhim etnik jarayonlar (hind-evropa, hind-eroniy, turklarning ko'chishi) bo'lib o'tishiga, madaniyatlarning o'zaro ta'sir doirasi faollashuviga keng imkoniyatlar yaratildi. Buyuk ipak yo'li bo'ylab keng miqyosdagi savdo-sotiq jarayonlari bo'lib o'tdi, diplomatik shartnomalar hamda harbiy ittifoqlar tuzildi. Osiyoning ichkarisiga va Uzoq Sharqqa harfiy yozuv va dunyo dinlarining (buddaviylik, xristianlik, zardo'shtiylik, moniy, islom) yoyilishida O'rta Osiyo xalqlari ulkan hissa qo'shdilar. Buyuk Ipak yo'li faqat karvon yo'li bo'libgina qolmasdan, Yevrosiyo xalqlari sivilizatsiyasi tarixida o'chmas iz qoldirgan, uning har tomonlama taraqqiy etishida

ulkan omil bo'lib xizmat qilgan jarayondir. 1987-yilda YUNESKO BMTning butunjahon dekadasi doirasida madaniy rivojlanish bo'yicha "Buyuk ipak yo'limuloqot yo'li" dasturini qabul qildi. Ushbu dasturda O'rta Osiyo sivilizatsiyasi tarixini har tomonlama va chuqur o'rganishga katta e'tibor qaratildi. Undan tashqari, bu dasturning asosiy maqsadi-Sharq va G'arb o'rtasidagi madaniy va iqtisodiy aloqalarni yanada chuqurlashtirib mustahkamlash, bu ulkan mintaqalarda yashayotgan ko'p sonli xalqlarning o'zaro munosabatlarini yanada yaxshilashdan iborat edi. 2000-yilga qadar mo'ljallangan ushbu dastur asosida ko'pgina ekspeditsiyalar ("Marko Polo izidan", 1987, Istanbul-Pekin; "Dengiz" ekspeditsiyasi, 23.X.90y.-23.II.91; Xivada yakunlangan "Markaziy Osiyo respublikalari bo'ylab", 1991; "Ko'chmanchi madaniyatlar yo'nalishi bo'ylab ekspeditsiya", iyun-avgust, 1992; "Yevropa ipak yo'li", 1995, Istanbul-Leon) ko'plab ilmiy-amaliy xalqaro anjumanlar (Samarqand, 1990; Turku, Finlandiya, 1993; Kipr, 1994; Buxoro, 1996; Boku, 1998) o'tkazildi.

Buyuk ipak yo'lini o'rganish va qayta tiklashda O'zbekiston rahbariyati ham alohida e'tibor qaratmoqda. Chunonchi, respublikamiz hududlarida uyushtirilgan ekspeditsiyalar natijasida ko'pgina tarixiy-madaniy obidalar o'rganildi. Qadimgi yo'llar va yo'nalishlar aniqlandi, milliy-ma'naviy boyligimiz hamda an'analarimiz o'rganildi. Samarqandda Markaziy Osiyo tadqiqotlari Xalqaro Instituti ochilgan bo'lib, uning asosiy yo'nalishlaridan biri Buyuk ipak yo'li va uning bo'ylarida joylashgan shaharlarni o'rganishdir. 1997-yilning mayida O'zbekiston ham o'z hissasini qo'shgan Mashhad-Saraxs, Saraxs-Mashhad temir yo'li ochildi. Bu bilan O'rta Osiyo mamlakatlari Fors qo'ltig'iga, Yevropa xalqlari esa O'rta Osiyoga temir yo'l orqali chiqish imkoniyatiga ega bo'ldilar. 1998 yil Boku shahridagi Buyuk ipak yo'lini quruqlikda Yevropadan Yaponiyagacha qayta tiklash masalalariga bag'ishlangan xalqaro anjuman bo'lib o'tdi. Yevropa-Kavkaz-Osiyoni bog'laydigan ushbu transport yo'li (TRASEKA) qurilishida O'zbekiston ham ishtirok etmoqda va bu yo'l butun dunyo iqtisodiyotini yuksaltirishiga xizmat qilishi shubhasizdir. Antik davr O'rta Osiyo tarixida madaniy hayotning turli tomonlama taraqqiy etganligi bilan izohlanadi. Butun dunyo xalqlari tarixiy-madaniy rivojlanishida bo'lgani kabi bu davr O'rta Osiyo jamiyatining ijtimoiy va ma'naviy hayotida diniy mafkura katta ahamiyatga ega bo'ldi. Bu davrda O'rta Osiyoning asosiy hududlarida zardushtiylik va buddaviylik dinlari ustunlik qilishiga qaramasdan ular bilan bir qator yunon dinlari, moniylik ham yoyilgan edi. Makedoniyalik Iskandar yurishlari davri va uning vorislari (Salavkiylar, Yunon-Baqtriya) davrida O'rta Osiyo hududlariga Ellinizm madaniyati kirib keldi. Yunon dinlarining keng yoyilishi Yunon-Baqtriya davriga to'g'ri kelsa, Budda dinining keng yoyilib davlat dini darajasiga ko'tarilishi Kushonlar davriga to'g'ri keladi. Kushon davri oxirlariga kelib esa Moniy dini yoyiladi. O'rta Osiyoda mil. avv. II-I asrlarga kelib yunon-makedonlar hukmronligi tugagan bo'lishiga qaramay ellinizm madaniyati moddiy va badiiy madaniyatda o'z ahamiyatini saqlab qoldi. Yellin xudolari-Gerakl, Gefest, Dionis, Afina kabilarga sig'inish kuchliligicha qolaveradi. Bu xudolar tasvirlari Kushon podsholari tangalari

va haykallarda o'z aksini topgan. Undan tashqari, yunon alifbosi asosida tashkil topgan baqtriya yozuvi ham saqlanib qoldi. Kushon davri ellinizm madaniyatiga oid topilmalar O'rta Osiyoning ko'pgina hududlaridan topib o'rganilgan.

O'rta Osiyo xalqlarining qadimgi va ilk o'rta asrlar davri ma'naviy hayotida buddaviylik muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Dunyo xalqlari orasida keng yoyilgan bu din mil. avv. VI asrda Hindistonda paydo bo'ladi. Mil. avv. III asrga kelib podsho Ashoki davrida buddaviylik keng hududlarni o'z ichiga olgan hind podsholigi Mauryaning davlat diniga aylanadi. Keyinroq esa Baqtriya, So'g'diyona hududlariga yoyiladi. Ayritom, Dalvarzintepa, Qoratepa, Fayoztepa kabi yodgorliklardan topilgan topilmalar buddaviylik dastlab Shimoliy Baqtriya hududlariga yoyilganidan dalolat bersa, Xitoy yozma manbalari O'rta Osiyoning Parfiya, Baqtriya, So'g'd viloyatlarida ham buddaviylik yoyilganligini tasdiqlaydi. Antik davr oxirlarida keng tarqalgan dinlardan yana biri Moniylik dinidir. Ko'pchilik tadqiqotchilarning fikricha, bu dinning asoschisi va payg'ambari bo'lgan Moniy milodiy 216 yilda Janubiy Bobilda tug'iladi. Moniy e'tiqod faoliyatini Ardasher hukmronligi (227-241 yy.) davrida boshlaydi. Keyinroq esa Shopur I davrida Sosoniylarning markaziy shaharlaridan biri Ktesifon shahrida o'z ta'limotini targ'ib qilish huquqini oladi. Moniylik dini aholining kambag'al va o'rta tabaqalarini keng jalb etgan "kim boy bo'lsa, o'sha qashshoq bo'ladi, sadaqa so'raydi va katta g'am-alamni boshidan o'tkazadi" degan ijtimoiy shiorni ilgari surdi.

Zo'r berib tashviqot qilinishi natijasida Moniylik dini hali Moniy hayotlik vaqtidayoq nafaqat Eron, balki, Mesopotamiya, Kichik Osiyo, Rim, Sharqqa va O'rta Osiyo hududlariga yoyildi. Moniyning o'zi shunday ta'kidlar edi: "Mening dinim har bir davlatga va har qanday tilda tushunarli bo'ladi va uzoq o'lkalarga yoyiladi".

Moniy ta'limoti Erondagi hukmron doiralar va zardo'shtiylik koinlar orasida qattiq noroziliklarga sabab bo'lganligi tufayli podsho Varaxron I davrida (273-276 yy.) Moniy zindonband qilib qatl ettiriladi. Uning tarafdorlari quvg'in ostiga olinganidan so'ng, katta qismi O'rta Osiyo hududlariga ko'chib o'tadi. Bu haqda arab tarixchisi An-Nadim ma'lumotlar beradi. Keyinroq Moniylik ta'limoti O'rta Osiyoga ancha keng yoyiladi. Uning markazlari Marv, Samarqand va Chag'aniyon edi.

Xulosa:Yuqorida eslatib o'tganimizdek, antik davr o'lkamiz hududlaridan ko'plab ibodatxonalar ochib o'rganilgan. Asosan kushon davriga oid bo'lgan bu ibodatxonalar rejaviy tuzilishi jihatdan turlicha bo'lib, ulardagi topilmalar orasida turli kattalikdagi haykallar ko'pchilikni tashkil etadi. Ushbu haykal va haykalchalar turli dinlarning turli-tuman xudolari, ma'budalari va sig'inishlari bilan bog'liqdir. Bu davr O'rta Osiyo xalqlarining madaniy hayotdagi eng katta yutuqlaridan biri mil. avv. VI-II asrlarda Oromiy yozuvi asosida Xorazm, Parfiya, So'g'd keyinroq esa Kushon (Baqtriya) yozuvining ajralib chiqishidir.

REFEENCES :

- 1.O'zbekiston Milliy Enskklopediyasi I jild.Toshkent 2005.814-bet
- 2.O'zbekiston tarixi-R.H.Murtozoyev.Toshkent.2005.96-101-bet.
- 3.Buyuk ipak yo'li-A.Xo'jayev.Toshkent.2007/146-bet
- 4.Shi-Ji{Tarixiy xotiralar}-Sima Yan,Sima Chyan.130 bob/17-bob;54-bet.
- 5.Xan-Shu{Xan sulolasi tarixi}-Ban Gu.200 bob/67-bob;67-75-bet.
- 6.Qadimgidavr{Iqism}B.Boymenov,U.Shoimov,F.Bozorboyev,F.Sultonov,Sh.Yodgorov,Toshkent/2006. 149-150-bet.
- 7.Vatan tarixi-R.Shamsuddinov,Sh.Karimov,Toshkent;2010./89-90-bet.
8. O'zbekiston tarixi:I jild{eng qadimgi davr-XIX asr o'rtalarigacha} Toshkent:20014./163-bet.
- 9.Tangday sichou chjilu yuy Chjungya lishi dili yanjyu{Qadimgi ipak yo'li va Markaziy Osiyo Tarixiy geografiyasiga doir tadqiqotlar}-Shyuy Shyuan .Sian:2000./129-bet
- 10.Buyukipakyo'lidagiFarg'onashaharlariB.X.Matboboyev,R.T.Shamsuddinov,A.Mamajonov.Andijon:Meros:1994./54-bet
- 11.Farg'ona tarixiga oid ma'lumotlar-A.Xo'jayev.;Farg'ona:2013./122-bet
- 12.O'zbekistonda moziy e'tiqodlari tarixi-X.Karomatov;Toshkent.2008./512-bet.
- 13.Sog'diyona tarixidan lavxalar-B.Eshov.Toshkent.2002.
- 14.O'zbekistonning tarixiy o'tmishi-E.Rtveladze.Toshkent/2009. 15.Markaziy Osiyoning qadimgi yo'llari:shakllanishi va rivojlanishi bosqichlariO'.Mavlonov.Toshkent./ Akademiya.2008. 16.Velikiy shelkoviy put{Buyuk ipak yo'li}-E.Rtveladze.Toshkent/Sharq.1999.

TASKS AND IMPLEMENTATION OF INTERNATIONAL EVALUATION STUDIES IN UZBEKISTAN

Shernazarov Iskandar Ergashovich

*Nizami TSPU Department of "Chemistry and methods of its teaching"
Associate Professor. PhD*

Since today education is an important and main link of state policy, many reforms are being carried out in order to transform the education system, as well as to turn Uzbekistan into a literally competitive state.

For our country, which wants to firmly take its position in the international arena, it certainly needs qualified, fully meeting the requirements of the global labor market, potential personnel in all sectors. Thus, the main task of educational institutions is to educate patriotic citizens, competitive personnel with deep knowledge, deep thinking and a broad outlook. After all, as our president said, salvation is education, and the fate of our country and people is in the hands of educated, intelligent, creative and creative youth [1].

The tasks of creating a national system for assessing the quality of education aimed at assessing the level of literacy of students in reading, mathematics and natural sciences based on the organization of international research in the field of assessing the quality of education in the public education system and the achievement by the Republic of Uzbekistan by 2030 in the ranking of the International PISA Program in the top 30 advanced countries of the world.

For countries reforming the education system, it is important to study, analyze and use international experience, as well as establish cooperation with reputable international educational organizations [2].

In order to organize international research in the field of assessing the quality of education in the public education system of the Republic, establishing international relations, comprehensive support and stimulation of research and innovation activities of students and youth, primarily creative ideas and creativity of the younger generation, the Cabinet of Ministers decides:

To determine the main tasks and activities of the National Center:

conducting scientific research aimed at developing and implementing innovative methods to improve the level of literacy in reading, mathematics and natural sciences in the education system;

establishment of international relations in the field of education quality assessment, development and implementation of international projects, participation in the organization and holding of international scientific conferences and symposiums;

conducting fundamental and applied research in the field of education quality assessment;

scientific and methodological support of research on the assessment of the quality of education;

ensuring the successful participation of educational institutions in international research;

Comparative comparison of the results of the Republic of Uzbekistan in international evaluation programs with the results of other states;

conducting systematic monitoring of the implementation of international assessment programs in the educational process, popularizing best practices in this area and participating in the development of recommendations and guidelines for educational institutions based on it;

preparation of educational and methodological recommendations for advanced training of teaching staff in reading, mathematics and natural sciences using innovative teaching methods [3].

In accordance with the roadmap for preparing for the participation of the Republic of Uzbekistan in international PISA studies;

The Director of the National Center is the head of the PISA National International Studies Project. By February 1, 2019, together with the National Center, to develop a program to identify and develop the abilities and talents of students from the 1st grade of secondary vocational education institutions, to ensure participation in international assessment studies and competitions to assess the literacy of students;

making changes and additions to the content of curricula and educational literature on reading, mathematics and natural sciences based on the results of international research;

creation of a national database of questions on the areas of evaluation programs of international studies and their integration into educational programs;

improving the national system for assessing student literacy and systematically conducting tests aimed at assessing the formation of practical skills in 2019-2021;

creation of additional methodological manuals and literature based on training programs, including questions on the areas of evaluation programs of international studies;

Creation of basic schools focused on conducting international research in the Republic of Karakalpakstan, regional centers and the city of Tashkent, as well as in districts (cities);

attracting talented teaching staff from secondary schools to scientific research within the framework of international assessment programs;

to carry out an inventory of the state of equipment of secondary schools with modern information and communication facilities and Internet connection, as well as take measures to eliminate existing problems;

in order to ensure decent participation in international assessment programs and competitions for assessing the literacy of students, to establish effective use of the capabilities of the structural units of the Ministry (the Republican Center for

Education, the Republican Center for Vocational Guidance and Psychological and Pedagogical Diagnostics of students), as necessary, to review the functions of the relevant departments of the Ministry [4].

Ministry of Higher and Secondary Special Education of the Republic of Uzbekistan:

to make changes and additions to the curricula of higher educational institutions, territorial regional and branch centers for advanced training and retraining of specialists in reading, mathematics and natural sciences, in which international research is conducted, based on the results of international research;

based on the content of international research programs, assign tasks for the preparation and implementation of projects within the framework of state scientific programs [5].

To recommend the National Television and Radio Company of Uzbekistan, the Press and Information Agency of Uzbekistan, the National Information Agency of Uzbekistan, the Dunya News Agency and other mass media to widely cover the ongoing work on the preparation and conduct of international studies. The Education Inspectorate, together with the ministries and departments concerned, shall, within a month, bring the normative legal acts adopted by them into compliance with this resolution [6].

Over the past period, the Education Inspectorate and the National Center, together with the Ministry of Public Education, have carried out a number of works.

The first steps include the study of international experience in the implementation of international research, professional development of about 30 responsible employees in foreign countries, the involvement of 7 international experts, the training of 260 trainers throughout the country.

Also, about 20 methodological manuals for teachers and students have been created, containing general concepts of international assessment research, sample assignments, recommendations for their implementation and evaluation criteria.

Manuals entitled "Assessment of primary School students' reading literacy in international studies", "Assessment of students' reading literacy in international studies", "Assessment of students' mathematical literacy in international studies", "Assessment of students' natural science literacy in international studies" were published in 10,000 copies each and delivered to all educational institutions and governing bodies education [7].

Complexes of tasks and exercise books have been developed in the relevant areas of the programs. In these tasks, a preliminary version of the online simulator program has been launched, designed to help students develop skills of independent work and solving non-standard tasks.

In order to prepare teachers and students of secondary schools for international assessment programs in the republic, 348 basic schools have been identified, and the remaining general education institutions have been attached to them.

Despite the quarantine in connection with the pandemic in the republic, online seminars were organized for all basic schools, at which specialists of the National Center made presentations on reading, mathematical and natural science literacy, assessment and development of creative thinking skills.

Tasks have been set to continue these seminars for other schools, including organizing training seminars and round tables for teachers in cooperation with the Republican Education Center from September 2020 [8].

In addition, in cooperation with the National Center and teachers-mentors, more than 100 interesting video products were created in the public education system, containing detailed information about the development of mathematical, natural and reading literacy, creative thinking, as well as about the general processes of programs, taking into account advanced foreign experience for adequate preparation for international assessment programs.

This video not only gives a general theoretical understanding of international assessment programs, but also contains practical recommendations for solving the tasks set [9].

A significant aspect of international research assignments is that they seem to be a difficult task for a person who hears or sees about it for the first time, but when the task is approached with caution, there is a feeling that he has reached new heights, extracting novelty from the interesting information contained in it, thinking logically and finding answers [1-2].

In the process of preparing these video tutorials, tasks were selected, the main focus of which was on testing the ability of students to use the knowledge gained at school in real life situations.

REFERENCES:

1. Ergashovich, S. I. (2021). USE OF INTEGRATED TECHNOLOGIES IN PREPARING HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTION STUDENTS FOR INTERNATIONAL ASSESSMENT PROGRAMS ON" ORGANIC CHEMISTRY". Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL), 2(01), 9-22.

2. ERGASHOVICH, S. I., & ORIFJONOVICH, T. N. Clear and Natural in Teaching Higher Education Institution Students on the Basis of the International Stem Education Program Characteristics of Integration of Sciences. JournalNX, 6(12), 234-237.

3. Ergashovich, I. S. (2019). THE IMPORTANCE OF INFORMATION COMMUNICATION AND PEDAGOGICAL TECHNIQUES IN TEACHING ORGANIC CHEMISTRY IN NATURAL SCIENCES AT ACADEMIC HIGH SCHOOLS. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 7(11).

4. Shernazarov, I. E., & Abdukadirov, A. A. (2018). Information technology usage methods in expressing components in organic chemistry course. *Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR)*, 7(9), 453-460.

5. Iskandar, S. (2018). Use of pedagogical, information and communication technologies, as well as interactive teaching methods in consolidating of organic chemistry lessons. *Austrian Journal of Technical and Natural Sciences*, (11-12), 66-69.

6. Ergashovich S. I. Preparation for the International Assessment System Using Modern Methods in Teaching Students in the General Secondary Education System // *International Journal on Integrated Education*. – T. 3.–№.12. –300-305-b.

7. Ismailov S. A., Avazova K. E., Dangalova A. A. Theoretical basis of using interactive media resources in teaching chemistry // *innovative development in the global science*. – 2022. – T. 1. – №. 6. – C. 147-149.

8. Berdikulov R. S. Developmental factor of chemical thinking of future chemistry teachers // *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*. – 2020. – T. 2020.

9. Berdikulov R. S. Deduction of chemical thought // *European Research*. – 2017. – №. 5. – C. 62-68.

ФОРМИРОВАНИЕ МОРФОЛОГИЧЕСКИХ КОМПЕТЕНЦИЙ У СТУДЕНТОВ ЧЕРЕЗ ОБУЧЕНИЕ ГРУППАМ СЛОВ НА РОДИНОМ ЯЗЫКЕ И НА УРОКАХ ЧТЕНИЯ

Оллоқова Ўғилжон Маманазарова

*Бухарский государственный университет
Преподаватель кафедры
методики начального образования*

Турсунова Мафтуна Расул қизи

*Бухарский государственный университет
Учащийся 4 ступени начального образования и спортивно-
воспитательной работы*

Аннотация: В данной статье освещается вопрос формирования морфологической компетентности учащихся путем обучения словесным группам в начальных классах родного языка и на занятиях по читательской грамоте. Морфологическая компетенция анализируется как компонент языковой компетенции.

Ключевые слова: уроки родного языка и чтения, компетенция, языковая компетенция, морфологическая компетенция, морфологические упражнения.

Одним из актуальных вопросов проводимых сегодня образовательных реформ является участие студента в роли субъекта образовательного процесса, развитие мышления обучающихся в процессе образовательного процесса. В процессе обучения ставится задача воспитания компетентного поколения путем развития базовых компетенций учащихся. Например, она заключается в формировании языковых компетенций, направленных на развитие правильного и беглого выражения, эффективное использование широких возможностей родного языка в учреждениях общего среднего и среднего специального профессионального образования.

Лингвистическая компетенция – это владение учащимся фонетикой, лексикой, фразеологией, морфологией, синтаксисом, орфографией, пунктуацией, стилистикой родного языка и использование этих знаний в различных ситуациях квалификации и навыков.

Лингвистическая компетенция означает передачу знаний по фонетике, графике, орфографии, лексике, грамматике и методологии. Уметь различать звуки речи на родном языке, уметь соблюдать правила переноса слогов, уметь употреблять новые слова, относящиеся к теме, в устной и письменной речи, уметь правильно расставлять знаки препинания в письменной речи, направлен на приобретение такой компетенции, как умение орфографически формировать звуковой состав слов, уметь различать типы предложений в

зависимости от цели выражения и уметь их уместно использовать в письменной речи.

В учебной программе начальной школы родной язык, в языковой компетенции, уметь соблюдать нормы произношения в произношении звуков речи на узбекском языке, уметь соблюдать правило переноса слогов, произнося слова, относящиеся к теме, такие как умение использовать в устной и письменной речи и правильно расставлять знаки препинания.

Морфологическая компетенция - это способность применять знания и навыки, полученные с помощью морфологии, которая является частью отдела грамматики и составляет часть языковой системы.

Морфологическая компетенция представляет собой совокупность навыков и умений, связанных с формируемыми учащимися группами слов, их семантическими особенностями, правописанием, функцией в предложении.

Начальное образование охватывает все предметы учебной программы, включая родной язык. Морфология – один из разделов узбекского языка, который преподается в школе в начальных классах. Изменение образовательных целей и появление новых требований к результатам освоения образовательной программы на родном языке Государственного образовательного стандарта, а также достижение передового опыта педагогов оказывают постоянное влияние на содержание, планирование и организация занятий, на которых изучаются понятия морфологии в начальных классах.

Использование таких методов, как языковой анализ, построение, работа с упражнениями на уроках родного языка эффективно в совершенствовании морфологических компетенций младших школьников.

Формирование морфологической компетенции учащихся начальных классов на занятиях по родному языку и грамоте чтения осуществляется с помощью специальных морфологических упражнений.

Морфологические упражнения закрепляют знания детей по морфологии и служат основой для формирования навыков и умений в орфографии и пунктуации.

На уроках можно использовать следующие морфологические упражнения:

- морфологический анализ;
- полный или частичный морфологический анализ слова;
- напишите слово в установленной форме;
- нахождение в речи слов, относящихся к искомым группам слов;
- создание фраз с использованием групп слов;
- различать омонимичные слова, принадлежащие к разным частям речи;
- разделить слова на группы на основе данной таблицы;
- определить функцию, выполняемую в предложении.

Задания такого типа выражены в учебниках по родному языку и грамоте чтения для начальных классов. Морфологическая компетентность формируется у детей путем выполнения морфологических упражнений.

Морфологические компетенции формируются совместно с синтаксическими, пунктуационными, орфоэпическими, орфографическими, фонетическими компетенциями на родном языке и на занятиях по чтению.

Синтаксическая компетенция – это способность грамматически исправлять устную и письменную речь, знать грамматические элементы языка и использовать их в речи. К синтаксическому разделу языкознания относятся такие понятия, как словосочетание, предложение, виды предложений по цели выражения, главные и второстепенные члены, текст, и овладение этими понятиями формирует у ребенка синтаксическую компетенцию.

Орфоэпическая компетенция – это умение правильно читать графическую форму слова. Студентам часто приходится читать вслух текст, данный в упражнении, или произносить только выделенные слова. При этом учащиеся должны обладать умением правильно читать графическую форму слов. Для этого им необходимо знать:

- правила правописания;
- умение пользоваться словарем;
- соотносить знаки препинания с артикуляцией и интонацией текста.

Орфографическая компетенция характеризуется умением правильно писать слова с различным произношением и написанием, правописанием заглавных букв и суффиксов, правилами переноса слогов, умением писать двусмысленные и повторяющиеся слова. Под орфографически грамотным понимается лицо, способное использовать полученные учащимся знания о правилах орфографии на основе школьной программы в различных ситуациях.

Уникальной особенностью орфографической компетенции является то, что она требует тесного формирования и совершенствования с графической, фонетической, морфологической, словообразовательной и лексической компетенциями. Формирование орфографических компетенций у учащихся желательно осуществлять в два этапа.

Первый этап – формирование орфографической (графической) компетенции учащихся, в которой формируются исходные знания, умения и навыки, связанные с письмом.

Второй этап – этап совершенствования орфографических компетенций, который осуществляется посредством систематизации, повторения и расширения учебного материала.

Фонетическая компетентность связана с распознаванием и правильным и уместным употреблением звуков и букв в речи, при которой учащийся может распознавать каждую букву, различать письменные и печатные, прописные и

строчные, гласные и согласные звуки, различать звонкие и глухие согласные, гласные и слоги, он должен знать, что делать.

В заключение следует отметить, что формирование морфологических компетенций у студента путем увязки их с другими структурными основаниями языковой компетенции повышает эффективность. Формирование элементов морфологической компетенции у учащегося требует второго типа. Обеспечение последовательности в процессе выполнения каждого упражнения помогает ребенку легко усвоить языковые понятия и уметь уместно использовать их в своей речи.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА:

1. Olloqova, M. O. (2021). Intensive education and linguistic competence in mother tongue. *Academicia: an international multidisciplinary research journal*, 11(1), 580-587.

2. OLLOQOVA, O. (2021). ONA TILI TA'LIMIDA INTENSIV TA'LIM TECHNOLOGIYALARINI QO'LLASHNING NAZARIY METODOLOGIK ASOSLARI. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 1(1).

3. Olloqova, O. M. (2021). ONA TILI DARSLARIDA INTENSIV TA'LIM TECHNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH. *Scientific progress*, 2(6), 1025-1029.

4. Olloqova, O. (2021). Эффективность Использования Информационно-Коммуникационных Технологий В Повышении Лингвистической Компетентности Учащихся На Уроках Родного Языка. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. Uz), 1(1).

5. Olloqova, O. M., TA'LIM, O. T. D. I., & FOYDALANISH, T. *Scientific progress*.–2021. T, 2(6), 1025-1029.

6. Olloqova, O. (2022). ONA TILI DARSLARIDA O'QUVCHILARNING LINGVISTIK KOMPETENSIYALARINI TAKOMILLASHTIRISHDA TA'LIM TECHNOLOGIYALARINING AHAMIYATI. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. Uz), 22, 22.

7. Olloqova, O. (2022). УЧАЩИЕСЯ НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЫ НА УРОКАХ РОДНОГО ЯЗЫКА ОРГАНИЗАЦИЯ КОМПЕТЕНТНОСТНОГО ПОДХОДА. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. Uz), 8(8).

8. Mamanazarovna, O. U., & Gulnoza, M. (2021). Use of didactic games in mother tongue lessons.

9. Mamanazarovna, O. O. (2022). O'QUV JARAYONIGA INTENSIV TA'LIM TECHNOLOGIYALARINI JORIY QILISHNING AHAMIYATI. THEORY AND ANALYTICAL ASPECTS OF RECENT RESEARCH, 1(9), 67-70.

10. Юнус, Ю. Ш. (2022). ОБУЧЕНИЕ СТУДЕНТОВ ИСПОЛЬЗОВАНИЮ ПИСЬМЕННЫХ СРЕДСТВ ПРИ ФОРМИРОВАНИИ ПИСЬМЕННЫХ НАВЫКОВ. THEORY AND ANALYTICAL ASPECTS OF RECENT RESEARCH, 1(9), 153-158.

11. Yunus, Y. S., & Hikmatovna, N. M. (2022). WAYS OF EFFECTIVE USE OF EDUCATIONAL METHODS AND TOOLS. THEORY AND ANALYTICAL ASPECTS OF RECENT RESEARCH, 1(9), 148-152.

12. Yunus, Y. S. DEVELOPMENT OF LOGICAL THINKING IN MATHEMATICS LESSONS AS THE BASIS FOR IMPROVING THE QUALITY OF THE EDUCATIONAL PROCESS. Chief Editor.

13. Jobirovich, Y. M. (2022). BOSHLANG'ICH SINF MATEMATIKA DARSLARINI INTEGRATSIYALASHGAN HOLDA OLIB BORISHDA TA'LIM TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH. TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(12), 19-23.

14. Ярашов, М. Д., & Хамдамова, Х. (2022). МЕТОДИКА РАБОТЫ НАД РЕЧЬЮ УЧАЩИХСЯ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ. THEORY AND ANALYTICAL ASPECTS OF RECENT RESEARCH, 1(9), 138-143.

15. Jobir o'g'li, Y. M., & Roziyabonu, S. (2022). 1-SINF MATEMATIKA DARSLARIDA GEOMETRIK MATERIALLARNI O'RGATISH. THEORY AND ANALYTICAL ASPECTS OF RECENT RESEARCH, 1(9), 132-137.

16. Jobir o'g'li, Y. M., & Maftuna, S. (2022). BOSHLANG 'ICH SINFLARDA TA'LIM MAZMUNINING TAVSIFI. THEORY AND ANALYTICAL ASPECTS OF RECENT RESEARCH, 1(9), 144-147.

ONA TILI TA'LIMIDA EVFEMIZMLARDAN FOYDALANISH – SAMARADORLIK OMILI

Nazarova Dilnoza G'ulomovna

Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya: *Mustaqil demokratik davlatda raqobatga asoslangan bozor iqtisodiyoti sharoitida yashayotgan har bir kishi tadbirkor, mustaqil ijodiy tafakkurli, har qanday muammoni o'z aql-idroki bilan yecha oladigan, tafakkurida milliylik ruhi mustahkam bo'lishi zarur. Jamiyatda maktab hayot-mamot, kelajak masalasiga, butun jamiyatning asosiy ishiga aylangandagina bu borada kutilgan natijaga erishiladi. Zero, o'rta umumiy ta'lim maktablarida ona tili o'qitishning bosh maqsadi "ta'lim oluvchilarda mustaqil fikr yuritish ko'nikmalarini hosil qilishdan iborat", bu ona tili ta'limi masalasiga an'anadagidan farqli ravishda butunlay boshqacha ko'z bilan qarashni taqozo etadi.*

Kalit so'zlar: *ona tili ta'limi maqsadi, ijodiy tafakkurni shakllantirish va rivojlantirish, evfemizmlar, ijodiy topshiriqlar tizimi.*

Har bir shaxs o'z ona tilini, odatda, tabiiy ijtimoiy sharoitda shu tilda so'zlashuvchi oila a'zolari, mahalla, bir tilli jamoatchilik orasida o'rganib boradi. Yillar o'tgani sayin ona tili inson uchun nafaqat axborot yetkazish va axborot qabul qilish vositasi, balki uning milliy o'zligini shakllantiruvchi birlamchi omilga aylanib boraveradi. Darhaqiqat, ona tili kishi tafakkurini shakllantiruvchi, insonni inson sifatida rivojlantirib boruvchi, uning ma'naviy kamoloti, komilligini ta'minlab beradigan asosiy manba hisoblanishi hech birimiz uchun sir emas. Shuning uchun ham dunyo tamaddunida o'zini, o'zligini tanigan har bir xalq, har bir millat, avvalo, o'z ona tili qadrini yuksaltirishga, uning ta'limi samaradorligini oshirishga harakat qiladi.

Bugungi kunda maktab ona tili ta'limida rasman birinchi ("ona tili ta'limi jarayonida tahsil oluvchiga tilning beqiyos imkoniyatlaridan foydalanish, ya'ni tilning kommunikativ-amaliy qiymatini yuksak darajada namoyon eta olish ko'nikmalarini singdirish") maqsadni ko'zlab, amalda esa ikkinchi maqsadni ("ona tili ta'limi jarayonida tahsil oluvchiga tilshunoslik asoslarini muntazam o'rgatib borish, tom ma'noda, jamiyat uchun tilshunoslikning qonun-qoidalarini biladigan shaxsni tayyorlash") amalga oshirayotganimiz achinarli hol.

Vaholanki, davlat jamiyatning taraqqiyot darajasidan hamda uni rivojlantirish uchun belgilangan maqsad va vazifalardan kelib chiqqan holda ta'lim tizimi oldiga muayyan buyurtma qo'yadi. Bu buyurtma jamiyatning (birinchi navbatda, iqtisodiy, so'ngra ma'naviy-madaniy ehtiyojlari bilan belgilanadi) ijtimoiy, iqtisodiy salohiyatini yuksaltiradi, davlat tomonidan belgilangan yagona maqsad yo'lida fuqarolarning ma'naviy-ma'rifiy qiyofasini uyg'unlashtiradi, rivojlanishga to'siq bo'luvchi muammolarni hal etadi. Bu esa, pirovard natijada, jamiyat a'zolarining umumiy

farovonligini ta'minlashga olib keladi. Davlat buyurtmasida fan va ta'limning rivojlanish hamda integratsion holati, boshqaruv, ta'minot tizimining darajasi, jamiyat va shaxs orzu-umidlarining mushtarakligi kabilar diqqat markazda bo'lib, muayyan hujjat bilan rasmiylashtiriladi. Bu hozirgi kunda Respublikamizda "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi" kabilardir.

Bugungi kunda ta'lim O'zbekiston Respublikasi siyosatining ustuvor yo'nalishi, davlat ahamiyatiga molik ijtimoiy-pedagogik masala bo'lganligi bois uning bosh maqsadi ham hukumat tomonidan belgilab berildi: "Mamlakatimizning istiqloq yo'lidagi birinchi qadamlaridanoq, buyuk ma'naviyatimizni tiklash va yanada yuksaltirish, milliy ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, uning milliy zaminini mustahkamlash, zamon talablari bilan uyg'unlashtirish asosida jahon andozalari va ko'nikmalari darajasiga chiqarish maqsadiga katta ahamiyat berishimiz kerak"ligi ta'kidlandi. Zero, "Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari" tamoyiliga asoslangan holda... maktab ta'limini rivojlantirish biz uchun buyuk umummilliy maqsadga, umumxalq harakatiga aylanishi zarur". Har bir millatning ta'lim tizimida davlat buyurtmasi asosida ta'limning umumiy maqsadi belgilab beriladi. Davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida ta'lim-tarbiyaning maqsadi yagona bo'lib, bu yaxlitlik davlat, jamiyat va uning a'zolari munosabatlari bilan belgilanadi. Shu bois respublikamizda ta'limning umumiy maqsadi negizida ijodiy va mustaqil fikrlovchi, ma'naviy-mafkuraviy qiyofasi jamiyatning bosh g'oyasi bilan uyg'unlashgan shaxsni tarbiyalash mo'ljali yotadi. Hozirgi kunda barkamol avlod deganda "jismonan sog'lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat'iy hayotiy nuqtayi nazarga ega yoshlar" tushuniladi. Zero, ta'limdan ham, tarbiyadan ham maqsadimiz bitta: farzandlarimiz barkamol inson bo'lsin.

Rasmiy hujjatlarda ta'lim tizimiga qo'yilgan muayyan talablar o'quv jarayonining maqsad, vazifa, tur va bosqichlarini belgilab beradi. Har bir fan bo'yicha buyurtma mazmuni davlat ta'lim standartlari (malaka talablari) ko'rinishida aks etadi. Davlat buyurtmasi asosida ta'limning umumiy maqsadi belgilab berilishi soha mutaxassislari uchun sir emas.

Bu, xususan, milliyligimizning yorqin ifodasi bo'lgan ona tili ta'limi maqsadida o'zining aniq ifodasini topgan: "Maktabda ona tili ta'limi maqsadi o'z fikrini og'zaki va yozma tarzda to'g'ri va ravon bayon qila-digan, kitobxonlik madaniyati shakllangan, mustaqil va ijodiy fikrlay oladigan, o'zgarlar fikrini anglaydigan – muloqot va nutq madaniyati rivojlangan shaxsni kamol toptirishdan iborat".

Kishilarning ma'naviy saviyasi, odob-axloqi, madaniyatlilik darajasi, oliyanoblighi va, umuman, ichki dunyosining qanchalik boy ekanligi, avvalo, uning nutqidan ma'lum bo'ladi. So'zlovchiga xos ijobiy yoki salbiy fe'l-atvor ham ularning nutqida muayyan til vositalari asosida yuzaga chiqadi. Xalqimizda: "Yaxshi topib gapirar, yomon qopib" degan maqol zamirida ham nutq egasiga xos fe'l-atvorning ijobiy yoki salbiy jihatiga ishora sezilib turadi. Ba'zan juda orasta kiyingan, yurish-turishi o'ziga yarashgan kishilar bilan, ba'zan biz uchun «yulduz» darajasida

bo'lganlar bilan ozgina suhbatlashsak, qaytib bu suhbatni orzu etmasligimiz ham mumkin. Yoki aksincha.

Insonda nutq madaniyatini me'yorlashtiradigan leksik birliklar ancha. Shulardan biri evfemizmlardir.

Nutq jarayonida axloq-odob hamda hissiy talablar ta'sirida aytilishi nojoiz, noqulay bo'lgan so'zlarni yumshoq va muloyim ifodasi bo'lgan ikkilamchi nomlar, ya'ni evfemizmlar tilda alohida bir tizimni tashkil qiladi. Masalan, Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" asarida Kumushbibi maktubida shunday o'rin bor: "Sizni va otamni juda sog'indim, agarda og'ir oyoq bo'lmasam edi, qish bo'lishiga qaramasdan Marg'ilonga jo'nar edim, qudangiz, qayin onamning so'z(lar)iga qaraganda, kelasi oyda ko'zim yorir emish". (Abdulla Qodiriy. O'tkan kunlar)

Maktubdagi homiladorlik bilan bog'liq ma'nolarni aks ettirgan og'ir oyoq, ko'zi yorimoq kabi evfemizmlar xalqimizning milliy ruhi, odobi, nazokatini aks ettirgan til birliklaridir. Evfemizmlar orqali, asosan, inson ruhiyati, o'zaro munosabati, bir-biriga bo'lgan e'zosi, hurmati, takallufi aks etadi. Tom ma'noda, evfemizmlarni o'rinli qo'llash nutqni madaniylashtiradi, so'zlovchini ham, tinglovchini ham noqulaylikdan qutqaradi. Shuning uchun ham ulardan foydalanishda ehtiyotkorlik talab etiladi. O'zini jamiyatning madaniyatli a'zosi deb hisoblagan har bir kishisi uchun ham mazkur birliklardan o'rinli foydalanish o'ta muhim. Tabiiyki, bu nutq madaniyatining ifodasidir.

Ona tili mashg'ulotlarida o'quvchi uch parametr– to'g'ri o'qish, xatosiz yozish va o'qigan(eshitgan)ini to'g'ri anglay olishni egallashi zarur. O'quvchining "to'g'ri anglay olish"i uning madaniy nutqida namoyon bo'ladi. Madaniy nutq esa kishidan eshitgan, bilgan, anglaganlarini to'g'ridan to'g'ri aytish(yozish)ni emas, uni me'yor elagidan o'tkazish, ya'ni qayta ishlashni, jamiyat odob-axloq qoidalariga moslashtirishni, o'ziga xos analiz va sintezni taqozo etadi. Ana shu jarayonning amalga oshishida esa o'quvchiga eng yaqin vosita bo'lib evfemizmlar xizmat qiladi.

Bu esa maktab o'quvchilari nutqini evfemizmlar bilan boyitish zarurati va ahamiyatini belgilaydi.

Fikrimiz dalili sifatida boshqa til va nutq birliklari (masalan, frazeologik birliklar, maqol, hikmatli so'z, perifraza va h.lar)ning nutqdagi ahamiyatini inkor etmagan holda evfemizmlar madaniy nutqning eng zarur unsuri ekanligiga misol keltirishga harakat qilamiz. Masalan, Homid xotin oldi gapida xotin olmoq birligining shu holatda aytilishi o'zbekona odob-axloq me'yorlariga zid. Uning o'rnida Homid oila qurdi; Homid juftini topdi; Homid o'ziga jufti halol tanladi; Endi Homidning yostiqdoshi bor; Endi Homidning umr yo'ldoshi bor; Homid uylandi; Homid oilali, Homid ro'zg'orli kabi o'nlab evfemik birliklarni qo'llash mumkin. (Mazkur efemiyalar o'rnida bir boshini ikkita qilmoq, bir yostiqqa bosh qo'ymoq (ibora); Davraga – otin, yigitga –xotin (maqol); Voyaga yetgan er kishi xotin olmog'i farz (hadis) kabi birliklarni doimiy qo'llab bo'lmaydi. Biroq evfemik birliklarni istalgan nutqda bemalol qo'llash imkoniyati mavjud.)

Aslida, o'рта umumta'lim maktablarining ona tili mashg'ulotlarida pragmatik qiymatli topshiriqlardan foydalanish samaradorlik omili ekanligini nazardan qochirmaslik muhim va bu ona tili ta'limi mazmuni(dastur va darsliklar)da ham to'la aks etishi zarur. O'quvchi uchun pragmatik qiymatli birliklardan biri nutqiy evfemizmlar bo'lib, ular o'quvchilarda nutq madaniyatini shakllantirish va rivojlantirishga xizmat qila oladi. Vaholanki, maktabda ona tili ta'limi o'quvchilarning nutq ravonligiga xizmat qilsin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Nazarova, D. (2021). Ассимилированные слова узбекского языка и их выражение в словарях. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 6(6).

2. Назарова, Д. Ф. (2022). МАКТАБДА ОНА ТИЛИ ТАЪЛИМИ МАҚСАДИНИНГ ДОЛЗАРБ МАСАЛАЛАРИ ВА МУАММОЛАРИ. PEDAGOGS jurnali, 1(1), 115-117.

3. Nazarova, D. G. (2021). Assimilated Uzbek Language Words and their Expression in Dictionaries. European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630), 12, 262-268.

4. Nazarova, D. G. (2020). UNCONVENTIONAL WAYS OF TEACHING STUDENTS'MORPHOLOGICAL FEATURES OF NOUNS. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 8(10).

5. Nazarova, D. G. (2022). UNITY OF PURPOSE AND CONTENT IN EDUCATION. EUROPEAN JOURNAL OF MODERN MEDICINE AND PRACTICE, 2(4), 79-85.

6. Gulomovna, N. D. (2021, December). Lexicographic problems of the uzbek language. In Conferences.

7. Jobirovich, Y. M. (2022). BOSHLANG'ICH SINFLAR MATEMATIKA DARSLARINI INTEGRATSIYALASHGAN HOLDA OLIB BORISHDA TA'LIM TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH. TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIIY JURNALI, 2(12), 19-23.

8. Ярашов, М. Д., & Хамдамова, Х. (2022). МЕТОДИКА РАБОТЫ НАД РЕЧЬЮ УЧАЩИХСЯ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ. THEORY AND ANALYTICAL ASPECTS OF RECENT RESEARCH, 1(9), 138-143.

9. Jobir o'g'li, Y. M., & Roziyabonu, S. (2022). 1-SINF MATEMATIKA DARSLARIDA GEOMETRIK MATERIALLARNI O'RGATISH. THEORY AND ANALYTICAL ASPECTS OF RECENT RESEARCH, 1(9), 132-137.

10. Jobir o'g'li, Y. M., & Maftuna, S. (2022). BOSHLANG 'ICH SINFLARDA TA'LIM MAZMUNINING TAVSIFI. THEORY AND ANALYTICAL ASPECTS OF RECENT RESEARCH, 1(9), 144-147.

11. Olloqova, O. M., TA'LIM, O. T. D. I., & FOYDALANISH, T. Scientific progress.–2021. T, 2(6), 1025-1029.

12. Mamanazarovna, O. U., & Gulnoza, M. (2021). Use of didactic games in mother tongue lessons.

13. Эшматова, Ю. Б. (2020). Вопрос художественного образа и интерпретации душевного состояния женщины. Вестник науки и образования, (8-1 (86)), 55-58.

14. ESHMATOVA, Y. YAZARIN MAHARETI VE PEYZAJ TASVIRI. DİL VE EDEBİYAT ARAŞTIRMALARI I, 121.

Фольклорные данные свидетельствуют о жизни людей небольшими семейными коллективами, которые составляли стойбища, о пешем быте, об охоте на дикого оленя и котцовом рыболовстве как основных хозяйственных занятиях, о постоянной угрозе голода. В них мы находим сведения о жилище (чуме и землянке), одежде (парке из шкуры), пище, домашней утвари и т. д. Все эти данные подтверждаются и дополняются этнографическим материалом или, наоборот, сами являются его дополнением. Сюжеты героического цикла нередко становятся основным историческим источником. Так, например, из преданий мы получаем данные о конкретном месте жительства и военных столкновений народностей на пути их продвижения.

В фольклоре выявляются также факты, не известные этнографии, и в этом плане фольклор становится уникальным источником. Здесь прежде всего следует сказать о роли фольклора для совершенствования познавательного-воспитательного потенциала русского языка.

Среди устного народного творчества природа жанра, его характер делают обучение наиболее сложным. Это сложность требует активизации оригинальности мышления и её творческих возможностей.

В художественном образовании как бы ни были хороши методы, приемы, формы обучения, не зная текста фольклорного произведения, не читая его вслух и не говоря, невозможно достичь цели. Только преподаватель, хорошо знающий фольклорное произведение, может дать студенту художественное знание. Только студент, хорошо знающий текст произведения, имеет возможность самостоятельно размышлять, высказывать свое мнение, получать эстетическое наслаждение от фольклорного произведения. Значит, центральная проблема фольклористики - это работа с текстом произведения. Вместе с тем, на занятиях по русскому языку и литературе большое значение имеет анализ фольклорного материала как художественного произведения. А для того, чтобы анализировать, требуется глубокое освоение фольклорного текста.

Известно, что устное народное творчество народа очень богато и многогранно. С древнейших времен у наших предков была школа воспитания человека - школа слова. Для молодых поколений, т.е. молодежи, словесные и воспитывающие посредством художественного мира сказки, легенды, пословицы, прекрасные песни, впечатляющий своим объемом, художественной глубиной эпос, были отличной школой воспитания.

Обновление содержания учебно-воспитательной работы, изменение ее форм поднимает на новый качественный уровень преподавание русского языка и литературы. В этом деле велика роль методики преподавания русского языка и русской литературы, том числе преподавание устного народного творчества, потому что в фольклоре высоко художественно отражаются многовековая общественная жизнь народа, его история, надежда на будущее. Передача молодым поколениям опыта предков, в развитии их мировоззрения и в воспитании.

В современной модели обучения в центре системы находится ученик, выполняющий обязанности инициативной личности. В группе нужно воспитывать ученика, и на фольклорных материалах, активно участвующего на занятиях, умеющего высказывать свое мнение, критически мыслящего, способного принимать правильные решения. Информация не дается в готовом виде, указываются пути ее изучения, и учащиеся сами добывают информацию. Такой подход приемлем и в развитии познавательных качеств на базе фольклорных произведений.

Сегодня общепризнанным стал вывод о необходимости глубоко знать специфику родной страны и страны изучаемого языка: ее устное народное творчество, историю, культуру, традиции и обычаи и тд. Уровень культурной грамотности человека включает также минимум национально - культурной информации, сведений страноведческого и краеведческого аспекта.

Изучая фразеологию, написано множество книг, статей, диссертаций, но интерес к ней не иссякает ни у тех, кто просто неравнодушен к слову и ни у исследователей. Подтверждается точность формулы, высказанной известным датским ученым Отто Есперсеном, еще на заре века, который назвал фразеологию “деспотически капризной и неуловимой вещью”. Сам факт наличия в языке помимо слов целых словесных комплексов, которые иногда тождественны слову, а чаще являют собой уникальный лингвистический феномен, отличающийся яркой выразительностью, образностью и эмоциональностью, служит для нас поводом к тому, чтобы исследовать именно этот раздел языкознания. Русский язык – это национальный язык русского народа, обладающего богатейшими традициями, высочайшей культурой. Научное изучение русского языка начинается там, где к объективно протекающему процессу овладения родной речью прибавляется элемент осознания свойственных языку закономерностей. Важнейшая задача при изучении русского языка это - задача овладения выразительной и грамотной

речью. Овладение фразеологическим богатством русского языка помогает в значительной степени повысить культуру речи, которая, к сожалению, недостаточно высока и оставляет желать лучшего.

Фольклор давно и прочно вошло в практику работ образовательных учреждений и было обусловлено стремлением обучать языкам не только как способу выражения мыслей, но и как источник познания своего края. Ведь человек постигает культуру народа в тех условиях, в которых он живет. Социализация личности формируется и в родной среде. В связи с этим важно сохранение национальной культуры и самобытности народа.

Таким образом, мы можем сказать, что сколько бы ни ввели новшеств в обучение, фольклор всегда является основополагающей. Используя народные традиции, мудрость, в воспитании в учащихся человечности, уважения старших, храбрости, патриотизма, дружбы, доброжелательности, заботливости, доброты, мы не должны забывать, что средством воспитания является родной язык и народная литература. О роли фольклора в воспитании человека Л.Н. Толстой говорил: «Самая главная наука известная человеку - эта наука о том, как меньше творить зло и больше творить добро».

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Аджеминова Э. Р. ВЛИЯНИЕ ИДИОЭТНИЧЕСКОГО АСПЕКТА НА РАЗВИТИЕ ФРАЗЕОЛОГИИ //TA'LIM VA RIVOJLANISH TAMLILI ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2021. – Т. 1. – №. 5. – С. 99-103.
2. Аджеминова Э. Р., Бадалова Ш. А. Когнитивная ценность фразеологизмов //Вестник магистратуры. – 2021. – №. 4-1 (115). – С. 110-113.
3. Акбаров О. А., Джагаспанян Р. Н., кизи Акрамова Н. А. ПРИРОДА КАК ОДИН ИЗ ОБРАЗОВ ПОЭТИЧЕСКОЙ МОДЕЛИ МИРА В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ ВМ ШУКШИНА //INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE" THE TIME OF SCIENTIFIC PROGRESS". – 2022. – Т. 1. – №. 3. – С. 62-70.
4. Акбаров О. А., Джагаспанян Р. Н., Исмаилов Р. С. ФУНКЦИЯ ОБРАЗА ПРИРОДЫ КАК ОБЪЕКТ ФИЛОЛОГИЧЕСКОГО ИССЛЕДОВАНИЯ //IJODKOR O'QITUVCHI. – 2022. – Т. 2. – №. 24. – С. 195-200.
5. Nikolayevich D. R., Ermekovich A. T. ARTISTIC AND AESTHETIC FUNCTION OF THE LANDSCAPE IN SHUKSHIN'S PROSE //Gospodarka i Innowacje. – 2022. – Т. 27. – С. 108-113.
6. Аджеминова Э. Р. ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИЕ ЕДИНИЦЫ И ИХ ОБРАЗНОСТЬ В ЯЗЫКОВОЙ КАРТИНЕ МИРА ПРЕДСТАВИТЕЛЕЙ ВОЕННОЙ СУБКУЛЬТУРЫ //International scientific journal of Biruni. – 2022. – Т. 1. – №. 2. – С. 388-394.
7. Rifatovna A. E. Anthropocentrism of Phraseology //Web of Scholars: Multidimensional Research Journal. – 2022. – Т. 1. – №. 5. – С. 198-200.

NANOSTRUKTURALI YARIM O'TKAZGICHLAR FIZIKASINING AYRIM MUAMMOLARI

M.R. Jumayev

BuxDU fizika kafedrası dotsenti

B.B. Mamatov

BuxDU magistranti

N.A. Muhammadiyev

BuxDU magistranti

Annotasiya: *Maqolada nanostrukturali yarim o'tkazgich tuzilmada kuzatiluvchi o'lchamli kvantlashuv hodisasining sodir bo'lish shartlari tahlil etilgan.*

Kalit so'zlar: *nanoo'lchamli geterostrukturalar, ikki o'lchovli, bir o'lchovli va nol o'lchovli tizimlar.*

1. So'nggi yillarda nanostrukturali yarim o'rkazgichlarda sodir bo'luvchi kvant - o'lchamli hodisalar, jumladan, ulardagi tok tashuvchilar statistikasi va holatlar zichligi, optikaviy hamda kinetik jarayonlarni tadqiq etish kondensirlangan holatlar fizikasining muhim istiqbolli yo'nalishlaridan biriga aylanadi. Bu, tabiiyki, zamonaviy nanoelektronika kun tartibiga qo'ygan va uning rivojlanishini belgilab beruvchi qator ilmiy muammolarning quyilishi bilan bevosita bog'liqdir. Bunga sabab qattiq jismlar fizikasining hozirgi taraqqiyoti kristall strukturali yarim o'tkazgichlar, metallar yoki magnetiklar bilan emas-kvant-o'lchamli o'ta yupqa ko'p qatlamli geterostrukturalar, kristallitlarning yaratilishi bilan belgilaniladi.

Kvant mexanikasidan yaxshi ma'lumki, kvant-o'lchamli strukturalar ya'ni o'lchami de Broyl to'lqin uzunligi tartibida bo'lgan tizimlarda energiyaning kvantlashuvi ro'y beradi va u diskret qiymatlarini qabul qiladi. Natijada zarralarning energetik spektri tubdan o'zgaradi. Bu esa ularda odatdagi monokristall strukturalarda kuzatilmaydigan unikal noyob xossalarni paydo qiladi.

2. Kvant o'lchamli yarim o'tkazgich strukturalarga quyidagi tuzilmalarni kiritish mumkin: ikki o'lchovli epitaksial qatlamlar, metal-dielektrik-yarim o'tkazgich (MDYaO') strukturalar, geterostrukturalar; bir o'lchovli-kvant "iplar"; nol o'lchovli – kvant nuqtalar yoki kristallitlar.

Kvant o'lchamli strukturalarda o'lchamli kvantlanish namoyon bo'lishi uchun, yuqorida takidlaganidek, u zarraning harakatiga mos keluvchi de Broil to'lqin uzunligi tartibida bo'lishi lozim. Boshqa tomondan esa diskret energetik sathlar farqi zarralarning issiqlik harakati energiyasidan katta bo'lishi lozim:

$$\Delta E(n + 1, n) = E_{n-1} - E_n \gg kT \quad (1).$$

Bu yerda: k- Bolsman doimiysi, T-qaralayotgan tizimdagi absolyut harorat, shuningdek tok tashuvchi zarralarning bir-birida sochilishi oqibatida yuzaga keluvchi energiya sathlarining kengayishi yuqoridagi energetik farqdan katta bo'lmasligi kerak, ya'ni Geyzenbergning noaniqlik munosabatlariga muvofiq:

$$\frac{\hbar}{\tau} \ll \Delta E(n+1, n) \quad (2).$$

Bu yerda: $(n+1, n)$ ikki diskret sath orsidagi energiya farqi, τ – zarrachaning o'rtacha erkin yugurish vaqti anglatadi va quyidagicha topiladi:

$$\tau = \frac{m^* \mu}{l} \quad (3).$$

Bu yerda; m^* zarralarning effektiv massasi, μ tok tashuvchining harakatchanligi, tok tashuvchining zaryadi.

Xulosa

Agar zarracha harakat qila oladigan sohaning o'lchami a ga teng bo'lsa, Geyzenbergning boshqa noanialik munosobatiga ko'ra:

$$p \cdot a \approx \hbar \quad (4)$$

Demak, zarrachaning tezligi $v = \frac{p}{m^*} \equiv \frac{\hbar}{m^* a} \quad (5)$ hamda uning o'rtacha

erkin yugurish vaqtini $\tau = \frac{l}{v} = \frac{l \cdot m^* a}{\hbar} \quad (6)$ ko'rinishida yozish mumkin.

U holda (3) – (6) ifodalarni inobatga olgan holda quyidagi muhim tengsizlikni hosil qilamiz: $\frac{\hbar^2}{L m^* a} \ll \frac{\hbar^2}{m^* a^2}$, (7) yoki zarrachaning o'rtacha erkin yugurish yo'li L – kvant o'lchamli struktura o'lchamli a dan juda ham katta bo'lishi lozim ya'ni: $a \ll L$ (8).

Shunday qilib, nanoo'lchamli yarimo'tkazgich strukturalarda o'lchamli kvantlashuv sodir bo'lishi uchun: mumkin qadar quyi harorat, tok tashuvchilarning katta harakatchanligi va eng muhimi juda kichik o'lchamli tizimlar ishlab chiqish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Шик А.Я., Бакуева Л.Г., Мусихин С.Ф., Рыков С.А. Физика низко - размерных систем / Под ред. А.Я. Шика. – СПб.: Наука, 2001. 160 с.
2. Воронов В.К., Подоплелов А.В. Современная физика: Учебное пособие, - М.: КомКнига, 2005. 512 с.
3. Воробьев Л.Е., Ивченко Е.Л., Фирсов Д.А., Шалыгин В.А. Оптические свойства наноструктур: Учеб. Пособие / Под ред. Е.Л. Ивченко и Л.Е. Воробьева. СПб.: Наука, 2001. 188 с.
4. Новости нанотехнологий. Журнал НМСТ. 2005. №2.

УДК: 616.995.1.616.995.121

САМАРҚАНД ВИЛОЯТИНИ НУРОБОД ТУМАНИДА ИТЛАРНИНГ ГЕЛЬМИНТЛАР БИЛАН ЗАРАРЛАНИШИ

Арзиев Хидир Юлдашович

в.ф.н, катта ўқитувчи (СамДВМЧБУ НФ, ветеринария кафедраси)

Tog'aymuradov Mansur Salomatovich

*(Institute of Termez agrotechnologies and Innovative Development,
Department of Zootenry, Veterinary Medicine and silkworm breeding)*

Резюме: В этой статье представлены данные по распространенности гельминтозов среди собак Нурабодского района Самаркандской области. Зараженность среди собаки составлял в 11,2 % Нурабодского района.

Калит сузлар: Ветеринария, паразит, гельминт, гижжасизлантириш, ценуроз, эхинококкоз, профилактика, онкосфера, личинка, протосколекс, препарат, Пиперазин, Фебантел, Ареколин, Празиквантел, Бунамидин, Мебендазол, Нитросканат, Фенбендазол, Флубендазол, Оксibenдазол, Тетрамизол, Ивермектин, Политрем.

КИРИШ

Итлар инсонларга тез ўрганувчан ҳайвон ҳисобланади. Шунинг учун ҳам итлар уй ҳайвонлари дейилади. Одамлар итлардан кўпинча кўриқлаш мақсадида фойдаланиб келган, лекин итларнинг ноёб хусусиятлари туфайли ҳозирги вақтда турли хил вазифаларда фойдаланилади. Масалан: Божхона постлари ва чегара ҳудудларида гиёҳванд моддалар, ҳамда портловчи моддаларни излаб топиш, жиноятчиларни изларини топиш, ҳарбий объектлари кўриқлаш учун сақланса, одамлар ўз уйларида ҳовлини кўриқлаш, баъзилар эса ит ўриштириш учун айрим одамлар иштиёқ туфайли ҳам итларни парваришлайди. Сақланаётган итларнинг фойдали томонлари билан бир қаторда уларнинг зиён келтирадиган томонлари ҳам йўқ эмас. Итлар бир қанча паразитар ва юқумли касалликлар қўзғатувчиларини ўзида олиб юриб доимий равишда тарқатиб туради. Итлар кўпинча одамларга эркаланиб суйкалганида паразит тухумларини ўтказиши мумкин, лекин асосан итлар нажас чиқарганда кўкатлар, полиз экинлари, мевалар, тоқлар, қишлоқ хўжалик экинлари экилган майдонларга бориб бирор нарсага ўзи билан олиб юрган гельминт тухумларини юқтиради. Одамлар гельминт тухумлари билан зарарланган маҳсулотларни истеъмол қилганда паразит тухумлари билан зарарланади ва кейинчалик гельминтлар миграцияси ҳамда ривожланиш циклига мувофиқ одамларда касаллик аломатлари пайдо бўлади. Гельминтоз касалликлари итлардан одамларга юқшини бундан бир неча юз йиллар олдин одамлар англаб етганлар ва итлардаги гельминтларни

тушириш, яъни гижжасизлантириш учун отларни ёли ва думидаги қилни, одамларни сочларини майдалаб ва айрим антигельминтик хусусияти бор ўсимликларни итларга едириш усулларидадан фойдаланганлар. Кейинги йилларда фаннинг ривожланиши натижасида итларнинг гельминтозларига қарши бир неча юзлаб антигельминтиклар кашф қилинди ва уларнинг қўллаш схемалари ишлаб чиқилди.

Итларни гижжасизлантириш схемалари тўғрисида олимлар орасида хилма-хил фикрлар мавжуд. Баъзи олимлар гижжасизлантириш схемаси ва муддатлари паразитни ривожланиш қонуниятига, айримлари тарқалиш ҳолатига қараб белгиланиши, бошқалари эса иқтисодий жиҳатларини ҳисобга олган ҳолда ўтказишни тавсия этадилар. Ҳар қандай ҳолатда ҳам гижжасизлантиришда ит организмидан паразит гижжаларни ташқарига чиқариш талаб этилади. Натижада итлар орқали тарқалаётган бир қанча биогельминтларнинг тараққиёт занжири узилади ва ҳайвонлар орасида зарарланиш камаяди.

Ўзбекистонда итларни гижжасизлантириш бўйича илмий тадқиқот ишлари XX асрнинг ўрталаридан бошлаб ривожлана бошлади. М.И.Сополченко (1939 й.) Сурхондарё вилояти “Оққопчиғай” қоракўлчилик хўжалигида итларни йилига уч марта, яъни апрель, июль ва сентябрь ойларида гижжасизлантириб, қўйлар орасида ценуроз ва эхинококкоз касалликларини кескин камайитиришга эришган.

В.И.Еремин (1951 й.) маълумотларига кўра Туркменистон шароитида отар итларини йилига 4 марта баҳор, ёз, куз ва қиш фаслларида гижжасизлантириш мақсадга мувофиқ ҳисобланади.

Г.И.Ронжина (1953 й.) Россия Федерациясининг Саратов вилоятида олиб борган тадқиқотлар жараёнида ҳайвонлар ва одамлар орасида ценуроз ва эхинококкоз касалликларини тарқатмаслиги учун итларни йилига 4 марта, яъни март, май, август ва ноябрь ойларида гижжасизлантириб, яхши натижаларга эришганлиги ҳақида ёзадилар.

Профессор В.И.Пухов ва И.И.Зинченколар (1958 й.) Россия федерациясининг Ставропол ўлкасида ўтказган тадқиқотлари натижаларига таяниб ҳайвонларни ценуроз ва эхинококкоз касалликларидан сақлаш мақсадида итларни йилига 8 марта, яъни ҳар қирқ беш кунда гижжасизлантириб, бориш илмий нуқтаи назардан тўғри деб ҳисоблайдилар ва чорвачилик хўжаликларидан даврий равишда ўтказиб туришни тавсия қиладилар.

М.А.Аминжонов ва Б.Н.Ҳакимов (1990 й.) маълумотларига кўра Ўзбекистон Республикасининг Самарқанд, Қашқадарё, Навоий ва Бухоро вилоятлари қоракўлчилик хўжаликларидан итларни йилига 4 марта гижжасизлантирилганда яхши натижаларга эришганлигини таъкидлайдилар.

И.А.Архипов (2001) маълумотида кўра гўштхўр ҳайвонларни гижжасизлантириш учун Пиперазин, Фенасал, Празиквантел, Пирантел,

Ареколин, Бунамидин, Мебендазол, Нитросканат, Фенбендазол, Флубендазол, Оксibenдазол, Фебантел, Тетрамизол, Ивермектин, Политрем каби антгельминтиклардан фойдаланиш мақсадга мувофиқ ҳисобланади.

И.А.Субботина, Б.Н.Бакыев (2018) маълумотларига қараганда Туркменистонда итлар эхинококклар билан 28-57 фоизгача, мультицепслар билан эса 13-23 фоизгача зарарланган.

О.Н.Андреянов (2018) маълумотида кўра Россия Марказий Федерал округининг жанубий шарқий қисмида йиртқич сут эмизувчилар ҳар хил турдаги гельминтлар билан 37,5-50,0 фоизгача зарарланган. Умумий гельминтлар билан зарарланиш 49,4 фоизни ташкил қилган.

Б.К.Лайпанов (2018) маълумотида кўра итларни йилига 4 марта гижжасизлантириш ҳам инсонларни эхинококкоз касаллигидан сақлашни тўлиқ таъминлай олмайди. Эхинококкоз билан касалланган бир одамни даволаш учун Россия шароитида 15000 россия рубль, фақат жарроҳлик йўли билан эхинококк пуфагини олиб ташлаш учун 800-1400 АҚШ доллори сарфланади.

Итларни гижжасизлантириш борасида фақат уларнинг муддатларига қараб эмас, ҳайвонларни балки гижжасизлантириш учун ишлатидаётган антгельминтиклар таъсир доирасига қараб ҳам тавсия этилади. Ишлаб чиқариш шароитида синовдан ўтган юқори самарали антигельминтикларни қўллаш орқали антропозооноз гельминтозларни олдини олишга эришиш мумкин.

ТАДҚИҚОТЛАРНИНГ МАҚСАДИ:

Нуробод туманининг чўл яйлов минтақасида итларни цестодозлар ва бошқа гельминтозлар билан зарарланиш даражасини ўрганиш ва уларга қарши самарали антигельминтикларни синовдан ўтказиш.

ТАДҚИҚОТЛАРНИНГ ВАЗИФАЛАРИ:

1. Нуробод туманида итларнинг гельминтлар билан умумий зарарланишини аниқлаш.

2. Итларда паразитлик қилаётган гельминт турларини аниқлаш.

Тадқиқот метериаллари ва усуллари: Тажрибалар Самарқанд Нуробод туманига қарашли “Жарқудуқ”, “Чангали” қишлоқларидаги аҳоли қарамоғидаги 250 бош қишлоқ итларида олиб борилди. Итларни гижжасизлантириш М.Аминжанов (1987) усулига кўра ўтказилди. Гижжасизлантириш учун водород бромидли ареколин препаратининг 0,01 фоизли сувли эритмаси ишлатилди. Препарат эритма ҳолида итларга ҳар кг тирик оғирлигига нисбатан 5 мг миқдорида ит боғлиқ ҳолида оғиз орқали (per os) берилди. Сўнгра итлар ахлати билан гельминтларни организмидан ташқарига чиқарганидан сўнг бўшатиб юборилди. Ажратилган гельминтлар алоҳида идишларга йиғиб олинди. Итларни ахлати паразит тухумлари билан биргаликда йиғиштирилиб куйдириб йўқотилди.

Тадқиқот натижалари: Текширилган итларнинг гельминтлар билан зарарланиш натижалари № 1 жадвалда келтирилган.

Итларни гельминтлар билан зарарланиши

№	Қишлоқ номи	Текширилган ит сони	Зарарланит сони	фоиз	Топилган гельминтлар					
					Эхинококк		Мультицепс		Т.гидатигена	
					сони	фоиз	сони	фоиз	сони	фоиз
1	Жарқудуқ	135	9	6,6	-	-	3	2,22	6	4,44
2	Чангали	115	19	16,5	2	1,73	4	3,47	13	11,3
	Туман бўйича	250	28	11,2	2	0,8	7	2,8	19	7,6

Жадвал №1

Жадвал маълумотларидан кўришиб турибдики, Нуробод туманидан текширилган 250 бош итлардан 28 бошида (11,2 фоиз) гельминтлар кузатилди. Шундан 2 бошида эхинококк (0,8 фоиз), 7 бошида мультицепс (2,8 фоиз), 19 бошида Т. гидатигена (7,6 фоиз)лар топилди. Жарқудуқ қишлоғидан текширилган 135 бош итлардан эхинококклар топилмади, 3 бошида (2,22 фоиз) мультицепслар, 6 бошида (4,44 фоиз) Т.гидатигена, Чангали қишлоғидан текширилган 115 бош итлардан 2 бошида (1,73 фоиз) эхинококклар, 4 бошида (3,47 фоиз) мультицепслар, 13 бошида (11,3 фоиз) Т.гидатигена гельминтлари борлиги аниқланди. Итларни гижжасизлантириш чоғида водород бромидли ареколин препаратининг ҳеч қандай ножуя таъсири кузатилмади.

Нуробод туманида итлар орасида *E. granulosus*, *M. multiceps* ва *T. hidatigena* гельминтлари тарқалганлиги аниқланди. Топилган гельминтлардан эхинококк ва мультицепсларга нисбатан Т.гидатигена билан (7,6 фоиз) зарарланиш нисбатан юқори эканлиги қайд қилинди.

Хулоса: 1. Нуробод тумани, яъни чўл-яйлов минтақасида итларнинг гельминтлар билан зарарланиши 11,2 фоизга тўғри келди.

2. Нуробод туманида итлар орасида *E. granulosus*, *M. multiceps* ва *T. hidatigena* гельминтлари тарқалганлиги аниқланди.

3. Текширилган итларнинг гельминтлар билан зарарланиш даражаси эхинококклар (0,8 фоиз), мультицепслар (2,8 фоиз), Т. гидатигеналар (7,6 фоиз) га тенг бўлди.

ҒОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Аминжонов М.А., Хакимов Б.Н. и др. Опыт борьбы с ларвальными цестодами в каракулеводческих хозяйствах.// Ветеринария 1990. № 9. С.-50-51.
2. Андреянов О. Н. «Токсакороз плотоядных в условиях естественного биоценоза»./Сборник научных трудов. Международной учебно методической и научно-практической конференции, посвященной 140-летию со дня рождения академика К.И.Скрябина. 15-16 ноября 2018 года. С-46-49.
3. Архипов И.А. «Особенности применения антгельминтиков на разных видах животных»./Труды Всесоюзного института гельминтологии. Им. К.И.Скрябина. 2001 г. том 38. С -3-24.
4. Еремин В.И. Борьба с ценурозом (вертячкой) овец.// Каракулеводство и звероводство. 1951. № 6. С. 62-64.
5. Лайпанов Б.К. «Эхинококкоз как мировая эпизоотическая, социально-экономическая и медико-биологическая проблема, пути её решения». / Сборник научных трудов. Международной учебно методической и научно-практической конференции, посвященной 140-летию со дня рождения академика К.И.Скрябина. 15-16 ноября 2018 года. С-186-190.
6. Сополченко М.И. Опыт оздоровления овцеводческого хозяйства от эхинококкоза и ценуроза. // Ветеринария 1939. № 5. С.-51.
7. Субботина И.А., Бакыев Б.Н. «Эхинококкоз и ценуроз овец-современное состояние. Проблемы в Туркменистане». / Сборник научных трудов. Международной учебно методической и научно-практической конференции, посвященной 140-летию со дня рождения академика К.И.Скрябина. 15-16 ноября 2018 года. С-306-310.
8. Пухов В.И. и Зинченко И.И. Пути осуществления ликвидации ценуроза и эхинококкоза с последующей девостацией их возбудителей.// Бюллетен науч. Тех. информ. ВИГИС № 2 . 1958. С.-35-38.
9. Ронжина Г.И. Ранняя диагностика ценуроза овец. Работа по гельминтология к 75-летию К.И.Скрябина. 1953. С-587-597.

KOMPTON EFFEKTI

Eshqorayev Husanbek Iskandar o'g'li
 Toshtemirov Botir Rustam o'g'li
 Shoydullayev Jasur Sheraliyevich

Annotatsiya: *Elektromagnit nurlanishi korpuskulyar xususiyatga ega ekanligini tasdiqlovchi hodisalardan yana biri Kompton tajribasidir. Mazkur tajribada fotonlar bilan elektronlarning o'zaro to'qnashuvi katta bo'lgan energiyalarda o'rganildi. Kompton turli yo'nalishda sochilgan rentgen nurlarini o'lchash bilan bir qatorda sochilgan nurlarning to'lqin uzunligini o'lchashga muvaffaq bo'ldi. Eksperimentning natijalari energiya va impulsning saqlanish qonunlarining fotonlar va elektronlar uchun o'rinli ekanligini to'la tasdiqladi, chunki bu tajribada foton impulsi ham o'lchangan edi. Shu bilan birga bu tajriba fotonning naqadar to'g'ri ekanligini ham isbotladi. Kompton formulasida doimiylikni paydo bo'lishi esa foton – elektron to'qnashuvi kvant xarakteriga ega ekanligini ko'rsatadi. ni elektromagnit spektri shkalasini barcha sohalarida ro'y beradigan hodisalarida ishtirok etish uning universal doimiylik ekanligidan xabar beradi. uni issiqlik nurlanish jarayonida fotoeffekt va Kompton effektida paydo bo'lishi albatta, oddiy hol emas edi. Bu mikroolamdagi barcha jarayonlar kvant hodisalar ekanligini ko'rsatar va ularni tushuntirish uchun kvant nazariyasi yaratilishi kerak ekanligini taqozo etadi.*

Kalitso'zlar: *Kompton effekti , rentgen nurlari, Elektromagnit nurlanishi, fotoeffekt, Plank doimiysi*

KIRISH

Kompton effekti — elektromagnit nurlanishlar erkin yoki kuchsiz bog'langan elektronlar bilan to'qnashib sochilganda ularning to'lqin uzunligi o'zgarishi hodisasi. [[1922-yilda Kompton Artur Xolli kashf qilgan. Kompton effekti yorug'likning kvant nazariyasini tasdiklovchi dastlabki amaliy kashfiyot. Kvant nazariya bu effektini ikki zarra — foton va elektronning to'qnashishi, deb tushuntiradi. Foton erkin qo'zg'almas elektronlar bilan to'qnashib sochilganda energiyasining bir qismini elektronlarga beradi hamda harakat yo'nalishi va chastotasini o'zgartiradi. Demak, to'qnashish vaqtida foton energiyasi kamayadi, to'lqin uzunligi X esa ortadi. Foton elektron bilan to'qnashganda to'lqin uzunligining o'zgarishi to'shayotgan yorug'likning boshlang'ich to'lqin uzunligiga emas, faqat zarraning sochilish burchagi 9 ga bog'liq. Bu formula "u-nurning moddadan sochilishi uchun ham, shuningdek, rentgen nurlarning yengil moddalar (grafit, parafin va boshqalar)dan sochilishi uchun ham o'rinlidir. Fotonlar harakatdagi elektronlardan sochilayotganda LX faqat v gagina emas, elektronlarning boshlang'ich energiyasiga ham bog'liq bo'ladi. Fotonlarning $c \sim v$ tezlikda harakatlanayotgan elektronlardan sochilayotgan holatida teskari Kompton effekti kuzatiladi. Bunda elektronlar energiyasining bir qismini fotonlarga berishi natijasida fotonlarning to'lqin uzunligi kamayadi. Kompton

effekti moddaga to'shayotgan foton energiyasi elektronning chiqish ishidan bir necha ming marta katta bo'lganida kuzatiladi. Bu hodisa bilan yorug'lik bosimi, rentgen nurlarining kvant xususiyatlari, yorug'likning elektromagnit to'lqin va foton (zarra) nazariyasi va boshqa tushuntiriladi. Tasavvur qiling, siz aks-sado qaytadigan joyda qattiq qichqirdingiz. Albatta, sizning tovushingiz o'zingizga bir necha martadan qayta-qayta eshitiladi va u siz qanday qichqirgan bo'lsangiz, o'sha tovush chastotasida qaytadi. Tovushingiz hech qachon bir oktava past bo'lib qaytmaydi. Ammo lekin, rentgen to'lqinlari borasida bunday deyishning iloji yo'q. 1923-yilda fizik olim Artur Kompton (1892-1962) rentgen nurlarining elektronlarga tushishi natijasidagi tarqoq nurlanishlarning chastotasi va energiyasi pastroq bo'lishini ko'rsatib bergan. Bu ko'pchilik olimlar uchun kutilmagan hol bo'ldi. Chunki, elektromagnit nurlanishlarning klassik to'lqin nazariyasida bunday effekt ko'zda tutilmagan edi. Sochilgan rentgen nurlarining zarrachalari o'zini xuddi bilyard sharlari singari tutardi. Ya'ni, ularning energiyasining ma'lum qismi, o'zi borib urilgan elektronga uzatilar edi. Boshqacha aytganda, rentgen nurlari zarrachalarining boshlang'ich impulsining ma'lum qismini elektron o'ziga qabul qilib olardi. Bilyard sharlari bilan bog'liq holatda, sochilib ketgan bilyard sharlarining energiyasi, ularning to'qnashuvdan keyin qanday burchak ostida tarqalishiga bog'liq bo'ladi. Shunga o'xshash, ya'ni, burchak bilan aloqadorlikni Kompton rentgen nurlari zarrachalari va elektronlarning to'qnashuvida ham mavjud bo'lishini aniqladi. Kompton effekti kvant nazariyasining haq ekaniga yaqqol isbot o'laroq maydonga chiqdi. Ya'ni, u yorug'likning bir vaqtning o'zida ham to'lqin va ham korpuskulyar xususiyatlarga ega ekanini tasdiqladi. Bundan avvalroq, Albert Eynshteyn tomonidan, fotoeffekt hodisasini, ya'ni, mis plastina yuzasini muayyan chastota diapazondagi yorug'lik bilan yoritilganida, uning sirtidan elektronlar uchib chiqish jarayonini ham kvant nazariyasi orqali tushuntirish mumkinligi ko'rsatib berilgan edi. Bunda ham, yorug'likni zarrachalar oqimi deb tasavvur qilinadi. Hozirda, fizikada yorug'lik zarrachalarini fotonlar deb yuritiladi. Agar, rentgen nurlari to'lqinlariga hamda elektronlarga mumtoz model nuqtai nazaridan yondoshilsa, unda, qoidaga ko'ra, elektronlar ham, kelib tushayotgan to'lqin chastotasida tebranishni boshlashi, bundan kelib chiqib esa, ularning o'zi ham aynan shu chastotadagi to'lqinlar taratishi kerak edi. Biroq, Kompton yaqqol ko'rib turibdiki, rentgen nurlari bilan amalda bunday bo'lmayapti. Kompton rentgen nurlarini ham xuddi fotonlar singari deb tasavvur qildi va fiziklarga yaxshi ma'lum bo'lgan ikkita formula $E=hf$ va $E=mc^2$ dan kelib chiqib, rentgen nurlari zarrachasini $p=hf/c$ impulsiga ega bo'ladi deb qabul qildi. Kuzatish va tajribalar esa, ushbu taxminni mutlaqo to'g'ri ekanini tasdiqladi. Ushbu formulalarda E - energiya, f - foton chastotasi, c - yorug'lik tezligi, m - massa, h esa Plank doimiysi. Kompton effektini qayd etish tajribalarida, elektronlarni atomlarga tortilish kuchini inobatga olinmaydi va elektronlarni o'zini alohida, erkin obyektlar deb qaraladi va ular istalgan tarafga sochilishi mumkin deb qabul qilinadi.

ADABIYOTLAT TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Sochilgan rentgen nurlarining zarrachalari o'zini xuddi bilyard sharlari singari tutardi. Ya'ni, ularning energiyasining ma'lum qismi, o'zi borib urilgan elektronga uzatilar edi. Boshqacha aytganda, rentgen nurlari zarrachalarining boshlang'ich impulsining ma'lum qismini elektron o'ziga qabul qilib olardi. Bilyard sharlari bilan bog'liq holatda, sochilib ketgan bilyard sharlarining energiyasi, ularning to'qnashuvdan keyin qanday burchak ostida tarqalishiga bog'liq bo'ladi. Shunga o'xshash, ya'ni, burchak bilan aloqadorlikni Kompton rentgen nurlari zarrachalari va elektronlarning to'qnashuvida ham mavjud bo'lishini aniqladi. Kompton effekti kvant nazariyasining haq ekaniga yaqqol isbot o'laroq maydonga chiqdi. Ya'ni, u yorug'likning bir vaqtning o'zida ham to'lqin va ham korpuskulyar xususiyatlarga ega ekanini tasdiqladi. Bundan avvalroq, Albert Eynshteyn tomonidan, fotoeffekt hodisasini, ya'ni, mis plastina yuzasini muayyan chastota diapazondagi yorug'lik bilan yoritilganida, uning sirtidan elektronlar uchib chiqish jarayonini ham kvant nazariyasi orqali tushuntirish mumkinligi ko'rsatib berilgan edi. Bunda ham, yorug'likni zarrachalar oqimi deb tasavvur qilinadi. Hozirda, fizikada yorug'lik zarrachalarini fotonlar deb yuritiladi.

Agar, rentgen nurlari to'lqinlariga hamda elektronlarga mumtoz model nuqtai nazaridan yondoshilsa, unda, qoidaga ko'ra, elektronlar ham, kelib tushayotgan to'lqin chastotasida tebranishni boshlashi, bundan kelib chiqib esa, ularning o'zi ham aynan shu chastotadagi to'lqinlar taratishi kerak edi. Biroq, Kompton yaqqol ko'rib turibdiki, rentgen nurlari bilan amalda bunday bo'lmayapti. Kompton rentgen nurlarini ham xuddi fotonlar singari deb tasavvur qildi va fiziklarga yaxshi ma'lum bo'lgan ikkita formula $E=hf$ va $E=mc^2$ dan kelib chiqib, rentgen nurlari zarrachasini $p=hf/c$ impulsiga ega bo'ladi deb qabul qildi. Kuzatish va tajribalar esa, ushbu taxmini mutlaqo to'g'ri ekanini tasdiqladi. Ushbu formulalarda E - energiya, f - foton chastotasi, c - yorug'lik tezligi, m - massa, h esa Plank doimiysi. Kompton effektini qayd etish tajribalarida, elektronlarni atomlarga tortilish kuchini inobatga olinmaydi va elektronlarni o'zini alohida, erkin obyektlar deb qaraladi va ular istalgan tarafga sochilishi mumkin deb qabul qilinadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Mikrokosmosdagi potentsial to'siq ko'pincha elektr kuchlari tomonidan yaratiladi va birinchi marta bu hodisa atom yadrolari zaryadlangan zarrachalar bilan nurlanganda duch keldi. Musbat zaryadlangan zarrachaning, masalan, protonning yadroga yaqinlashishi foydasizdir, chunki qonunga ko'ra, proton va yadro o'rtasida itaruvchi kuchlar harakat qiladi. Shuning uchun protonni yadroga yaqinlashtirish uchun ishni bajarish kerak; potentsial energiya grafigi shaklda ko'rsatilgan shaklga ega. 1. To'g'ri, protonning yadroga yaqinlashishi (sm masofada) bo'lishi kifoya, chunki kuchli yadro tortilish kuchlari darhol o'yinga kiradi (kuchli o'zaro ta'sir) va u yadro tomonidan ushlanadi. Har doimgidek kvant mexanikasi, protonning yadroga kirib borishini aniq aytish mumkin emas. Ammo potentsial to'siqning bunday tunnel o'tishining ma'lum bir ehtimoli bor. Bu ehtimollik qanchalik katta bo'lsa, energiya

farqi qanchalik kichik bo'lsa va zarrachaning massasi shunchalik kichik bo'ladi (bundan tashqari, ehtimollikning kattalikka bog'liqligi juda keskin - eksponent).

Tunnel qurish g'oyasiga asoslanib, D. Kokkroft va E. Uolton 1932 yilda Kavendish laboratoriyasida yadrolarning sun'iy bo'linishini kashf etdilar. Ular birinchi tezlatgichni qurishdi va tezlashtirilgan protonlarning energiyasi potentsial to'siqni engib o'tish uchun etarli bo'lmasa-da, protonlar tunnel effekti tufayli yadroga kirib, yadroviy reaksiyaga sabab bo'ldi. Tunnel effekti alfa parchalanish hodisasini ham tushuntirdi.

XULOSA

Shunday qilib, fotoplastinkadagi qorayish chiziqlarini o'rniga qarab va (1.1.1) formula yordamida sochilgan nurning to'lqin uzunligi hisoblanadi. - burchakni o'zgartirish bilan Kompton turli yo'nalishdagi grafitdan sochilgan rentgen nurlarini o'lchadi. Sochilgan rentgen nurlarining intensivligi ionizatsion kamera yordamida aniqlanadi. Spektrografni asosiy elementlari tajriba vaqtida tebranuvchi k-kristaldan va FP – fotoplastinkadan iborat. Spektrometr birlamchi nurga nisbatan burchak ostida joylashtirilgan. Trubkani siljitish yoki burishi orqali sochilish burchagi o'zgartirish mumkin. Grafitdan burchak ostida sochilgan rentgen spektrometrning k-plastinkasiga kelib tushadi va uni tebratadi.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Бартнев Г.М., Френкель С.Я. Физика полимеров. Л.:Химия, 1990.
2. Цветков В.Н. Жесткоцепные полимерные молекулы. Л.:Наука. 1986.
3. Кленин В.И. Термодинамика систем с гибкоцепными полимерами. Саратов.:СарГУ 1995.
4. Гросберг А.Ю., Хохлов А.Р. Статистическая физика макромолекул. М.: Наука, 1989.
5. Тагер А.А. Физико-химия полимеров М.:Научный Мир. 2007.

AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA IJTIMOY-SIYOSIY, IQTISODIY VA MADANIY HAYOT

Muhammadiyev Xolbekjon Abdurashid o'g'li
Xoliqberdiyev Shohjahon O'ktam o'g'li

Annotatsiya: XIV asr o'rtalarida Chingizxon tasarrufidagi yerlar uning vorislari qo'l ostida bo'lsa ham, ular mayda bo'laklarga bo'linib, idora qilinmoqda yedi. O'zaro hokimiyat uchun ichki kurashlar va nizolar natijasida 1348 yilda Sharqiy Turkistonda Chig'atoy avlodidan bo'lgan Tug'luq Temur hukmronligida Mo'g'uliston nomi bilan yangi davlat barpo yetiladi. Tug'luq Temur o'z yerlarini kengaytirish maqsadida Movarounnahrda bir necha bor harbiy yurishlar uyushtirdi. Bu harakatlar Movarounnahr ichidagi barqaror bo'lmagan ijtimoiy-siyosiy vaziyat, boshboshdoqlik tufayli sodir bo'lgandi.

Kalitso'zlar: Markazlashgan davlat, Amir Temur, Amir Xusayn, «Loy jangi», Ilyosxo'ja, sarbadorlar, Temur davlati, xarbiy yurishlar, suyurg'ol, soliqlar, davlat boshqaruvi, harbiy boshqaruv, «Temur tuzuklari», Shohrux Mirzo, Ulug'bek, ilm-fan, madaniyat, Husayn Boykaro, Alisher Navoiy, adabiy muhit, inqiroz.

Ana shunday ichki o'zaro urushlar avj olib, ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy inqiroz kuchayib borgan davr Amir Temur faoliyati bilan bog'liq. Amir Temur Shahrisabz yaqinidagi Xo'ja Ilg'or qishlog'ida barlos beklaridan bo'lgan Muhammad Tarag'ay oilasida 1336 yil 9 aprelda tavallud topadi. Uning yoshligi Keshda kechadi, harbiy mashq, diniy va dunyoviy bilim o'rganadi. 1360-1361 yillarda Tug'luq Temur qarshiliksiz Movarounnahr yerlariga bostirib kirganida Temurning amakisi Kesh hokimi Hoji barlos Xurosonga qochib ketadi. Yosh Temur amakisi hokim bo'lib turgan yerlarni qo'lda saqlash maqsadida Tug'luq Temur xizmatiga kiradi va uning ishonchini qozonib, Kesh viloyati yerlariga hokimlik qilish uchun yorliq oladi. Temurning bu harakati Movarounnahrda siyosiy tarqoqlik, o'zaro nizolar va boshboshdoqlik hukm surgan davrdagi birdan-bir to'g'ri yo'l yedi. Chunki kelajakda mahalliy hukmdorlarning Mo'g'uliston xoniga qarshi kurashining yuzaga kelishi, shubhasiz yedi. Tug'luq Temur 1361 yilda Movarounnahr yerlarini boshqarishni o'g'li Ilyosxo'jaga topshiradi. Shundan boshlab Amir Temur Tug'luq Temur xizmatidan asta-sekinlik bilan uzoqlashib, Balx hokimi Amir Qozog'onning nabirasi Amir Husayn bilan ittifoq tuzadi. Uni mustahkamlash maqsadida Temur Amir Xusaynning singlisiga ham uylanadi. Muhimi, birgalikda mo'g'ullarga qarshi kurashni ham boshlab yuboradi. U mahalliy hokimiyat uchun bo'lgan janglarning birida, aniqrog'i, Seyistonda turkmanlarga qarshi bo'lgan janglarda o'ng qo'li va oyog'idan yaralanib, bir umrga oqsoq bo'lib qoladi.

1363 yili Tug'luq Temurning vafoti Movarounnahr uchun bo'lgan kurashlarni kuchaytirib yubordi. Lekin mo'g'ul bosqinchilari osonlikcha Movarounnahrni bermasligi ma'lum yedi. Shu munosabat bilan Temur va Amir Husaynning

birlashgan kuchlari 1365 yilda Movarounnahrda haydalgan Ilyosxo'ja qo'shinlariga qarshi kurash boshlaydilar. Toshkent va Chinoz oralig'ida bo'lgan mashhur «Loy jangi» ittifoqchilar o'rtasidagi kelishmovchilik tufayli mag'lubiyat bilan tugaydi. Ana shu voqeadan so'ng Amir Temur va Amir Husayn o'rtasida ixtilof boshlanadi. «Loy jangi»da g'alaba qilgan Ilyosxo'ja yesa Movarounnahrda harbiy harakatlarini kengaytirdi. Yendi u katta qo'shinlar bilan Samarqandga yurish boshlaydi. Bu paytda Samarqanddagi Mavlnozoda va Abu Bakr Kalaviy boshliq sarbadorlar Ilyosxo'jaga qarshi chiqadilar. Mahalliy aholining vatanparvarlik namunalarini ko'rsatib qarshilik ko'rsatganliklari tufayli Samarqandni qamal qilib turgan mo'g'ul qo'shinlari Movarounnahrni butunlay tashlab ketishga majbur bo'ldilar. Samarqandliklarning mo'g'ullar ustidan yerishgan g'alabasi to'g'risidagi xabarni yeshitgan Amir Temur va Amir Husayn Movarounnahrda yo'l olishib, Samarqand yaqinidagi Konigilda sarbadorlar rahbarlari bilan uchrashadilar. Bu uchrashuvda o'zaro kelishmovchilik kelib chiqib, sarbadorlarning rahbarlari hiyla yo'li bilan o'ldiriladi. Movarounnahrda Samarqand taxtini Amir Husayn yegallab, uning hukmronligi o'rnatiladi. Shundan boshlab Temur va Husayn o'rtasidagi munosabat yanada keskinlashadi. Demak, bu vaqtga kelib Movarounnahrda o'zaro urushlarga barham bera oladigan markazlashgan davlat tuzish o'ta zaruriyatga aylangandi. Buni anglagan Amir Temur Amir Husaynga qarshi zimdan kurash olib borib, Balxni qamal qilish paytida o'z ittifoqchisi Xuttalon hokimi Kayxusrav qo'li bilan 1370 yili Husaynni chetlashtiradi. Mana shu davrdan ye'tiboran Amir Temurning Movarounnahrda yakka hukmronlik faoliyati boshlanadi. Bu yesa uning qariyb 35 yillik hukmronligi va ko'plab jahongirlik harbiy yurishlari uchun qulay shart-sharoit yaratadi. Amir Temur o'zini Amir Kuragoniy deb atay boshladi. Chunki, u Amir Husaynning beva xotini Chingizxon avlodidan bo'lgan Saroymulkxonimni o'z nikohiga olgan yedi. Keyinchalik unga atab maqbara qurdiradi. Temur qisqa vaqt ichida Amudaryo bilan Sirdaryo oralig'idagi yerlarni, Farg'ona va Shosh mulklarini o'ziga bo'ysindirdi. 1372-1388 yillar orasida Xorazmga 7 marta harbiy yurish qilib, uni ham o'ziga bo'ysundirdi. Temur Oltin O'rda xoni To'xtamishga qarshi 1389, 1391, 1394-1395 yillarda 3 marta yurish qilib, uni ham yengdi. Oltin O'rda qudrati to'lasincha sindirildi. 1395 yilda Shimoliy Kavkaz hamda Terak daryosi bo'yida Temur va To'xtamish o'rtasida shiddatli jang bo'lib, bu jang Temur g'alabasi bilan tugadi. Bu g'alabalar Temur qo'shinlarining quyi Povolje, Astraxon, Shimoliy Kavkaz, Azov bo'ylariga chiqish uchun keng yo'l ochildi. Temurning Xorazm, Movarounnahr yerlariga va Oltin O'rdaga yurishlari, poytaxtning Keshdan Samarqandga ko'chirilishi O'rta Osiyoda markazlashgan davlatni tashkil qilishga qaratilgan bo'lsa, uning Yeron, Kavkaz, Hindiston, Old va Kichik Osiyoga harbiy yurishlari imperiyani kengaytirish maqsadida amalga oshirilgandi. Temur o'zining uch yillik (1386-1388), besh yillik (1392-1398), yetti yillik (1399-1405) yurishlari davomida Ozarbayjonda jaloyirlar, Sabzavorda sarbadorlar davlatini, Hirotda kurdlar davlatini tugatib, Yeron va Xurosonni o'z tasarrufiga kiritdi. Amir Temur 1398 yilda Hindistonga qilgan harbiy yurishida Dehli shahrini, 1400 yilda Suriyaga qilgan

yurishida yesa Halab va Beyrut shaharlarini, 1401 yilda Damashq shahrini yegallaydi. 1402 yilda usmoniylar imperiyasining sultoni Yildirim Boyazidga qarshi yurishida uni mag'lubiyatga uchratadi. Bu g'alaba bilan Temur Yevropaning usmoniylar asoratiga tushishini bir necha o'n yillar orqaga suradi. Temur 1404 yilda Kichik Osiyodan Samarqandga keladi va Xitoyga harbiy yurish taraddudini ko'radi. Aslida Temur yirik sarkarda bo'lib, kuchli hafbiy boshqaruv tizimini yaratadi.

1404 yil qishida Temur 200 minglik qo'shin bilan Xitoy safariga otlandi. Ammo Temur qattiq betoblighi sababli chegara shahari O'trorda to'xtaydi va shu yerda 1405 yilning 18 fevralida vafot yetadi. Natijada Xitoyni tobe yetish rejasi amalga oshmay qoladi. Amir Temur hayotining so'nggi yillarida o'zining yesdaliklari va tuzuklarini yozib qoldirdi "Temur tuzuklari" da davlat tuzilishining asosiy bo'g'inlari, ularning vazifa, funksiyalari, vazirlarning faoliyatlari, turli hil ijtimoiy guruhlar, tabaqalarga munosabat, qo'shin tuzilishi davlatning moliya va soliq siyosati, mulkiy munosabatlar hamda shu singari dolzarb masalalar, ularni hal yetish yo'llari aniq ifodalangan. Amir Temur davlatni mustahkamlashda qonun-qoidalarning tutgan o'rniga keng ye'tibor berdi. U bu haqda quyidagilarni yozdi: «Davlat ishlarini saltanat qonun - qoidalariga asoslangan holda boshqardim. To'ra va tuzukka tayanib saltanatda o'z martaba va maqomimni mustahkam saqlab turdim». Amir Temur turk-mo'g'ul an'analariga amal qilgan holda o'z davlati hududlarini suyurg'ol (ulus) tariqasida in'om qilish yo'li bilan boshqargan. Temur Movarounnahrda tashqaridagi yerlarni to'rt ulusga bo'lib, farzandlariga in'om yetdi. Bu masalaning ye'tiborli tomoni shundaki, bo'lib berilgan yerlar ichki mustaqillikka yega bo'lsalarda, lekin amalda markaziy hokimiyatga bo'ysunganlar. Uluslar o'rtasida turli nizolar va kelishmovchiliklar bo'lmasligi uchun ularning faoliyatini shaxsan o'zi nazorat qilib turgan. Temur davlat mafkurasining kuchli hokimiyat va tayanch yekanligini tushunib yetganligi bois davlat, saltanat ishlarini yuzaga keltirishda kamchilikka yo'l qo'ymaydigan vazirlarni tanlashga alohida ye'tibor bergan. Amir Temur vazir to'rtta sifatga yega bo'lishi lozim deb hisoblagan: asillik, toza nasllik; aql-farosatlilik; sipohi raiyat ahlidan xabardorlilik; sabr-chidamlilik va tinchliksevarlik. Temur davrida davlat markaziy ma'muriyati boshida devonbegi, ark begi va to'rt vazir turgan. Vazirlar soliq yig'ish, meros ishlari, askarlar maoshi va ularni oziq-ovqat bilan ta'minlash va saroy xarajatlari bilan bog'liq ishlar bilan shug'ullangan. Temur davridagi ilm-fan, me'morchilik, san'at sohalari o'z davriga nisbatan yuqori darajada rivojlanib, yuksak ma'naviy boylik darajasiga ko'tarildi. Sohibqiron mamlakat obodonchiligiga ham juda katta ye'tibor berdi. Samarqandni poytaxt qilib olgach dunyoning turli joylaridan keltirilgan binokorlar, me'morlar tomonidan masjidlar, madrasalar, maqbaralar qurildi. Hattoki g'ariblarga oziq-ovqat beradigan g'aribxonalar, yo'lovchilar qo'nib o'tadigan maxsus joylar ham qurilgan. Shahar atrofi mustahkam devorlar bilan o'ralib, Ohanin, Shayxzoda, Chorsu, Korizgoh, So'zangaron, Feruza kabi nomlar bilan darvozalar quriladi. Temurning qarorgohi sifatida noyob ma'muriy bino Ko'ksaroy va Bo'stonsaroylar qad ko'taradi. Samarqand atrofida atab go'zal bog'lar yaratgan. Temur tug'ilgan joyi Keshda Oqsaroy, Jome masjidi, madrasalar barpo

yettirdi. Turkiston shahrida Xoja Ahmad Yassaviy maqbarasini qurdiradi. Bu davrda Buxoro, Samarqand, Shahrisabz va Toshkent kabi shaharlar hunarmandchilik va savdo markazlariga aylandi. Amir Temur savdo yo'llari rivojiga va uning tinchligiga alohida ye'tibor berdi. U boy o'ljalari bilan cheklanib qolmay, balki jahon karvon savdosi yo'llari (Yevropa va O'rta Osiyo mamlakatlarining Uzoq Sharq bilan) ustidan hukmronlik qilishni ham o'z oldiga maqsad qilib qo'ygandi. Sohibqiron Oltin O'rda hududidan o'tgan shimoliy savdo yo'lini ishdan chiqarish va savdo yo'lini O'rta Osiyo orqali o'tgan yeski ipak yo'lga yana burib yuborishga zo'r berib harakat qildi. Amir Temur davlatining mafkurasi ijtimoiy-iqtisodiy hayotni izga solib yo'naltirishdan tashqari siyosiy hayotda ham katta kuchga aylandi. U chet davlatlar bilan aloqani kengroq yo'lga soldi. U davr shart-sharoitlaridan kelib chiqib, tashqi siyosatda qat'iy faol harakat qilib, o'z saltanati dovrug'ini jahon miqyosiga olib chiqa oldi. Amir Temurning Yildirim Boyazid ustidan bo'lgan g'alabasidan so'ng Fransiya, Angliya, Genuya va Vizantiya yerkin aloqalarni, savdogarlar va mol almashishni taklif yetgan. U Yevropa mamlakatlari bilan yaqin qo'shnichilik qilish, savdo karvon yo'llarini rivojlantirish niyati borligini ko'rsatib, o'z davlati shuhratini Yevropaga tarqata oldi. Uning saltanatining dovrug'i bu mamlakatlarga borib yetishi bilan Fransiya, Angliya, Genuya, Vizantiya va Ispaniya kabi davlatlarning qirollari sohibqiron bilan siyosiy, iqtisodiy, savdo aloqalari o'rnatishga intilganlar. Shu bois ular Temur huzuriga muntazam yelchilar yuborib turganlar. Amir Temur davrida diniy ilmlar va dunyoviy fanlar barqaror bo'lgan. U o'z davrining fan va madaniyat homiysi sifatida ham shuhrat qozondi. Doimo kamsitilgan va ye'tibordan chetda bo'lgan mazhab tarafdorlarini o'z homiyligiga olgan. Darvesh, faqir-miskinlarni o'ziga yaqin tutib, ularni ranjitmaslikni o'zining insoniy burchlaridan biri deb bilgan. Amir Temur vafotidan so'ng uning yirik imperiyasi parchalana boshladi. Temuriy shahzodalarning taxt uchun o'zaro kurashlari qudratli davlatning bo'linishidagi asosiy sabablardan biri yedi. Amir Temur taxtiga valiahd qilib nabirasi Pirmuhammadni qoldirgan bo'lsa-da, yeng katta o'g'li Jahongir Mirzoning farzandi, ko'pgina amirlar va amaldorlar uning hukmronligini tan olmadilar. 1405 yil mart oyida Temurning nabirasi Xalil Sulton o'zboshimchalik bilan Samarqand taxtini yegalladi. Undan tashqari, Xurosonda Shohruh, Balx, G'azna va Qandahorda Pirmuhammad, G'arbiy Yeron va Ozarbayjonda Mirzo Umar va Abubakr Mirzo, Turkiston, Sabron, O'tror, Sayramda Amir Berdibek, O'ratepa va Farg'onada Amir Xudoydod, Xorazmda Idiku o'zlarini hukmdor deb ye'lon qildilar. Temuriy hukmdorlardan Shohruh (1405-1447), Mirzo Ulug'bek (1409-1449), Sulton Husayn (Boyqaro) (1469-1506), qisman Sulton Abu Said (1451-1469) davrlarida ichki osoyishtalik, ma'rifat va madaniyatga ye'tibor tufayli ilmu-fan va madaniyat yuksalib, Movarounnahr va Xuroson yana Sharqning ma'rifat va madaniyat markazi nomini qaytarib oladi. Bu vaqtda nafaqat Hirot va Samarqand, balki Movarounnahr va Xurosondagi boshqa shaharlarda ham olimu-fuzalo, shoiru-me'morlar, bastakoru naqqoshlar guruhlarini to'plana boshlaydi. Buxoro, Xorazm, Balx, Mashhad, Sheroz ham o'ziga xos madaniy markazlar rolini o'ynay boshlaydi. Ma'rifatparvarligi va aqlli

bilan nom chiqargan Shohruh davrida asriy ilm-fan, madaniyat an'analari qayta jonlana boshlagan yedi. Shahar qayta qurildi. Hirotdagi yeng gavjum joylardan biri Shohruhning o'g'li Boysunqur tashkil yetgan kitobxonona nomini olgan joy bo'lib qoldi. Bu yerda o'z davrining yeng sara kitoblari qayta ko'chirilar, sotib olinar va sotilar yedi. Bu paytda hukmdor va amaldorlarning homiyliги natijasida tasviriy san'at, amaliy san'at, xattotlik san'ati o'z rivojini maromiga yetqazdi. Mirak Naqqosh boshchiligidagi sharq miniatyura san'ati ham o'z faoliyatini shu yerdan boshlagan yedi. Hiroflik va xurosonlik ko'plab badavlat zodagonlar, savdogarlar ham ilm-fan, madaniyatga homiylik qila boshlaydilar. Masalan, Shohruh hukmronligi davrida zodagon Hoji Arslon Tarxon o'zining ma'rifatparvarligi bilan nom chiqargan yedi. Movarounnahr yerlarini 1409 yildan boshlab Shohruhning katta o'g'li Ulug'bek Mirzo boshqara boshladi. Ulug'bekning hukmronlik davri (1409-1449) asosan Movarounnahrda ijtimoiy-iqtisodiy hayot, ilm-fan va madaniyatning rivojlanishi bilan izohlanadi. Mirzo Ulug'bek Movarounnahrni musulmon olamining ilmiy markaziga aylantirishga harakat qildi. Xususan, Samarqand, Buxoro, Kesh ilm-fan markazlariga aylandi. U 1417 yilda Buxoro, 1420 yilda Samarqand va 1433 yilda G'ijduvonda madrasalar barpo yetdi. Samarqandni obodonlashtirish ishlariga boshqosh bo'lib, Go'ri Amir, Shohizinda me'moriy majmualarini oxiriga yetqazdi. Marvda ham bir qator diniy muassasalar qurdiradi. Hadisi sharifdagi «Ilm olmoqqa intilmoq har bir muslim va muslima uchun ham farz va qarz» degan iborasi Buxoro madrasasi peshtoqiga shior sifatida o'yib yozdirib qo'yiladi. Xususan, Samarqandga o'z zamonasining yirik, taniqli olimlarini chorlashga harakat qilgan. Uning sa'y-harakatlari tufayli zamonasining 100 dan ortiq olimlari Samarqandga yig'ildilar. Ular orasida Taftazoniy, Mavlono Ahmad, o'z zamonasining «Aflotuni» deb nom olgan Qozizoda Rumiy, G'iyosiddin Koshiy, Muhammad Xavofiylar va boshqa taniqli olimlar ham bor yedi. 1420 yilda Samarqand madrasasi ochilganda unda 90 dan ortiq olim qatnashgan. Ilk ma'ruzani Mavlono Havofiy o'qigan vaqtida, uni faqat 2 kishi – Mirzo Ulug'bek va Qozizoda Rumiy tushungan, xolos. Keyinchalik o'z zamonasining taniqli kishilari Abdurahmon Jomiy, Xo'ja Ahror va boshqalar ham Samarqand madrasasida tahsil olganlar. Shuningdek, Samarqandda bu davrda bir necha madrasalar ham bo'lib (Xonim, Feruzshoh, Shohmalik, Qutbiddin va boshqalar) ularda ham salohiyatli olimlar dars berishar yedi. 1424-1429 yillarda Samarqand yaqinidagi Obirahmat anhuri yaqinida Mirzo Ulug'bek rasadxona qurdiradi. U o'sha davrning noyob inshootlaridan bo'lib, doira shaklida barpo yetilgan, imoratning aylanasi 47 m., balandligi 31 m. dan iborat 3 qavatli bino bo'lgan. Binoning ichida maxsus tekshirish xonalari bo'lib, unda yerlarda maxsus asbob-uskunalar joylashtirilgan. Samoni kuzatish va o'rganish borasida G'iyosiddin Jamshid yordamida astronomik o'lchov asbobi - ulkan sekstant o'rnatilgandi. Bu sekstant Sharqdagi yeng katta astronomik o'lchov asbobi hisoblangan. Shuningdek, mahalliy ustalar (Iso Usturlobiy, Abu Mahmud Xo'jandiy, usta Ibrohim) qo'li bilan ko'plab zaruriy astronomik o'lchov asboblari ham yasaladi va o'rnatiladi. Rasadxona qoshida 15 ming nusxadan iborat boy kutubxonona ham bo'lgan. Uning atrofida

olimlar yashaydigan yer-chorbog'lar Bog'imaydon va Chinnixona nomi bilan shuhrat topdi. Ulug'bek Samarqandda o'ziga xos astronomiya maktabini yaratdi. Rasadxonada Ulug'bek bilan birga o'z zamonasining mashhur matematigi va astronomlari Qozizoda Rumi, G'iyosiddin Jamshid, Koshiy, Ali Qushchi kabilar tadqiqot ishlarini olib borgan. Ulug'bek davrida, shuningdek, Samarqand Sharqning madaniy markaziga aylanganligi uchun mashhur faylasuf Ali ibn Muhammad Jurjoni, taniqli tabib Mavlono Nafis, shoir Xayoliy Buxoriy, «Yusuf va Zulayho» dostonining muallifi Durbek, qasida janrining taniqli namoyandasi o'zbek shoiri Sakkokiy, mashhur xattot Abdurahim Xorazmiy va boshqalar Ulug'bek homiyligi ostida Samarqandda yashab ijod qilganlar. Yana Sharqning ko'plab taniqli olim va shoirlari, fuzaloi ulamolari Samarqandga tez-tez kelib turdilar. Ulug'bek davridagi madaniy markaz keyinchalik Ulug'bek akademiyasi nomini olib, dastavval mashhur fransuz yozuvchisi va olimi Volter (1694-1778) tomonidan ye'tirof ye'tilgandi. Ulug'bek atrofiga uyushgan kuplab buyuk komusiy olim soxiblari - Kozizoda Rumi, Giyesiddin Jamshid Koshiy, Muxammad Ali Kushchi, Muxammad Xavofiyilar ilm-fanning turli soxalarida, ayniksa, astronomiya, matematika singari anik fanlar buyicha barakali ijod kildilar xamda uzlaridan ulkan meros koldirib ketdilar. Temuriylar davri tasviriy san'atining ulkan namoyandasi, tengsiz talant soxibi, unlab moxir musavvirlarning ustoz, benazir ijodi xozirgacha xam insoniyat axlini lol koldirib kelayetgan Kamoliddin Bexzod (1455-1537) xam Xirot ijodiy muxitida faoliyat kursatdi. Temur va temuriylar davrida tarixshunoslik fani rivoj topdi. Bu davrda yashab ijod kilgan muarrixlarning asarlarida usha zamon tarixiy vokealarning mufasal tafsilotlari, sharxlaridan tashkari ularning chukur ijtimoiy moxiyati, mazmuni uzining butun ziddiyatliligi va murakkabiligi bilan ifoda etilgan. Bu davr tarixchilaridan Nizomiddin Shomiy, Xofizu Abru, Sharofiddin Ali Yazdiy, Fosix Xavofiy, Abdurazzok Samarkandiy, Ibn Arabshox, Giyesiddin Ali, Mirxond, Xondamir usha davr ijtimoiy xayeti jarayenining talab va extiyejlaridan kelib chikkan xolda temuriy xukmdorlarning turli-tuman faoliyati, sa'y-xarakatlari bilan boglik tarixiy xodisalar, vokealarni xolis va xakkoniy aks ettirishga intilganlar. 1447 yilda Shohruh Mirzo vafotidan so'ng Temurzodalar o'rtasidagi kurash boshlanib ketdi. Oqil va dono hukmdor Ulug'bek bu kurashlarga barham berishga harakat qilib ko'rdi. Lekin buning uddasidan chiqolmadi. Aksincha, o'g'li Abdullatifning bevosita ishtiroki tufayli o'zi bu kurashlarning qurboni bo'ldi. Xullas, XV asr o'rtalariga kelib, Mirzo Ulug'bek vafotidan keyin (1449) temuriy shahzodalar o'rtasida hokimiyat uchun kurash yana avj oldi. Abdullatif xurofotchi din ahllari, darveshlar guruhi bilan yaqinlashib, o'zini himoya qilishga urindi. Lekin qotil padarkush taxtda uzoq o'tira olmadi. 1450 yilning 8 mayida shahar qandag'i yonida, Bog'inavdan nariroqda unga suiqasd qilinib, o'ldirildi. O'ldirganlar hattoki qo'rqmasdan Abdullatifning kesilgan boshini Registondagi Ulug'bek qurdirgan madrasa peshtoqiga namoyishkorona tarzda ilib qo'ydilar. Yendi Samarqand taxtiga temuriylardan Mirzo Ulug'bekning kuyovi hamda jiyani Mirzo Abdullo o'tiradi. Buxoroda yesa hokimiyat Mironshohning nevarasi Sulton Abu Said qo'liga o'tadi. Mirzo Abdullo o'zining bir yillik hukmronlik

davrida mamlakatda barqarorlikni tiklashga, Mirzo Ulug'bekning madaniy sohadagi ishlarini davom yettirishga, markaziy hokimiyatni kuchaytirishga harakat qildi. U Samarqand taxti davogarlari Alouddavla va Abu Saidlar bilan kurash olib borib, Samarqandga qarshi yurish qilgan Abu Said qo'shinini tor-mor keltirdi. Abu Said Sirdaryo ortiga qochib, Dashti Qipchoq o'zbeklari xoni Abdulxayrxondan yordam so'rab murojaat qiladi. 1451 yilning yozida Samarqand yaqinidagi Sheroz qishlog'ida bo'lgan jangda Mirzo Abdullo o'ldirilib, taxt Sulton Abu Said Mirzo (1451-1469) qo'lga o'tadi. Temur davlatining Xuroson yerlari Shohruhning boshqa bir nevarasi Boysunqurning o'g'li Abdulqosim Bobur qo'lida saqlanib qolib, u to vafoti (1457)ga qadar Hirot taxtini boshqarib turadi. Bu vaqtga kelib o'zaro siyosiy tarqoqlik yanada avj oladi. Birgina Xurosonning o'zi o'ndan ortiq qismga bo'linib ketadi. O'zaro taxt uchun muttasil kurashlar mamlakat iqtisodiy va madaniy hayotiga katta zarar yetqazib, inqiroziy holatlarga sabab bo'la boshladi. Abulqosim Bobur Xurosonni o'z qo'li ostida birlashtirishga, Shohruh davridagi madaniy hayotni tiklashga harakat qildi. 1454 yilda uning Samarqandga yurishi muvaffaqiyasiz tugab, 40 kunlik shahar qamalidan keyin yana orqaga qaytishga majbur bo'lgan yedi.Ulug'bek vafotidan so'ng madaniy markaz Xurosonga va uning poytaxti Hirotga ko'chdi. Hirot madaniy va ilmiy markazning shakllanishida Huroson hukmdori Sulton Husayn (Boyqaro) va buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiyning roli nihoyatda beqiyos bo'ldi. Ma'rifatli hukmdor bo'lmish Sulton Husayn butun Xurosonda ilm-fan, adabiyot, madaniyat homiysiga aylandi. Uning o'zi «Husayn» taxallusida g'azallar bitgan. Hozirgi kungacha uning she'riy «Devon»i va Nasriy «Risola» asarlari yetib kelgan. Alisher Navoiy (1441-1501) yoshligidan temuriy shahzoda Sulton Husayn bilan do'st yedi, keyinchalik ular Xuroson hokimi Abdulqosim Bobur (1451-1457) xizmatida birga bo'lganlar. Husaynning xizmat davrida Alisher Navoiy Mashhad va Hirot madrasalarida tahsil ko'radi. Keyinchalik Movarounnahr hokimi Sulton Abu Said tazyiqi bilan Samarqandga ketishga majbur bo'ladi va u yerda 2 yil turib, o'z bilimini yanada takomillashtiradi. 1469 yilda Xuroson taxti Sulton Husaynga tekkanidan so'ng, uning taklifi bilan yana Hirotga keladi va bu yerda dastlab muhrdorlik, so'ngra vazirlik qiladi. Alisher Navoiy vazirlik davrida (1472-1476) mamlakatda iloji boricha osoyishtalik va adolat o'rnatishga harakat qildi, shaharlar yuksaldi, suv chiqarilib ko'pgina yerlar obod bo'ldi, hunarmandchilik va savdo-sotiq ishlari yanada rivojlandi. Navoiy ilm-fan, ma'rifat va madaniyat ahliga shaxsan o'zi homiqlik qildi. Garchi toju taxt uchun kurashlarda va fitna-nizolar natijasida Navoiyning Sulton Husayn bilan oralari biroz sovugan bo'lsa-da, lekin Navoiy umrining oxiriga qadar davlatning tayanch shaxslaridan biri bo'lib qoldi. Jumladan, u vazirlik lavozimidan ketar yekan, Navoiyga shohona to'n kiygizib, uning iltimosi hyech qachon yerda qolmasligini qayd qiladi. Ma'lumotlarga ko'ra, Alisher Navoiy 300 dan ortiq turli qurilish, obodonchilik ishlariga bosh-qosh bo'lgan. Hirottdagi Injil daryosi bo'yida uning rahnamoligida «Ixlosiya», «Shifoia» majmualari, Tus viloyatidagi Turuqband suv ombori va kanali, Hirot va Mashqaddagi sug'orish inshootlari, Astroboddagi saroy va masjid, Marvdagi madrasa ishga tushirildi.

Navoiy o'z daromadlarini ham xayriya ishlariga sarflaydi. Shaxsan uning mablag'lari hisobidan 52 ta rabot, 19 ta hovuz, 16 ta ko'prik, 9 ta hammom va boshqalar qurilgan. Xurosonda 12 dan ortiq minora, masjid va rabotlar ta'mirlandi. Navoiy homiyligida Sharq miniatyurasi maktabining yetuk namoyandasi «Sharq Rafayeli» nomini olgan Kamoliddin Behzod, tabiblar Abdulxay Muniy, Darvish Ali, xattotlardan Sulton Ali Mashhadiy, musiqachilardan Husayn Udiy, tarixchilardan – Sohib Doro, Muhammad Nizomiy, Kamoliddin Binoiy, Davlashoh Vosifiy, Muiniddin Muhammad, Mirxond va boshqalar yetishib chiqdilar. Alisher Navoiy turkiy tilda 1483-1485 yillarda 5 ta dostondan iborat «Hamsa» asarini yaratdi. Buyuk shoirning 20 dan ortiq asarlari ham ana shu tilda yaratildi. Ularning mazmunida tarixiy, falsafiy, axloqiy mezonlar bo'lib, insoniyatga xos bo'lgan barcha ijobiy xislatlar ulug'lanadi. Amir Temur va temuriylar davri madaniyatining tudakonli mazmuni, manzarasi va kulami usha zamonda xar taraflama gurkirab ravnak topgan badiiy adabiyotda yakkol namoyon buldi. Eng muximi shundaki, bu davrda badiiy tafakkurda an'anaviy bayrokdor bulib kelgan fors-tojik adabiyoti bilan yonma-yon turkiy-uzbek adabiyoti xam rivojlanib, uning namoyandalari safi kupayib bordi. Bu urinda uzbek mumtoz adabiyoti tarakkiyotiga salmokli xissa kushgan Lutfiy, Xaydar Xorazmiy, Durbek, Gadoiy, Atoiy, Sakkokiy, Xusayniy singari budiy suz ustalari nomini aloxida tilga olib butish joizdir. Shoir Lutfiy (1366-1465) o'zining 20 dan ortiq asarlari bilan Navoiygacha ham mashhur bo'lgan.

Xulosa: Ana shu davrda Sharofiddin Ali Yazdiyning (vafoti 1454 y) Temur tarixiga doir Nizomiddin Shomiydan so'ng yozilgan bir xil nomdagi «Zafarnoma» asari yaratildi. Fors-tojik adabiyotida mashhur bo'lgan Abduraxmon Jomiy (1414-1492)ning ham roli buyuk bo'ldi. Temuriyzodalar urtasidagi uzaro urushlar, birodarkushliklar nafakat kuyi tabaka axlining, balki yirik zodagonlarning xam noroziliklariga sabab buldi. Temuriylar davlatidagi siyosiy tarkoklik, ayrim xukmdorlarning ajralib, mustakillikka intilishi bu davlatning yemirilishiga olib keldi. Natijada Amir Temur asos solgan ulkan saltanat tanazzulga yuz tutdi va tugatildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. T., «O'zbekiston», 1992.
2. Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. T., «O'zbekiston», 1996.
3. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. T.3. T., «O'zbekiston», 1996.
4. Karimov I.A. «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q». T., «Sharq», 1998.
5. Karimov I.A. Jamiyatimiz mafkurasini xalqni-xalq, millatni-millat qilishga xizmat etsin. T., «O'zbekiston», 1998.
6. Amir Temur Ko'ragoni. Zafar yo'li. T., «Nur», 1992.
7. Amir Temur o'gitlari. T., «Navro'z», 1992.

8. Axmedov A. Ulug'bek Muhammad Tarag'ay. T., 1994.
9. Axmedov B. Sohibqiron Temur (hayoti va ijtimoiy-siyosiy faoliyati). T., 1996.
10. Ibn Arabshoh. Amir Temur tarixi. Ikki jildlik. T., «Mexnat», 1992.
11. Mo'minov I. Amir Temurning O'rta Osiyo tarixida tutgan o'rni va roli. T., «Fan», 1998.
12. Temur tuzuklari. T., «G'afur G'ulom», 1991.
13. Fayziyev T. Temuriy malikalar. T., 1994.
14. Sharaffiddin Ali Yazdiy. Zafarnoma. 1360-1370. T., «Kamalak», 1994.

O'QITUVCHILARDA KASBIY KOMPETENTLIKNI SHAKLLANTIRISHDA INNOVATSION TA'LIM MUHITINING O'RNI

O'.Yu.Qalandarova

UrDU texnologik ta'lim kafedresi o'qituvchisi

G'.D.Shokirova

Urganch shaxar 29-son maktab o'qituvchisi

D. Rajapova

Qo'shko'pir tumani 44-son maktab o'qituvchisi

Annotasiya: *Ushbu maqolada yoshlar tarbiyasi ularga kasb-hunar o'rgatish sirlari haqida so'z borar ekan, bu yerda o'qituvchi-murabbiylar, pedagoglarning xizmati va ularning kasbiy mahorati alohida o'rin tutadi. Azal-azaldan xalqimiz farzandlarini yaxshi mudarris, ustoz, o'qituvchi qo'lga topshirishni farz deb bilgan bo'lsa, bugungi globallashuv va axborotlashgan davrda ham pedagogning jamiyatdagi mavqei yanada mustahkamlanib, uning kasbiy mahoratiga qo'yilayotgan talablar ortib bormoqda*

Kalit so'z: *kasbiy kompetentlik, innovasiya, o'qituvchi, kasbiy adaptasiya, kompetent.*

Abstract: *This article talks about the secrets of educating young people and training them in a profession, and the service of teachers and their professional skills are of special importance. Our people consider it their duty to leave their child in the hands of a good educator, teacher, teacher, because even in the current era of globalization and informatization, the position of the teacher in the society is strengthened, and the demands placed on him are getting stronger and stronger. it is increasing. increased attention to professional skills.*

Key words: *professional competency, innovation, training, professional adaptation, competency.*

Respublikamizning ta'lim-tarbiya sohasidagi islohotlarning asosiy yo'nalishi jamiyatimizda tashabbuskor, intellektual salohiyatli va ijodkor yoshlarni, yuksak malakali mutaxassislarni tayyorlashga qaratilayotganligi e'tiborga sazovordir. Chunki yoshlarni barkamol yurtning kelajagi buyuk bo'ladi.

Yoshlar tarbiyasi ularga kasb-hunar o'rgatish sirlari haqida so'z borar ekan, bu yerda o'qituvchi murabbiylar, pedagoglarning xizmati va ularning kasbiy mahorati alohida o'rin tutadi. Azal-azaldan xalqimiz farzandlarini yaxshi tajribali, ustoz, o'qituvchi qo'lga topshirishni farz deb bilgan bo'lsa, bugungi globallashuv va axborotlashgan davrda ham pedagogning jamiyatdagi mavqei yanada mustahkamlanib, uning kasbiy mahoratiga qo'yilayotgan talablar ortib bormoqda. Bu haqda birinchi Prezidentimiz I.A Karimov aytganlaridek, "Tarbiyachi ustoz bo'lish uchun avvalo tarbiyachining o'zi har tomonlama tarbiyali va mahoratli bo'lishi darkor". Darhaqiqat, kelajagimizning poydevori bo'lgan yoshlarimizning salohiyati

bugun auditoriyalarda dars berayotgan pedagogning layoqatiga, kasbiga bo'lgan muhabbati va fidokorligiga chambarchas bog'liqdir. Shu bois, bugungi zamonaviy o'qituvchi tom ma'noda o'z fikri, bilimi, salohiyati bilan talabalarni ishontira oladigan boshqaruvchi, axbort texnologiyalari va chet tillarni mukammal o'zlashtirgan tajribali mutaxassis bo'lmog'i lozim²¹.

Buning uchun u o'z ustida ishlashi, muntazam kasbiy mahoratini oshirib borishi talab etiladi.

Ma'lumki, oliy ta'lim jarayoni o'zining mazmun mohiyatiga nisbatan bo'lajak mutaxassislardagi kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, oliy ta'lim muassasalaridagi pedagogik jarayon talabalarni nazariy tayyorgarligini tekshiruvchi, kasbiy adaptasiyasini shakllantiruvchi va yoshlarni yuksak ma'naviyatli, ijodkor shaxs sifatida kamol topishida yetakchi omillardan sanaladi.

Bu esa har qanday oliy ta'lim muassasidan:

- fan, texnika va ishlab chiqarishning ilg'or yutuqlari va rivojlangan davlatlarning tajribalaridan mutaxassislar tayyorlash jarayonida maqsadli foydalanish;

- kadrlar salohiyati va kompetentligini ta'minlash;

- ta'lim oluvchilarning bilish ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiluvchi sifatli ta'lim xizmatlarini tashkil etish;

- o'quv-tarbiya jarayonini innovasiyalar bilan takomillashtirish;

- ma'naviy-ma'rifiy sohada samarali chora-tadbirlarni olib borish;

- bitiruvchilarning ishga joylashuvi, talab va taklif munosabatlarini takomillashtirish bilan bog'liq chora-tadbirlarni belgilashni talab etadi.

Zamonaviy pedagogik-psixologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bo'lajak pedagog mutaxassislardagi kasbiy moslashish darajasining tezlashuvi nafaqat o'zlashtirilgan kasbiy bilimlar, balkim mavjud tajriba, faoliyat sohasidan xabardorlik kabi omillar bilan ham belgilanadi. Bu esa oliy ta'lim muassasasidagi o'quv-tarbiya jarayoniga bo'lajak mutaxassislardagi kasbiy bilimlarning faol va samarali o'zlashtirilishi hamda sohaga yo'nalgan ish tajribalarining qaror topishiga xizmat qiluvchi innovasion g'oyalarni kiritish zaruratini belgilaydi. Pedagog olimi N.Azizxodjayeva o'zining ilmiy izlanishlarida har qanday pedagogik innovasiya(yangilik kiritish) va innovasion jarayonlarning amaliyotga kiritilishi quyidagi bosqichlarni qamrab olishini ko'rsatadi²²:

1. Yangi g'oya tug'ilishi yoki yangilik konsepsiyasini paydo qilish bosqichi, u kashfiyot bosqichi deb ham yuritiladi.

2. Ixtiro qilish, ya'ni yangilik yaratish bosqichi.

3. Yaratilgan yangilikni amalda qo'llay bilish bosqichi.

4. Yangilikni yoyish, uni keng tatbiq etish bosqichi.

²¹ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008. – 173 b.

²² Azizxodjayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T.: Moliya, 2003. – 192 b.

5. Muayyan sohada yangilikning hukmronlik qilish bosqichi. Bu bosqichda yangilik o'zining yangiligini yo'qotadi, uning samara beradigan muqobili paydo bo'ladi.

6. Yangi muqobilik asosida, almashtirish orqali yangilikning qo'llanish doirasini qisqartirish bosqichi.

Mutaxassislar tayyorlash tizimidagi innovasion pedagogik jarayonning muhim jihatlaridan biri bu-shaxsning o'z-o'zini boshqarishi va o'zini-o'zi faoliyat sohasiga safarbar qila olishi, talabalarning mustaqil bilish faoliyatini rivojlantirish jihatlari bilan izohlanadi. Bu esa bo'lajak o'qituvchilardagi kasbiy moslashuvchanlikni qaror toptirishga xizmat qiluvchi o'quv jarayonini tashkil etish va amalga oshirishning samarali shakl, metod va vositalari tizimini ishlab chiqish, amaliyotga tatbiq etish zaruratini yana bir bor tasdiqlaydi.

Oliy ta'lim muassasalaridagi o'quv-tarbiya jaraenini modernizasiyalash, pedagog mutaxassislar tayèrlash tizimi sifat darajasini oshirishda bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish, ularni sohaga oid zamonaviy kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalar bilan qurollantirish, ilmiy-texnik innovasiyalardan mustaqil ravishda, ijodiy foydalanish hamda istiqbolli vazifalarni hal qila olish ko'nikmalarini rivojlantirish muhim vazifalardan sanaladi. Oliy ta'lim tizimini modernizasiyalash (ingl. modern – yangilangan, zamonaviy, tezkor o'sish) ta'lim jaraèniga nisbatan innovasion èndashuvni talab etadi. Pyedagogik jaraènga innovasion èndashishni o'qituvchi va talabalarning hamkorlikdagi faoliyatini tashkil etish, o'qitish va tarbiyalashning maqsadi, mazmuni va shakliga yangilik kiritish bilan izohlaydi.

“Kompetentlik” tushunchasi ta'lim sohasiga psixologik ilmiy izlanishlar natijasida kirib kelgan. Vazirlar Maqkamasining 2017 yil 6 apreldagi 187-son qarori bilan tasdiqlangan Umumiy o'rta ta'limning DavlatTa'lim Standartida kompetensiya tushunchasiga mavjud bilim, ko'nikma va malakalarni kundalik faoliyatda qo'llay olish qobiliyati sifatida ta'rif berilgan[3].

Psixologik nuqtai nazardan kompetentlik “noan'anaviy vaziyatlar, kutilmagan holatlarda mutaxassisning o'zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o'zaro munosabatlarda yangi yo'l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to'la ma'lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jaraènlarda harakatlanish rejasiga egalik”ni anglatadi. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda kompetentlik bu insonning mavjud bilim va haètiy tajribalarga tayangan holda ma'lum bir muammoni hal etishga doir iqtidori degan xulosaga kelish mumkin. Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak mutaxassislarning o'z ustilarida izchil, samarali ishlashlarida faoliyatga loyihali èndoshuv asosida olib borish samarali hisoblanadi. Ularning loyihali èndoshuv asosida o'z ustida ishlash bosqichlari va har bir bosqichda amalga oshiriladigan vazifalarning samarali hal etilishi navbatdagi bosqichga o'tish imkonini beradi.

Bo'lajak o'qituvchining kasbiy-pedagogik kompetentlikka ega bo'lishida o'zini o'zi tahlil qila olishi ham muhim bo'lib, bu mutaxasis tomonidan

kasbiy faoliyatda tashkil etiladigan o'z amaliy harakatlari mohiyatining o'rganilishi sanaladi. Mutaxassisning kasbiy-pedagogik kompetentlik sifatlariga ega bo'lishida ularning o'z-o'zini baholash malakalariga egaligi ham zarur va buning natijasida u o'zini o'zi tahlil qiladi hamda kasbiy kompetentligini xolisona baholash imkoniyatiga ega bo'ladi. Mohiyatiga ko'ra o'zini o'zi baholash sub'yekt uchun shaxsiy imkoniyatlarini hisob-kitob qilish, o'ziga ob'yektiv baho berish, o'zidan qoniqishni ta'minlaydi. Har qanday mutaxassisda bo'lgani kabi o'qituvchining ham o'zini o'zi samarali baholay olishiga bir qator omillar ta'sir ko'rsatadi, jumladan:

- o'zini tushunish (o'zi haqida aniq ma'lumotlarga ega bo'lish);
- shaxs sifatida o'z qadr-qimmatini anglash (o'zi to'g'risidagi ijobiy ma'lumotlarni to'plash);
- o'zini-o'zi nazorat qilish (o'zi to'g'risidagi shaxsiy fikrning atrofdagilar tomonidan unga beriladigan bahoga mos kelishi) va b.

O'z-o'zini baholash darajasi shaxsning o'z-o'zidan qoniqishi eki qoniqmasligini belgilab beradi. Bunda o'z-o'zini baholash ko'rsatkichlari shaxs imkoniyatlariga mos kelishi lozim. O'z-o'zini rivojlantirish pedagogning o'zida kasbiy tajriba, malaka va mahoratni takomillashtirish yo'lida aniq maqsad va puxta o'ylangan vazifalar asosida mustaqil ravishda amaliy harakatlarni tashkil etishi orqali amalga oshiriladi. Ko'plab tadqiqotchilar o'z-o'zini rivojlantirishning eng samarali usullaridan biri sifatida maxsus dasturlarni ishlab chiqish va tatbiq etishda deb biladi, bu dasturlar bo'lajak o'qituvchini individual rivojlanishiga yo'naltirilgan bo'lishi samarali natijalarni namoèn qiladi. Bo'lajak-o'qituvchini kasbiy-pedagogik kompetentligini rivojlantirish maqsadiga yo'naltirilgan bu kabi individual rivojlanish dasturlari mutaxassisning o'zida ma'lum sifat, BKM, kasbiy kompetentlikni takomillashtirish va rivojlantirish ehtièjlari asosida ishlab chiqilgan bo'lishi lozim. Ushbu dasturda kasbiy faoliyatni tashkil etish uchun zarur bo'lgan kasbiy kompetentlik sifatlarini shakllantirish va rivojlantirish muddatlari belgilanishi maqsadga muvofiq. Har qanday pedagog o'zi uchun shaxsiy amaliy xarakterga ega bo'lgan individual rivojlanish dasturlarini ishlab chiqa olishi, u asosida pedagogik faoliyatni yo'lga qo'yishi zarur. Uning individual rivojlanish dasturi individual ravishda o'zida kasbiy-pedagogik kompetentlik sifatlarini takomillashtirish va rivojlantirish ehtièjlariga tayangan holda ishlab chiqilsagina yuqori samaradorlikka erishiladi.

Xulosa qilib aytganda zamonaviy pedagogik-psixologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bo'lajak pedagog mutaxassislardagi kasbiy moslashish darajasining tezlashuvi nafaqat o'zlashtirilgan kasbiy bilimlar, balkim mavjud tajriba, faoliyat sohasidan xabardorlik kabi omillar bilan ham belgilanadi. Bu esa oliy ta'lim muassasasidagi o'quv-tarbiya jarayoniga bo'lajak mutaxassislardagi kasbiy bilimlarning faol va samarali o'zlashtirilishi hamda sohaga yo'nalgan ish tajribalarining qaror topishiga xizmat qiluvchi innovasion g'oyalarni kiritish zaruratini belgilaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008. – 173 b.
2. Azizxodjayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T.: Moliya, 2003. – 192 b.
3. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Ta'limda innovasion texnologiyalar (ta'lim muassasalari pedagog-o'qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar). – T.: "Iste'dod" jamg'armasi, 2008. – 180 b.
4. Arziqulov D.N. Kasbiy kamolatning psixologik o'ziga xos xususiyatlari. Psixol. fan.nom. diss...avtolyohai. – Toshkent: 2002. -22 b.
5. X.Sharipov, N.Muslimov, M.Ismoilova: "Kasbiy ta'lim pedagogikasi". Metodik qo'llanma. – T. 2005 y.
6. M.Usmonboyeva, G.Anorkulova, G.Shamaripxodjayeva "Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari" o'quv uslubiy majmua. T. 2015 yil. 14-15-betlar
- 7.R.Ishmuhamedov, M.Mirsoliyeva. O'quv jaraenida innovasion ta'lim texnologiyalari. –T.: "Fan va texnologiya", 2014, 60 bet.
8. Muslimov N.M. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari.
9. Andreyev V.I. Pedagogika tvorcheskogo samorazvitiya: Innovacionnyy kurs. Kn. 1. -Kazan: Izd-vo Kazan, un-ta, 1996. - 570 s.
10. Tarasova N.V. Strategiya realizasii kompetentnostnogo podxoda v obrazovanii: istoriko – pedagogicheskiy aspekt – M.: FIRO, 2007. – 52 s.
11. Markova A.K. Psixologiya professionalizma. – M.: Znaniye, 1996.
12. Toshtemirova, S. (2020). Ta'limda Chirchiq tajribasi. Academic Research

TEXNIK IJODKORLIK VA DIZAYIN FANINI O'QITISHDA INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Egamova Anbarjon

Qurbonov Munis

*Urganch davlat pedagogika instituti
"Texnologiya va jismoniy madaniyat"
kafedrası o'qituvchilari*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada oliy ta'lim muassasalarida Texnik ijodkorlik va dizayin fanini o'qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish, Talabalarning texnik ijodkorlikni shakllantirish mavzusi yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *Texnologiya fani, intellektual loyihalar, ijodkorlik, ratsionalizatorlik, ixtiro.*

Xozirgi kunda zamon shiddat bilan rivojlanib borar ekan, bo'lg'usi pedagoglardan yana ham yuksakroq marralarni ko'zlash, fan, texnika va texnologiyalar borasidagi yangiliklardan xabardor bo'lish talab etilmoqda. Qadim zamonlardan beri ajdodlarimiz yangilikka ishtiyoqmand bo'lib kelganlari va sharqda renesans davrini boshlab berganliklarini dunyo hamjamiyati tan olgan. Hususan ilm olishga, hunar o'rganishga, biror bir kasb egasi bolishga intilish bizning bobokalonlarimizda juda kuchli bo'lgan va bu o'z navbatida diyorimizda juda ko'p dunyo ilm-fani rivojiga katta hissa qo'shgan allomalar etishib chiqishiga sabab bo'lgan. Bugungi kunda yurtimizda ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan tub islohatlar yurtboshimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev aytganlaridek, mamlakatimiz kelajagi hisoblangan yoshlarning Vatanimiz ravnaqi yo'lida har taraflama yetuk shaxs sifatida rivojlanishi, ularning raqobatbardosh kadrlar bo'lib yetishishi uchun xizmat qilib kelmoqda.

Texnologiya fani o'qituvchilari dars o'tish jarayonida ushbu fanning jamiyatdagi o'rni va mazmun mohiyati, fanning o'qitilishdagi maqsadlarini o'zlari teran his etishlari va shu bilan birga o'quvchilarga mehnatsevarlikni, ijodkorlikni va qaysidir ma'noda tadbirkorlikni o'rgatishlari lozim. Ma'lumki o'qituvchilik kasbi o'ta ma'suliyatli kasb bo'lib, turli integratsion bilim va ko'nikmalarni talab etadi. Texnologiya fani o'qituvchisi kelajakda o'quvchilarga bilim berish bilan birga ularda ma'lum kasb-hunarga oid ko'nikmalarni shakllantiradi. Bunda berilgan buyumlarni tayyorlashda yuqori malaka va kasbiy mahoratga ega bo'lmog'i kerak. Ushbu natijaga erishish uchun bilim va ko'nikmalardan tashqari o'qituvchining o'z sinalgan uslubi, ta'lim va tarbiya orqali o'quvchilarga ta'sir o'tkaza olish qobiliyati bo'lishi lozim. Dars jarayonida o'quvchilarga bilim berish bilan birga ularda mehnat qilish ko'nikmalarini o'stirish va mehnat orqali tarbiyalash ko'nikmasiga ega bo'lishni talabalarda oliy ta'lim muassasalarida shakllantirish lozimdir. Shaxsni mehnat va kasb olamiga olib kirish borasida "Texnologiya" fani muhim o'rin tutadi. Bo'lg'usi

texnologiya fani o'qituvchisi sifatida maxsus ko'nikma va malakalarga ega bo'lishda Texnik ijodkorlik va dizayn fanining ahamiyati katta. Mazkur fan Mehnat ta'limi bakalavriyat yo'nalishi uchun mo'ljallangan bo'lib, o'quvchilar texnik ijodkorligini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik muammolari, texnik ijodkorlik faoliyatining tashkiliy asoslari, ixtiro, kashfiyot, ratsionalizatorlik takliflari va patent axboroti, texnik ijodkorlik masalalarini echish metodlari, dizaynva modellashtirish, ergonomika va dizayn asoslari, texnik modellashtirish vakonstruktsiyalash, o'quvchilar texnik ijodkorligi faoliyatiga rahbarlik qilish, sinfdan va maktabdan tashqari muassasalarda texnik ijodkorlik faoliyatini tashkil qilish, o'quvchilar texnik ijodkorligini rivojlantirish metodlariga oid mavzular yoritilib, talabalarga bilim berish ko'zda tutilgan.

Ushbu fanning vazifasi – talabalar hozirgi ishlab chiqarishning asosiy tarmoqlarida tipik mashinalar, mexanizmlar, apparatlar va asboblarning tuzilishi hamda ishlash printsiplari shuningdek ulardan amalda foydalanish, asosiy materiallar eng tipik, texnologik jarayonlarni bilish hamda ilmiy dunyoqarashini hakillantirish vazifalarini bajaradi.

Fan bo'yicha talabalarning bilim, ko'nikma va malakasiga qo'yiladigan talablar qo'yiladi. Talaba:

- texnik ijodkorligining asosiy tushunchalari va mohiyati; texnik ijodkorlikning o'ziga xos xususiyatlari; texnik ijodkorlikning tashkiliy asoslari; kashfiyot. Ixtirochilik. Ratsional dizatorlik takliflari to'g'risida tasavvurga egabo'lishi;

- ilmiy-texnik va patent axboroti. Ijod metodlari, texnik masalalarni yechish; texnik ijodkorlik metodlarini rivojlantirish. «Amal va xato» metodi; «aqliy hujum» metodi. Sinektika va morfologik tahlil. Nazariy savollar metodi. Ixtirochilik masalalarini yechish algoritmi bilishi, malaka hosil qilishi va amalda qo'llay olishi;

- texnik masala yechimlarini topishning boshqa metodlari; buyumning badiiy loyiha konstruksiyasini yaratish. Texnik obyektlarni loyihalash vatayyorlash; oddiy texnik obyektlarni konstruksiyalash va modellashtirish; avtomodeli, kema modeli, avia model va qishloq xo'jaligi mashina va uskunalarni modellashtirish, qo'llanishiga ko'ra o'quv va ishlab chiqarish texnik obyektlarini konstruksiyalash. o'quvchilarning texnik ijodkorligini boshqarish; texnik ijodkorlik bo'yicha sinf va maktabdan tashqari olib boriladigan ishlarni tashkilotish; o'quvchilarning boshlang'ich ijodiy uyushmalaridagi ishlar mazmuni va metodlari ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak. Bu fanni o'qib o'rganish jarayonida o'qitish metodikasini takomillashtirish, moddiy jihozini mustahkamlash, o'quv muassasalari atrofidagi sanoat ishlab chiqarish sohasi bilan aloqasini mustahkamlash, ijtimoiy foydali, unumli mehnatni tashkil etish, uning tarbiyaviy iqtisodiy samaradorligini oshirish va ta'lim bilan qo'shib olib borish, o'quvchilarni mehnatga tayyorlashni yaxshilash hozirgi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. Texnologiya fani darsi maktabdagi boshqa fanlar uchun umumiy didaktik

prinsiplarni qo'llasada, uning o'ziga xos xususiyatlari ham mavjud. O'quvchilar bilish faoliyati bilan emas, balki yaratish faoliyati bilan shug'ullanadilar. Oliy ta'lim muassasalarida talabalarning bo'lg'usi texnologiya fani o'qituvchisi sifatida hozirgi davr talabi osnosida bilim va ko'nikmalariga ega bo'lishlari uchun Texnologiya va dizayn fani muxum o'rin tutadi. Bu fanning maqsadi talabalarning faolligini oshirish, ta'lim samaradorligini oshirish, talabada yaratuvchanlik va fan texnika rivojiga oid bilimlarni qaror toptirish, talabalarda erkin va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishda Texnologiya va dizayn fani o'quv fani sifatida ana shu va shu kabi boshqa xususiyatlarini rivojlantirishda muxum fan xisoblanadi. Bu fanini o'rganish materiallar, ularning xossalarini o'rganishdan hamda ushbu materiallarning xususiyatlaridan kelib chiqib ulardan turli buyumlar tayyorlashdan iborat bo'ladi. Ushbu jarayon o'qituvchilardan texnologik bilimlarni qo'llash, kreativ va texnik fikrlash orqali tayyor buyumlarning sifat darajasini tahlil etish va o'quvchilarda ijodkorlik ko'nikmalarini shakllantirish kasbiy bilimlarni singdirishdan iborat. O'quvchilarni yoshligidan mehnatga o'rgatish va ijodiy fikrlash va ixtirochilik faoliyati kelajak hayotlarida juda katta samara beradi. Bunda mehnat ko'nikmalari bilan birga o'quvchilarda kreativlik, texnik bilimlar, kollektiv ijodkorlik kabi qobiliyatlarni ham shakllantirish zarur.

Ijodkorlik - bu ma'lum bir mavzu uchun ilgari noma'lum narsani yaratishga, kashf etishga hissa qo'shadigan faoliyat. Yana bir nuqta ijodiy faoliyat ko'lami bilan bog'liq. Ijtimoiy amaliyotda, qoida tariqasida, ijodkorlik kashfiyot, ixtiro, ratsionalizatsiya kabi yangilik toifalari bilan o'lchanadi. So'nggi paytlarda tashkiliy va texnologik jarayonlarga yangilik kiritish bilan bog'liq innovatsion (innovatsion) faoliyat haqida ko'p narsa aytiladi. Ammo bunday faoliyatni ratsionalizatsiya deb atash mumkin.

Ratsionalizatsiya - mavjud texnologiyalardan foydalanishni yaxshilash uchun (biz faqat texnik muammolarni hal qilish bilan bog'liq jihatni olamiz). Shunday qilib, biz buni aytishimiz mumkin: ixtirochi, birinchi navbatda, yakuniy effekt, funksiya, dizayner - funktsiyani bajaruvchi qurilma va ratsionalizator bilan qiziqadi - tugallangan qurilmadan ba'zi shaxsiy maqsadlar uchun yanada oqilona foydalanish. Ma'lum hollarda ratsionalizatorlik taklifi ixtiro bo'lishi mumkin. Dizaynni ixtirochi va ratsionalizatorlik faoliyatiga "bog'lab qo'yish" mumkin, agar ularni amalga oshirish uchun ma'lum dizaynlarni yaratish zarur bo'lsa. Ixtiro, dizayn va ratsionalizatsiya o'rtasidagi amaliy farqni har bir faoliyatning maqsadlari xarakteridan izlash kerak. Ixtiro texnik muammoni, umuman muammoni hal qilishga qaratilgan; dizayn - tuzilmani yaratish; Loyiha - bu talabalar tomonidan amalga oshiriladigan intellektual va amaliy xarakterdagi ijodiy yechim. O'qituvchi rahbarligida bajariladigan talabalarning mustaqil ishlari. Agar biz ijodkorlikning ishchi ta'rifiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, uni yangi muammolarni hal qilish yoki ilgari hal qilingan muammolarni hal qilishning yangi usullarini topish, ishlab chiqarishda yuzaga keladigan turli xil muammolarni, vaziyatli qiyinchiliklarni hal qilish bilan bog'lash maqsadga muvofiq ko'rinadi. va kundalik hayot. Yangi muammoning ijodiy

echimining tuzilishini ko'rib chiqishdan oldin, texnik ijodiyot turlari haqida umumiy ma'lumotga to'xtalib o'tamiz. Kasbiy ijod turlariga ixtiro, qurilish, ratsionalizatsiya, dizayn kiradi. Texnik ijodkorlikning barcha turlari o'rtasida yaqin munosabatlar mavjud. Texnologiyaning jadal rivojlanishining birinchi davrida bunday bo'linish kuzatilmadi va ilmiy adabiyotlarda asosan ixtirochilik faoliyati haqida so'z yuritildi. Hozirgi vaqtda kashfiyot, ixtiro va ratsionalizatorlik taklifining ilmiy va amaliy bo'linmasi mavjud bo'lib, ular nafaqat texnik ob'ektlarga nisbatan amalga oshiriladi. Shunday qilib, kashfiyot deganda, ilgari noma'lum bo'lgan ob'ektiv mavjud bo'lgan mulk yoki hodisani o'rnatish tushuniladi. Ishlab chiqarish, madaniyat va boshqalar uchun ijobiy ahamiyatga ega bo'lgan muammoning yangi echimi deb nomlangan ixtiro. Ixtirolar konstruktiv (qurilmalar), texnologik (usullar) va yangi moddalarni yaratish bilan bog'liq bo'linadi.

XULOSA

Texnologiya fani bizga talim tizimining yangi sohalariga qadam qo'yishga bo'lgan imkoniyatlar eshigini ochadi. Bunga yana yaqqol misol tariqasida mehnat talimi fani texnologiya faniga o'zgartirilganligidir. Buning asosiy sababi mehnat so'zi keng ma'no va tushunchaga ega bo'lib hozirgi texnika va texnologiyalar rivojlangan zamonamizga to'g'ri kelmaydi. Texnologiya ta'limi jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etish orqali innovatsion infratuzilmasini shakllantirish lozim. Lekin bu sohada yuqori darajaga erishish uchun eng avvalo moddiy-texnik baza zamon talablariga javob berishi lozim. Bu kamchiliklarni bartaraf etish uchun quyidagi tadbirlarni amalga oshirish lozim: -umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qitiladigan amaldagi texnologiya fani mazmuni, mustaqil hayotda qo'llash imkoniyati bo'lgan texnologik savodxonlikni, tanqidiy fikrlash va ijodkorlik kompetensiyalarini shakllantirish uchun yetarli emas; -texnologiya fanini o'qitishda metapredmet kompetensiyalar va fanlararo bog'liqlikning kamligi; -texnologiya fani me'yoriy hujjatlarida baholash mezonlarining faqat bitiruvchi kompetensiyasi uchun ishlanganligi va darslik, ishchi daftar va o'qituvchi kitoblari, multimedia ilovalari, didaktik materiallarning yetishmasligi; -texnologiya fani mazmuniga mexatronika, robototexnika, elektrotexnika, avtomatika, arduino kabi O'zbekiston iqtisodiyoti rivoji uchun zarur bo'ladigan elementlarning kiritilmaganligi bo'lajak maktab bitiruvchisi va mutaxassislarning kasbiy sifatlariga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda; -o'quvchilarda ta'lim olishga kuchli motivatsiyani shakllantirish uchun o'quvchilarda zamonaviy texnika, mexatronika, robototexnika, elektrotexnika, avtomatika sohasidagi taktik kompetensiyalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan jihoz va uskunalarning yetishmasligi; -texnologiya fani moddiy-texnika bazasini eskirganligi, zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan jihozlanmaganligi hamda byudjetdan mablag, bilan ta'minlash bo'yicha yetarli choralar ko'rish yuzasidan takliflar ishlab chiqilmaganligi;

Academic Research in Educational Sciences Volume 3 | Issue 3 | 2022 ISSN: 2181-1385 Cite-Factor: 0,89 | SIS: 1,12 DOI: 10.24412/2181-1385-2022-3-841-845 SJIF: 5,7 | UIF: 6,1 845 March, 2022 https://t.me/ares_uz Multidisciplinary Scientific Journal

REFERENCES:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 yil, 6-son, 70-modda.

2. Maxbuba Aslanovna Xalmuxamedova «NAQShBANDIYa TARIQATIDA KASB-HUNAR EGALLASHGA DA‘VAT.» Academic Research in Educational Sciences VOLUME 2 | ISSUE 12 | 2021 ISSN: 2181-1385 Scientific Journal Texnologiya ta‘limini rivojlantirish strategiyalari moduli bo‘yicha O‘QUVUSLUBIY MAJMUA. Toshkent-2021 4. A. Abduqodirov, R. Ishmuhammedov. “Ta‘limda innovatsio

FANLARARO BOG‘LANISHLARDAN FOYDALANISH ORQALI TA‘LIMiy KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISH

Radjabov Rashid Farxadovich

Texnologik ta‘lim kafedrası dots.v.b.

Matnazarova Shodiya Ikromovna

Texnologik ta‘lim kafedrası magistranti

Annotatsiya: *Maqola O‘zbekiston Respublikasi ta‘lim jarayoniga tatbtq qilingan Davlat ta‘lim standartlarini Texnologiya ta‘limi predmeti mashg‘ulotlarida amaliy qo‘llash xususiyatlariga qaratilgan. Xususan texnologiya fan predmetini o‘qitishga kompetensiyaviy yondoshuvning tatbiq qilinishi asoslari ko‘rib chiqilgan. Mashg‘ulotlar jarayonida Texnologiya fan predmeti bilan boshqa fan predmetlari o‘rtasidagi predmetlari aloqadorlikni amalga oshirish asosida o‘quvchilarning ta‘limiy kompetensiyalarini shakllantirish imkoniyatlari tadqiq qilingan.*

Kalit so‘zlar: *Kompetensiya, davlat ta‘lim standarti, fanlararo bog‘lanishlar, fan predmetlari, qonun, qoida, hodisalar, amalda qo‘llash.*

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so‘ng barcha yo‘nalishlar kabi ta‘lim sahasida ham islohotlar amalga oshirila boshlandi. Islohotlarni o‘tkazishning zarurligi shundaki , mustaqil Respublikamiz jahon hamjamiyatida o‘z o‘rnini topish, ilmiy-texnika rivojlanishidan orqada qolmasligi uchun jahon andozalariga mos keladigan salohiyatli kadrlar tayyorlash muhim ahamiyatga ega. Shunga ko‘ra “Ta‘lim to‘g‘risida” gi Qonun va “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” ishlab chiqildi.. Umumiy o‘rta ta‘lim, o‘rta maxsus , kasb-hunar ta‘limi va Oliy ta‘limda o‘rganiladigan fanlar orasida uzviylik va uzluksizlikni ta‘minlash maqsadida barcha fanlar bo‘yicha DTS ishlab chiqildi, o‘quv dasturlari asosida yaratilgan darsliklar tajriba –sinovdan o‘tkazilib , hayotga tatbiq etildi. Bunda albatta, ta‘lim-tarbiya sohasidagi ilg‘or mamlakatlarning ushbu tizimi bo‘yicha olib borilayotgan tajribalari ham o‘rganildi. Shu bilan birga ayrim yo‘nalishlarda samarasi yuqori bo‘lmagan holatlar mavjudligi aniqlandi. Jumladan, chet tillarni o‘qitish an‘anaviy ravishda, ilg‘or axborot kommunikatsion va media –texnologiyalarni qo‘llamasdan o‘qitilayotgaligi , bu esa zamon talabiga javob bermasligi O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining 2012 yil 10 dekabrda “Chet tillarini o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida” gi PP-1875 raqamli qarorida o‘z aksini topdi. SHunga ko‘ra , mazkur qaror asosida tadbirlar rejsi ishlanib , unda mavjud o‘quv rejasi va dasturlarni “CHet tillarni egallashning Umumevropa kompetensiyasi” ga mos ravishda qayta ishlanishi belgilab berildi.²³ Xo‘sh kompetensiyaviy yondoshuv “ o‘zi nima?

²³ <https://www.lex.uz> Ўзбекистон Республикаси Биринчи Президентининг 2012 йил 10 декабрдаги “Чет тилларини ўрганиш тизимини янада такомиллаштириш тўғрисида” ги ПП-1875 рақамли қарори

“Competence “ so‘zi “to compete” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, “musobaqalashmoq”, “raqobatlashmoq”, “bellashmoq” degan ma‘noni beradi. So‘zma-so‘z tarjima qilganda , musobaqalashishga layoqatlilik” ma‘nosida keladi. So‘zma-so‘z tarjima qilganda, “musobaqalashishga layoqatlilik” ma‘nosida keladi. O‘tgan asr oxirida o‘tgan ta‘lim bo‘yicha xalqaro kongressda pedagog – olim Jak Delorf ta‘lim tayanadigan to‘rtta ustunni ta‘riflab bergan edi: - bu bilishni o‘rganish, bajarishni o‘rganish, birgalikda yashashni o‘rganish. 1996 yilning 27-30 mart kunlari Bern shahrida Evropa Kengashi dasturi bo‘yicha o‘tkazilgan simpoziumda , ta‘limni isloh qilish uchun eng muhim narsa tayanch kompetensiyalarni belgilab olish kerak ekanligini , bu esa o‘z navbatida ta‘lim oluvchilarning muvaffaqiyatli ravishda ishlay olishlari va so‘ngra oliy ta‘lim olishlari uchun zarurligi haqida masala qo‘yiladi. Kompetensiyalarni ishlab chiqaruvchi asosiy mutaxassislardan biri V.Xutxamer “Evropa yoshlari ega bo‘lishi kerak bo‘lgan” beshta tayanch kompetensiyalarning ta‘riflarini keltiradi. Bu kompetensiyalar quyidagilardan iborat:

- Ijtimoiy va siyosiy kompetensiyalar: jamoada qaror qilishda qatnashish va u haqda javobgarlikni his etish;

- ko‘p madaniyatli jamiyat hayoti bilan bog‘langan kompetensiyalar: ta‘lim orqali yoshlarga madaniyatlararo kompetensiyalarni, ya‘ni boshqalarni hurmat qilish, boshqa madaniyatga, tilga va dinga ega bo‘lgan insonlar bilan birgalikda yashay olish kabi zaruriy xislatlarni singdirish kerak;

- og‘zaki va yozma muloqatga kirishish bilan bog‘liq kompetensiyalar: Bunda o‘z ona tilidan tashqari yana boshqa tilni bilish ham muhimligi ko‘zda tutiladi;

- jamiyatni axborotlashtirish bilan bog‘liq kompetensiyalar: ommaviy axborot vositalari orqali tarqatilayotgan axborotlarga nisbatan tanqidiy munosabatda bo‘lish, uning kuchli va kuchsiz tomonlarini ajrata bilish uchun axborot texnologiyalarini bilish;

- kasbiy va ijtimoiy hayot taqozosiga ko‘ra butun hayoti davomida uzluksiz oravishda o‘qib o‘rganib borish.

2006 yil 18 dekabrda Evropa parlamenti va Kengashi uzluksiz ta‘lim uchun quyidagi tayanch kompetensiyalarni tavsiya qildi:

1. O‘z ona tilida muloqat qila olish;
2. CHet tilida muloqat qila olish;
3. Matematik kompetentlik hamda fan va texnika sohasidagi asosiy kompetensiyalar;
4. Raqamli kompetentlik;
5. O‘qishni o‘rganish;
6. Ijtimoiy va fuqorolik kompetensiyasi;
7. Tadbirkorlik va tashabbuskorlik tuyg‘usi;
8. Madaniyatdan xabardor bo‘lish va uni ifodalash.

Hozirgi paytda ko‘pgina Evropa mamlakatlari ushbu kompetensiyalar asosida ta‘lim tizimini yaratgan. Britaniyada oltita tayanch kompetensiyalar asos sifatida olingan. Asosiy kompetensiyalar:

- muloqatga kirishish;
- hisob-kitoblar yuritish;
- axborot savodxonligi.

AQSHda 1980 yillarda ta'lim standartlari ishlatila boshlandi. Ma'lumki AQSH da ta'lim tizimi markazlashtirilmagan. SHunga ko'ra, ta'limga doir ko'pgina masalalar har bir shtat tomonidan hal qilinadi. Germaniyada 1970 yilda o'tkazilgan tadqiqotlarning butun mamlakat bo'yicha past natija ko'rsatganidan keyin ta'lim standartlari va dasturlari ishlab chiqila boshlandi. Nemislarning standartida ta'lim tizimida asosiy e'tibor o'quvchilarga tayanch malakalar va kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan bo'lib o'quv dasturi ortiqcha bilimlar bilan to'ldirib tashlanmagan.. Germaniyada 2004 yildan boshlab maktab ta'lim standartlari majburiy hisoblanadi. Rossiya ta'lim standartlari 1992 yilda ishlab chiqildi, 1993 yildan vaqtinchalik ta'lim stndartlari ishlab chiqila boshlandi. 2000 yildan boshlab davlat ta'lim standartlarinigng birinchi avlodi (umumiy ta'lim va ikkinchi avlod (oliy ta'lim uchun) ishlab chiqila boshlandi.

SHu asosda chet mamlakatlar tajribalari o'rganilgan holda O'zbekiston Vazirlar Mahkamasining 2017 yilda 187-son qarori qabul qilindi.²⁴ Qarorga ko'ra yangi Davlat ta'lim standartlari 2017 yildan boshlab bosqichma-bosqich amaliyotga kiritiladigan bo'ldi. Ushbu xujjatda kompetensiya so'ziga quyidagicha ta'rif keltirilgan. "Kompetensiya – mavjud bilim, ko'nikma va malakalarni kundalik faoliyatda qo'llay olish qobiliyati" deyilgan. Ushbu ta'rifdan kelib chiqadigan bo'lsak. Bugungi kunda umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qitilayotgan fanlarning amaliy yo'nalganligini va o'quvchi tomonidan amalda qo'llay olish ko'nikma va malakalarini shakllantirishni kuchaytirish zarurligini keltirib chiqaradi. Bizningcha ushbu fanga oid kompetensiyalarni talablarini bajarishda fanlararo bog'lanishlarning qo'llanishini samaradorligini oshirish zarur bo'ladi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida tabiiy va aniq fanlardan o'rganiladigan qonun va hodisalarning hayotda qo'llanishini o'rgatishda va ulardan amaliy foydalan olishda texnologiya fan predmeti bilan bog'langan holda olib borilishi o'quvchilarning kompetentligining oshiradi. Masalan Fizika fan predmetida o'rganiladigan ishqalanish xodisasi bilan Texnologiya fan predmetida o'rganiladigan materiallarga qo'lda va dastgohlarda kesib ishlov berishga oid mavzular tushuntirilganda yaxshi natija beradi. Ma'lumki materiallarga kesib ishlov berish natijastda keskich va kesilayotgan materialning qizishiga asosan ishqalanish xodisasi sabab bo'ladi. Bu esa ishlov berish sifatiga salbiy ta'sir o'tkazadi. Buning oldini olish uchun to'g'ri kesish qoidalariga amal qilish va dasgohlarda moylash –sovtish suyuqliklaridan foydalanish zarurligi to'g'risida o'quvchilarda dastlabki tushuncha bilimlarni o'zlashtirilishiga ijobiy ta'sirini ko'rsatadi. Har qanday mehnat operatsiyasini bajarish va o'quvchilarda zaruriy mehnat ko'nikma va malakalarini shakllantirishda amaliy mashqlar katta ahamiyat kasb etadi. Har qanday o'quvchining harkatlari va u ishlatadigan moslama va

²⁴ <https://giu.uz> Ўзбекистон Республикаси Вазирлар маҳкамасининг “Умумий ўрта ва ўрта махсус , касб-хунар...давлат таълим стандартларини тасдиқлаш тўғрисида”ги 187- сон қарори 1017 йил 6-апрел

dastgohlarning ishlashi fizikaning mexanika bo'limi mavzularida o'rganiladigan qonunlar va hodisalarga asoslanadi. Fizika fani predmetining "Moddaning agregat xolatlari" va "Melekulyar –kinetik nazariya" sig a oid mavzulari bilan Texnologiya faning "Pazandachilikda ishlatiladigan sovutgich va muzlatgich, termos, mikroto'liqlik elektrpechlarning tuzilishi va ahamiyati , foydalanish texnologiyasi" mavzularini o'rganishda bog'lanishlar orqali ta'lim jarayonini olib borish o'quvchilarda o'rganilayotgan har bir qonun va hodisalarning hayotda va texnik ob'ektlarda amalda qo'llanishiga ishonch hosil qiladilar. Bu esa ularga har bir fanning ularning kelgusi maishiy va kasbiy faoliyatida asqotishini anglatadi. Matematika fanidan olgan hisoblashga oid bilim ko'nikma va mlakalarni mehnat ta'limi mavzularini o'rgatishda qo'llanishi ham yaxshi natijalarga olib keladi. Kimyo fanidan olgan bilim va ko'nima va malakalarindan mehnat ta'limi mashg'ulotlarida yog'och, metallar va polimer materiallarning tarkibi va tuzilishini , xususiyatlarini o'rganishda foydalanish o'quvchilarda fanlarni o'rganishda ularning dknyoqarashini o'sishiga kompleks har taraflama bilimlarga ega bo'lishiga olib keladi. Endi tayanch kompeensiyalarni rivojlantirishga kelsak bu erda o'quvchilar bilan ishlashda o'qituvchining pedagogika psixologiya va axborot texnologiyalaridan chuqur amaliy bilimga ega bo'lishi talab qilinadi. Standartning matematik savodxonlik , fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasida "maktabga kelib ketadigan vaqtini bilish"..."kundalik rejalarni tuza olish" ..." isrof va tejamkorlikning ma'nosini tushinish" o'quvchilarda rejalashtirish, loyihalash va iqtisodga oid tushuncha va bilimlarga ega bo'lishni talab qiladi.

SHuning uchun ham texnologiya fan predmeti o'qituvchisi boshqa tabiiy va aniq fan o'qituvchilari bilan kelishgan holda predmetlararo aloqadorlik rejasini tuzib chiqishi va uni mazmunini tarkib topdirishi kerak bo'ladi. Bunday kompetensiyalarni shakllantirishda standart talablariga javob beradigan o'quvchilarni o'qitib tarbiyalash o'z navbatida bo'lg'usi fan o'qituvchilarini va texnologiya ta'limi o'qituvchilarini tayyorlashda ham yangicha yondoshuvlarni qo'llash talabini qo'yimoqda. Bizning fikrimizcha yuqorida aytganimizdek bo'lg'usi fan o'qituvchilarini fanlararo bog'lanishlardan samarali foydalanishga, o'quvchilarga o'qitilayotgan fanlarning amaliy yo'nalganligini kengroq yoritishga, bilimlarni qo'llash va amalda foydalanishga oid materiallar bilan qurollantirishga urg'u berilishini lozim deb hisoblaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. SHavkat Mirziyoev Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – Toshkent : : «O'zbekiston» NMIU, 2017. -168 b.
2. Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturi. - T 2017y. – 99 bet.
3. Атутов П.Р. и др. Связь трудового обучения с основами наук – М.: Просвещение. 1983г. -128 стр.
4. Максимова В.Н. Межпредметные связи в проценссе обучения – М.: Просвещение, 1988г. -192 стр.
5. Muslimov N.A. va boshqalar. Pedagogik kompetentlik va kreativ asoslari. O'quv-metodik qo'llanma.-T.: "Sano-standart" , 2015.- 120 b.
6. Muslimov N.A. , Abdullaeva K.M., Qo'ysinov O.A., Gaipova N.S.,
Bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik kompetentligini shakllantirish nazariyasi va texnologiyasi. Nizomiy nomidagi TDPU Rizografi, Toshkent 2014 yil. 7 b.t.
7. Усова А.В. и др. Связь преподавания физики в школе с сельскохозяйственным производством. –М.: Просвещение, 1976.-179 стр.

TRANSLATING UZBEK IDIOMS TO ENGLISH LANGUAGE IN LITERARY TRANSLATION

Sattorova Shokhzoda Shahriyor qizi

*SamDU 2nd year master's degree
students (Fiction translation English)*

Maxmudova Bibirayxon Begbuta qizi

*SamDU 2nd year master's degree
students (Fiction translation English)*

Annotation: *Through this article, you will learn about the changes in translation, words, phrases, texts in the Uzbek language and in English. At the same time, you will also learn about their translation activities and their prospects in the near future.*

Keywords: *Idiom, speech unit, literary translation, semantic translation, semantic structure, holistic perception.*

So, quasi-professional activity is a necessary stage of transition from educational activity to the world of professional culture. That is, it is the activity of the future teacher in order to reveal his professional competence in the conditions necessary for him to manifest himself as an educator.

REFERENCES:

1. Professional standard of pedagogical activity [Text] / ed. Ya. I. Kuzminova, V. L. Matrosova, V. D. Shadrikova // Bulletin of Education. - 2007. - No. 7. - S. 20-34.
2. VD Shadrikov Problems of systemogenesis of professional activity [Text]. - M. : Logos, 2007. - 192 p.
3. VD Shadrikov Professional abilities [Text] / VD Shadrikov. – M. : Universitetskaya kniga, 2010. – 320 p.
4. A. A. Verbitsky The problem of transformation of motives in contextual learning [Electronic resource] / A. A. Verbitsky, N. A. Bakshaeva. – URL: <http://www.library.by/portalus/modules/psychology/>
5. Yu.P. Vetrov Practice-oriented approach [Text] / Yu.P. Vetrov, N.P. Klushina // Higher education in Russia: scientific and pedagogical journal of the Ministry of Education of the Russian Federation. - No. 6. - 2002. - S. 43-46.
6. V.A. Zebzeeva Practice in the training of specialists in preschool education [Text]: textbook / V. A. Zebzeeva. - M. : TC Sphere, 2008. - 192 p.
7. E.F. Zeer Psychology of vocational education [Text]: textbook for students. higher textbook institutions / E. F. Zeer. - M. : Publishing Center "Academy", 2009. - 384 p.
8. Innovative teacher training system. Theories and technologies of preschool education in undergraduate studies [Text]: scientific and methodological manual / ed. A.G. Gogoberidze, O.N. Somkova. - St. Petersburg. : Knizhny Dom LLC, 2008. - 368 p.
9. Ergasheva, G. (2022). Modeling Of Students' Quasi-Professional Activities. Center for Scientific Publications (buxdu.Uz), 23(23).
10. Ergasheva, G. (2022). Quasi–professional activity is the basis of successful professional activity (on the example of a future biology teacher). Center for Scientific Publications (buxdu.Uz), 23(23).

INGLIZ TILINI O'RGANUVCHILARDA FONETIK XATOLARNI TUZATISH UCHUN MASHQLAR

Botirova Muhlis Dilshod qizi

Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti Xorijiy tillar fakulteti 3-kurs, talabasi.

Qurbonova Nasiba

Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti Xorijiy tillar fakulteti, o'qituvchisi.

Abstrakt: *ushbu maqolada ingliz tilini o'rganuvchilarda yuzaga keladigan fonetik xatolarni tuzatish uchun samarali mashqlar va ularni qanday qo'llash usullari yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *metod, kommunikativ yondashuv, interfaol o'yinlar, kviz kartochkalari, pantomima, tezkor javob, rasmlar so'zlaganda*

Mamlakatimiz istiqbolga erishgan dastlabki kunlardanoq aholi o'rtasida chet tilini o'rganish salohiyatini oshirish uchun qator tizimli ishlarni amalga oshirmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining 1-Prezidenti

I.A.Karimov ta'kidlaganidek "Biz farzandlarimizga chet tillarni o'rgatishni takomillashtirish bo'yicha keng qamrovli va mazmun-mohiyat bo'yicha katta ishlarni boshladik. Jumladan 2012-yilda shu qisqa davrda bu ishlarimiz o'zining ijobiy natijalarini bermoqda. Boshlangan ishlarimizni izchil davom ettirsak, nasib etsa, bu borada ham "portlash effekti"ga erishamiz". Bizning 1-Prezidentimiz I.A.Karimovning chet tillar sohasini takomillashtirish masalalariga oid Qarori asosida Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 8-maydagi 124-sonli qarori bilan uzluksiz ta'lim tizimining chet tillar bo'yicha davlat ta'lim standarti tasdiqlandi. Ushbu standart talablariga ko'ra umum-ta'lim maktablarining 1-4-sinflari uchun A1 "Chet tilini o'rganishning boshlang'ich darajasi" va 9-sinf yakunida A2 "Chet tilini o'rganishning tayanch darajasi"da chet tillarni bilish me'yorlari belgilab qo'yildi. Unga ko'ra, o'quv rejaga 1-4-sinflarga bosqichma- bosqich haftasiga 2 soatdan, yiliga 68 soat qo'shimcha kiritildi. Shuningdek, o'quvchilarga chet tili bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalar mezonini aniqlab belgilab berildi. Ingliz tilini barcha yoshdagi til o'rganuvchilar birdek sevib o'rganishmoqda, chunki ingliz tili bu-xalqaro til bo'lib, ko'pchilik davlatlarda ichki va tashqi savdo aloqalari, turizm sohalari aynan ingliz tilidagi muzokaralar asosida amalga oshiriladi. Bundan tashqari ingliz tilini o'rgangan inson boshqa millat vakillari bilan birorta qiyinchiliklarsiz fikr almasha oladi. Ma'lumki, nutqiy muloqot ayrim belgilar, so'zlar, so'z birikmalari va nutqiy konstruksiyalar asosida amalga oshiriladi, bular esa turli tillarda turlichadir. Ko'plab ingliz tili o'rganuvchilari nutq jarayonida so'zlarni xato talaffuz qilish orqali suhbatdoshiga o'zi ifodalomoqchi bo'lgan fikrni yetkazdirib bera olmaydi. Albatta, buning sabablari turlicha bo'lishi mumkin. Ammo asosiy sabablardan biri shuki bu 2 til grammatikasi va fonetikasi o'rtasidagi farqdir. Masalan, O'zbek tili va ingliz tili fonetikasida katta farqning mavjudligi til o'rganuvchilarning talaffuzida ko'plab so'zlarni xato talaffuz

qilinishiga olib kelyapti. Bu kabi muammolarni bartaraf etish uchun til o'rgatish jarayonida noan'anaviy darslar tashkil qilib, interfaol o'yinlardan foydalanish kerak. Bu o'qitish metodlari nafaqat o'quvchilarni balki ular o'rtasida raqobat asosida darsni yanada qiziqarliroq bo'lishiga, hamda o'quvchilarning ingliz tilini o'rganishga bo'lgan ishtiyoqlarini kuchaytirishga xizmat qiladi. Boshlang'ich sinflarda asosan kommunikativ yondashuv orqali ilk nutqiy ko'nikmalar shakllantirib boriladi, bunda bolalar qo'shiqlari, she'rlar, tez aytishlar muhim o'rin tutadi. Darsda faol harakatli o'yinlardan foydalanish orqali ko'zlangan natijalarga erishish mumkin. Chet tili o'qitishning og'zaki jihatdan ilgari ketishi tamoyiliga ko'ra til materialini o'rganish og'zaki nutqda va o'qishda bir vaqtda olib borilmaydi. Bu bosqichda til materialini o'rganish quyidagi sxema asosida olib boriladi: tinglab tushunish (Listening)-gapirish (speaking)-o'qish (reading)-yozish (writing). Metodist olim Yagang (1994) ning fikricha ingliz tilini o'rganayotgan tinglovchi o'ziga bir muncha tanish bo'lgan aksentni esda saqlab qoladi, unga ko'nikadi, natijada boshqa aksentda gapirilgan nutq unga g'alati qovushmagandek eshitilishi mumkin. Tinglab tushunish ingliz tilini o'zlashtirishga muhim belgisi hisoblanadi. Tinglanayotgan material tushunishga xalal beruvchi omillarni bartaraf etish mashg'uloti jarayonida talabdan zukkolik, e'tiborlilik, mehnat va tajriba talab etiladi. Yuqoridagi kabi muammolarni oldini olish uchun quyidagi interfaol o'yin usullarini taqdim qilamiz:

- Kviz kartochkalari (Quiz Cards) bu biror mavzu o'tib bòlingach, o'tkaziladigan nazorat savollaridir. Bunday paytda tayyorlanish uchun savollar uyga berilmaydi. Savollar kartochkalarga yoziladi. 1-komanda kartochkalarga biror mavzu doirasidagi sòzlardan yozadi va uni 2-komandaga (spelling) tovushlar ketma-ketligida aytadi. 2-komanda esa berilgan sòzni tògri talaffuz qilishi kerak. Bu o'yindan tovushlar mavzusini o'tib bòlgandan sòng foydalanish qòl keladi. O'yin jarayonida har ikkala komanda ishtirokchilari sòzni tògri talaffuz qilish uchun sòzlar spelling qilinayotgan vaqtda diqqat bilan tinglaydi. Albatta, bu o'yin o'qituvchi tomonidan nazorat qilib boriladi. Bu o'yin o'rganuvchilarning eshitish va tinglash qobiliyatini o'stiradi.

- Pantomima (Pantomime) bu usul juda qiyin mavzular tushuntirilishi kerak bòlgan darsda yoki yozma mashqlar bajarilib, til o'rganuvchilar charchagan paytda foydalansa bòladi.

- Tezkor javob (Quick answers) bu usuldan takrorlash darslarida foydalanilsa bòladi. Bu o'yinda o'quvchilar sonining kòp bòlishi ahamiyatga molikdir. O'yin koptokcha orqali musiqa sadosi ostida boshqariladi. O'qituvchi 1-bòlib o'yinni boshlab beradi. Bu o'yinni aynan bògin va uning turlarini takrorlash mavzusida qòllansa o'quvchilar xotirasida takrorlanayotgan mavzu yanada mustahkamlanadi. Koptokcha o'quvchilar bòylab almashinadi. Musiqa tòxtatilganda koptokcha kimda qolsa, uni otgan o'quvchi o'sha o'quvchiga quyidagicha urgu ostidagi sòzlarni 4 ta tur bòginda o'qilishiga oid savol beradi. 1-o'quvchi: A unlisi 2-tur yopiq bòginda nechanchi son tovush bilan talaffuz qilinadi va unga misol keltiring.

2-òquvchi: A unlisi 2-tur yopiq bòğinda 4-sondagi tovush bilan talaffuz qilinadi.
M: mat, cat, hat.

-Rasmlar sòzlaganda (When pictures speak) bu usul ham ancha qulay bòlib, ingliz tilini òrgatishda, talaba, òquvchilarning oğzaki nutqini rivojlantirishda yordam beradi, buning uchun mavzuga oid rasmlardan foydalaniladi. Bu kabi òyinlar til òrganuvchilarda sòz boyliklarini hamda tògri talaffuz qilish (pronunciation) oshirishga hordam beradi.

Xulosa òrnida shuni aytish mumkinki, ta'limning interfaol usullari òquv materiallarini òzlashtirish jarayonida òquvchilarni faol fikrlashga va mashq qilishga undaydigan usullardir. Ushbu usullar ijobiy ta'lim motivlarini shakllantiradi, òquvchilarning ijodiy qolbilyatlarini rivojlantiradi, òquv jarayoniga òquvchilarni faol jalb qiladi. Bu kabi òyinlar yordamida til òrganuvchi òquvchilar nafaqat ingliz tilidagi sòzlarni tògri talaffuz qilishga, balki ingliz tilini òz ona tilidek bilishga undaydigan omillardan biri sanaladi, hamda bunday interfaol usullar zerikarli va tanish bòlgan darslarni òquvchilar uchun qiziqarli qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RÒYXATI:

1. " Maktab va hayot" ilmiy-metodik jurnal. 2020-yil, 8-son, 22-23-betlar.
2. "N.Q.Xatamova, M.N.Mirzayeva " Ingliz tili darslarida qòllaniladigan interfaol usullar" (Uslubiy qòllanma) "Navoiy" 2007-yil, 40-bet.
3. " Boshlang'ich sinflarda chet tillarni òqitishning psixologik asoslari va samarali texnologiyalari" ilmiy-metodik qòllanma, Toshkent 2015-yil, 7-bet.
4. "Uzluksiz ta'lim" ilmiy-uslubiy jurnal Toshkent 2020-yil, 1-son, 99-100-betlar.

O'ZBEK SHE'RIYATIDA ILOHIY ISTILOHLAR VA KOSMOGONIK TIMSOLLAR MUSHTARAKLIGI

Jabborova Malohat

*BuxDU Filologiya fakulteti O'zbek
Adabiyoti yo'nalishi 1-kurs magistri*

Annotatsiya. *Maqolada Qur'on va o'zbek adabiyoti, xususan, she'riyati mushtarakligi, Nanoiy, Mashrab she'riyatining tasavvufiy talqini, she'riyatimizda kosmogonik jismlar: oy, quyosh, yulduzlarning ramziy-qiyosiy talqini, ularning shaxs obrazida qo'llanishi haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *Qur'oni karim, Mashrab, vatan, xalq, osmon, quyosh, yulduz, oy, eshik, tong, yetti, shajaraviy, nur.*

Diniy, jumladan qur'oniy mavzularni jahon, xususan, o'zbek adabiyotiga singib ketishini o'rganish faqat diniy nuqtayi nazaridagina ibratli bo'lib qolmay, balki Sharq, shuningdek o'zbek adabiyotining ham mavhum qirralarini oydinlashtirib, hozirgi o'zbek adabiyotining shajaraviy, moziydan uzilmas aloqalarini tiklashga madad beradi. Qur'oni karimda 17-suraning 86-oyatida shunday deyiladi: "Qasamki, agar xohlasak, sizga vahiy qilgan narsa-Qur'onni sizdan ketkazurmiz, so'ngra o'zingiz uchun (ya'ni bizdan Qur'onni qaytarib olish uchun) boshqa bir vakil-homiy topa olmassiz".

Darhaqiqat, Parvardigor homiyligi tufayli Qur'on bizga qaytdi va o'zbek adabiyoti o'zining asl o'zani-islom oqimiga qo'shildi. Sohinafas qalb egasi Boborahim Mashrabda shunday miralar uchraydi:

Olovga soldi asbob etgali boz,
Azaldan zar edim, zargar topildi.
Dedi Mashrab chu kuyganlarga kuymas,
Muhabbat qonidin javhar topildi.²⁵

Haqiqatan ham, zarrin so'zlarimizga zargar yagonadir va azaldan shunday bo'lib kelgani haq. Temuriylar shajarining yuksak vakili Amir Temurning "Temur tuzuklari" asarida ham qur'oniy talqinlar bejirim bezaklar singari singirilgan. U qur'onni umri davomida e'zozlab, barcha ishlarini oyatlar bashorati yordamida bajargan. Chunonchi, o'zidan bir necha barobar qudratliroq qo'shin Ilyosxo'ja boshchiligidagi mog'ul qo'shinlariga qarshi kurashda Qur'oning 2-surasi, ya'ni Badr surasining 249-oyatiga tayanadi: "Qanchadan qancha kichkina guruhlar Allohning izni bilan kata guruhlar ustidan g'alaba qilgan". Ushbu bashoratni topganimdan keyin lashkarimni tartibga keltirib, uni yetti fajvga bo'lib yo'lga tushdim". Mazkur oyatning nozil etilishi Badr qudug'i yonidagi jang bilan bog'liq bo'lib, Muhammad alayhi-s-

²⁵ Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tafsiri hilol. 29-taborak porasi. Toshkent, 1992.

salom kam sonli lashkari bilan ko'p sonli mushrik qurayshlarini tor-mor qilgani haqidadir. Bu oyat islom dinining shukuhli sahifalaridan biri deb e'zozlanadi.

Turkiy adabiyotning mehr-u mohi bo'lgan hazrat Navoiy ijodiyotida ham osmon jismlarining ilohiy tajallisi ufurib turadi.

Lek quyosh javhari chun keldi pok
Bo'lsa bulut nurig'a mone ne bok...
Kavnni yoritdi rasuli arab,
Netgay o'zin tiyra qilib bu-Lahab-²⁶

Bunda quyosh ramziy mohiyat kasb etib Muhammad payg'ambarimizni anglatadi, bulut esa Abu Lahab kabi unga isyon qilgan kofirlar timsolidir. Kavn so'zining ma'nosi "olam, borliq" demakdir. She'ning mazmuniga keladigan bo'lsak,, ya'ni aslida javhari pok bo'lgan quyosh nuriga bulut monelik qila olarmidi? Payg'ambarimiz Muhammad alayhissalomga necha Abu Lahablar qarshilik qilgani bilan biror natija chiqara oldilarmi?-degan ma'no tushuniladi. Qur'oni Karimning "Jum'a" surasida Tangri taolo shunday marhamat qiladi: "U(Alloh) omiylar(ya'ni, ahli kitob bo'lgan ilmsiz kishilar) orasiga o'zlaridan bo'lgan, ularga (Qur'on) oyatlaridan tilovat qiladigan, ularni (shirk va jaholatdan) poklaydigan hamda ularga kitob-Qur'on hamda hikmat-hadisni o'rgatadigan bir Payg'ambarni (ya'ni, Muhammad alayhissalomni) yuborgan zotdir. Shakshubhasiz ular (o'zlariga payg'ambar kelishidan) ilgari ochiq zalolatda edilar."²⁷

"Hayrat ul-abror"ning oltinchi maqoloti bevosita axloqiy muammo talqiniga bag'ishlanadi va shoir unda odob egalari haqidagi mulohazalarini keltirib o'tadi. Xususan, Navoiy odobning asosini tavoze'da ko'radi va shunday deydi:

Chunki tavoze'g'a xam o'ldi hilol,
Bo'ldi fuzunroq anga har kun kamol.

Adib bunda tavoze'lik kishini yoy shaklida egilib chiqqan hilol (yangi oy)ga o'xshatadi. Odob ortida topilgan kamol va ehtromni hilolni kunba kun to'lishib, chiroy ochib borishiga mengzab, go'zal tashbeh yaratadi. Navoiy odobning zidi sifatida kulguni ko'rsatadi:

Kulgiki o'z haddidin o'ldi yiroq,
Yig'lamoq andin ko'p erur yaxshiroq...
Qildi bulut ashki bilan dur nisor,
Bo'ldi chaqin kulgisidin xoksor-

Ya'ni haddan ortiq kulgi qalbni o'ldiradi. Bundan yig'l, ko'z Yoshi yaxshiroqdir. Axir bulut ko'z yoshlari bilan gul undirishini, chaqin esa befoyda ovozidan uyalib, o'chib qolishini ko'rmaganmisan?!

Navoiy bu misralarda oy, bulut kabi osmon jismlari orqali inson qiyofasidagi komillik va zalolat chegaralarini yoritib beradi.

O'rinsiz kulgining kufr ekanligi haqidagi talqinlar muqaddas kitoblarda bir qancha rivoyatlar asosida yorib beriladi.

²⁶ Alisher Navoiy. "Hayrat ul-abror" Toshkent:G.G'ulom,1997.

²⁷ Qur'oni Karim (O'zbekcha izohli tarjima),-Toshkent: "Cho'lpon" nashriyoti, 1992.

Ibn Umar (r.a)dan rivoyat qilinadi: Payg'ambarimiz(s.a.v.) bir kuni masjidga chiqdilar. Qavm gaplashib, kulishib turardi. Payg'ambarimiz (s.a.v.) ularning oldiga to'xtab salom berdilar va ularga: "Lazzatni kesuvchi narsani ko'p zikr qilinglar" dedilar. Bizlar:"Yo Rasullalloh, lazzatni kesuvchi narsa nima?" deb so'radik. "O'lim", dedilar.

Shundan keyin yana bir kun chiqdilar. Qavm kulishib turgan edi. Ularga salom berib: "Ogoh bo'linglar! Nafsim qo'lida bo'lgan zotga qasamki, agar men bilgan narsalarni sizlar bilganingizda edi, albatta, kamroq kulib, ko'proq yiog'lar edingizlar",- dedilar.²⁸

Mumtoz matnlar, she'rlar bilan ishlar ekanmiz, uning bevosita din bilan, tasavvufiy qarashlar bilan bog'liq ekanligiga guvoh bo'lamiz. Chunki dindan, iymondan yiroq adabiyot ruhsiz adabiyotdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Boltaboyev H. Qur'on va o'zbek adabiyoti. O'zb.Res. FA "Fan" nashriyoti, 1993-yil.
2. Hasanov Sh. XX asrning ikkinchi yarmi o'zbek dostonlarining poetikasi. Filol. Fanlari d-ri...- Toshkent.:2004.
3. Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tafsiri hilol. 29-taborak porasi. Toshkent, 1992.
4. Alisher Navoiy. "Hayrat ul-abror" Toshkent:G.G'ulom,1997.
5. Qur'oni Karim (O'zbekcha izohli tarjima),-Toshkent: "Cho'lpon" nashriyoti, 1992.
6. Imom al-Buxopriy. Al-adab al-Mufrad. Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 1990.

²⁸ Imom al-Buxopriy. Al-adab al-Mufrad. Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 1990.

IMOM AL-BUXORIY HADISLARNI TADQIQ ETISHGA QARASHLARI

Yaxshiboyeva Zarnigor Asliddin qizi

Asliddinov Husanjon Erkin o'g'li

Sayidov Shaxzodjon Aslanboy o'g'li

Toshkent axborot texnologiyalar universiteti

Pochta aloqa texnologiyasi talabalari

Annotatsiya: *Ushbu maqolada buyuk muhaddis olim Imom al-Buxoriyning hayot yo'li, islom diniga qo'shgan hissalarini, uning asarlari haqida bayon etiladi.*

Kalit so'zlar: *Islom dini, hadisshunos, muhaddis olim, hadis.*

Hadis ilmining rivojida oltin davr hisoblangan hijriy uchinchi (milodiy to'qqizinchi) asrda hadisshunoslikda katta muvaffaqiyatlar qo'lga kiritilgan. Chunonchi, butun islom dunyosidagi eng nufuzli manbalar deb tan olingan oltita ishonchli hadislar to'plamining (as-sihoh as-sitta) mualliflari yashab ijod qilganlar. Yana shunisi diqqatga sazovorki, mazkur olti muhaddisning deyarli hammasi Markaziy osiyolik bo'lib, ular: Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy, Imom Muslim ibn al-Hajjoj (206/819 – 261/874), Abu Iso Muhammad ibn Iso at-Termiziy (209/ 824 – 279/892), Imom Abu Dovud Sulaymon Sijistoniy (202/817 – 275/880), Imom Ahmad An-Naso'iy (215/830 – 303/915), Imom Abu Abdulloh Muhammad ibn Yazib ibn Mojja (209/824 – 273/886) kabi siymolardir. Shular ichidan "Hadis ilmida amir al-mo'miniyn" degan sharafli nomga sazovor bo'lgan Imom al-Buxoriy alohida e'tiborga molik buyuk olimdir. Uning to'liq ismi Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil ibn Ibrohim ibn al-Mug'iyra ibn Bardazbeh al-Juafiy al-Buxoriy bo'lib, u hijriy hisobda 194 yil shavvol oyining 13-kuni (810 yil 20 iyul)da Buxoro shahrida tavallud topgan. Boshqa ko'pgina olimlardan farqli o'laroq al-Buxoriy tug'ilgan sana aniq ko'rsatilishiga sabab shuki, uning otasi Ismoil o'z davrining ilmli odamlaridan bo'lib, o'g'lining tug'ilgan kunini o'z qo'li bilan yozib ketgan qog'oz zamondosh olimlar ixtiyoriga yetgan va shu xususda ham uning aniqligiga hech shubhasiz. Al-Buxoriy yoshligidayoq otasi vafot etib, onasi tarbiyasida o'sgan. U yoshligidan aql-idrokli, o'tkir zehni va ma'rifatga havasi kuchli bo'lib, turli ilm-fanlarni, ayniqsa, hadis ilmini zo'r qiziqish bilan egallaydi. Manbalarda ko'rsatilishicha, u o'n yoshidan boshlab o'z yurtidagi turli rivoyatchilardan eshitgan hadislarni, shuningdek, Abdulloh ibn al-Muborak va Vakiy kabi olimlarning hadis to'plamlarini mutolaa qilib, yodlagan, ustoz Shayx Dohiliy bilan hadis rivoyatchilari haqidagi qizg'in bahslarda qatnashgan. 825 yili o'n olti yashar al-Buxoriy onasi va akasi Ahmad bilan Hijozga qarab yo'l tutadi, muqaddas shaharlar Makka va Madinani ziyorat qilib, olti yil Hijozda yashab, hadis ilmidan o'z bilimini yanada oshirish maqsadida o'sha paytda ilm-fanning yirik markazlaridan hisoblangan Damashq, Qohira, Basra, Kufa, Bag'dod kabi shaharlarda yashab, u joylardagi mashhur olimlardan hadis bilan bir qatorda fiqh ilmidan ham ta'lim oladi, yirik olimlar davrasida ilmiy bahslaru

munozaralarda qatnashadi va ilm toliblariga dars ham beradi. Imom al-Buxoriy hayotining ko'p qismi xorijiy ellarda, musofirchilikda o'tadi. Bu haqda uning o'zi: "Misr, Shom, Mesopatamiyaga ikki martadan, Basraga to'rt marta borganman. Hijozda olti yil yashaganman, Bag'dod va Kufa shaharlariga necha marta borganim hisobini bilmayman", degan ekan. U safar chog'ida ham, bir shaharda muqim turganda ham ilmini oshirish borasida tinimsiz ishlar, to'plagan hadislarini oqqa ko'chirar edi. Muallifning yozishicha, Bag'dodda istiqomat qilgan paytda ko'pincha o'yning nurida ijod qilib, qorong'i kechalarda sham yorug'ida kitob yozar ekan. Ilm oshirish maqsadida al-Buxoriy juda ko'plab olimlardan ta'lim oladi. Nishopurlik al-Hakimning (1015 yilda vafot etgan) yozishicha, ustozlarining soni to'qsontalar atrofida bo'lib, ular: Muhammad ibn Yusuf al-G'aryobiy, Ubaydulla ibn Musa al-Abasiy, Abu Bakr Abdulla ibn az-Zubayr al-Hamiydiy ibn Rohaviyh nomi bilan mashhur bo'lgan Imom Is'hoq ibn Ibrohim, Imom Ahmad ibn Hanbal, Ali ibn al-Madaniy va boshqalardir. O'z navbatida al-Buxoriy ham ko'pgina shogirdlariga ustozlik qilgan. Is'hoq ibn Muhammad ar-Ramodiy, Abdulloh ibn Muhammad al-Masnadiy, Muhammad ibn Xalaf ibn Qutayba, Ibrohim al-Harbiy, Abu Iso at-Termiziy, Muhammad ibn Nasr al-Marvaziy, Muslim ibn al-Hajjoj kabi yetuk olimlar uning shogirdlaridir. Al-Jome' as-sahih" hadis to'plami 97 ta kitob va 3881 ta bobdan iborat bo'lib, undagi barcha hadislar soni, takroriyli bilan qo'shib hisoblaganda 7563 tadir. Kitobning hoshiyasidagi mua'allaq hadislar 1391 ta, biror hadisga tobe' bo'lib kelgan hadislar 344 ta va bu kitobdagi barcha hadislar adadi 9082 taga yetadi. Imom Buxoriy bu hadislarini olti yuz ming hadis orasidan eng-eng sahihlarini ajratib olganini hisobga olsak, bu kitobning yana bir beqiyos qiymati ko'z oldimizda yaqqol namoyon bo'ladi. Agar hadislarining har birini oldin g'usl qilib, ikki rakaat namoz o'qigandan keyin o'z to'plamiga kiritganini ham yodga olsak, bu qiymat yanada ravshanroq ko'rinadi. Bu haqda Imom Firabrydan shunday rivoyat qilinadi: "Imom Buxoriyning: "Mana bu "as-Sahih" kitobimga har bir hadisni g'usl qilib, ikki rakaat namoz o'qiganimdan keyingina kiritdim", deb aytayotganini eshitganman" Muhaddis olimlarning hadislarini sahih deb e'tirof etishida asosan beshta shart mavjud bo'lgan. Bu besh shart quyidagilar: 1) Sanadning uzluksiz bog'langan bo'lmog'i; 2) sanaddagi roviyning odilligi; 3) sanaddagi roviyning xotirasini mukammal bo'lmog'i; 4) hadis o'z matni va uning roviylari martabasiga zarar yetkazuvchi sabablardan xoli bo'lmog'i; 5) hadis matni va sanadi shuzuz (tarqoqlik)dan xoli bo'lmog'i lozim.

Imom Buxoriy nazdida esa hadislar sahihlik darajasiga yetishi uchun o'n ikkita sharti mavjud bo'lgan. Bu o'n ikkita shart yuqorida keltirilgan beshta asosiy shartlarning zamirida turadi. Ular quyidagilar

1. Bir-biridan hadis rivoyat qilayotgan roviylar bir shaharda zamondosh bo'lishi, agar bir shaharda zamondosh bo'lib istiqomat qilmagan bo'lsa hadis muttasil sanad deb qaralmagan.

2. Bir-biridan hadis rivoyat qilayotgan roviylar bir marta bo'lsa ham uchrashgan bo'lishi, agar bir shaharda istiqomat qilib uchrashmagan bo'lsa ularning bir-biridan hadis rivoyat qilishi muttasil sanad deb qaralmagan.

3. Raviy (hadis rivoyat qiluvchi shaxs) hadisni o'ziga yetkazuvchi roviydan ijozatan yuzma-yuz holatda og'zaki (rivoyatan) yoki yozma ravishda (diroyatan) olgan bo'lishi (bu uch (1-3) shart "sanadning ko'rish, eshitish va o'qish orqali bog'lanishi" zamirida turadi).

4. Raviy musulmon bo'lishi, dinsiz va g'ayridin kishidan hadis qabul qilinmagan.

5. Raviy balog'atga yetgan bo'lishi, ya'ni hadisni yod olib boshqalarga yetkazishda mas'uliyatni anglab yetadigan yoshda bo'lishi.

6. Raviy aqlli bo'lishi, aqli zaifdan hadis rivoyat qilinmaydi.

7. Raviy fosiq bo'lmasligi, fosiq kishining hadisi qabul qilinmaydi.

8. Roviylarning eng ishonchlisi, rostgo'yi, odamiyligi (bu beshta (4-8) shartlar "roviyning din va dunyo ishlarida odil bo'lmog'i" sharti zamirida turadi).

9. Raviy xotirasining kuchli bo'lishi, ya'ni eshitgan hadisini asl holda yod olib qolmog'i.

10. Raviy xotirasi sust bo'lsa eshitganini yodlab yozib qo'ygan bo'lishi (bu ikki shart (9-10) "hadis sanadidagi roviylar xotirasini mukammal bo'lmog'i" sharti zamirida turadi).

11. Hadis sanadi va matni ixtilofdan xoli bo'lishi (bu 11-shart "hadis matni va sanadi shuzuz (tarqoqlik)dan xoli bo'lmog'i" sharti zamirida turadi).

12. Hadis sanadi va matni zarar yetkazuvchi sabablardan xoli bo'lishi (bu 12-shart "hadis o'z matni va uning roviylari martabasiga zarar yetkazuvchi sabablardan xoli bo'lmog'i" shartining zamirida turadi).

Imom al-Buxoriy xorijdan qaytgach, o'z vatani Buxoroda ko'plab shogirdlar va ulamolarga hadis ilmidan saboq berish bilan mashg'ul bo'ladi. Ko'pchilik uni hurmat qilgan, ammo ba'zi hasadgo'y, qora niyatli kishilar al-Buxoriyni ko'rolmas edilar. Natijada hasadgo'ylarning xatti-harakati tufayli Buxoro amiri Xolid ibn Ahmad az-Zuhaliy bilan al-Buxoriyning aloqasi buzilib qoladi. Bunga sabab, amir olimdan huzuriga kelib "Al-jome' as-sahih", "At-ta'rix" kitoblarini o'qib berishni talab qiladi. Lekin al-Buxoriy "Men ilmni xor qilib, uni hokimlar eshigi oldiga olib bormayman, kimga ilm kerak bo'lsa, o'zi izlasin. Lekin Alloh oxirat kuni ilmni yashirmay uni toliblarga sarf qilgani uchun meni kechiradi", degan javobni aytadi. Amirga javob yoqmay, fitnachi, bo'htonkor shaxslarning gapiga kirib al-Buxoriyga shaharni tark etishni buyuradi. Shundan keyin al-Buxoriy Samarqandga qarab yo'l oladi va birmuncha muddat Xartang qishlog'ida o'z shogirdlari va qarindosh-urug'larinikida yashagandan keyin og'ir kasalga chalinib, hijriy 256 yil (melodiy 870 yil 1 sentyabr) 60 yoshida vafot etadi va shu yerda dafn qilinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

[1] “Manuscript Funds of Uzbekistan –O‘zbekistondagi Qo‘lyozma fondlari muhofaza qilish, kataloglashtirish va mutaxassislar malakasini oshirish”, 2019 yil iyun. Samarqand Xalqaro anjumanining maqolalari to‘plami. Istanbul 2020. Daurbekova I. Imom Buxoriyning “al-Jome’ as-sahih” asari qo‘lyozmalarining dunyo kutubxonalaridagi nusxalaridan namunalar. –B389.

[2] Imom Buxoriy Qo‘lyozmalar fondi elektron bazasi. “Sahihul Buxoriyning Jahon qo‘lyozmalar fondidagi qo‘lyozmalari”.

[3] Ibn Hajar al-Asqaloni. Fathu-l-Boriy. Qohira. 1880y.– B 5.

[4] O‘sha asar. –B 5.

[5] Ibn Hajar al-Asqaloni. Fathu-l-Boriy. Qohira. 1880y. B.5.

XALQ PEDAGOGIKASIDA OILA VA OILAVIY TARBIYANING AKS ETISHI**Mutalliyeva Diyora Nodirbek qizi***NamDU, Pedagogika va psixologiya yo'nalishi 2-kurs talabasi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada bola tarbiyasida oila va oilaviy tarbiyaning muhim ahamiyati, oila tarbiya o'chog'li sifatida muhim omil ekanligi yoritib berilgan.*

Kalit so'zlar: *Oila, tarbiya, qadriyatlar, barkamol avlod*

Annotation: *This article highlights the importance of the family and family education, and the fact that factor as a center of education.*

Key words: *Family, education, values, mature generation*

Tarbiya haqida so'z borar ekan avvalo inson ko'z o'ngida unga zamin, poydevor oila sanaladi.

Tarbiyani nafaqat oilada balki butun bir inson yashab istiqomat qiluvchi jamiyat, yurt, makon zamondan qat'iy nazar insonlar tomonidan berib boriladi.

“Tarbiya–o'sib kelayotgan avlodlarda hosil qilingan bilimlar asosida aqliy kamolot va dunyoqarashni insoniy e'tiqod, burch va mas'uliyatni jamiyatimiz kishilariga xos bo'lgan axloqiy fazilatlarini yaratishdagi maqsadni ifodalaydi. Tarbiya-bola tug'ilganidan boshlab umrining ohirigacha davom etadigan jarayondir”[1.11].

Tarbiya shunday muhim jarayonki uning asl mohiyati dastlabki poydevoriga bog'liq mashhur faylasuf, shoir Bedil aytganidek: Bino poydevorining birinchi toshi qiyshiq qo'yilsa binoning boshi yulduzga yetsa ham qiyshiq bo'lib qolaveradi. Ushbu binoning me'morlari esa oila deb atalmish qo'rg'onning sohibi va sohibalaridir.

“Mamlakatimizda sog'lom va uyg'un kamol topgan avlodni tarbiyalash uchun zarur imkoniyatlar hamda shart sharoitlarni yaratish, 21-asr intellektual qadriyatlar ustuvorlik qiladigan asr ekanligini e'tiborga olgan holda vatanimiz yigit va qizlarini har tomonlama barkamol shaxslar etib shakllantirish borasidagi keng ko'lamli chora tadbirlar kompleksini amalga oshirish maqsadida 2010-yil O'zbekiston Respublikasida “Barkamol avlod yili” deb e'lon qilindi.[2.3]

Birinchi prezidentimiz Islom Karimov farmoniga muvofiq amalga oshirilgan “Barkamol avlod yili” dasturida o'sib kelayotgan yosh avlod tarbiyasiga alohida ahamiyat qaratildi.

Yosh avlod tarbiyasini boy va komil inson etib tarbiyalashda oila va oilaviy muhit juda katta ahamiyat kasb etadi.

“Oila–qon-qarindoshlik, qarindoshchilik, nikoh orqali yoki birga istiqomat qilish orqali bog'langan odamlardan iborat ijtimoiy guruhdir[3.97]

Oila o'ziga xos urf-odatlar an'ana va qadriyatlarni mujassam etgan kichik vatan sanaladi. Bola tug'ilganidan uning qulog'iga ona allasi bilan kirgan mehr ana shu tarbiyaning nurli uchqunlaridir. Oila deb atalmish mustahkam qo'rg'onning himoyachisi, mardlik timsolini o'z otasi timsolida ko'radi. Atrof muhit, vatanga bo'lgan muhabbat mehr tuyg'ularini esa erta tongdan hovlini chinniday sarishta

tutib, dasturxonga issiq shirmoynonlarni terayotgan onasidan o'rganadi. Tarbiya deb atalmish bog'ning ilk bog'bonlari, ya'ni ota-onalar qanchalik mohir mehnatkash, oliyjanob, aql zakovatga ega bo'lsalar ushbu bog'ning mevalari farzandlar kelgusi faoliyati davomida ana shu oiladan olgan ta'lim tarbiyasini yanada mustahkamlab boyitib boradi.

1998-yilni "Oila yili" deb e'lon qilinishi "Oila" ilmiy amaliy Markazining tashkil etilishi, Respublikada oila manfaatiga qaratilgan maxsus Davlat dasturining qabul qilinishi, uning mantiqiy davomi sifatida 1999-yilni "Ayollar yili" deb e'lon qilinishi, viloyatlarda oilaga xizmat qiluvchi turli maslahatxonalarining tashkil etilishi, oila muammolarini ilmiy tadqiq etish maqsadida O'zbekiston tarixida birinchi bor oila psixologiyasi muammolari bo'yicha tadqiqotlar olib boradigan ilmiy kadrlarni tayyorlash maqsadida aspirantura tashkil etilishi, ularga aspirantlarning qabul qilinishi yuqoridagi fikrimizning dalilidir [4.3]

Konstitutsiyamizning 63-moddasida oila jamiyatning asosiy bo'g'ini ekanligi takidlab o'tilgan. Konstitutsiyamizda ko'rsatilganidek oila jamiyatning ajralmas bo'g'ini ekan uning har qanday huquqlari davlat tomonidan himoya qilinadi. Ammo bugungi kunda ko'plab oilalarning arzimagan sabablar va tushunmovchiliklar oqibatida ajralib ketishi o'sib kelayotgan yosh avlod taqdiriga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Statistika ma'lumotlariga qaraganda Respublikamizda joriy yilning birinchi yarim yilligi davomida 12 ming 810 ta, o'tgan yilning shu vaqtiga nisbatan 3 ming 151 ta kam oilaviy ajralishlar ro'yxatga olingan, ammo, shu yilning o'zida respublika bo'yicha 8 ming 725 nafardan ortiq voyaga yetmagan bolalar ota yoki ona mehridan mahrum bo'ldilar. Anglash joizki tarbiya o'chog'i bo'lmish oilani asrab avaylash har bir shaxsning muqaddas burchidir. Oilani qutlug' dargoh deya e'zozlash shu muhitda niholdek parvarish olayotgan yoshlar kelajagiga zamin yaratishiga shak-shubxa yo'q.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.11. O'.M.Asqarova, M.S.Nishonov, M.Xayitboyev. Pedagogika. Darslik. T.: 2008-yili

2.3. I.Karimovning "Barkamol avlod yili" davlat dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish bo'yicha tashkiliy chora tadbirlar to'g'risida"gi farmoyishi.

3.97. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi 2000-2005-yillar.

4.3 G. B .Shoumarov, I.O.Haydarov, N.A.Sog'inov, A.Akramova, G.Solihova, G.Niyozmetova- Oila psixologiyasi. T .2008-yil

ЎЗБЕКИСТОНДА ИНФЛЯЦИОН ТАРГЕТЛАШ РЕЖИМИГА ЎТИШНИНГ ЗАМОНАВИЙ ЙЎНАЛИШЛАРИ

Мусаев Зиқир Зоқирович

Аннотация: Мақолада Ўзбекистонда инфляцион таргетлаш режимига ўтиш шароитида монетар сиёсатнинг стратегик ва тактик мақсадлари ўрганилган. Шунингдек, инфляцион таргетлаш режимига мос келадиган монетар сиёсат инструментлари тўпламини танлаш ва улардан самарали фойдаланиш амалиёти таҳлил қилинган.

Калит сўзлар: инфляцион таргетлаш, монетар сиёсат, валюта курси, фойз ставкаси, инфляцион босим.

Мамлакатимизда 2017 йилда иқтисодиётни либераллаштириш ва бунда бозор механизмлари ролини оширишга қаратилган янги босқичдаги ислохотларнинг жадаллашуви ўрта муддатли истиқболда банк тизими ва пул-кредит сиёсатининг замонавий ривожланиш йўналишларини белгилаб берди. Бунда, мазкур йўналишдаги муҳим қарорлардан бири миллий валюта алмашув курсининг бозор механизмлари асосида шаклланиш тамойилларини жорий этиш орқали ички валюта бозорини босқичма-босқич либераллаштирилиши билан боғлиқ амалий қадамлар бўлса, иккинчи муҳим қарор сифатида монетар сиёсатининг мақсадли кўрсаткичларини ўзгартирилиши яъни, монетар таргетлашдан инфляцион таргетлаш режимига босқичма-босқич ўтиш бўйича Ўзбекистон Республикаси Президенти қарори [1] ва фармон [2] ларининг қабул қилинганлигини келтириш мумкин. Бугунги кунда Ўзбекистон Республикаси Марказий банки монетар сиёсатнинг стратегик мақсадларидан келиб чиқиб, асоссиз инфляцион кутилмаларни олдини олиш мақсадида инфляцион таргетлашнинг принцип ва механизмларини босқичмабосқич татбиқ қилиш, пул-кредит сиёсати ва инструментларини тубдан такомиллаштириш, ушбу услуга ўрта муддатли истиқболда тўлиқ ўтиш ва пул-кредит соҳасида амалга оширилаётган сиёсат ва чораларнинг шаффофлигини ошириш бўйича тизимли чора-тадбирларни амалга оширмоқда. Хусусан, бозор механизмлари асосида валюта курсининг шаклланиши амалиётига ўтилиши, Марказий банк олдида асосий эътиборни ички нархлар барқарорлигини таъминлаш асосида пул-кредит сиёсатини такомиллаштиришга қаратиш вазифасини қўйди. Шу билан бирга, валюта бозорини либераллаштириш борасидаги ислохотларнинг мувафақиятли амалга оширилиши кўп жиҳатдан пулкредит сиёсатини такомиллаштириш, тижорат банклари фаолиятини мустаҳкамлаш ҳамда банк тизимини ривожлантириш чоралари самарадорлигини таъминлаш имконини берди.

Бугунги кунда Ўзбекистон Республикаси Марказий банки монетар сиёсатининг замонавий йўналишлари Ўзбекистон Республикасининг янги

тахрирдаги «Ўзбекистон Республикасининг Марказий банки тўғрисида»ги Қонуни ва Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 18 ноябрдаги ПФ-5877-сонли «Инфляция таргетлаш режимига босқичма-босқич ўтиш орқали пул-кредит сиёсатини такомиллаштириш тўғрисида»ги Фармонига асосланади. Унга кўра, ҳозирда монетар сиёсатни амалга оширишда Марказий банк томонидан асосий эътибор таркибий ислохотларнинг янги босқичида инфляция таргетлаш режимини фаол татбиқ этиш орқали монетар сиёсат шароитларини белгилашга қаратилмоқда. Бунда, Марказий банк инфляция таргетга эришиш ва пул-кредит сиёсати инструментлари, механизмлари ва жараёнларини инфляция таргетлаш режими стандартларига мувофиқлаштириш бўйича қуйидаги вазифаларни белгилаб олди [3]:

1. Операцион механизмни ривожлантириш соҳасида:

- асосий фоиз ставкаси ва фоиз коридорини жорий этиш;
- ички валюта бозорини ривожлантириш стратегиясини ишлаб чиқиш;
- кредит бозоридаги сегментация даражасини пасайтириб бориш.


2. Таҳлилий-прогноزلаш салоҳиятини ошириш соҳасида:

- макроиқтисодий таҳлил ва прогноزلаштириш тизими (FPAS) ҳамда замонавий моделлаштириш инструментларини жорий этиш;
- аҳоли ва тадбиркорлик субъектларининг инфляция кутилмалари ва инфляция омилларини эмпирик моделлар асосида ўрганиб бориш услубларини ишлаб чиқиш.

3. Коммуникация сиёсатини такомиллаштириш соҳасида:

- коммуникация сиёсатининг замонавий тамойилларидан фойдаланиш;
- бозор иштирокчилари билан мулоқот қилишнинг самарали механизмларини татбиқ этиш.


Иқтисодиётда инфляция жараёнлар аксарият ҳолатларда талаб омиллари натижасида, яъни иқтисодиётда товар ва хизматларга бўлган талабнинг ишлаб чиқариш ҳажмларига нисбатан тезроқ суръатларда ўсиши натижасида юзага келади. Ялпи талабнинг ўсиши эса, асосан, давлат бюджети харажатлари ва иқтисодиётга йўналтирилган кредитлар ҳажмининг ўсиши, аҳоли ва тадбиркорлик субъектлари даромадларининг ошиши ҳисобига рўй беради.



1-расм. Ўзбекистонда инфляциянинг мақсадли кўрсаткичлари ўзгариш траекторияси

1-расмдан кўринадики, 2019 йил 1 январдан инфляцион таргетлаш режимига ўтиш босқичи бошланган бўлиб, дастлаб 2019 йилнинг тўртинчи чорагида инфляциянинг мақсадли кўрсаткичи белгилаб олинди. Марказий банк томонидан мақсадли кўрсаткичнинг коридори ҳам белгиланган бўлиб ҳозирги кунда мазкур коридор инфляцион таргетга нисбатан $\pm 2\%$ ни ташкил этмоқда.

Шу ўринда, Марказий банк томонидан мамлакатдаги макроиқтисодий шароитлар ҳамда инфляцион кутилмалар даражасидан келиб чиқиб мақсадли кўрсаткич коридорини 2021 йилнинг биринчи чорагидан $\pm 1\%$ қилиб белгилаш режалаштирилган. Инфляцион таргетлаш режимига ўтиш шароитида монетар сиёсатнинг операцион механизмини такомиллаштириб бориш зарурати юзага келади. Бу борада бугунги кунда Ўзбекистон Республикаси Марказий банки монетар сиёсатнинг операцион мақсади доирасида банклараро пул бозоридаги фоиз ставкасини асосий ставкага яқин даражада ушлаб туришга ҳаракат қилмоқда. Чунки, банклараро пул бозоридаги фоиз ставкасини асосий ставкага яқин даражада ушлаб туриш Марказий банкнинг пул-кредит шароитларини қатъийлаштириш ёки юмшатиш тўғрисидаги қарорлари таъсирининг пул бозоридаги банк ресурслари қийматига ўтказилишига имкон беради, бу эса иқтисодий агентларнинг инвестицион ва истеъмол қарорларида ўз аксини топади [4]. Одатда, операцион мақсадга эришишда Марказий банк банк тизимидаги қисқа муддатли ликвидликни тартибга солиш амалиётини ҳам олиб боради. Бунда, банк тизимидаги ликвидликка бўлган талаб ва таклиф баҳоланиб, пул-кредит операциялари ҳажми аниқланади. Операцион механизм орқали банк тизими ликвидлигини бошқаришда Марказий банк асосий ва қўшимча инструментлар тўплами сифатида очиқ бозорда 1 ҳафтадан 2 ҳафтагача муддатли асосий операциялардан ҳам фойдаланади (2-расм).



2-расм. Банк тизимидаги қисқа муддатли ликвидликни тартибга солиш бўйича операциялар

Бугунги кунда банк тизими ликвидлигини меъёрида таъминлаш доирасида икки ҳафтагача ликвидлик бериш учун кредит, депозит ва репо аукционлари ўтказилмоқда. Мазкур аукцион савдоларида Марказий банкнинг асосий ставкаси савдо сессиясининг бошланғич нархи бўлиб хизмат қилмоқда. Умуман олганда инфляцион таргетлаш режимда пул-кредит сиёсати олиб бораётган марказий банклар аҳоли ва тадбиркорлик субъектларининг инфляцион кутилмаларини жиловлаш мақсадида уларнинг марказий банкка бўлган ишончини мустаҳкамлашга ҳамда кенг жамоатчилик билан коммуникацияни ривожлантиришга жиддий эътибор қаратади. Шу билан бирга, инфляцион таргетлаш режимда пулкредит сиёсатини юритиш маълум даражада эркин шаклланадиган алмашув курси бўлишини талаб этади ва бу, ўз навбатида, мазкур режимнинг баъзи ташқи шокларга чидамлилигини оширади.

Мамлакатимизда монетар сиёсатни юритишда инфляцион таргетлаш режимининг танланилиши ушбу режимнинг афзалликлари билан бир қаторда валюта курси ёки монетар таргетлаш режимларида кузатилган қатор муаммолар билан изоҳланади. Хусусан, валюта алмашув курсини таргетлаш режимда курснинг доимий тарзда мақсадли даражада сақлаб турилиши халқаро резервларни сезиларли даражада камайтириб, валюта инқирозининг келиб чиқиш хатарини оширади. Валюта алмашув курсини таргетлаш режимда валюта курсини мос равишда ўзгартириш орқали ташқи салбий таъсирларни мўътадиллаштириш имконияти чекланади [5].

Иқтисодиётни либераллаштириш ва таркибий ўзгартириш, шунингдек, хуфёна иқтисодиётнинг сезиларли даражада мавжуд бўлиши шароитларида пул агрегатларининг кескин ўзгариши кузатилиши мумкин. Бу эса, ўз навбатида, монетар таргетлаш режими доирасида мақсадли кўрсаткичларни ўрнатиш ва унга эришиш вазифасини мураккаблаштиради. Шу билан бирга, пул агрегатлари ва инфляция орасидаги барқарор боғлиқликнинг пасайиши монетар таргетлаш режими самарадорлигини камайтиради.

Бугунги кунда мамлакатимизда инфляцион таргетлаш режимига ўтиш учун қуйидаги макроиқтисодий шароитларни шакллантиришга қаратилган комплекс чоратадбирларни амалга ошириш зарур ҳисобланади [6]:

- монетар сиёсатнинг таъсирчан инструментларини танлаш орқали трансмиссион механизм каналлари самарадорлигини ошириш;

- ички валюта бозори фаолиятини янада либераллаштириш ва такомиллаштириш бўйича амалга оширилаётган чора-тадбирларни тизимли давом эттириш;

- монетар сиёсатнинг мавжуд инструментларини такомиллаштириш ва янги замонавий бозор инструментларини жорий этиш;

- банклараро пул бозори фаолиятининг шаффофлигини ошириш ва ривожлантириш;

- монетар инструментларнинг макроиқтисодий кўрсаткичларга таъсирини прогнозлаш ва таҳлил қилиш усулларини такомиллаштириш;

- молия бозорини, шу жумладан, давлат қимматли қоғозлар бозорини ривожлантириш;

- монетар сиёсатни фискал сиёсат билан самарали мувофиқлаштириш.

Миллий иқтисодиёт хусусиятларини инобатга олган ҳолда, пул-кредит сиёсати режимларининг ўзига хос жиҳатлари ва таъсирчанлиги таҳлили ўрта муддатли истиқболда Марказий банкнинг устувор мақсади сифатида нархлар барқарорлигига эришиш вазифасига инфляцион таргетлаш режими жуда мос келишини кўрсатмоқда. Шундан келиб чиққан ҳолда, пул-кредит сиёсатини амалга оширишнинг тамойил ва усулларининг инфляцион таргетлашга босқичма-босқич йўналтириш учун зарурий ҳуқуқий асослар ва таянч иқтисодий шароитлар яратилди. Хусусан, валюта сиёсатининг либераллаштирилиши ва бозор шароитларида алмашув курсининг шаклланишини таъминлаш бўйича чоралар, Марказий банкнинг устувор мақсадлари ва амалий мустақиллигини аниқ белгиланиши, пул-кредит сиёсатини амалга оширишнинг фаол босқичига ўтилиши, инфляцияни ҳисоблаш ва баҳолаш усулларини такомиллаштирилиши, шунингдек шаффофликнинг оширилиши ва коммуникацион сиёсатнинг кучайтирилиши каби амалий чоралар инфляцион таргетлашга ўтиш учун асосий шароитларни яратади. Умуман олганда, инфляцион таргетлашга ўтиш монетар сиёсатнинг барча жиҳатларини тубдан қайта кўриб чиқиш ва такомиллаштиришни талаб этади. Бу эса, ўз навбатида, узоқ муддатли истиқболда барқарор иқтисодий ўсишнинг асоси бўлган макроиқтисодий барқарорликни таъминлашда сифат жиҳатдан янги босқичга ўтилишини англатади.

АДАБИЁТЛАР:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 13 сентябрдаги “Пулкредит сиёсатини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-3272- сонли қарори. (Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 25.09.2017 й., 07/17/3272/0001).

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 18 ноябрдаги ПФ-5877- сонли «Инфляция таргетлаш режимига босқичма-босқич ўтиш орқали пул-кредит сиёсатини такомиллаштириш тўғрисида»ги Фармони. (Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 19.11.2019й., 06/19/5877/4036-сон).

3. John B. Taylor (2019) Inflation targeting in high inflation emerging economies: lessons about rules and instruments, *Journal of Applied Economics*, 22:1, 103- 116, DOI: 10.1080/15140326.2019.1565396.

4. Bernanke, Ben S., and Frederic S. Mishkin. 1997. “Inflation Targeting: A New Framework for Monetary Policy?” *Journal of Economic Perspectives*, 11 (2): 97-116.

5. David Wessel. What is “average inflation targeting”. BROOKINGS. “The Hutchins Center Explains” May 30, 2019.

6. Якубова Ш.Ш. Таргетирование инфляции – современное направление совершенствования денежно-кредитной политики. “Инновацион иқтисодиёт шароитида банк-молия тизимини ривожлантиришнинг устувор йўналишлари” мавзусидаги республика илмий-амалий конференцияси материаллари тўплами. 2019 йил 28 сентябрь. 30-34 бб.

“ҚИРҚ ҚИЗ” ДОСТОНИНИ ЎҚИТИШДА ЗИНАМА-ЗИНА МЕТОДИДАН Фойдаланиш

Узакова Салтанат Парахатовна

Қорақалпоқ давлат университети докторанти

Kalit soʻzlar: *Interfaol texnologiya, adabiyot, poeziya, poema, obraz, metod, janrlar, publicistika.*

Ключевые слова: *интерактивных технологий, литература, поэзия, поэма, образ, метод, жанры, публицистика.*

Key words: *interactive technologies, literature, poetry, poem, character, method, genres, publicistic.*

Умумий ўрта таълим мактабларида қорақалпоқ адабиётини ўқитиш технологиясини такомиллаштириш, инновацион ёндашув асосида адабиёт дарсларида ўқувчиларнинг ахборотларни таҳлил қилиш, назарий билимларини ва кўникмаларини ривожлантиришга, сифатли таълим бериш, таълим олишни яхшилаш ва ўзлаштириш натижаларини баҳолаш усулларини такомиллаштиришга алоҳида эътибор қаратилмоқта.

Халқ достонларини ўқитишда қуйидаги дарс намунаси асосида **зиг-заг** (зинама-зина) методидан фойдаланиш дарс самарадорлигини ошишини таъминлайди.

Мавзу: “Қирқ қиз” достони

Дарснинг мақсади:

Таълимий мақсади: Ўқувчиларни “Қирқ қиз” достони билан таништириб, мазмунини тушунтириш.

Тарбиявий мақсади: Ўқувчиларда инсонийлик фазилатларини улуғлаш, уларни адабиётга, бадиий ижодга ва ўз Ватанига муҳаббат руҳида тарбиялаш.

Ривожлантирувчи мақсади: Ўқувчиларнинг оғзаки нутқини ривожлантириш, эркин фикрлаш кўникмасини шакллантириш.

Дарс тури: аралаш, мустақамлаш.

Дарсда фойдаланиладиган усуллар: савол-жавоб, зигзаг, суҳбат

Дарсда фойдаланиладиган қуроллар: Дарслик, тахта, баҳолаш карточкалари, слайд чиқарилган қоғозлар.

Дарснинг бориши:

I. **Ташкилий қисм (3 дақиқа):** Ўқувчилар билан саломлашиб, дарс давомати ва ўқувчиларнинг дарсга тайёргарлигини назорат қилиш.

II. **Янги мавзу баёни: (20 дақиқа):**

Ўқитувчи достонни тушунтирмасдан олдин ўтган дарсдаги “Алпомиш” достони билан уни таққослаб тушунтиради ва достон атамаси, уни ижро

этувчилар, дoston қахрамонлари ва бошқа тушунчаларни ўқувчилар ёдига қайта туширади.

Қорақалпоқ халқ ижодидан гувоҳлик берадиган “Қирқ қиз” достони дунё адабиёти хазинасининг олдин фондидан ўрин олган ёдгорликлардан бири. Достон 1939-1940-йиллари атқалы Қурбанбай жировдан ёзиб олинди. У 1949-йили нашрдан чиқди. Сўнг рус, ўзбек, қозоқ, туркман тилларида босилди.

“Қирқ қиз” достонида қорақалпоқ халқининг чет эл босқинчиларига қарши озодлик кураши, халқнинг одилона, фаровон турмуш учун интилиш орзулари, она юртга, туғилган ерга бўлган чуқур патриотизми жуда бадиийлик билан тасвирланган. Достоннинг бош ғояси – Хоразм халқлари дўстлигини куйлашдан иборат. Воқеанинг ғоявий мазмунига асос – Гулойим ва у бошқарган қирқ қиз. Гулойим бошқарган Қирқ қиз юрт мустақиллигини ташқи душмандан ҳимоя қилиш, юртни обод кўриш, халқ ор-номусига ҳеч ким кўлини теккизмай, янада шундай яхшилик ҳаракатлари йўлида жонини аямай иш қилади, бу йўлда қанчадан-қанча ғалабаларга эришади, ўйлаган мақсадларига етади.

Гулойим – ботир, ботир қизлар сардори, фақат ботирларга ёрдам берадиган йўлдош сифатида эмас, ботирликни ўзи бошлайдиган қаҳрамон қиз. У ақлли, ташқи ёвларнинг бостириб киришини яхши тушунади. Уларга юртини эркин бостиргиси келмайди. Гулойимнинг виждони тоза. У йўққа-борга ишонмайди, иккиюзламачилик, ғийбатчиликни ёмон кўради. Халқ бошига қайғу тушса, Гулойим саросимага тушмайди, халқ жонини қийнаган дardни бартараф қилиш учун, халқни қайғуга солган ҳодисани йўқ қилиб, халқ кўнглини шод қилиш учун умид билан, ишонч билан, куч-ғайрат билан ишга киришади. Халқ бахтсизлигига сабабчи бўлган ёвуз одамларни, Суртайша ўхшаган зolimларни йўқ қилиш учун белини букиб курашга чиқади.

Арслон – Хоразм йигити. Буни Гулойим билан учрашганда ўзи шундай изоҳлайди:


Ўрман билан сарғайды бул ақ жүзим,
Бузық емес туўры еди негизим,
Ўрман билан өткен жылы айрылдым.
Туўып-өскен елим еди Хорезм [96].

Бу ерда Арслон “асосийси тўғри” деб ўз халқининг озодлиги учун, халқни хўрлагувчи хонларга қарши қолишмасдан курашганлиги, юрак амри билан виждонини тоза тутиб, йиртқич хонлар олдида ожизланмаганлиги, ўз бошининг ғами учун уларга бошини эгмаганлигини айтади. Гулойим уни мардлиги, ўзи билан ҳамфикрлиги, ор-номуси ва халқ йўлида хизмат қилиши учун севади. Арслон босқинчилардан, зolim хонлардан халқни ҳимоя қилиб, адолат билан эл бошқаришни қувватлайдиган ботир.

Ўқитувчи томонидан янги мавзу мазмуни шу тарзда тушунтириб бўлингач, дарсни мустаҳкамлашга ўтилади.

III. Мустаҳкамлаш. (15 дақиқа). Дарсни мустаҳкамлашда юқорида таъкидланган янги мавзу бўйича ҳар хил интерактив методлардан фойдаланиб ўқувчиларнинг мавзу юзасидан олган билимларини аниқлаймиз. Анъанавий дарсларда одатдагидек уйга вазифа сўралади, бизнинг дарсимизда эса ноанъанавий янги методларга асосланганлиги боис бу босқич бўлмайди. Чунки вақтнинг аксарият бўлими интерактив методларнинг амалга оширилишини таъминлайди. Давлат таълим стандартларида тўғри кўрсатилганидек, ўрта таълим мактабларидаги ўқитиш тизимининг асосий хусусияти ўқувчиларнинг билим даражасини орттиришда янгича интерактив методлардан ва педагогик технологиялардан моҳирона фойдаланиб, ўқувчиларнинг келажагини янги мақсадларга йўналтира олиш бўлиб ҳисобланади.

Энди биз "Қирқ қиз" достони бўйича ўқувчиларнинг олган тушунчаларини аниқлашда зиг-заг методидан фойдаланамиз. Бунинг учун интерактив методнинг кенг тарқалган тури Зиг-заг (зинама-зина) методидан фойдаланилади. "Зиг-заг методида ўқувчилар гуруҳларга бўлиниб, янги мавзудан олган тушунчаларини бир-бирини такрорламаган ҳолда, кетма-кетликда айтиб, билимларини мустаҳкамлаб боради"[156].



Шундай қилиб, дарс жараёнида ўқитувчи зиг-заг методидан фойдаланиб, янги мавзу бўйича ёзилган саволларни гуруҳларга тарқатиб, уларнинг жавобларини тинглайди. Барча гуруҳлар жавоб бериб бўлгач, ўқитувчи ўз якуний фикрини билдиради ва дарсга фаол қатнашган ўқувчиларни баҳолайди.

IV. Ўқувчиларни баҳолаш ва дарсни яқунлаш. (5 дақиқа)

V. Уйга вазифа: (2 дақиқа). “Қирқ қиз” достонини оқиш ва “Мен севган қаҳрамон” мавзусида матн яратиш.

ПАЙДАЛАНЫЛҒАН ӘДЕБИЯТЛАР:

1. Юсупов К.А. Ш.Сейтов прозасын таллау усыллары. – Нөкис, «Miraziz Nukus», 2017. – 4 б.т. – 64 бет.
2. Юсупов К.А. Академиялық лицейлерде қарақалпақ әдебиятын сабақтан тыс жұмыстар арқалы үйрениудің илимий методикалық мәселелери. (Методикалық қолланба). – Нөкис, «Miraziz Nukus», 2018. – 5 б.т. – 80 б.
3. Юсупов К.А. Qaraqalpaq ádebiyatın oqıtıw metodikası. Sabaqlıq. – Tashkent: Sano-standart, 2018. – 21 б.т. – 336 б.
4. Юсупов К.А. Академиялық лицейлерде қарақалпақ әдебиятын оқыту методикасы. Монография. – Нөкис: Qaraqalpaqstan, 2019. – 7 б.т. – 112 б.
5. Юсупов К.А. Академик лицейларда қарақалпақ адабиетини үқитиш методикаси (педагогика фанлари доктори (DSc) диссертацияси автореферати). – Нөкис, Miraziz Nukus, 2021. – 4 б.т – 66 бет.
6. Юсупов К.А. Kórkem shıǵarmalardıń mazmunıń úyreniw metodikası. Oqıw qollanba. – Tashkent: Yosh avlod matbaa, 2021. – 23,75 б.т. – 380 б.
7. Юсупов К.А. Qánigelik hám pedagogikalıq ámeliyat. Oqıw qollanba.– Nókis: Ilimpaz, 2021. – 3.75 б.т. – 60 б.
8. Konis A. Yusupov. Studying Forms of Teaching Karakalpak Poetry at Academic Lyceums. Eastern European Scientific Journal. Germany. Ausgabe, 3-2018. 72-75.
Ushbu dahshatli urushning natijasi ham harbiy harakatlarga, ham mamlakatning yaxshi qurilgan iqtisodiyotiga va kuchli tayanchga bog'liq edi. Birinchi yilda vaziyat SSSR foydasiga emas edi, lekin 1942-yilda SSSR deyarli ikki baravar ko'p qurol ishlab chiqarishni boshladi va o'z qurolli kuchlarini barcha zarur narsalar bilan ta'minlashga muvaffaq bo'ldi. Bunga sanoatni front ehtiyojlariga butunlay qayta yo'naltirish yordam berdi. O'zbekiston Respublikasida 151 fabrika, butun to'qimachilik va tikuvchilik sanoati qayta konstruksiya qilindi[4.485 c]. 1941- yilning iyunidan noyabrigacha respublika 100 dan ortiq sanoat korxonalarini o'z qo'liga oldi. Respublika fuqarolarining fidokorona yordami tufayli bu korxonalar qisqa muddatda foydalanishga topshirildi. Masalan, Rostselmash zavodining do'konlari evakuatsiya qilinganidan 25 kun o'tgach yig'ilib, birinchi mahsulotlarni ishlab chiqardi[5. 63c]. 1942-yilning ikkinchi yarmiga kelib, barcha evakuatsiya qilingan korxonalar armiyani ta'minlab, to'liq quvvat bilan ishlaroqda. Shuningdek, urush yillarida 280 ta sanoat korxonasi jadallik bilan qurildi. Toshkent shahri va Toshkent viloyatida 55 ta korxonalar qurildi. Farg'ona vodiysida 22 korxonalar faoliyat ko'rsatmoqda. Samarqand shahrida 14 ta korxonalar mavjud. Front oldiga yuborilgan: 2090 samolyot, 17342 samolyot dvigateli, 1 million 700 ming minomyot, 27 ming tankga qarshi qurol, 60 ming kimyoviy himoya o'q-dorilari, 22 million mina, 560 ming snaryad, 2 million 318 ming aviabomba, 1 million granata, 5 zirhli poezd, 18 harbiy gospital poezdlar yetkazib berildi. Mamlakatda qattiq mehnat intizomi, 11 soatlik ish kuni joriy etildi. 16 yoshdan 55 yoshgacha bo'lgan barcha erkaklar va 16 yoshdan 45 yoshgacha bo'lgan ayollar ishlab chiqarishga jalb qilindi. Ish bilan ta'minlashning katta muammosi- erkaklar oldida ishchi kuchining yetishmasligi 12 yoshdan boshlab ayollar va o'smirlar oldida korxonalarining asosiy ishchi zaxirasini shakllantirishga olib keldi. 1941-yil avgust oyidan boshlab respublikaga evakuatsiya qilingan odamlar bilan poyezdlar kela boshladi.

Urush yillarida O'zbekiston Respublikasi 1,5 milliondan ortiq qochqinlarni qabul qildi. Mamlakat Xalq Komissarlari Soveti ularni qabul qilish va joylashtirish uchun komissiya tashkil etishga qaror qildi[6. 15c]. Fuqarolar kelganlarga mas'uliyat va samimiy munosabatda bo'ldi, ularga har tomonlama yordam berdi, oziq-ovqat, kiyim-kechak, uy-joy bilan ta'minladi. Alohida, evakuatsiya qilingan bolalarga butun respublika tomonidan ko'rsatilayotgan g'amxo'rlikni alohida aytish lozim. Zudlik bilan mehribonlik uylari tashkil etilib, bolalarni oilaga joylashtirish ishlari boshlab yuborildi. 1942-yil yanvar oyida Toshkent shahri ayollari respublikaning ayol aholisiga murojaat qilib, O'zbekistonning barcha ayollarini evakuatsiya qilingan bolalarga onalik mehrini ko'rsatishga chaqirdilar. Urush yillarida respublikamizda turli millat va yoshdagi ittifoqning 300 ming nafar yetim bolalari e'tibor, g'amxo'rlik va boshpana

topdi. Ko'pchilik o'z oilasini topdi, masalan, toshkentlik temirchi Sh.Shomahmudovlar oilasi 15 nafar bolani tarbiyalash uchun oldi, keyinchalik ular haqida "Sen yetim emassan" filmi suratga olindi. Samadovlar oilasi 13 nafar yetim bolani asrab oldi. Qosimovlar oilasida 10 nafar yetim bolalarni asrab, o'z tarbiyasiga oldi. Mamlakatda evakuatsiya kasalxonalarini va yaradorlarga yordam ko'rsatish qo'mitalari tashkil etildi. Fan va san'atning tinch yo'nalishi o'zgartirildi.

1941-yilning kuzida SSSR Fanlar akademiyasi ilmiy tadqiqot institutlari Toshkentga evakuatsiya qilindi, jami 22 ta ilmiy-tadqiqot instituti, 20 dan ortiq o'quv yurtlari, bir-ikkita yirik kutubxonalar ko'chirildi. 1943-yilda O'zbekiston Fanlar akademiyasi tashkil etildi, akademiya ilmiy xodimlarining mehnati mudofaa sanoati, mashinasozlik va metallurgianing rivojlanishini ta'minladi, paxtaning yangi navlarini o'zlashtirish va tibbiyot rivojiga xizmat qildi. Olim adiblarning asarlari, "Front do'stlari", "Vatanga tuhfa" kabi qisqa metrajli filmlar keng targ'ib qilindi. Urushning og'ir sharoitlarida, qattiq mafkuraviy sharoitida O'zbekiston ziyolilari o'z ta'sirini davom ettirdilar[7. 45c]. Ularning ko'plari frontga ketishdi. Ular orasida O'zbekistonning taniqli olimlari – U.A. Arifov , Ya.X. To'raqulov , I.Ismoilov, X.Usmonov va boshqalar. Bundan tashqari olimlar T.N.Qori Niyozov, V.I. Romanovskiy, T.Z. Zohidov va ularning hamkasblari natijalarni tez va to'liq front va front orti ehtiyojlari uchun ishlatishga qaratilgan muammolar ustida ishladilar. Olimlarning ishi kuchaydi . Minglab o'zbeklar Qizil Armiya askariga aylanib, frontga ketdi.

Ular fashistlar Germaniyasi ustidan qozonilgan g'alabaga katta hissa qo'shdilar. Ko'plab askarlar Polsha, Frantsiya, Italiya va boshqa mamlakatlarning medallari bilan taqdirlangan[8]. Respublikada 15 ta bo'linma va brigadalar yig'ilib, jihozlandi. Jami 1 million 951 ming askar frontga ketgan. Jumladan, respublikamizdan 4555 nafar ayol frontga ketgan. Ular orasida, masalan, ko'plab askarlarning hayotini saqlab qolgan frontchi jarroh M. Ashrapova . Taniqli radio operatori R.Ibragimova, mashhur mergan Sh.Ishonto'rayeva o'z milting'idan o'q uzib, yuzlab fashistlarni yo'q qildi. Bu fidoyi ayollar oramizda yo'q, lekin nomlari xalq xotirasida abadiy yashaydi. Ulug' g'alabaga O'zbekistonning hissasi shubhasiz bo'ldi, urush qayg'usi respublikadagi har bir oilaga qattiq ta'sir qildi. – Urushning og'ir yillarida butun O'zbekiston xalqi "Hamma narsa front uchun, hamma narsa g'alaba uchun!" degan yagona maqsad bilan tinimsiz mehnat qildi. Mamlakat frontni ta'minlash uchun ishonchli kuchga aylandi.

O'zbekiston frontga juda ko'p miqdorda harbiy texnika va o'q-dorilar, oziq-ovqat, kiyim-kechak, dori-darmon va boshqa hayotiy zarur buyumlarni ishlab chiqardi va yetkazib berdi. Mamlakat urush voqealari xotirasini qadrlaydi, barcha respublikalarning g'alabaga qo'shgan salmoqli hissasini qayd etib, urush yillarida o'z respublikasi fuqarolarining ko'plab jasorat va mehnatsevarlik namunalari yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.Ахунбабаев Ю. Трудящиеся Узбекистана фронту. –М.: Профиздат, 1942, 39 с. –С. 17-30.

2.Зиядуллаев С.К. Промышленность Узбекистана в период Великой Отечественной войны // «Общественные науки в Узбекистане», 1985, № 5.

3.Хисамутдинова Р.Р. Великая Отечественная война (1941-1945 годы); военно-исторические очерки. –Оренбург: Изд-во ГОПУ, 2014. -476 с.

4. Чеботарева В.Г. Советский Узбекистан – арсенал фронта (1941-1945 гг.) // Победа –одна на всех (Вклад союзных республик СССР в завоевание Победы в Великой Отечественной войне 1941-1945 гг.). М., 2010 С. 481-510.

5.Юрьев В.А. Эвакуация, осуществленная советским народом в период Великой Отечественной войны: интернац, аспект пробл.: дисс. канд. Исторических наук 07.00.02- Отечественная история. Москва. 1995 -174 с.

LIMON (CITRUS L.) KO'CHATINI KO'CHIRIB O'TQAZISH**Xudayorova S.I***Toshkent farmatsevtika instituti, Toshkent shahri, O'zbekiston Respublikasi*

Dolzarbligi: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 19-fevraldagi PQ-4610-son qaroriga muvofiq akademik M.Mirzayev, nomidagi bog'dorchilik, uzumchilik va vinochilik ilmiy-tadqiqot instituti qoshida respublikada limonchilik tarmog'ini yanada rivojlantirish, ilmiy izlanishlar ko'lamini kengaytirish, yetakchi va zamonaviy resurstejovchi texnologiyalardan foydalanish asosida yuqori sifatli sanoat va eksportbop sitrus mevalari yetishtirishni ko'paytirish maqsadida Uyushma tashkil etilgan. Bunda limon ko'chatlarining issiqxona va ochiq maydonda parvarish qilinadigan yangi navlarini yaratish, onalik ko'chatzorlarni tashkil etish, zararkunanda hamda kasalliklarga qarshi kurashish, innovatsion texnologiyalarni joriy qilishga alohida e'tibor qaratiladi.

Tadqiqotning maqsadi: Issiqxona sharoitidagi limon ko'chatlarini ko'chirib o'tqazish texnologiyasini ishlab chiqish.

Usul va uslublar: Issiqxonada yetishtirilayotgan limon kochatlarini ko'chirish bo'yicha mavjud manbaalarga tayangan holda o'rganishlar olib borildi.

Sitrus o'simliklarining ko'chatlari O'zbekistonning janubiy rayonlarida mart oyining ikkinchi yarmida, shimoliy rayonlarida esa aprel oyining birinchi yarmida ko'chirib o'tqaziladi. Ko'chatlarni erta kuzda - 15 sentyabr oyigacha ko'chirib o'tkazsa ham bo'ladi. Limon ko'chatlarini o'tkazish uchun issiqxona tuprog'i yaxshilab tekislandi hamda 50-60 sm chuqurlikda ishlanishi lozim. Bunda gektariga 60-80 t chirigan go'ng, 600 kg superfosfat va 150 kg kaliyli o'g'itlar solindi. Sitrus o'simliklarining ko'chatlari sog'lom va yaxshi rivojlangan bo'lishi zarur. Ko'chatlarni o'tkazishga 10-12 kun qolganida issiqxona tuprog'i to'la namiqquncha tomchilatib sug'orildi. Issiqxonada limon ko'chatlarini 3x4 m sxemasida o'tqazish ma'qul. Ko'chat o'tkazish joylari rejalangandan keyin 60 sm chuqurlikda o'ralar kovlandi. Issiqxonada limon ko'chatlarini 3x4 m sxemasida o'tqazish ma'qul. Ko'chat o'tkazish joylari rejalangandan keyin 60 sm chuqurlikda o'ralar kovlandi. Ko'chat o'tkazish paytida har qaysi chuqurga yana 10-15 kg chirigan go'ng, 100-150 g superfosfat va 50 g dan kaliy o'g'itlari solindi. Ildizlari yaxshi rivojlangan bir va ikki yillik limon ko'chatlarida 3-4 tagacha birinchi tartib novdalar bo'lishi, tanasining yo'g'onligi 0,7-0,8 sm, ikki yilliklarida esa ikkinchi tartib novdalari va tanasining yo'g'onligi kamida 1 sm bo'lishi shart. Ko'chatlarni birinchi yili bir-biridan 1 m oraliq bilan bir qatorga o'tkazish mumkin, bir yildan keyin ortiqcha ko'chatlarning hammasini kovlab olib, 15 mart oyidan 15 aprel oylarigacha yangi issiqxonalarda doimiy joyga o'tkazish kerak. Ko'chirib o'tqaziladigan o'simliklar tuprog'i bilan kovlab olindi. Ildizlar aylanasiidagi tuproq tarqalib ketmasligi uchun, ko'chatlar kovlab olishdan 3-4 kun oldin sug'oriladi. Issiqxonaning tuprog'i ishlangan sari ko'chat o'tqaziladigan chuqurlar qaziladi. Chuqurlarning birinchi qatori issiqxonaning

shimoliy devoridan 1 m uzoklikda, qatorlar o'rtasida 2 m oraliq qoldirib qaziladi. Ko'chatlar maxsus taxta yoki belkurak bilan chuqurga joylanadi. Ko'chat ildizlari aylanasiidagi tuproq bilan chuqurning devori o'rtasidagi bo'shliqda oziq moddali aralashma to'ldiriladi va bu aralashma to'mtoq uchli qoziq bilan shibbalanadi. Chuqurni ko'mib bo'lgandan keyin, ko'chat tula namiqquncha chelak orqali sug'oriladi. So'ngra ko'chatlar atrofidagi tuproq tekislanib yumshatiladi va qatorning xar ikki tomonida suv egatlari ochiladi. Ko'chatlar bilan suv egatlari o'rtasida 30 sm oraliq qoldiriladi. Ko'chatlarni o'tkazib bo'lgandan keyin, ular yaxshi tutib ketishi uchun, yana bir marta sug'oriladi.



Xulosa: Sitrus o'simliklar 3 yillik bo'lguncha ko'chirib o'tkazilganida yaxshi tutib ketadi. Bundan kattaroq o'simliklar ko'chirib o'tkazilganida ularning ildizlari shikastlanadi, barglari qisman to'kildi, o'sishi orqada qoldi va bunday o'simliklar kechroq hosilga kirdi.

FIZIKA ASTRONOMIYA O'QITISHDA O'QUVCHILARNING GURUHLARGA AJRATIB O'QITISHNING SAMARALI NATIJALARI

Norova Laylo Kamol qizi

Navoiy viloyati Zarafshon shahar 8-sonli IATCHO'IDU maktabi fizika fani o'qituvchisi.

Parmonova Guljahon Raxmon qizi

Navoiy viloyati Zarafshon shahar 8-sonli IATCHO'IDU maktabi fizika fani o'qituvchisi

Xolova Aziza Avazovna

Tomdi tumani 1-maktab 1-Toifali Katta o'qituvchisi.

Annotatsiya: *Ushbu maqola fizika va astronomiya o'qitishda zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari va o'qitish metodikasi bo'yicha katta ilmiy ishlar haqida so'z yuritilgan va tajribalar haqida ma'lumot berilgan.*

Kalit so'zlar: *atom, yadro, energetik inqiroz, geofizika, Mendeleyev Klapeyron tenglamasi, biofizika.*

Fizika va astronomiya tabiatdagi hodisa va voqealarni hamda ularning qonuniyatlarini o'rgatuvchi fanidir. Inson ham tabiatning bir bo'lagi qatori, u bilan bevosita bog'lanishdadir. Tabiatdagi hodisalarning sirini bilish, ularning qonuniyatlarini aniqlash, asosan insonning yashash sharoitini yaxshilash maqsadida olib boriladi. Bunday bo'lmasa, fizika va astronomiyaning yutuqlaridan foydalanib, tabiatni tubdan o'zgartirib yuborish mumkin edi. Tabiiy fanlarning ichida fizika va astronomiya alohida o'rin egallagani uchun, uni barcha tabiiy fanlarning poydevorini tashkil qilindi deb aytiladi. Chunki, fizika barcha tabiiy fanlarning yutuqlariga o'zining munosib hissasini qo'shgan va qo'shib kelmoqda. Bunga misol qilib, fizikaviy kimyo, kimyoviy fizika, biofizika, astrofizika, geofizika va boshqa fanlarni ko'rsatish mumkin. Hozirgi kunda tibbiyotda ham fizika va astronomiyaning o'rni beqiyosdir, chunki uning hissasi dastlab rentgen nurlaridan boshlangan bo'lsa, hozirgi kunda ultratovush va lazerlarning qo'llanilishi, kompyuterli tomograflar orqali davom etmoqda. Qolaversa, insoniyatni energetik inqirozdan qutqarishda ham, fizika atom va yadro energiyalaridan foydalanish orqali o'zining munosib hissasini qo'shmoqda va qo'shadi.

O'qitishning ilmiylik prinsipi. Fizika o'qitishning ilmiylik prinsipiga ko'ra, o'rganilayotgan o'quv materialini fizika fanining umumiy yutuqlari darajasida fikrlashga mos kelishini ko'rsatadi va ta'lim berish jihatining asosini tashkil etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

O'qitishning tarbiyalash prinsipi. O'qitish va tarbiyalash, uzluksiz ta'lim tizimi o'quv jarayonining bir-biri bilan uzviy bog'langan ikki qismi bo'lib, ular shartli ravishda ajratilsa ham, aslida parallel tarzda amalga oshadigan yagona jarayonning

turli jihatlaridir. Fizika o'qitish jarayonida o'quvchilar fizikaning asosinigina o'zlashtirib qolmasdan, ularda tabiat hodisalariga dialektik-materialistik nuqtayi nazardan qarash ham shakllanadi. Eng muhimi, ushbu prinsipni amalga oshirish, o'quvchilarning o'quv faoliyatini to'g'ri tashkil qilishiga hamda bilim, malaka va ko'nikmalarni yetarli darajada egallashlariga xizmat qiladi. O'qitishning tizimlilik prinsipi. Ushbu prinsipga ko'ra, fizika kursining ayrim bo'limlari va mavzularining mantiqiy bog'liqligini, ular orasida uzviylik yoki izchillikning bo'lishini ko'rsatadi. Masalan, umumiy fizika va nazariy fizika, fizika va matematika, fizika va maxsus kurslar orasidagi bog'lanish va izchillik. Nazariya va amaliyotning birligi prinsipi. Bu tizimga ko'ra, o'quvchilar amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarida kuzatadigan hodisa va qonuniyatlarning nazariyasini yaqqol va chuqur o'zlashtirishigagina xizmat qilmasdan, ularni texnika va ishlab chiqarishda qo'llanishi bilan ham tanishishga imkon beradi hamda bu amaliy zaruriyat ekanligini tushunib yetishadi. Onglilik prinsipi. Fizika va astronomiya o'qitishning onglilik prinsipi o'quvchilarda faol va mustaqil ishlash natijasidagina bilimga ega bo'lish, kuzatilayotgan hodisa, jarayon va qonuniyatlarning fizik mohiyatini chuqur o'zlashtirishini ta'minlaydi va rejalashtiradi. Boshqacha aytganda, o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini to'g'ri tashkil qilish asosidagina, chuqur bilimga ega bo'lish malaka va ko'nikmalarini shakllanishiga olib keladi. O'qitishning izchillik prinsipi. Ushbu prinsip falsafaning asosiy tizimlaridan biri bo'lib, u fizikada moslik prinsipi ko'rinishida namoyon bo'ladi. Uning metodologik asosini dialektikaning inkori inkor qonuni tashkil qiladi. Fizika fanidagi izchillikka ko'ra, har qanday yangi nazariya o'zidan oldingi eski nazariyaning asosiy natijalarini o'zida mujassamlashtirgan bo'lishi kerak. Xususiyl holda har doim yangi nazariyadan ular kelib chiqishi zarur. Jumladan, nisbiylik nazariyasining natijalaridan birorta shart bajarilganda, klassik mexikaning natijalari kelib chiqishi kerak. Shunga o'xshash, real gazlar uchun taklif qilingan barcha holat tenglamalaridan, ideal gazga o'tilganda Mendeleyev - Klapeyron tenglamasi, ya'ni $PV = RT$ kelib chiqishi kerak, aks holda real gaz uchun taklif qilingan holat tenglamasi noto'g'ri bo'lib chiqadi. Didaktik nuqtayi nazardan, izchillik prinsipi, o'quv materialini o'qitishning turli bosqichlari bo'yicha to'g'ri taqsimlashni va ular orasidagi bog'langan ishlarni hamda ularni bosqichma-bosqich rivojlanishini ko'rsatadi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, o'qitishdagi izchillik, fandagi izchillikdan teskari aloqaning mavjudligi bilan farq qiladi. O'qitishning ko'rgazmalilik prinsipi. Ushbu prinsip o'quv materialini to'laqonli o'zlashtirishga xizmat qiladi. Unga ko'ra, fizika o'qitishdagi hodisa, jarayon va qonuniyatlarning imkon darajasida namoyish qilinish, ularni o'quvchilar tomonidan o'zlashtirishi oson kechadi. Shuning uchun, aytish mumkinki, ushbu prinsipning mohiyatini «O'n mara eshitgandan ko'ra, bir mara ko'rgan yaxshi» degan xalq maqoli tashkil etadi. Bilimning mustahkamlik prinsipi. O'quvchilar ma'lum hajmdagi bilimigagina ega bo'lmasdan, ulardan keyinchalik o'qish va amaliy faoliyatida foydalanishi uchun, uni yetarli darajada esda saqlash lari zarur. Fizika o'qitish jarayoni ayrim ilmiy-dasturiy bilimlarni aniqlashtirib va mustahkamlab qolmasdan, eng muhimi, ularni xotirada saqlab qolishni ham

talab qiladi. Mashhur nemis fizigi, kvant nazariyaning asoschilaridan biri bo'lgan M.Plankning e'tirof etishicha, «bilim berish - bu barcha o'qiganlar unutilgandan keyin qoladigan fikrlar va xotirada qolganidir». O'quv predmetini kasbiy yo'naltirish prinsipi. Oliy maktablarda turli yo'nalishdagi mutaxassis kadrlar tayyorlanadi, ularning ko'pchiligi fizika o'qishadi. Shundan kelib chiqib, fizika o'qitishni kasbiy yo'nalishini kuchaytirish maqsadga muvofiqdir. Ularga asos bo'lib, texnikada va ishlab chiqarishda ishlatiladigan mashina va mexanizmlarning ishlash prinsipi, fizik hodisa va qonunlarga asoslanganidir. Chunki, bular fizikaning amaliy tatbiqi bo'lib hisoblanadi. Shuning uchun, fizikani texnik fanlar bilan o'zaro bog'lanishini hisobga olib o'qitishga, uni kasbiy yo'naltirish deb aytish mumkin.

NATIJALAR

O'qitishni uyushtirishning Mangeym shakli. Ushbu shaklga, o'quvchilarni qobiliyatiga yarasha o'qitish ham deyiladi. Uning asosiy kelib chiqish sababi - yuqori foydali xizmat lavozimlarini egallash bilan bog'liq. O'qishga kirishda o'quvchilar maxsus testga, boshqacha aytganda, maxsus tuzilgan savollarga javob beradi. Yakunida barcha o'quvchilar uch guruhga bo'linib, sinfda uch qatorga alohida-alohida bo'lib o'tirishadi. Ularning o'quv muddatlari ham turlicha. O'qitishning bu shakli Angliya va AQSH da hozirgi kungacha davom etmoqda. Bu shakl birinchi marta Mangeym shahrida paydo bo'lgan. Bunday o'qitishda o'quvchilarni guruhlarga bo'lish, o'qitgan predmetning materialini bilish bilangina amalga oshiriladi. Jumladan, undan o'qitishning yangi usullarini va yo'llarini tajribada sinash paytida foydalaniladi. Tekshirishga qo'yilgan metodika, o'quvchilarning turli guruhiga qanday ta'sir qilishi amalda sinab ko'riladi. Dalton - reja yoki o'qitishning laboratoriya rejasini. XX asrning boshlarida AQSH ning Dalton shahrida paydo bo'lgan. O'qituvchilar o'quvchilarga darsda tushuntirish o'rniga, yakka yoki guruh shaklida vazifa beradi, o'qishga tegishli adabiyotlar ro'yxati ko'rsatiladi. O'quvchilar mustaqil tarzda tayyorlanishib, bajargan ishlari bo'yicha o'qituvchiga hisobot berishadi. Bunday o'qitishning boshlovchilari bo'lib, Yelena Parkxerst va Dyunlar bo'lishgan.

XULOSA

Albatta, boshqa didaktik prinsiplarni ham fizika o'qitishda hisobga olish kerak, lekin biz ularga to'xtalib o'tirmaymiz. Yuqorida ko'rib o'tilgan didaktik prinsiplar aksiomatik va trivial xarakterga ega bo'lishiga qaramasdan, ular fizika o'qitish nazariyasi va metodikasida katta ahamiyatga ega. Ular oliy maktablarda fizika va astronomiya o'qitishning didaktik asosini tashkil qiladi. Shuning uchun, didaktik prinsiplar va ularning mohiyati bilan oliy maktab professor - o'qituvchilarigina emas, balki o'quvchilar ham yetarli darajada qurollangan bo'lishlari kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Архангелский С.И. Учебный процесс в высшей школе, его закономерные основы и методы. — М.: В.Ш, 1980.
2. Ahmadjonov O.I. Oliy texnika o'quvv yurtlarida fizika o'qitish samaradorligini oshirish yo'llari. Ped. fan. dok. diss. avtoref.-T ., 1995.
3. Baydedaev A. Klassik statistik fizika. - T.: Iqtisod moliya,2003.
4. Baydedaev A., Habibullayev P.K. Kvant statistik fizika. - T.: Iqtisod moliya, 2007.
5. Bazarov I.P. Termodinamika. - M.: Nauka, 1991.
6. Baydedaev A., Mamadazimov M., Djoraev M va boshq. Maktabda fizika va astronomiya o'qitish. Metodologik va dunyoqarash aspektlari. - T.: O'qituvchi, 1994.
7. Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta'lim jarayonini axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarish nazariyasi va amaliyoti. Ped.fan. dokt....diss. avtoref. -T., 2007.
8. Беспалко В.П. Слагаемые педагогической технологии. - М.: Педагогика, 1989.
9. БугаП.Г. Вузовский учебник. - М.: Книга, 1987.
10. Бугаев А.И. Методика преподавания физики в средней школе: Теоретические основы. -М .: Просвещение, 1981.

MATEMATIKA DARSLARINI AKTDAN FOYDALANGAN HOLDA SAMARALI TASHKIL ETISH

Marjona Qudratovna

G'ulomova Marjona Qudratovna

Buxoro shahar 23-IDUM maktabining matematika o'qituvchisi

Muhidov Asqar Raxmatovich

Buxoro viloyati pedagog kadrlar malakasini oshirish milliy markazi matematika va informatika o'qituvchisi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada umumta'lim maktablarida AKTdan foydalanish natijalari o'quvchilar va o'qituvchilarning har tomonlama kamol topishi, o'quv jarayonini yuqori metodik darajada tashkil etish, ta'lim samaradorligi va sifatini oshirishi xususida fikr yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *AKT, matematika ta'limi, texnik vositalar, modellashtirish, kompyuter texnikalari*

KIRISH

Respublikamizda mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab jamiyatni isloh qilish va yangilash jarayonining eng muhim bo'g'ini jamiyatdagi demokratik o'zgarishlarning, iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishning, respublikaning jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvining zarur va majburiy sharti sifatida ta'lim sohasini isloh qilish siyosati izchillik bilan amalga oshirilmoqda. Bugungi kunda Kadrlar tayyorlash milliy dasturi yosh avlodga uzluksiz ta'lim berish va uni tarbiyalash jarayonini yaxlit qamrab oladigan yagona ta'lim tizimi hisoblanadi. Ta'lim tizimining har bir bo'g'ini alohida o'ringa ega.

“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” da maktab ta'limini rivojlantirish davlat umummilliy dasturi talablarida “ta'lim tarbiya jarayonini shakllantirish ta'lim mazmunini aniqlash, ta'lim tarbiya jarayonini amalga oshirishning didaktik qonuniyatlari va prinsiplarini ishlab chiqish, davlat ta'lim standartlarini takomillashtirish, o'quv dasturlari, darsliklarning yangi avlodi, o'quv metodik majmualar yaratish” vazifasini hal qilish takidlab o'tilgan.

Zamonaviy maktabda asosiy tarkib komponenti - bu tizimli amalga oshirish va faol foydalanish uchun shart-sharoitlar yaratish jarayoni sifatida axborotlashtirish. axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) ta'lim muassasasi ishida, bu o'quvchilarning ko'pchiligi mehnat bozorining yangi va zamonaviy talablariga mos keladigan ta'lim natijalariga erishishini ta'minlashi kerak.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Matematika darslarida AKT dan foydalanish uchun avvalo kompyuter dasturlari va ulardan foydalanish yo'llarini bilib olish zarur. Bu esa kompyuter dasturlari nafaqat o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini shakllantirish, balki kompyuterni qo'llash orqali ularning ijodiy ko'nikmalarini rivojlanishiga ham yordam beradi.

Avtomatlashtirilgan o'qitish tizimi o'quv kursini yoki uning katta bo'limini mustaqil o'zlashtirishga imkon yaratadi. Kompyuterli o'qitishning afzalliklari juda ko'p: o'quvchilarda ma'lum malakalarni shakllantirish vaqti qisqaradi; mashq qilinadigan topshiriqlar soni oshadi; o'quvchilarning ishlash sur'ati jadallashadi; kompyuter tomonidan faol boshqarishni talab qilinishi natijasida o'quvchi ta'lim sub'ektiga aylanadi; o'quvchilar kuzatishi, mushohada qilishi qiyin bo'lgan jarayonlarni modellashtirish va bevosita namoyish qilish imkoniyati hosil bo'ladi; kommunikatsiya vositalaridan foydalangan holda darsni uzoqdagi manbalar bilan ta'minlash imkoniyati hosil bo'ladi; kompyuter bilan muloqot didaktik o'yin xarakterini oladi va bu bilan o'quvchilarda o'quv faoliyatiga motivatsiya kuchayadi va hokazo.

Matematika fanlarini o'qitishga yangi texnik vositalar, shu jumladan, kompyuter va boshqa axborot texnologiyalarining jadal kirib kelayotgan hozirgi davrida fanlararo uzviylikni taminlash maqsadida informatika fani yutuqlaridan foydalanish dolzarb masalalardan biridir. Kompyuter texnikalarini talim muassasalariga tatbiq etish, o'qitish jarayonini optimallashtirishga keng yo'l ochib beradi. Keyingi o'n yillikda matematika fanini o'qitishda kompyuterlardan foydalanish bir necha asosiy yo'nalishlarda olib borildi. Bularga kompyuter yordamida bilimni baholash, turli tipdagi o'rgatuvchi dasturlarni ishlab chiqish va rivojlantirish, bilishga oid matematikaviy o'yinlarni ishlab chiqish va boshqalar kiradi.

Matematika o'qitishda kompyuterlarni qulayligini yana bir yo'nalishi ayrim o'quv holatlarini modellashtirishdir. Modellashtirilgan dasturlardan foydalanishning maqsadi, o'qitishning boshqa usullari qo'llanganda tasavvur qilish, ko'z oldiga keltirilishi qiyin bo'lgan materiallarni tushunarlibo'lishini taminlashdan iborat. Modellashtirish yordamida o'quvchilarga malumotlarni grafik rejimda kompyuter multimediasida ko'rinishida taqdim qilish mumkin. Shu boisdan ular matematikani chuqur o'rganish va o'quv jarayonida sezilarli darajada mustaqillik namoyon etishga moyil bo'ladilar.

NATIJARLAR

Ko'p holatlarda vujudga keladigan matematik muammoni tez va berilgan aniqlikda hal etish uchun professional matematikdan o'z kasbi bilan bir vaqtda ma'lum bir algoritmik til va dasturlashni bilishi talab qilinadi. Shu maqsadda XX asrning 90-yillarida matematiklar uchun ancha qulayliklarga ega bo'lgan matematik sistemalar yaratilgan. Bu maxsus sistemalar yordamida turli sonli va analitik matematik hisoblarni, oddiy arifmetik hisoblashlardan boshlab, to xususiy hosilali differensial tenglamalarni yechishdan tashqari grafiklarni yasashni ham amalga oshirish mumkin.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, darsda AKTdan foydalangan holda, o'qituvchi darsning AKT vositalari bilan ortiqcha yuklanishi ish vaqtining noratsional taqsimlanishiga, o'quvchilar faolligining pasayishiga va umuman o'rganish samaradorligiga olib kelishini yodda tutishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :

1. Malaxovskiy V. Tanish va notanish raqamlar. – Kalinigrad: FGUIPP, 2004.
2. Buxarkina M., Mosiyeva V. Ta'lim tizimida yangi pedagogik va axborot texnologiyalari. – M., 2000. 3.www.arxiv.uz 4.www.referat.uz

OMONIMIYAGA OID TADQIQOTLAR TALQINI

Feruz Rajabov Umarqulovich

QarMII akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya. *Bu maqolada omonimiya hodisasi va omonimlikka ega til birliklari va ularning tadqiqi tahlilga tortilgan.*

Kalit so'zlar: *omonimiya, ishoraviy omonimiya, tuyuq, tajnis, affiks omonimiya, konversiya.*

Bugungi kunda omonimiya hodisasi turli tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan va o'rganilib kelinmoqda. Shuningdek, omonimiya hodisasi dunyoning deyarli barcha tillarida atroflicha tadqiq etilgan. Xususan, o'zbek tilshunosligida omonimiya hodisasi va uning turli turli til birliklari bilan qiyoslash asosida Sh.Rahmatullayev, M.Ravshanov, B.Suyunov, M.Jo'raboyeva, U.Tursunovva N.Rajabov, M.Mirtojiyev, K.Usmonovlar ilmiy tadqiqot²⁹ olib borganlar. Olib borilgan tadqiqotlarda *omonimiya* hodisasi *qo'shimcha, so'z, ibora, tasviriy ifoda, so'z birikmasi, gap* hattoki *ishora*(tinish belgi)da mavjud bo'lganidan fanda *affiks omonimiya, leksik omonim, frazaviy omonimiya, parafazaviy omonimiya, so'z birikma omonimiya, gap omonimiya va ishoraviy omonimiya* va boshqa turlarga bo'linadi³⁰. Ko'rinib turibdiki, omonimiya hodisasi lug'aviy birliklarda ham, grammatik birliklarda ham mavjud.

Turkiy til omonimlarining dastlabki tadqiqotchisi Mahmud Koshg'ariy hisoblanadi. Koshg'ariy omonimlarga oid materiallarni to'plabgina qolmasdan, ularni ilmiy jihatdan sharhlab ham o'tgan. Jumladan, "Devonu lug'otit turk" asarida o't so'zining o'simlik, quruq xashak, davo va zahar singari to'rt xil ma'noda ishlatilishini ko'rsatib o'tgan³¹. Keyinchalik bu so'z olov, o'tmoq so'zining o'zagi kabi ma'nolar bilan boyigan³². Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, *olov* ma'nosidagi *o't* so'zi tamomila boshqa o'zakdandir. Mahmud Koshg'ariy bu so'zni *o'rt* shaklida ko'rsatadi. Buni Alisher Navoiy asarlari ham tasdiqlaydi:

*Quyoshdek olam aro bazm chog'i,
Jahonga o'rt solib razm chog'i.*

Bizningcha, bu fikrda yetarlicha asos bor. Chunki hozirgi kunda faol iste'molda bo'lgan "o'rtanmoq" so'zi ham *kuymoq, yonmoq* ma'nosini ifodalaydi:

²⁹Raxmatullayev Sh. O'zbek frazeologiyasining ba'zi masalalari (Frazeologik birliklarda polisemiya, sinonimiya, variatsiya, antonomiya, omonomiya va omonomiklik). -Toshkent, 1966.; Ravshanov M. O'zbek tilining izohli lug'atida omonimlar tavsifi. -Toshkent, 1991.; Suyunov B.T. O'zbek tilida omoleksemalarning yuzaga kelish omillari: Filol.fanlari nomzodi diss. ...avtoref. -Toshkent, 2009.; Jo'raboyeva M. O'zbek tilida affiks omonimiya. (I qism) T.: ToshDU, 1992.; O'zbek tilidagi shakldosh qo'shimchalar (II qism), T.: ToshDU, 1999.; Tursunov U., Rajabov N. Omonimlarning paydo bo'lish yo'llari // O'zbek tili grammatik qurilishi va dialektologiyasi masalalari. - Toshkent: 1966.; Mirtojiyev M. O'zbek tilida leksik omonimlarning vujudga kelishi: Filol.fan. nomzodi diss. ... avtoref. - Toshkent: 1963. -B.124.; So'zlarning shakliy munosabatiga ko'ra tiplari // O'zbek tili leksikologiyasi. - Toshkent: Fan, 1981.; Mirtojiyev M. O'zbek tilida polisemiya. - Toshkent: Fan, 1975. Usmonov K. O'zbek tilida affiks omonimlar. -Nasaf:1996.- 86 b.

³⁰Rajabov F. Omonimiya. - Toshkent: Yangi kitob nashriyoti, 2019. - 264 b.

³¹Koshg'ariy Mahmud. Devonu lug'otit turk. -Toshkent:1960. - B.56

³²Mutallibov S. Omonim va polisemiya so'zlar. -Toshkent:1954.- B.29-30

O'rtamoq I. O't olmoq; yonmoq, yondirmoq. *Uylarimiz o'rtab yonardi, Issig'iga isinardi yov... T.To'la. Xaloyiq... qizil askarlar xonumonimizni o'rtab vayron qildi...* N.Safarov. Ko'rgan-kechirganlarim.

O'rtamoq II. ko'chma. Nihoyat darajada qizdirmoq; kuydirmoq. *Quyoshdan oqqan olov seli gavjum shahar ko'chalarini o'rtaydi.* J.Abdullaxonov. Oriyat.

O'rtamoq III ko'chma. Ruhiiy alam-iztirobga solmoq; kuydirmoq. Yurakni o'rtamoq. Jonni o'rtamoq. *Nega indamaysan, yig'laysan, Yurak-bag'rim o'rtab tig'laysan.* E.Rahim. *Ostingda yuz alvon o'ynaydi oting, Dushmanni o'rtaydi sha'ni-shavkating.* "Alpomish". *Akromning qulog'iga karnay-surnay sadosi chalinsa, hech qachon ushalmas orzusi alam bo'lib, vujudini o'rtaydi.* E.Usmonov. Yolqin³³.

Navoiy o'z asarlarida omonimlarning semantik va poetik xususiyatlarini ochar ekan, ularni o'z ona tilining boyliklari deb hisoblaydi va turkiy(o'zbek) tili omonimlarga nihoyatda boy ekanini va ular asosida go'zal tuyuqlar yaratish mumkinligini ta'kidlaydi:

"Ot lafziki, bir ma'nisi alamdur, yana bir ma'nisi markabdur va yana bir ma'nisi amrdurki, toshni yo o'qni ot deb buyurg'aylar. Bu tajnisda mundoq deyilibdurkim,

Chun pariyu hurdur oting, begim,

Sur'at ichra dev erur oting, begim.

Har hadangikim, ulus andin qochar,

Notavon jonim sari oting, begim.

Va bu ikki baytki, tajnisi tomdur, ham turk shuarosi xossasidurki, soartda yo'qtur va muni tuyug' derlar..."³⁴.

Turkiy tillar, jumladan, o'zbek tilidagi tarixiy omonimiyani tadqiq qilish diaxronik aspektida olib boriluvchi alohida ishning obyektidir. Bu muammoning ba'zi tomonlari S.Mutallibovning ishlarida qisman tahlil qilingan³⁵.

Omonimlar har xil stilistik maqsadlarda hozirgi turkiy tillarda qanday ishlatilayotgan bo'lsa, yozma obidalarda ham xuddi shunday qo'llanilgan. Biroq omonimlarning yozma obidalar tilida ishlatilishi hozirgiga nisbatan ancha chegaralangan. Bu bilan bunday omonimlar keyingi davr til hodisasi ekan, degan xulosaga kelmaslik kerak. Hozirgi turkiy tillar lug'at boyligida mavjud omonimlar qadimda ham aks etgan, lekin yozma obidalar tilida chegaralangan holda ishlatilgan: baliq I "baliq", baliq II "shahar"; bar I "bor, mavjud", bar- I "bormoq", adin I "boshqa", adin- I "o'zgartirmoq, to'g'irlamoq", agir I "og'ir", agir II "hurmatli, qadrlil", ay I "oy", ay II "oy, vaqt", ar- I "bo'lmoq", ar- II "aldamoq". Demak, qadimgi turkiy tilda omonimlarning ishlatilishi o'sha til leksik qatlamining rang-barangligidan dalolat beradi³⁶.

M.Ravshanov "O'zbek tilining izohli lug'atidagi omonimlar" mavzusidagi nomzodlik ishida quyidagicha yozadi: "Shu kungacha vatanimiz lingvistikasida omonimiya va polisemiyaning o'rganishda ikki qarama-qarshi nuqtai nazar, ikki har xil

³³ O`TIL. –Toshkent: O`zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2006-2008.– B.172

³⁴ Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 16-tom. –Toshkent: Fan,2000. – B.17

³⁵ Mutallibov S.M. Morfologiya va leksika tarixidan qisqacha ocherk. –Toshkent: 1953. – B.15

³⁶ Dadaboyev H., Xolmanova Z. Turkiy tillarning qiyosiy-tarixiy grammatikasi. -T.,2015.– B.42

yondashuv mavjud edi. Shulardan birinchi (an'anaviy) nuqtai nazarga ko'ra, fonetik jihatdan bir xil, genetik jihatdan o'zaro bog'lanmagan va faqat tilning tarixiy taraqqiyoti jarayonida bir-biri bilan mos bo'lib qolgan so'zlar omonimlar deb hisoblangan. Qolgan holatlar, ya'ni har xil mazmundagi leksemalarning material jihatdan bir xil bo'lib qolishi ko'p ma'nolilik deb qaralgan. Kengroq tarqalgan ikkinchi nuqtai nazar tarafdorlari haqiqiy (geterogen) omonimlardan tashqari, dastavval bir so'z bo'lib, keyinchalik, semantik bog'lanishning uzilishi natijasida paydo bo'lgan so'zlar – 6 semantik (gomogen) omonimlar ham mavjud deb hisoblaydilar. Bunday nuqtayi nazar O.S.Axmanova, R.A.Budagov, V.V.Vinogradov, Y.M.Galkina Fedoruk, N.P.Kolesnikova, L.A.Novikov, S.I.Ojegov, A.A.Reformaskiy, A.I.Smirniskiy, I.I.Fomina, A.Y.Shaykevich, N.M.Shanskiy, D.N.Shmelyov va boshqalarning tadqiqotlarida ham berilgan³⁷. Jumladan, I.Vardul omonim tushunchasini lisoniy tizimning barcha birliklari – “morfologik yarusdagi morfemadan tortib, sintaktik darajadagi gap va davrgacha va supra sintaktik yarusdagi xabargacha” taalluqli deb hisoblaydi³⁸.

Omonimiya hodisasini o'rgangan olim Y.Maslov shunday yozadi: “Til nazariyasida omonimiya va omonimning leksikografik ish amaliyotiga nisbatan ancha kengroq tushunilishidan kelib chiqish samaraliroq ko'rinadi. Biz omonimiya deganda ikkita turli belgilovchining bir xil talaffuzini tushunamiz. Bu bir tomondan so'zlar, morfema yoki morfemali birliklar hamda so'z birikmalari darajasidagi tushunchaga taalluqli. Ko'rsatilgan tarzda belgilangan tushunchaning ichida turli bo'limlarni ajratish mumkin³⁹.”

Yuqorida Y.Maslovning fikricha omonimlar bu – ikkita turli belgilovchi, ya'ni ma'no anglatuvchining bir xil talaffuz qilinishi sifatida baholagan. Vaholanki omonimlar ikki xil ma'noga ega bir xil talaffuz etiluvchi so'zlardir. Aynan omonimlarning qo'llanishi nutqning o'ziga xosligi belgilaydi.

G.Ismailov omonimlarga bag'ishlangan maqolasida: “Ma'lumki, omonimiya tuzilishi bir xillikka asoslangan, ammo ma'no jihatdan bir-biriga bog'liq bo'lmagan leksik hodisa hisoblanadi. Turli xil tillarda, qolaversa, o'zbek tilida ham omonimiya leksemalar o'rtasida o'zaro ta'sirning paydo bo'lishida muhim rol o'ynaydi⁴⁰ – deb yozadi.

Omonimlar haqida E.V.Sevortyan *fe'l-ot* tipli o'zaklar deb fikr bildirsa⁴¹, qirg'iz olimasi B.O.Oruzbayeva *bir o'zakli* omonimlarni turkiy tillardagi qadimiy so'z yasash usullaridan biri deya ta'kidlaydi⁴², boshqa bir qator olimlar esa omonimlarni bir so'z

³⁷ Равшанов М. Омонимы в толковом словаре узбекского языка. Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Тошкент, 1991. – С.5

³⁸ Вардудль И.Ф. Место семантики в лингвистическом описании//Вкн.: Проблемы семантики. – М.: Наука, 1974. –С.17-18

³⁹ Маслов Ю.С. Омонимы в словарях и омонимия в языке (к постановке вопроса) // Вопросы теории и истории языка: Сборник в честь профессора Б. А. Ларина. – Л.: Изд-во Ленинградского ун-та, 1963. –С.128-202

⁴⁰ Г.М. Омонимия транс терминов (на материале узбекского языка) Институт языка и литературы Академии наук Республики Узбекистан. 2012.–С.67

⁴¹ Sevortyan E. V. Affiksi glagoloobrozovaniya azerbaydjonskom yazike. –Moskva:1962. B–365

⁴² Орузбаева Б.О. Словообразование в киргизском языке. – Фрунзе: 1955. С-262

turkumiga xos soʻzning boshqa turkumga oʻtishi natijasi, yaʼni *konversiya* deb ataydilar⁴³.

Omonimiya va u bilan bogʻliq til hodisalarining tarixiga nazar tashlash, mavjud nazariy xulosalarga baho berish, oʻz munosabatlarimizni bildirish muhim ahamiyat kasb etadi. Uni oʻrganish hamda jamoatchilikka tatbiq etish til boyligini oshirishga olib keladi. Shuning uchun ham bugungi kunda omonimiyani oʻrganish muhim hisoblanadi.

Rus tilshunoslari tomonidan omonimiyaga oid koʻplab ishlar amalga oshirilgan. Oʻtgan asrning 60-yillarda akademik V.V.Vinogradov omonimiya masalasiga tilshunoslar tomonidan alohida ahamiyat berilayotganligi, bu masalani soʻz va uning fonologik, morfematik qurilishi, tipologiyasi, yasaliş formalari, morfonologiyasi va sintagmatikasi kabi umumiy masalalar bilan uzviy bogʻliq holda oʻrganishga harakat qilinayotganligini alohida taʼkidlab oʻtgan edi.

Omonimiyaning morfologik birliklarga ham xos ekanligi bugungi kun uchun yangilik emas. Chunki L.A.Bulaxovskiy 1928-yili eʼlon qilingan “Из жизни омонимов” nomli maqolasida xuddi shu fikrni ilgari surgan edi. Muallif omonimlarning turli tiplarini farqlashga harakat qilgan, ularni leksik, morfologik, bir xil va har xil morfologik guruhlarga ajratgan, tub va yasama, yaqin va yaqin boʻlmagan tushunchalar tarzida tavsiflagan⁴⁴.

V.V.Vinogradovning “О грамматическое омонимии в современном русском языке” maqolasida ot, sifat, son turkumlarida turli formalarning shaklan teng kelib qolish hollari tahlil qilingan va “shakliy tenglik” **omoformiya** termini bilan atalib, uni tom maʼnodagi omonimiyadan farqlash zarurligi taʼkidlangan. Shunga yaqin fikr A.I.Smirnitskiyning “Некоторые замечания по английской омонимике” nomli maqolasida ham ilgari surilgan⁴⁵. Bunda ham avvalgi maqoladagi kabi soʻzlar ortasidagi omonimik holat bilan har xil soʻz koʻrinishlarining omonimligini farqlash zarurligi toʻgʻri korsatilgan. Lekin hali bu ishlarda leksik, grammatik, xususan, morfologik, sintaktik affiksial omonimiyaning farqi aniq chegaralab berilgan deb boʻlmaydi. Biroq keying yillarda O.S.Axmanova, A.A.Potebnyalar ham omonimiya boʻyicha tadqiqotlar qilishgan.

Omonimiya masalasi haqida B.M.Yunusaliyev quyidagicha fikr bildiradi: Omonimlar soʻzning lugʻaviy-grammatik rivoji mahsuli, yaʼni bitta soʻzga bir necha maʼnoni yuklash natijasi⁴⁶.

Tilshunos Faxri Kamol omonimlarni quyidagicha taʼriflaydi: “Shakli bir, maʼnosi boshqa-boshqa boʻlgan soʻzlar omonimlar gruppasiga kiradi. Omonimlar, asosan, bir xil ohangda aytiladi va bir xil shaklda yoziladi”. U oʻzining “Oʻzbek tili leksikasi” nomli ishida omonimlarga kengroq toʻxtalgan. Masalan, omonimlarni shakllantiruvchi omillardan quyidagilarni alohida taʼkidlaydi:

⁴³ Смирнитский А.И. Лексикология английского языка. –Москва:1956. С–160-161 ., Реформатский А.А. Введение языкознание. –Москва:1967. С–88

⁴⁴ Bulaxovskiy L.A. “Из жизни омонимов” 1928. –С.56

⁴⁵ А.И.Smirnitskiy “Некоторые замечания по английской омонимике”

⁴⁶ Yunusaliyev B.M. Kirgizskaya leksikologiya. Frunze 1955. – В.-365

1. Ba'zi bir so'zning ma'no xususiyatlari orasidagi o'zaro munosabatning borgan sari uzoqlashishi natijasida. Masalan, *kun*, *oy* so'zlari.

2. Ma'lum so'z, o'zak– negizdan yangi so'zlar yasalishi natijasida. Masalan, *oylik* – “maosh”, *oylik* – “reja”.

3. Bir tilga ikkinchi bir tildan so'z va termin qabul qilinishi natijasida. Masalan, *tom* – “uyning tepasi”, *tom* – “kitobning jildi”.

4. So'zlarning ba'zi tovushlari o'zgarib, boshqa shaklga ko'chishi natijasida omonimlar paydo bo'ladi⁴⁷.

Bundan tashqari yana bir qator tadqiqotlarda omonimlar masalasiga doir fikrlar bildirilgan. O'zbek tilidagi omonimlar, ularning vujudga kelish yo'llari haqida Y.Pinxasov⁴⁸, U.Tursunov va N.Rajabovlar⁴⁹ ham o'z fikrlarini bildirib o'tganlar.

Omonimiya masalasi, ularning yuzaga kelishi, qadimiy holatlari ko'pgina tadqiqotchilarni qiziqtirib kelgan. Jahon tilshunosligida bo'lgani kabi o'zbek tilshunosligida ham omonimlarni atroflicha tadqiq qilish masalalariga bag'ishlangan ko'pgina ilmiy maqolalar va monografik tadqiqotlar mavjud.

E.Begmatov omonimiya masalasida to'xtalar ekan, jumladan, quyidagicha fikr bildiradi: So'zlarning o'zaro semantik munosabatlari: ma'noda yaqinlik (sinonimlar), ma'noda moslik (dubleklar), teskari ma'noga egalik (antonimlar), bir tematik qatorga mansublik (terminlar, professionalizmlar), shaklan moslik (yaqinlik) va mazmunan uzoqlik (omonimlar)⁵⁰. E.Begmatov omonimlarni til leksikasining sistemaviy xususiyatini ko'rsatuvchi hodisalardan biri deb ta'kidlaydi.

Omonimiya ba'zi olimlar tomonidan salbiy hodisa deb baholanadi. Aytishlaricha, omonimiya fikrni to'g'ri va tez anglashga xalaqit beradi. Shu jihatdan til uchun ortiqcha yuk deb qaraladi. Bu fikrga to'liq qo'shilishimiz qiyin. Chunki omonimning yolg'iz o'zi bilan gap tuzib, fikr anglatish kamdan-kam hollarda uchraydi. Omonimiya asosan matn shalida bo'lib, matn esa odatda omonimiya tufayli yuzaga keladigan qiyinchilikni bartaraf etadi.

Umuman, omonimiyaning voqe bo'lishi tilning o'z xususiyati bilan izohlanadi: har bir tilda tovushlar soni sanoqli, shu tilda ishlatiladigan tovush kombinatsiyalari ham cheksiz emas. Ikkinchidan, leksemalarning ifoda jihatida ham, ma'no jihatida ham uzluksiz o'zgarishlar bo'lib turishi bilan omonimiyaning paydo bo'lishi tabiiy hodisa deb qaralishi lozim.

O'zbek tilidagi omonimlarni o'rganib, tadqiq qilish ishiga M.Mirtojiyev salmoqli hissa qo'shdi. Olim omonimlar haqida, jumladan, quyidagicha fikr bildiradi: “Omonimiya masalasi yuz yillar muqaddam N.I.Grech tomonidan ilgari surilgan... . Shunga qaramay, biror tilda hanuzgacha omonimlarning vujudga kelishi yuzasidan hech qanday monografik asar yo'q. Ma'nolari bir bosh ma'no orqali bir-biri bilan aloqador so'zlar ko'p ma'noli – polisemantik so'z deyiladi. Polisemantik so'zlarning

⁴⁷ Faxri Kamol. O'zbek tili leksikasi. – Toshkent: O`ZRFA nashriyoti, 1953. – B.29-30

⁴⁸ Pinxasov Y. Hozirgi zamon o'zbek tili leksikasi. –Toshkent: 1960.

⁴⁹ Tursunov U., Rajabov N. Omonimlarning paydo bo'lish yo'llari // O'zbek tili grammatik qurilishi va dialektologiyasi masalalari. – Toshkent: 1966.

⁵⁰ Begmatov E. Hozirgi o'zbek adabiy tilining leksik qatlamlari.– Toshkent:Fan, 1985.– B.24

ma'nolari har qancha ko'p bo'lmasin, u baribir bir so'zdir. Uning ma'nolari esa shu so'zning turli qirralaridir. Omonimlarning birinchi belgisi – o'zicha mustaqil ma'noga ega ikki va undan ortiq so'zlar bo'lishidir. Ikkinchi belgi – nomlarning bir xilligidir...

Leksik omonimlar lug'at boyligi taraqqiyotining quyidagi hodisalari natijasida vujudga keladi:

1. O'zbek tilining boshqa tillar bilan munosabati natijasida. Masalan, *sir, alam, banka, bog'*.

2. O'zbek adabiy tiliga dialektal so'zlarning kirib kelishi natijasida. Masalan, *bo'lishmoq, shoti, chavoq*.

3. So'zlarning leksik taraqqiy etishi natijasida. Masalan, *ort, g'arch, ko'k*.

4. So'zlarning semantik taraqqiy etishi natijasida. Masalan, *banoras, teri, yaramoq, qiziq, is*.

5. So'zlar fonetik o'zgarish orqali o'zaro ham talaffuz, ham yozilish jihatidan bir xil bo'lib qolishi natijasida. Masalan, *o't, o'ch, chag'ir, bog', oz, yor..*

Tilning tarixiy taraqqiyoti davomida polisemantik so'zlar omonimlarni vujudga keltirib turadi. Polisemantik so'zning ma'nolaridan birirtasi boshqa ma'nolarga bog'langan aloqasini yo'qotsa, u mustaqil ma'noli so'zga aylanadi, ya'ni omonim vujudga keladi. Demak, tilda polisemantik so'zlarning omonimga o'tish jarayoni yuz berib turadi. Bu hol, albatta, omonimlar bilan polisemantik so'zlarni ajratib olish uchun xalaqit beradi. Shuningdek, ularning chegarasini belgilashda ham qiyinchilik tug'diradi⁵¹.

M.Mirtojiyevning omonimiya haqidagi ayrim qarashlari "O'zbek tili leksikologiyasi" kitobida o'z aksini topgan. Ushbu kitobda o'zbek tilidagi so'zlar shakl va ma'no munosabatiga ko'ra ikki guruhga ajratilgan: birinchisida muallif shakily o'xshashlik va shakliy bir xillik, ya'ni paronimiya hodisasini, ikkinchisida esa omonimlar, omograflar, omofonlarni ko'zda tutadi⁵².

M.Mirtojiyev omonimlarni ta'riflar ekan, uni omofoniyaga taqqoslagan holda tushuntirishga harakat qiladi: "Birdan ortiq so'zning aynan bir xil talaffuz etilishi omonimiya deb yuritiladi. Bunda, albatta, birdan ortiq so'zning fonetik strukturasidagi bir xillikka ko'ra, bir xil talaffuz etish nazarda tutiladi. Shunisi bilan omonimiya omofoniyadan farq qiladi. Omofoniya esa ikki so'zning fonetik strukturasidagi ayrim tafovutidan qat'iy nazar, so'zdagi pozitsion, kombinator – umuman ma'lum shart-sharoitlardan kelib chiqib, bir xil talaffuz etilishidir. Omofoniyani yuzaga keltiruvchi komponentlar miqdori esa chegaralanmagan bo'ladi. Uni esa biz o'zbek tilida ikkitadan oltitagacha miqdorda uchratamiz⁵³. Ushbu ishda o'zbek tilidagi omonimlarning yuzaga kelishida o'z va o'zlashma qatlam so'zlarning qay darajada ishtirok etishi, lug'aviy, fonetik va boshqa omonimlarning o'rni tahlil qilib berilgan.

⁵¹ Mirtojiyev M. O'zbek tilida leksik omonimlarning vujudga kelishi: Filol.fan. nomzodi diss. ... avtoref. – Toshkent: 1963. – B.124

⁵² Mirtojiyev M. So'zlarning shakliy munosabatiga ko'ra tiplari // O'zbek tili leksikologiyasi. – Toshkent: Fan, 1981. – B.255

⁵³ O'sha manba. – B.267

M.Mirtojyev omonimlarning yuzaga kelish yo'llaridan birini shunday izohlaydi: "Polisemantik so'z taraqqiyoti natijasi omonimlarning shakllanishi uchun asos bo'la oladi. Agar polisemantik so'z ma'nolari quyidagi yo'llar bilan taraqqiy etsa, uning ma'nolari o'rtasidagi aloqa uziladi, ya'ni u birdan ortiq so'zga differentsiatsiya bo'lib, omonim vujudga keladi. Leksik ma'nolarning tobelik natijasidagi taraqqiyoti polisemantik so'z ma'nolari o'rtasidagi aloqaning uzilishiga sabab bo'lishi mumkin.

Barchamizga yaxshi ma'lumki, leksik ma'nolarning tobelik natijasidagi taraqqiyoti polisemantik so'zlar vujudga kelishi uchun ham asos bo'ladi. Masalan, *musht* so'zidagi ma'no taraqqiyotiga e'tibor beraylik. Uning birinchi ma'nosi "qo'l uchining barmoqlari yumuq holati"dir. O'sha qo'l uchining barmoqlari yumuq holatining "zarbi" ni ifoda etuvchi leksik ma'no esa tobelik natijasida hosil bo'lgan ko'chma ma'nodir⁵⁴.

Demak, yuqoridagi fikrlarga asoslanadigan bo'lsak, omonimiya hodisasini polisemantik so'z taraqqiyoti natijasi yuzaga chiqaradi. Aslida esa so'zlardagi ma'no taraqqiyoti asosga olinishi kerak. Omonim so'zning polisemiya bosqichini o'tashi shart emas.

Omonimlarga berilgan ta'riflarda "ma'nodagi har xillik" tushunchasi turlicha talqin etiladi. Bu ayniqsa affiksial omonimlarga berilgan ta'riflarda aniq ko'rinadi. Ularda affikslar anglatgan ma'noning leksik ma'nodan farq qilishi nazarda tutilib, ta'rifdagi ma'no tushunchasini chegaralab ko'rsatishga intilish ko'zga tashlanadi. Bir qator ishlarda shakliy teng affikslarni "grammatik ma'nosiga kora", "funktional-semantik xususiyatiga ko'ra", har xil so'z turkumlarini yasashiga ko'ra" farqlanishi qo'shimcha qilinadi.

Bu, birinchidan, shu qo'shimchalar o'rtasidagi omonimik holat faqat bir turkum yoki bir vazifani bajaruvchi (masalan, so'z yasovchilar doirasidagina) qo'shimchalar o'rtasida yoxud har xil turkumga kirib, har xil vazifani bajaruvchi affikslar o'rtasida mavjud deb qarash natijasidir.

Ikkinchidan, affikslar omonimiyasini chegaralab (masalan, bir turkum doirasida yoki so'z yasovchilar doirasida olib) o'rganish bilan bog'liq.

Umumiy qilib aytganda, affiksial omonimik qatorni belgilashda affikslarning qanday vazifa bajarishi, qaysi turkum so'zlarni hosil qilishi belgilovchi mezon bo'la olmaydi. Aksincha, bunda ma'no va shakl yetakchi hisoblanadi. Omoaffikslarni yoppasiga tahlil qilish ham asosan shu nuqtai nazarga tayanishi lozim. Chunki affiksial omonimlarni shakl nuqtayi nazaridan o'rganish ularning kelib chiqishi, aytilishi va yozilishi bilan bog'liq turlari, struktur ko'rinishlari, o'ziga xos xususiyatlarini atroflicha yoritishga imkon yaratsa, ma'no asosida yondashish esa affiksial omonimiya bilan affiksial polisemiya, affiksial ko'p vazifalilik, umuman, grammatik omonimiya kabilarning o'xshash va farqli tomonlarini aniqlash, funktsional-semantik, funktsional-uslubiy turlarini ko'rsatishda muhim rol o'ynaydi.

ortiq oilaviy korxonalar mavjud. Tijorat banklari aholiga bank xizmatlari ko'rsatish bilan birga, ularni tadbirkorlikka jalb qilish, daromadini oshirish, ish bilan ta'minlashda ham samarali ishlar olib borilmoqda. Jumladan loyihalarda yaratilgan ish o'rinlariga qarab beriladigan kreditning yillik stavka foizi pasayib bordi. Bitta ish o'rni yaratgan tadbirkor uchun 9 foiz, ikkita ish joyi yaratganlik uchun 8 foiz beshta va undan ko'p ish o'rni yaratga tadbirkorning kredit stavkasi 6 foiz qilib belgilandi. Bu loyihalardan maqsad xalqimiz farovonligini oshirish va turmush sharoitini yanada yaxshilashdir. Qay tomonga qaramaylik, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning roli va o'rni tobora mustahkamlanib borayotganiga guvoh bo'lamiz. 2016 - yilda mamlakat 916 yalpi ichki mahsulotining 56.9 foizi ishlab chiqarilayotgan sanoat mahsulotlarining 4.5 foizi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik hissasiga to'g'ri keladi. Shu bilan birga, iqtisodiyotda jami ish bilan band bo'lgan aholining 78.1 foizi shu sohada faoliyat yuritmoqda. 2016-yilda 31.8 mingta kichik biznes sub'yektlari tashkil etildi. Bu 2015- yilning shu davridagidan 18.1 foiz ko'p demakdir Jahon bankining 2017-yil 31-oktabrda e'lon qilingan "Biznesni yuritish 2018: ish o'rinlari yaratish uchun islohatlar" ma'ruzasiga ko'ra, O'zbekiston dunyoning 190 davlati ichida 74-o'rinni turadi egallab, o'tgan yildagi mavqeyini biur yo'la 13 pog'ona yaxshiladi. Qolaversa mamlakatimiz biznes yuritish uchun eng qulay sharoitlar yaratish bo'yicha islohotchi davlatlarning birinchi o'ntaligiga kirishga muvaffaq bo'ldi. Amalga oshirilayotgan islohotlar O'zbekistonning ishbilarmonligini yaxshilash va biznes yuritish sharoitlarini soddalashtirish bo'yicha yevropa va Markaziy Osiyo mintaqasi davlatlari orasida yetakchiga aylanishga imkon berdi. Tadbirkorlik subyektlarining davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish tizimining tubdan takomillashtirilgani tufayli O'zbekiston korxonani ro'yxatdan o'tkazish ko'rsatkichi bo'yicha 11-o'rinni band etdi.

2017-yilning 9 oyi davomida o'tgan yilning shu davrdagiga nisbatan 1.3 marta ko'p biznes sub'yektlari tashkil etganining o'ziyoq mamlakatimizda biznes ochishning naqadar oson ekanligidan dalolat beradi. Mamlakatimiz xalqi shundan xursandki, Birinchi prezidentimiz Islom Karimov yurtimiz ravnaqi yo'lida boshlagan samarali ishlari, yuksak azmu shijoat bilan davom ettirilmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning ezgu sa'y harakatlari, Kechani kecha, kunduzni kunduz demasdan mehnat qilib barchaga ibrat bo'layotgani O'zbekistonni istiqbolda nihoyatda farovon kunlar kutayotganidan darak beradi. Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo'nalishlari. Makro iqtisodiy mutanosiblikni saqlash, qabuk qilingan o'rta muddatli dasturlar asosida tarkibiy va institutsional o'zgarishlarini chuqurlashtirish hisobiga yalpi ichki mahsulotning barqaror yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash; Xarajatlarning ijtimoiy yo'naltirilganini saqlab qolgan holda Davlat budjetining barcha darajalarida mutanosiblikni taminlash, mahalliy byudjetlarning daromad qismini mustahkamlashga qaratilgan byudjetlararo munosabatlarni takomillashtirish; Milliy iqtisodiyotning mutanosibliigi va barqarorligini ta'minlash, uning tarkibida sanoat va xizmat ko'rsatish sohasi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ulushini ko'paytirish; Ishlab chiqarish modernizatsiya

qilish, texnik va texnologik jihatdan yangilash, ishlab chiqarish, transport-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilma loihalarini amalga oshirishga qaratilgan faol investisiya siyosatini olib boorish; Ushbu yuqorida aytilganlar orqali iqtisodiyotni bosqichma bosqich yuqori pog'onaga olib chiqish Bugungi kunda yurtimizda 8 mingdan ortiq oilaviy korxonalar mavjud. Tijorat banklari aholiga bank xizmatlari ko'rsatish bilan birga, ularni tadbirkorlikka jalb qilish, daromadini oshirish, ish bilan ta'minlashda ham samarali ishlar olib borilmoqda. Jumladan loyihalarda yaratilgan ish o'rinlariga qarab beriladigan kreditning yillik stavka foizi pasayib bordi. Bitta ish o'rni yaratgan tadbirkor uchun 9 foiz, ikkita ish joyi yaratganlik uchun 8 foiz beshta va undan ko'p ish o'rni yaratga tadbirkorning kredit stavkasi 6 foiz qilib belgilandi. Bu loyihalardan maqsad xalqimiz farovonligini oshirish va turmush sharoitini yanada yaxshilashdir. Qay tomonga qaramaylik, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning roli va o'rni tobora mustahkamlanib borayotganiga guvoh bo'lamiz. 2016 - yilda mamlakat 916 yalpi ichki mahsulotining 56.9 foizi ishlab chiqarilayotgan sanoat mahsulotlarining 4.5 foizi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik hissasiga to'g'ri keladi. Shu bilan birga, iqtisodiyotda jami ish bilan band bo'lgan aholining 78.1 foizi shu sohada faoliyat yuritmoqda. 2016-yilda 31.8 mingta kichik biznes sub'yektlari tashkil etildi. Bu 2015- yilning shu davridagidan 18.1 foiz ko'p demakdir Jahon bankining 2017-yil 31-oktabrda e'lon qilingan "Biznesni yuritish 2018: ish o'rinlari yaratish uchun islohatlar" ma'ruzasiga ko'ra, O'zbekiston dunyoning 190 davlati ichida 74-o'rinni turadi egallab, o'tgan yildagi mavqeyini biur yo'la 13 pog'ona yaxshiladi. Qolaversa mamlakatimiz biznes yuritish uchun eng qulay sharoitlar yaratish bo'yicha islohotchi davlatlarning birinchi o'ntaligiga kirishga muvaffaq bo'ldi. Amalga oshirilayotgan islohotlar O'zbekistonning ishbilarmonligini yaxshilash va biznes yuritish sharoitlarini soddalashtirish bo'yicha yevropa va Markaziy Osiyo mintaqasi davlatlari orasida yetakchiga aylanishga imkon berdi. Tadbirkorlik subyektlarining davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish tizimining tubdan takomillashtirilgani tufayli O'zbekiston korxonani ro'yxatdan o'tkazish ko'rsatkichi bo'yicha 11-o'rinni band etdi.

2017-yilning 9 oyi davomida o'tgan yilning shu davrdagiga nisbatan 1.3 marta ko'p biznes sub'yektlari tashkil etganining o'ziyoq mamlakatimizda biznes ochishning naqadar oson ekanligidan dalolat beradi. Mamlakatimiz xalqi shundan xursandki, Birinchi prezidentimiz Islom Karimov yurtimiz ravnaqi yo'lida boshlagan samarali ishlari, yuksak azmu shijoat bilan davom ettirilmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning ezgu sa'y harakatlari, Kechani kecha, kunduzni kunduz demasdan mehnat qilib barchaga ibrat bo'layotgani O'zbekistonni istiqbolda nihoyatda farovon kunlar kutayotganidan darak beradi. Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo'nalishlari. Makro iqtisodiy mutanosiblikni saqlash, qabuk qilingan o'rta muddatli dasturlar asosida tarkibiy va institutsional o'zgarishlarini chuqurlashtirish hisobiga yalpi ichki mahsulotning barqaror yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash; Xarajatlarning ijtimoiy yo'naltirilganini saqlab qolgan holda Davlat budjetining barcha darajalarida mutanosiblikni taminlash, mahalliy

byudjetlarning daromad qismini mustahkamlashga qaratilgan byudjetlararo munosabatlarni takomillashtirish; Milliy iqtisodiyotning mutanosibligi va barqarorligini ta'minlash, uning tarkibida sanoat va xizmat ko'rsatish sohasi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ulushini ko'paytirish; Ishlab chiqarish modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan yangilash, ishlab chiqarish, transport-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilma loihalarini amalga oshirishga qaratilgan faol investisiya siyosatini olib boorish; Ushbu yuqorida aytilganlar orqali iqtisodiyotni bosqichma bosqich yuqori pog'onaga olib chiqish choralari amalga oshirilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAN:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning videoselektordagi nutqlari.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 4 oktyabrdagi № PQ – 4477 sonli “2019 – 2030 yillarda O'zbekiston Respublikasining “yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi Qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 28.07.2015 yildagi № 207 sonli Qarori.
4. Vaxrushina M. A. Strategicheskiy upravlencheskiy uchet/ M. A. Vaxrushina, M. I. Sidorova. – M.: KnoRus, 2017. -320
5. Xaydarov B., Saitov S., (2022). Raqamli iqtisodiyot tushunchasi va afzalliklari . Zamonaviy innovatsion Tadqiqotlarning Dolzarb muammolari va Rivojlanish Tendensiyalari: Yechimlari va Istiqbollari, 1(1), 634-635. Retrived from <https://inlibrary.uz/index.php/zitdmrt/article/view/5390>
6. Хайдаров, Б. (2021). СОКРАЩЕНИЕ БЕДНОСТИ В РАЗВИТИЕ ЭКОНОМИЧЕСКИХ РЕФОРМ. Экономика и образование, (4), 288–292. извлечено от <https://cedr.tsue.uz/index.php/journal/article/view/174>
7. Xaydarov, B., & Saitov, S. (2022). Raqamli iqtisodiyot tushunchasi va afzalliklari. Zamonaviy Innovatsion Tadqiqotlarning Dolzarb Muammolari Va Rivojlanish Tendensiyalari: Yechimlar Va Istiqbollar, 1(1), 634–635. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/zitdmrt/article/view/5390>
8. Бахром Хайдаров Холмурадович. (2022). БИЗНЕСНИ РЕЖАЛАШТИРИШ ТАРТИБЛАРИ . PEDAGOGS Jurnal, 12(2), 139–142. Retrieved from <http://pedagoglar.uz/index.php/ped/article/view/1513>
1. Nizametdinov A., Ahmedova H. Elektron ta'lim metodologiyasi rivojlantirishning usullari //Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar. – 2022. – T. 1. – №. 1. – С. 29-31.
2. Nizametdinov A. A. OLIY TA'LIM TIZIMINING AGRAR SOHASIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR QO'LLASH USTUVORLIGI. INTERNATIONAL CONFERENCES, 1 (6), 58–60. – 2022.

3. Nizametdinov A. A. OLIY TA'LIM TIZIMIDA AGRAR SOHANING USTUVORLIGI UNDA INNOVATSIYALARNING QULLANISHI. INTERNATIONAL CONFERENCES, 1 (6), 96–98. – 2022.

4. Мухтаров Б. А. Имитационная система прогнозирования факторов в легкой промышленности //Молодой ученый. – 2017. – №. 40. – С. 122-124.

5. Muxtarov B., Murotjonova M. O'zbekiston respublikasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub 'ektlarining rivojlanishi //Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar. – 2022. – T. 1. – №. 1. – С. 581-584.

6. Ogli R. A. R. THE DIFFERENCE BETWEEN THE CONCEPTS OF DATABASE AND DATABASE MANAGEMENT SYSTEM //Archive of Conferences. – 2022. – С. 33-34.

7. Nodira T., Maxfirat T. FORMATION AND DEVELOPMENT OF PRONUNCIATION IN FOREIGN LANGUAGE TEACHING IN SCHOOL STUDENTS //INTERNATIONAL CONFERENCES ON LEARNING AND TEACHING. – 2022. – T. 1. – №. 1.

8. Nodira T., Maxfirat T. MODERN METHODS OF TEACHING FOREIGN LANGUAGE PRONUNCIATION TO PRIMARY SCHOOL PUPILS IS BASED ON THE JAPANESE EXPERIENCE //TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIIY JURNALI. – 2022. – С. 205-208.

9. G'aybullayev S. THE PLACE OF THE DIGITAL ECONOMY TODAY //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – T. 1. – №. 11. – С. 116-126.

10. Хайдаров Б. ИҚТИСОДИЙ ИСЛОҲОТЛАРНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА КАМБАҒАЛЛИКНИ ҚИСҚАРТИРИШ //Экономика и образование. – 2021. – №. 4. – С. 288-292.

11. Xaydarov B., Saitov S. Raqamli iqtisodiyot tushunchasi va afzalliklari //Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar. – 2022. – T. 1. – №. 1. – С. 634-635.

12. Xaydarov B. X., Saitov S. A. RAQAMLI IQTISODIYOT TUSHUNCHASI, AFZALLIKLARI AMALIY AHAMIYATI VA HORIIY TAJRIBA //Academic research in educational sciences. – 2022. – T. 3. – №. 5. – С. 151-156.

13. Баҳром Х. Х. БИЗНЕСНИ РЕЖАЛАШТИРИШ ТАРТИБЛАРИ //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – T. 12. – №. 2. – С. 139-142.

14. Xaydarov B. IMPACT OF INTELLECTUAL PROPERTY PROTECTION ON THE DIGITAL ECONOMY //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – T. 1. – №. 11. – С. 163-174.

15. Xaydarov Baxrom Xolmuradovich, Xudayarov Rashid Tuychiyevich. (2022). RAQAMLI IQTISODIYOT BIZNESNI REJALASHTIRISH. International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research, 1(2), 110–113. Retrieved from <http://journal.jbnuu.uz/index.php/ijcstr/article/view/130>

16. Xaydarov Baxrom Xolmuradovich, & Saitov Sirojiddin Abduvalievich. (2022). RAQAMLI IQTISODIYOTDA KICHIK BIZNESNING O'RNII. International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research, 1(2), 113–116. Retrieved from <http://journal.jbnuu.uz/index.php/ijcstr/article/view/131>

17. Xaydarov Baxrom Xolmuradovich. (2022). RAQAMLI IQTISODIYOTDA BUXGALTERIYA VA AUDITNI O'RNII. International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research, 1(2), 128–131. Retrieved from <http://journal.jbnuu.uz/index.php/ijcstr/article/view/135>

18. Tuychieva Nodira, Baxrom Xaydarov, & Quziboyev Zafar. (2022). THE ROLE AND SIGNIFICANCE OF COMPETITION AND MONOPOLY IN THE ECONOMY. Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences, 1(11), 241–245. Retrieved from <http://ijournal.uz/index.php/jartes/article/view/324>

19. Baxrom Xaydarov. (2022). IMPACT OF INTELLECTUAL PROPERTY PROTECTION ON THE DIGITAL ECONOMY. Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences, 1(11), 163–174. Retrieved from <http://ijournal.uz/index.php/jartes/article/view/317>.

20. Xolmuradovich X. B., Sherzod ogli A. Z., Rasulbek ogli K. J. BIZNES VA TADBIRKORLIK FAOLIYATINING TURLARI VA SHAKLLARINING AHAMIYATI //MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH. – 2022. – T. 2. – №. 18. – C. 140-145.

21. Xolmuradovich X. B. et al. " YASHIL IQTISODIYOT" NI MODERNIZATSIYA QILISH VA ISHLAB CHIQRISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING O 'ZARO MUTANOSIBLIGI MASALALARI //PEDAGOG. – 2022. – T. 1. – №. 4. – C. 81-85.

22. Xolmuradovich X. B. et al. 2022-2026-YILLARDA MO'LJALLANGAN YANGI O'ZBEKISTON TARAQQIYOT STRATEGIYASINING MILLIY IQTISODIYOTNI ISLOH QILISHIDAGI O'RNII //PEDAGOG. – 2022. – T. 1. – №. 4. – C. 78-80.

23. Tuychieva N., Xaydarov B., Rashidova G. MONEY-CREDIT SYSTEM IN UZBEKISTAN //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – T. 1. – №. 11. – C. 246-250.

24. Saitov Sirojiddin, Tuychieva Nodira, & Saydullayeva Dinora. (2022). CHARACTERISTICS OF PRICE AND FORMATION. Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences, 1(11), 265–270. Retrieved from <http://ijournal.uz/index.php/jartes/article/view/329>

25. Saitov Sirojiddin, & Achilov Azizbek. (2022). TRANSITION TO THE MARKET ECONOMY AND ITS CHARACTERISTICS IN UZBEKISTAN. Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences, 1(11), 255–258. Retrieved from <http://www.ijournal.uz/index.php/jartes/article/view/327>

MAKTABLARDA MATEMATIKA FANINI O'QITISHNING DOLZARB MASALALARI

Xoliqova Nodira Rustamovna

Navoiy viloyati Navoiy shahar

2- umumiy o'rta ta'lim maktabi

Matematika fani o'qituvchisi

To'xtayeva Feruza Husniddinovna

Navoiy viloyati Navoiy shahar

2- umumiy o'rta ta'lim maktabi

Matematika fani o'qituvchisi

To'xtayev Quvonch Hamroqulovich

Navoiy viloyati Navoiy shahar

12- sonli matematika fanini chuqurlashtirib o'qitishga iqtisoslashtirilgan umumta'lim maktabi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarida matematika fanini o'qitishning maqsad va vazifalari, zamonaviy metodlari hamda bu borada ayni damda mavjud muammo va kamchiliklar xususida so'z yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *Inson tafakkuri, matematik bilim, ko'rgazmali qurollar, jadvallar, kompetentsiyalar, mantiqiy fikrlash.*

Ma'lumki, matematika fani - abstrakt fan. Uning mazmuni boshidan oxirigacha inson tasavvurining va mantiqiy tafakkurining mahsulidan iborat. Fanning bunday abstrakt tuzilishi, o'zini-o'zi boyitib borishi, ya'ni yangidan-yangi matematik tushunchalar va ularning xossalari ma'lum xossalardan hosil qila olish imkoniyati qadimdan insonning aqliy qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qilib kelgan. Hatto matematik masalalarni yechish musobaqalari o'tmishda inson aqlini peshlash vositasi bo'lgan. Shundan kelib chiqadigan bo'lsak, matematika fanining eng asosiy vazifasi aynan o'quvchilarni o'ylashga, to'g'ri, mantiqiy fikrlashga va mushohada yuritishga o'rgatishdan iborat ekanligi oydinlashadi. Hech qaysi fan matematika fanichalik o'quvchilarni o'ylashga va fikrlashga majbur qila olmaydi. Matematika darslarida turli tuman masala, muammo va jumboqlarni yechish orqali o'quvchilar to'g'ri fikr yuritish, mantiqiy fikrlashni o'rganadilar.

Maktabda matematika o'qitishning asosiy vazifasi o'quvchi yoshiga mos kundalik turmushda va mehnat faoliyatida qo'llaniladigan, kelajakda ta'lim olishni davom ettirishda zarur bo'lgan matematik bilimlar va ko'nikmalarini ongli ravishda mustahkam egallashni ta'minlashdan iborat. Matematika o'qitish metodikasi fani bevosita falsafa, psixologiya, pedagogika, didaktika, matematika fanlari, chizmachilik, mantiq, tarix va boshqa fanlarga asoslanadi.

Matematika fani nazariyasi va uni o'qitish bilan bog'liq muammolarni tadqiqot qilishda matematika fani va uning o'qitishning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Zamonaviy ta'limda ta'lim oluvchi uchun dars jarayonidan tashqari vaqtlarda ham o'z ustida ishlashlari, bilimlarini kengaytirish va chuqurlashtirish uchun imkoniyat yaratiladi. Matematika boshqa fanlar (fizika, ximiya, tarix va hokazo) kabi haqiqiy borliqni o'rganadi. Haqiqiy borliqning tuzilishi va undagi qonun qoidalarini tadqiqot qiladi. Haqiqiy borliq haqida turli modellar yasaydi. Agar, tabiiy fanlar o'z tadqiqotlarida tajribalarga asoslanishsa, matematika tajribalarga asoslanmaydi.

Matematikadagi nazariyani amaliyot bilan bog'lash bilan bog'liq muammolarni tushunish va tasavvur qilishda tajribaga murojaat qilish mumkin. Biroq tajriba metodi matematikada isbot uchun qabul qilinmaydi. Tabiiy ilmiy fanlar haqiqiy borliqning noma'lum bo'lgan xossalarni topish uchun tadqiqot o'tkazsa, matematika moddiy dunyoning qaralayotgan modellarida yangi xossalarni topadi va yangi modellar yaratadi. Bunga borliqdagi hodisalarni yaxlit talqin qilishga imkon beruvchi matematik modellashtirishlar misol bo'ladi. Matematika bu aniq fanlar guruhiga mansub bo'lib, uni o'rganish va tadqiqot qilishning boshqa fanlardan farq qiluvchi o'ziga xos xususiyatlari mavjud.

Jumladan: 1) matematika predmetlarining abstraktlangan xossalarni o'rganadi. Matematik ob'ektlar mazmundan ajratilgan holda o'rganiladi, ya'ni ob'ektning ta'mi, hidi, qattiq yoki yumshoq kabi xususiyatlar inobatga olinmaydi. Chunki, matematik ob'ektdagi bu xususiyatlar umumlashiriladi, abstraktlanadi va uning yordamida matematik nazariya yaratiladi. Aks holda nazariyani yaratib bo'lmaydi. 2) matematik xulosalar (natijalar) asosan mantiqiy xulosa chiqarish bilan olinadi. Tajriba metodi bilan olingan natija matematika uchun to'g'ri hisoblanmaydi.

3) matematik xulosalar rad qilinmas xulosalardir.

4) matematikadagi paydo bo'lgan abstraktsiyalar pag'onasimon rivojlanadi, ya'ni abstraktsiyadan abstraktsiyaga o'tiladi.

5) matematik natijalar universal xarakterda bo'lib, bu boshqa sohalarga ham tadbiq etiladi.

O'rta maktablarda matematika o'qitishning maqsadi quyidagi 3 omil bilan belgilanadi:

1. Matematika o'qitishning umumta'limiy maqsadi.
2. Matematika o'qitishning tarbiyaviy maqsadi.
3. Matematika o'qitishning amaliy maqsadi.

Matematika o'qitishning umumta'limiy maqsadi o'z oldiga quyidagi vazifalarni qo'yadi:

a) o'quvchilarga ma'lum bir dastur asosida matematik bilimlar berish. Bu bilimlar tizimi matematika fani to'g'risida yetarli darajada ma'lumot berish, ulami matematika faning yuqori bo'limlarini o'rganishga tayyorlashi kerak. Bundan tashqari dastur asosida o'quvchilar o'qish jarayonida olgan bilimlarini ishonchli

ekanligini tekshira olishni o'rganishlari, ya'ni isbotlash va nazorat qilishning asosiy metodlarini egallashlari kerak.

b) o'quvchilarning og'zaki va yozma matematik bilimlarini tarkib toptirish.

Matematikani o'rganish o'quvchilarning o'z ona tillarida xatosiz so'zlash, o'z fikrini aniq, ravshan va lo'nda qilib bayon eta bilish malakalarini o'zlashtirishlariga yordam berishi kerak. Bu degani o'quvchilarning har bir matematik qoidani o'z ona tillarida to'g'ri gapira olishlariga erishish hamda ularni ana shu qoidaning matematik ifodasini formulalar yordamida to'g'ri yoza olish qobiliyatlarini atroflicha shakllantirish demakdir;

v) o'quvchilarni matematik qonuniyatlar asosida real haqiqatlarni bilishga o'rgatish.

Bu yerda o'quvchilarga real olamda yuz beradigan eng sodda hodisalardan tortib to murakkab hodisalargacha hammasining fazoviy formalalari va ular orasidagi miqdoriy munosabatlarni tushunishga imkon beradigan hajmda bilimlar berish ko'zda tutiladi.

Bunday bilimlar berish orqali esa o'quvchilarning fazoviy tasavvur qilishlari shakllanadi hamda mantiqiy tafakkur qilishlari yanada rivojlanadi.

Matematika o'qitishning tarbiyaviy maqsadi o'z oldiga quyidagilarni qo'yadi:

- O'quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish. Bu g'oya bilish nazariyasi asosida amalga oshiriladi.

- O'quvchilarda matematikani o'rganishga bo'lgan qiziqishlarni tarbiyalash.

Bizga ma'lumki, matematika darslarida o'quvchilar o'qishning dastlabki kunlaridanoq mustaqil ravishda xulosa chiqarishga o'rganadilar. Ular avvalo kuzatishlar natijasida, so'ngra esa mantiqiy tafakkur qilish natijasida xulosa chiqaradilar. Ana shu chiqarilgan xulosalar matematik qonuniyatlar bilan tasdiqlanadi.

Matematika o'qituvchisining vazifasi o'quvchilarda mustaqil mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish bilan birga ularda matematikaning qonuniyatlarini o'rganishgabo'lgan qiziqishlarini tarbiyalashdan iboratdir.

Matematika darslarida o'rganiladigan har bir matematik xulosa qat'iylikni talab qiladi, bu esa o'z navbatida juda ko'p matematik tushuncha va qonuniyatlar bilan ifodalanadi. O'quvchilar ana shu qonuniyatlarni bosqichma-bosqich o'rganishlari davomida ularning mantiqiy tafakkur qilishlari rivojlanadi, matematik xulosa chiqarish madaniyatlari shakllanadi. O'quvchilarni biror matematik qonuniyatni ifoda qilmoqchi bo'lgan fikrlarni simvollar tilda to'g'ri ifodalay olishlari va aksincha simvollar tilda ifoda qilingan matematik qonuniyatni o'z ona tillarida ifoda qila olishlariga o'rgatish orqali ularda matematik madaniyat shakllantiriladi.

Ta'kidlash joizki, biror tabiiy hodisa va jarayonlarni matematika yordamida o'rganish uchun bu jarayonni soddalashtirib o'rganish zarur. Undagi ko'pxillik xossalardan biz uchun zarur bo'ladiganini ajratib olish va bunda ba'zi xususiyatlarni e'tiborsiz qoldirishga to'g'ri keladi. Biz uchun eng muhimi mavjud hodisa va jarayonni matematika tilida ifodalash uchun zarur bo'ladiganlarigina qoldiriladi.

Hodisa va jarayonlarni bunday usulda matematika tilida ifodalashni matematik model deb atashadi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, o'rta umumiy ta'lim tizimida matematika fanini o'qitishning eng asosiy vazifasi o'quvchilarda mantiqiy fikrlash, to'g'ri mushohada yuritish layoqatlarini(kompetentsiyalarini) tarkib toptirishdan iborat bo'lmog'i lozim.

ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. Yunusova D.I. Matematikani o'qitishning zamonaviy texnologiyalari, (darslik) T.: 2007

2. Mirzaahmedov M., Rahimqoriyev A., Ismoilov Sh. Matematika, Umumiy o'rta ta'lim maktablari 6-sinfi uchun darslik. –T.: “O'qituvchi”, 2017.

3. Azamov A. Xaydarov B., Kuchkarov A., Sariqov Ye., Sag'diyev U. Geometriya. Umumiy o'rta ta'lim maktablari 7- sinfi uchun darslik. –T.: “Yangiyo'lpoligrafservis”, 2017.

4. Мирзаев Ч., Содиков У., Бахромов Ж. Математика ўқитишнинг замонавий муаммолари. “Психик тараққиёт ва таълим муаммолари” ЎзМУ Педагогика ва умумий психология кафедраси илмий мақолалар даврий тўплами. 2013 йил.

TIBBIYODDA MUSTAQIL TA'LIMNING AHAMIYATI

Xabilov N. L

Safarov M. T

Rashidov R

Kim V

Sharipov S.S

ORCID 0000-0001-9960-9796.

Toshkent davlat stomatologiya instituti

Annotatsiya: *Mamlakatimiz ta'lim tizimida sezilarli o'zgarishlar ro'y berayotganligi kun sayin yaqqol ko'rinib bormoqda. Turli ta'lim shakllari qatori ayniqsa, mustaqil ta'lim keng qo'llanilayotgatliligi ham quvonchli hol. Maqolada tibbiyot ta'limi jarayonida mustaqil ta'limning natijalari haqida fikr yuritiladi. Foydalanilgan adabiyotlar ro'xatida maqola mualliflaridan birini shu kungacha nashir etilgan maqolalar (<https://scholar.google.com>da ko'rish mumkin) ro'yxati berildi.*

Kalit so'zlar: *oliy ta'lim, o'quv mashg'uloti, ta'lim sifati, mustaqil ta'lim*

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan demokratik va bozor iqtisodiyoti tub o'zgartirish jarayonlariga bog'langan va u xalqaro ta'lim makoniga birlashishga intilmoqda, dunyo oliy ta'limining umume'tirof etilgan tendensiyalari ta'sirini his etmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-iyundagi "Oliy ta'lim muassalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori oliy ta'lim muassasalarida uzoq yillar mobaynida to'planib kelgan muammolarni bartaraf qilishga qaratilganligi bilan alohida ahamiyat kasb etdi. Mazkur qarorda oliy ta'limda o'quv mashg'ulotlari talabalarni innovatsion fikrlashga yo'naltiradigan o'qitish texnologiyalari va interfaol uslublarni joriy etish asosida tashkil etish, asosiy e'tiborni talabalarning mustaqil ta'lim olishi bilan bog'liq mexanizmlarni amalga oshirishga ustuvorlik berish masalalari nazarda tutilgan.

Shuningdek, 2019-2020 o'quv yilidan boshlab "talabani o'zlashtirish darajasi – professor-o'qituvchilar faoliyatini baholashning asosiy mezonini" tamoyilining joriy etilishi tizimda o'quv jarayonini rejalashtirish, o'quvchilarga yetkazish va natijasini aniqlashda faolligini ta'minlash, o'quvchi bilan hamkorlikda ishlash, bilimlarning o'zlashtirilishiga to'liq erishish talabi ilgari surilmoqda.

Mamlakatimizda raqobatbardoshlikni rivojlantirishni oliy ta'lim sohasidagi raqobatbardoshlikni rivojlantirishdan boshlash lozim bo'ladiki, zahiralardan foydalanish, innovatsion va sanoat siyosati, suverenitetni ta'minlash kabi bir qator sohalarda qarorlarni ziyolilar qabul qiladilar. Ta'lim sifati – samaradorlik – hayot sifati kabi ijtimoiy algoritm zanjiriga zamon ziyolilari tomonidan maqsadli loyihalansa, buyuk kelajak qurishga mustahkam poydevor qo'yiladi.

Ko'pchilik pedagoglar talabaniing savodxonligini baholash orqali ta'lim sifati va samaradorligini aniqlashning yagona mexanizmi deb biladi. Ammo baho bilimni belgilovchi aniq mezon emas. U talabalarni faollikka undovchi, rag'batlantiruvchi vosita, xolos. Shu o'rinda amerikalik psixolog Dj.Brunerning o'quvchilarning ta'lim jarayonida rivojlanishi to'g'risida to'xtalib, "Biz fanlarni dunyoga kichik jonli kutubxonalarni keltirish uchun emas, balki o'quvchining o'zini matematik fikrlash, muammolarni tarixchi misolida o'rganish, bilim olishda ishtirok etishga o'rgatish uchun o'qitamiz. Bilish – bu jarayon, mahsul emas", deb yozganini eslash kifoya. Ta'lim taraqqiyotini belgilovchi muhim mezon sifatida talabalarning o'quv yutug'i nafaqat uning egallagan shaxsiy va ijtimoiy kompetentligi, balki raqobatbardosh "kelajak" ko'nikmalarini o'zlashtirishi bilan belgilanmog'i zarur. Bu masalani ijobiy hal qilish ilg'or tajribalarni izlash, ularning didaktik imkoniyatlarini sinab ko'rgan holda amaliyotga tatbiq etishga bo'lgan hayotiy ehtiyoj ustuvordir.

Mustaqil tibbiy ta'lim odatda mustaqil kasalxonalar, akademik markaz, jamiyat / uyushma yoki tibbiy ta'lim va aloqa kompaniyasi kabi mustaqil ta'lim provayderi tomonidan taqdim etiladigan sog'liqni saqlash sohasi mutaxassislari uchun ta'lim sifatida tavsiflanadi.

An'anaviy ta'limda talabalarni tayyor bilimlarni mustaqil fikrlash, ijodiy izlanish, tashabbuskorlikni rivojlanishiga olib kelmaydi. Bugungi kunda ta'lim jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanib ta'lim samaradorligini oshirishga qaratilgan ijobiy fikrlar, usullar barchani qiziqtirib bormoqda. Axborot texnologiyalaridan foydalanilgan mashg'ulotlar talabalar egallayotgan bilimlarni o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga qaratilgan.

Mustaqil ta'lim talabalar o'rtasida ijobiy ma'nodagi raqobatni keltirib chiqaradi. Bir-biridan ibrat olgan holda o'zlarining aqlini, kuchini, vaqtini foydali faoliyat bilan shug'ullanishga yo'naltiradilar. Turli xil tanlovlarga tayyorgarlik ko'rish, fan olimpiadalarida ishtirok etish va g'olib bo'lishga intilish, ilmiy-ijodiy ko'rgazmalarda qatnashish orqali ularing iste'dodining noma'lum qirralari ochiladi. Mustaqil ta'lim yoshlarning shaxs sifatida kamol topishlariga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Unda xarakter xususiyatlarining barqarorlashuvi, ayniqsa, irodaviy sifatlarning mustahkamlanishi, o'z-o'zini boshqarish kabi fazilatlar takomillashadi. Atrof-muhitdagi narsa-hodisalarga befarq bo'lmaslik, ularni to'g'ri baholay olish, o'zlarining mustaqil fikrlarini bildirish va dalillashga odatlanadilar. Alohida ijodiy muhit yaratash natijasida pedagogik muammo bo'yicha ma'lumot va tajriba almashish sodir bo'libgina qolmay, alohida birga ijod qilish muhitini yaratish hisobiga, yangi fikrlarga, beg'arazlikka erishiladi, bu keyinchalik innovatsion kompetentlikning shakllanishiga asos bo'lib xizmat qiladi.

Ta'lim sohasida bo'layotgan har bir o'zgarish jamiyatimiz ravnaqiga ijobiy ta'sir qilishiga shubha yo'q. Mamlakatning intellektual salohiyatini oshirish, davlat ta'lim standarti talablariga javob bera oladigan, yetuk, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda muhim omil hisoblanadi. Qaysi sohada bo'lmasin bilimlarni mustaqil

ravishda egallashga intilish – talaba faoliyatining ta’lim muassasasidagi eng ajralib turadigan xususiyati, mustaqil o’qib, bilim orttirish asosi hisoblanadi.

Ta’lim tizimida mustaqil bilim olish, nazorat qilish mustaqil ta’lim olishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Mustaqil bilim olishda avvalo, talabalarda mustaqil ishlashga, erkin, ijodiy faoliyat yuritishga va eng asosiysi mustaqil fikrlashga ehtiyojni shakllantirish lozim. Tibbiyot sohasida mustaqil ta’limning joriy etilishi talablarda o’zlashtirgan bilimlarini tajribada sinash, dunyo bo’yicha ushbu sohada qilinayotgan yangiliklarni o’rganish va amaliyotga tadbiiq etish ko’nikmalarini shakllantiradi. Jahon tajribasi shuni ko’rsatadiki rivojlangan mamlakatlarda tibbiyot maskanlari talabalarga o’z tashkilotlarida faoliyat yuritish orqali tajribalarini oshirishni va mustaqil izlanishlar olib borishni taklif etadilar. Mazkur yo’l orqali malakali kadr yetishtirishga asos solinadi.

Bundan tashqari, mustaqil ta’lim jarayonida talabalar mahalliy va xalqaro miqyosdagi turli konferensiyalar, anjumanlar va ilmiy maqolalar yozish jarayonida bevosita qatnashishlari va bu orqali turli adabiyotlardan, fanga oid yangi izlanishlar, tadqiqotlardan foydalangan holda o’z bilimlarini oshirishlari mumkin.

Umuman olganda shuni xulasa qilish mumkinki oshlarni ilim olishida bugungi kunda o’zlaridan boshqa to’siq yo’q, chunki sho’r er bilan hosildor yerga yog’ir bir xilda yog’adi, Shu sababli inson o’zini-o’zi to’g’rilashi orqali unga singadigan bilimga yo’l ochib beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. B. Umarov, N. Hamidova, Talabalarning fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda mustaqil ta’limning o’rni, O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA’LIMI VAZIRLIGINING ILMIY-METODIK JURNALI, ISSN 2181-7839.

2. Gaffarov S., Sharipov S. ANALYSIS OF MACRO AND MICROELEMENTS IN TEETH, SALIVA, AND BLOOD OF WORKERS IN FERGANA CHEMICAL PLANT OF FURAN COMPOUNDS //European Medical, Health and Pharmaceutical Journal. – 2014. – T. 7. – №. 2.

3. МУН Т. О. и др. ЯНГИ МИЛЛИЙ ТИШ ИМПЛАНТАТИ КОНСТРУКЦИЯСИНИ ЯРАТИШ ВА ҚЎЛЛАНИЛИШИНИ //Journal of new century innovations. – 2022. – Т. 16. – №. 4. – С. 57-62.

4. Махсумова С. С. и др. ИММУНОЛОГИЧЕСКОГО СТАТУСА ПОЛОСТИ РТА У ДЕТЕЙ БОЛЬНЫХ ОСТРЫМ ГЕРПЕТИЧЕСКИМ СТОМАТИТОМ //Journal of new century innovations. – 2022. – Т. 16. – №. 4. – С. 53-56.

5. Learnings and challenges to deploy an interprofessional and independent medical education programme to a new audience Mieke L. Van Driel, Treasure M. McGuire, Richard Stark, Patrice, Lazure, Tina Garcia, Lisa Sullivan, 27 Oct 2017.

6. Lukmanovich X. N. et al. COVID-19 BILAN O’G’RIGAN TISHSIZ BEMORLAR OG’IZ SHILLIQ QAVATI TIZIMIDAGI BUZILISHLAR //Journal of new century innovations. – 2022. – Т. 14. – №. 4. – С. 152-154.

7. Lukmanovich K. N., Salomovich S. S. METHODS OF SAFETY OF DENTAL PROSTHETIC PRACTICE DURING THE COVID-19 PANDEMUM //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2022. – Т. 3. – №. 11. – С. 819-828.

8. Reeves S, Perrier L, Goldman J, et al. Interprofessional education: effects on professional practice and healthcare outcomes (update). Cochrane Database Syst Rev. 2013;(3):CD002213.

9. Rafiqov K. M. et al. YUQORI JAG'BO'SHLIG'IDA BMP-2 YUKLANGAN KOLLAGENLANIB BO'LGAN IKKI FAZALI KALTSIY FOSFAT TOMONIDAN SUYAK REGENERATSIYASINI TAKOMILLASHISHI //MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH. – 2022. – Т. 2. – №. 18. – С. 303-317.

10. Salomovich, Sharipov Salim. "PERIODONTAL TO'QIMA KASALLIKLARIGA CHEKUVCHILARNING TAMAKINI QIZDIRISH VOSITALARIDAN FOYDALANGAN HOLATIDAGI O'ZGARISHLARI." Journal of new century innovations 16.3 (2022): 150-155.

11. Salomovich S. S., Miraziz o'g'li A. M., Yoqubjonovich A. T. TO'LIQ TISH SIZ BO'LGAN BEMORLARNI OLINADIGAN PLASTINKA PROTEZLAR BILAN DAVOLASHNING MOHIYATI //Scientific Impulse. – 2022. – Т. 1. – №. 4. – С. 881-884.

12. Salomovich S. S. et al. COVID-19 BILAN O'G'RIGAN BEMORLAR OG'IZ BO'SHLIG'I SHILLIQ QAVATIDAGI O'ZGARIZSHLAR //Scientific Impulse. – 2022. – Т. 1. – №. 4. – С. 890-894.

13. Tashpulatova K. et al. Technique for eliminating traumatic occlusion in patients using Implant-supported bridges //European Journal of Molecular & Clinical Medicine. – 2020. – Т. 7. – №. 2. – С. 6189-6193.

14. Van Hoof TJ, Grant RE, Sajdlowska J, et al. Society for academic continuing medical education intervention guideline series: guideline 3, educational meetings. J Contin Educ Health Prof. 2015 Fall;35(Suppl 2):1–12.

15. Иноятлов А. Ш. и др. Тиш қатори ва окклюзион тексликдаги ўзгаришлар ҳамда уларнинг чакка-пастки жағ бўғимига таъсири //Интегративная стоматология и челюстно-лицевая хирургия. – 2022. – Т. 1. – №. 2. – С. 40-47.

16. Иноятлов А. Ш. и др. Особенности клинических проявлений COVID-19 в ротовой полости //Интегративная стоматология и челюстно-лицевая хирургия. – 2022. – Т. 1. – №. 2. – С. 37-39.

17. Сафаров М. и др. Влияние несъемных зубных протезов различной конструкции на микробиологические и иммунологические показатели полости рта //Stomatologiya. – 2014. – Т. 1. – №. 1 (55). – С. 18-23.

18. Сафаров М., Мусаева К., Шарипов С. Олинмайдиган кўприксимон тиш протезларининг оғиз бўшлиғи микробиологик ҳолатига таъсири //Stomatologiya. – 2017. – Т. 1. – №. 2 (67). – С. 51-54.

19. Саломович Ш. С. THE INFLUENCE OF REMOVABLE DENTURES ON THE ORAL CAVITY MICROFLORA // Ёш олимлар кунлари тиббиётнинг долзарб масалалари: III. – 2014. – Т. 1. – С. 102.

20. Хабилов Н. Л. и др. ЧАККА-ПАСТКИ ЖАҒ БЎҒИМИ КАСАЛЛИКЛАРИНИ ДАВОЛАШ УСУЛЛАРИ ҲАҚИДА АДАБИЁТЛАР ШАРҲИ ТОШКЕНТ ДАВЛАТ СТОМАТОЛОГИЯ ИНСТИТУТИ // Journal of new century innovations. – 2022. – Т. 15. – №. 2. – С. 79-85.

21. Хабилов Н. Л. и др. ТИШСИЗ ПАСТКИ ЖАҒ СУЯК ТЎҚИМАСИ ТУЗИЛМАЛАРИНИНГ СУЯК ИЧИ ТИШ ИМПЛАНТЛАРИГА АСОСЛАНГАН ОЛИНАДИГАН ПРОТЕЗЛАР БИЛАН ЎЗАРО ТАЪСИРИ // Journal of new century innovations. – 2022. – Т. 15. – №. 2. – С. 98-101.

22. Хабилов Н. Л. и др. ЖАҒ ПРОТЕЗЛАРИ ВА ОБТУРАТОРЛАРНИНГ ГИГИЕНИК ҲОЛАТИНИ БАҲОЛАШНИНГ УСУЛЛАРИГА АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ // Journal of new century innovations. – 2022. – Т. 15. – №. 2. – С. 89-91.

23. Хабилов Н. Л. и др. ЎСМИРЛАР ТИШ ҚАТОРЛАРИ ВА ОККЛЮЗИОН САТҲДАГИ ЎЗГАРИШЛАРНИ ЧАККА ПАСТКИ ЖАҒ БЎҒИМИ РИВОЖЛАНИШИ // Journal of new century innovations. – 2022. – Т. 14. – №. 4. – С. 150-151.

24. ХАБИЛОВ Н. Л. и др. ОҒИЗ БЎШЛИҒИ ШИЛЛИҚ ҚАВАТИ ПАТОЛОГИЯСИНИ МАҲАЛЛИЙ ДАВОЛАШ УЧУН АДАБИЁТЛАР ШАРҲИ // Journal of new century innovations. – 2022. – Т. 16. – №. 4. – С. 63-67.

25. ХАБИЛОВ Н. Л., ШАРИПОВ С. С., АБДУРАХИМОВ З. А. ТЎЛИҚ ОЛИНАДИГАН ПЛАСТИНКА ПРОТЕЗЛАРИНИ МАҲКАМЛАШНИНГ ТУРЛИ УСУЛЛАРИДАН ФОЙДАЛАНГАН ҲОЛДА ТИШЛАРИ ТЎЛИҚ БЎЛМАГАН БЕМОРЛАРНИНГ ҲАЁТ СИФАТИ ҲАҚДА АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ // Journal of new century innovations. – 2022. – Т. 16. – №. 4. – С. 68-74.

26. Xabilov N., Sharipov S. COVID-19 TUFAYLI TISHSIZ BEMORLARDA OG'IZ BO'SHLIG'I SHILLIQ QAVATIDAGI O'ZGARIZSHLAR // СБОРНИК ТЕЗИСОВ Международной научно-практической конференции «Актуальные проблемы ортопедической стоматологии и ортодонтии. – 2022. – Т. 10. – С. 139-140.

27. Xabilov N., Sharipov S. ЎСМИРЛАР ТИШ ҚАТОРЛАРИ ВА ОККЛЮЗИОН САТҲДАГИ ЎЗГАРИШЛАРНИ ЧАККА ПАСТКИ ЖАҒ БЎҒИМИ РИВОЖЛАНИШИГА ТАЪСИРИ // СБОРНИК ТЕЗИСОВ Международной научно-практической конференции «Актуальные проблемы ортопедической стоматологии и ортодонтии. – 2022. – Т. 5. – С. 139-140.

28. Хабилов Н. Л., Шарипов С. С. ТА 'LIM INSONNI KOMILLIKKA YETAKLAYDI // ТАЛИМ ФИДОИЙЛАРИ.–2021/4–Т. – Т. 1. – С. 398-401.

29. Хабилов Н., Шарипов С. ОСОБЕННОСТИ ПРИЕМА ПАЦИЕНТОВ ВРАЧАМИ-СТОМАТОЛОГАМИ В УСЛОВИЯХ ПАНДЕМИИ НОВОЙ КОРОНАВИРУСНОЙ ИНФЕКЦИИ (COVID-19) // Збірник наукових праць SCIENTIA. – 2021.

30. Xabilov N., Sharipov S. TO'LIQ ADENTIYASI BO'LGAN BEMORLARNI OLINADIGAN PLASTINKA PROTEZLAR BILAN DAVOLASHNING ASOSIY JIHATLARI //СБОРНИК ТЕЗИСОВ Международной научно-практической конференции «Актуальные проблемы ортопедической стоматологии и ортодонтии. – 2022. – Т. 10. – С. 176-178.

31. Шарипов С. С. и др. ТИШ ҚАТОРИДАГИ АНОМАЛИЯ ВА ДЕФОРМАЦИЯНИ ОЛДИНИ ОЛИШНИНГ ЗАМОНАВИЙ УСУЛЛАРИНИ АМАЛИЁТГА ТАДБИҚ ҚИЛИШ //Journal of new century innovations. – 2022. – Т. 15. – №. 2. – С. 86-88.

32. Шарипов С. С. и др. ЧАККА-ПАСТКИ ЖАҒ БЎҒИМИ ДИСФУНКЦИЯСИ ВА ТИШЛОВ АНАМАЛИЯЛАРИГА АДАБИЁТЛАР ШАРҲИ //Journal of new century innovations. – 2022. – Т. 15. – №. 2. – С. 92-94.

33. Шарипов С. С., Ўткирбек А., Абдусатторович А. З. ЎСМИРЛАР ОККЛЮЗИОН САТҲДАГИ ЎЗГАРИШЛАРНИ ЧАККА ПАСТКИ ЖАҒ БЎҒИМИ РИВОЖЛАНИШ ТАЪСИРИГА АДАБИЁТЛАР ШАРҲИ //Journal of new century innovations. – 2022. – Т. 14. – №. 4. – С. 142-149.

34. Шарипов С. С. и др. ЧАККА ПАСТКИ ЖАҒ БЎҒИМИ КАСАЛЛИКЛАРИНИ ОЛДИНИ ОЛИШ //Journal of new century innovations. – 2022. – Т. 16. – №. 2. – С. 79-82.

35. Шарипов С. С. и др. ЧАККА-ПАСТКИ ЖАҒ БЎҒИМИ ДИСФУНКЦИЯСИНИ БАРТАРАФ ЭТИШ УСУЛЛАРИ //Journal of new century innovations. – 2022. – Т. 16. – №. 2. – С. 70-73.

36. Шарипов С. С. и др. СТОМАТОЛОГИК ДАВОЛАНИШГА МУХТОЖ БОЛГАН КАТТА ЁШДАГИ БЕМОРЛАРНИНГ ОҒИЗ БЎШЛИҒИ КАСАЛЛИКЛАРИГА МУНОСАБАТИНИ ПСИХОЛОГИК БАҲОЛАШ //Journal of new century innovations. – 2022. – Т. 16. – №. 2. – С. 66-69.

37. Шарипов С. С. и др. ЧАККА ПАСТКИ ЖАҒ БЎҒИМИ КАСАЛЛИКЛАРДА ИННОВАЦИОН УСУЛЛАРНИНГ ТАЪСИРИ //Journal of new century innovations. – 2022. – Т. 16. – №. 2. – С. 74-78.

38. Шарипов С. С., Хабилов Н. Л. COVID-19 ПАНДЕМИЯСИ ДАВРИДА ТИШ ПРОТЕЗЛАШ АМАЛИЁТИНИ ХАФСИЗ САҚЛАШНИНГ УСУЛЛАРИ //EURASIAN JOURNAL OF ACADEMIC RESEARCH. – 2021. – Т. 1. – №. 2. – С. 845-854.

39. Шарипов С. Хабилов Нигман. COVID-19 ПАНДЕМИЯСИ ДАВРИДА ТИШ ПРОТЕЗЛАШ ЖАРАЁНИДА БЕМОРЛАРДАН АЖРАЛГАН СЎЛАКНИНГ АҲАМИЯТИ //Вестник ТМА. – 2021. – Т. 2021. – С. 137-138.

40. Шарипов С. С. и др. ТУРЛИ МАТЕРИАЛЛАРДАН ТАЙЁРЛАНГАН ОЛИНМАЙДИГАН КЎПРИКСИМОН ТИШ ПРОТЕЗЛАРИНИНГ ОҒИЗ БЎШЛИҒИ ҲОЛАТИГА ТАЪСИРИ //Journal of new century innovations. – 2022. – Т. 17. – №. 4. – С. 14-20.

41. Шарипов С. С. и др. COVID-19 ВИРУСУ ТАРҚАЛГАН ДАВРИДА ТИШ ПРОТЕЗЛАШ АМАЛИЁТИДА БЕМОРЛАРДАН АЖРАЛГАН СЎЛАКНИНГ ТАЪСИРИ //Journal of new century innovations. – 2022. – Т. 17. – №. 4. – С. 9-13.
42. Шарипов С., Хабилов Н., Алимов Ў. А. COVID-19 TUFAYLI TISHSIZ BEMORLAR OG'IZ SHILLIQ QAVATI TIZIMIDAGI BUZILISHLAR //СБОРНИК ТЕЗИСОВ" АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СТОМАТОЛОГИИ" РЕСПУБЛИКАНСКАЯ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ. – 2022. – Т. 10. – С. 188-190.
43. Шарипов С. и др. СТОМАТОЛОГ ШИФОКОРЛАРНИ COVID-19 ВИРУСИДАН ХАФСИЗ САҚЛАШ //Scientific Impulse. – 2022. – Т. 1. – №. 4. – С. 895-898.
44. Шарипов С. С., Саидов А. А., Гаффаров С. А. Кимёвий бўёқларнинг ишчилари оғиз бўшлиғига салбий таъсирини тажрибада асослаш ва даволашнинг самарали усуллари //Ўзбекистон Врачлар Ассоциацияси Бюллетени. – 2014. – Т. 2. – №. 2. – С. 50-53.
45. Sharipov S. S. et al." ASSESSMENT OF CHANGES IN THE MICROBIOLOGICAL PARAMETERS OF THE ORAL FLUID IN PATIENTS WHO UNDERWENT COVID-19 WITH COMPLETE EDENTULISM BEFORE AND AFTER PROSTHETICS." //NeuroQuantology. – 2022. – Т. 20. – №. 15. – С. 6734-6739.
46. Sharipov, S., et al. "TISH ATROFI TO'QIMA KASALLIKLARIGA CHEKUVCHILARNING TAMAКINI QIZDIRISH VOSITALARIDAN FOYDALANIB TAMAКINI ISTEMOL QILISHDAGI TA'SIRI." FORMATION OF PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY AS INTERDISCIPLINARY SCIENCES 2.14 (2022): 144-156.
47. Ким В. Э., Сафаров М. Т. КОМПЬЮТЕРНЫЙ АНАЛИЗ ОККЛЮЗИОГРАММ У ПАЦИЕНТОВ С ЧАСТИЧНОЙ АДЕНТИЕЙ //Conferences. – 2022. – С. 87-88.
48. Melikuziev K. K., Kim V. E. MATHEMATICAL SUBSTANTIATION OF MODELING THE OCCLUSIVE SURFACE OF TEETH //Conferences. – 2022. – С. 165-167.
49. Kim V. E., Melikuziev K. K. Advantages and disadvantages of cement and screw fixation during prosthetics on implants //Conferences. – 2022. – С. 162-164.
50. Хабилов Н. Л., Ким В. Э., Меликузиев К. К. КОНУСНО-ЛУЧЕВАЯ КОМПЬЮТЕРНАЯ ТОМОГРАФИЯ В СОВРЕМЕННОЙ СТОМАТОЛОГИЧЕСКОЙ ПРАКТИКЕ //Conferences. – 2022.
51. Жандарова М. А. и др. ADVANTAGES AND DISADVANTAGES OF CEMENT AND SCREW FIXATION DURING PROSTHETICS ON IMPLANTS //УЗБЕКСКИЙ МЕДИЦИНСКИЙ ЖУРНАЛ. – 2022. – Т. 3. – №. 2.
52. Zhabborovich N. O. et al. Evaluation of three-Point Contact Splint Therapy for Temporo-Mandibular Joint Joint Disorders //CENTRAL ASIAN JOURNAL OF MEDICAL AND NATURAL SCIENCES. – 2022. – Т. 3. – №. 3. – С. 17-22.

ОБЗОР ОРТОПЕДИЧЕСКОГО ПОДХОДА К ФУНКЦИОНАЛЬНОЙ РЕАБИЛИТАЦИИ ПАЦИЕНТОВ ПЕРЕНЕСШИХ COVID-19 С АДЕНТИЕЙ.

Шарипов С.С

ORCID 0000-0001-9960-9796

Хабилов Н. Л

Ким В

Рашидов Р

Алимов Ў

Ташкентский государственный стоматологический институт

Аннотация: В статье рассматривается обзор ортопедического подхода к функциональной реабилитации пациентов перенесших Covid-19 с адентией. В списке использованной литературы указаны статьи, опубликованные на сегодняшний день одним из авторов статьи (<https://scholar.google>. можно посмотреть в СОМ) перечислены.

COVID-19 в настоящее время оказывает серьезное давление на службы здравоохранения по всему миру. В то время как большинство (81%) людей, заболевших COVID-19, имеют легкое заболевание, включая лихорадку, кашель и одышку, значительное меньшинство сталкивается с серьезными осложнениями, особенно с сопутствующими заболеваниями или старше 65 лет. Сообщается, что до сих пор 20,3% из тех, кому требуется стационарное лечение, нуждаются в отделении интенсивной терапии, чаще всего из-за Синдром острого респираторного дистресса ОРДС(32,8%).

В настоящее время лечения COVID-19 не существует. В больницах ведется поддержка, и вполне вероятно, что большое количество выживших после COVID-19 потребуют значительной реабилитационной поддержки после выздоровления. Распространенными последствиями критического заболевания после пациентов перенесших COVID-19 с адентией являются:

- Устойчивые изменения диффузионной способности оксида углерода
- Приобретенная в отделении интенсивной терапии слабость
- Полинейропатия при критических заболеваниях / миопатия при критических заболеваниях

- Кардиореспираторное декондиционирование
- Нарушение когнитивной функции (делирий)
- Нарушение психического здоровья

Обычно регистрируемые осложнения COVID-19 после адентией:

- Неврологические осложнения, такие как инсульт.
- Невропатия интенсивной терапии
- Осложнения, связанные с длительным постельным режимом (такие как венозная тромбоземболия, диссеминированное внутрисосудистое

свертывание, острое повреждение почек, делирий, тревожность, пост-клинический синдром, травматическое стрессовое расстройство)

- Постэкстубационная дисфагия
- Нарушение подвижности

Как правило, пациенты, которые страдают тяжелым заболеванием и находятся на ИВЛ более семи дней, обычно требуют значительных затрат на реабилитацию - например, шестьдесят процентов этих пациентов изначально не могут ходить. Если у пациентов возникнет инсульт или сердечные осложнения после COVID-19, им потребуется длительная реабилитация - в некоторых случаях им потребуется пожизненная поддержка.

Страны по всему миру находятся на разных стадиях пандемии, и многие страны сейчас вступают в фазу «послезавтра».

Многие люди, пострадавшие от последствий этого заболевания, теперь могут оказаться в группе риска долгосрочного ухудшения состояния и инвалидности. Степень этого нарушения и инвалидности пока неизвестна, но из ранних исследований ясно, что эти пациенты будут нуждаться в реабилитации на всех этапах болезни - острой, пост-острой и долгосрочной.

Реабилитация у пациентов перенесших COVID-19 с адентией определяется как «набор вмешательств, направленных на снижение инвалидности и оптимизацию функционирования людей с нарушениями здоровья во взаимодействии с окружающей средой».

Реабилитация вполне может стать ключевой стратегией по снижению воздействия COVID-19 на здоровье и функции людей.

Физиотерапевты играют важную роль в этих реабилитационных усилиях на всех этапах, чтобы облегчить раннюю выписку, но даже в большей степени для поддержки и расширения возможностей пациентов.

Реабилитационные вмешательства направлены на устранение нескольких последствий тяжелой формы COVID-19, таких как:

- Физические нарушения
- Когнитивные нарушения
- Нарушения глотания
- Оказание психосоциальной поддержки

Очевидно, что пожилые люди и люди с уже существующим и сопутствующим подвержены более высокому риску более тяжелого заболевания. Реабилитация может быть полезной для этих групп населения для сохранения их прежнего уровня функциональности и независимости.

Содействие ранней выписке

• Во время пандемии во всем мире существует высокий спрос на больничные койки, особенно в периоды, когда пандемия достигает своего пика в стране или регионе. Это приводит к тому, что пациентов выписывают раньше, чем обычно. Реабилитация имеет решающее значение в этом

сценарии для подготовки пациента к выписке, координации сложных выписок, а также для обеспечения непрерывности лечения.

Снижение риска реадмиссии

- Реабилитация является ключевой стратегией, гарантирующей, что состояние пациентов не ухудшится после выписки и не потребует повторной госпитализации. Во время пандемии COVID-19 это критически важно в условиях нехватки больничных коек.

Физиотерапевты, как специалисты по реабилитации, являются передовыми специалистами в области здравоохранения и должны заниматься лечением пациентов, страдающих тяжелыми случаями COVID-19.

Пациенту с тяжелой формой COVID-19 предстоит пройти несколько этапов лечения: острый, послеродовой и длительный уход. В острой фазе помощь, скорее всего, будет оказана в ICU или отделения интенсивной терапии. В пост-острой фазе помощь, скорее всего, будет оказываться в больничной палате, в пониженном или реабилитационном учреждении. Долгосрочная фаза наступит, когда пациенты вернутся домой и все еще выздоравливают и получают реабилитацию на уровне сообщества.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА:

1. Gaffarov S., Sharipov S. ANALYSIS OF MACRO AND MICROELEMENTS IN TEETH, SALIVA, AND BLOOD OF WORKERS IN FERGANA CHEMICAL PLANT OF FURAN COMPOUNDS //European Medical, Health and Pharmaceutical Journal. – 2014. – Т. 7. – №. 2.

2. МУН Т. О. и др. ЯНГИ МИЛЛИЙ ТИШ ИМПЛАНТАТИ КОНСТРУКЦИЯСИНИ ЯРАТИШ ВА ҚЎЛЛАНИЛИШИНИ //Journal of new century innovations. – 2022. – Т. 16. – №. 4. – С. 57-62.

3. Махсумова С. С. и др. ИММУНОЛОГИЧЕСКОГО СТАТУСА ПОЛОСТИ РТА У ДЕТЕЙ БОЛЬНЫХ ОСТРЫМ ГЕРПЕТИЧЕСКИМ СТОМАТИТОМ //Journal of new century innovations. – 2022. – Т. 16. – №. 4. – С. 53-56.

4. Lukmanovich X. N. et al. COVID-19 BILAN O'G'RIGAN TISHSIZ BEMORLAR OG'IZ SHILLIQ QAVATI TIZIMIDAGI BUZILISHLAR //Journal of new century innovations. – 2022. – Т. 14. – №. 4. – С. 152-154.

5. Lukmanovich K. N., Salomovich S. S. METHODS OF SAFETY OF DENTAL PROSTHETIC PRACTICE DURING THE COVID-19 PANDEMUM //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2022. – Т. 3. – №. 11. – С. 819-828.

6. Rafiqov K. M. et al. YUQORI JAG'BO'SHLIG'IDA BMP-2 YUKLANGAN KOLLAGENLANIB BO'LGAN IKKI FAZALI KALTSIY FOSFAT TOMONIDAN SUYAK REGENERATSIYASINI TAKOMILLASHISHI //MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH. – 2022. – Т. 2. – №. 18. – С. 303-317.

7. Salomovich, Sharipov Salim. "PERIODONTAL TO'QIMA KASALLIKLARIGA CHEKUVCHILARNING TAMAKINI QIZDIRISH VOSITALARIDAN FOYDALANGAN HOLATIDAGI O'ZGARISHLARI." *Journal of new century innovations* 16.3 (2022): 150-155.

8. Salomovich S. S., Miraziz o'g'li A. M., Yoqubjonovich A. T. TO'LIQ TISH SIZ BO'LGAN BEMORLARNI OLINADIGAN PLASTINKA PROTEZLAR BILAN DAVOLASHNING MOHIYATI //Scientific Impulse. – 2022. – Т. 1. – №. 4. – С. 881-884.

9. Salomovich S. S. et al. COVID-19 BILAN O'G'RIGAN BEMORLAR OG'IZ BO'SHLIG'I SHILLIQ QAVATIDAGI O'ZGARIZSHLAR //Scientific Impulse. – 2022. – Т. 1. – №. 4. – С. 890-894.

10. Tashpulatova K. et al. Technique for eliminating traumatic occlusion in patients using Implant-supported bridges //European Journal of Molecular & Clinical Medicine. – 2020. – Т. 7. – №. 2. – С. 6189-6193.

11. Иноятлов А. Ш. и др. Тиш қатори ва окклюзион текслиқдаги ўзгаришлар ҳамда уларнинг чакка-пастки жағ бўғимига таъсири //Интегративная стоматология и челюстно-лицевая хирургия. – 2022. – Т. 1. – №. 2. – С. 40-47.

12. Иноятлов А. Ш. и др. Особенности клинических проявлений COVID-19 в ротовой полости //Интегративная стоматология и челюстно-лицевая хирургия. – 2022. – Т. 1. – №. 2. – С. 37-39.

13. Сафаров М. и др. Влияние несъемных зубных протезов различной конструкции на микробиологические и иммунологические показатели полости рта //Stomatologiya. – 2014. – Т. 1. – №. 1 (55). – С. 18-23.

14. Сафаров М., Мусаева К., Шарипов С. Олинмайдиган кўприксимон тиш протезларининг оғиз бўшлиғи микробиологик ҳолатига таъсири //Stomatologiya. – 2017. – Т. 1. – №. 2 (67). – С. 51-54.

15. Саломович Ш. С. THE INFLUENCE OF REMOVABLE DENTURES ON THE ORAL CAVITY MICROFLORA //Ёш олимлар кунлари тиббиётнинг долзарб масалалари: III. – 2014. – Т. 1. – С. 102.

16. Хабилов Н. Л. и др. ЧАККА-ПАСТКИ ЖАҒ БЎҒИМИ КАСАЛЛИКЛАРИНИ ДАВОЛАШ УСУЛЛАРИ ҲАҚИДА АДАБИЁТЛАР ШАРҲИ ТОШКЕНТ ДАВЛАТ СТОМАТОЛОГИЯ ИНСТИТУТИ //Journal of new century innovations. – 2022. – Т. 15. – №. 2. – С. 79-85.

17. Хабилов Н. Л. и др. ТИШСИЗ ПАСТКИ ЖАҒ СУЯК ТЎҚИМАСИ ТУЗИЛМАЛАРИНИНГ СУЯК ИЧИ ТИШ ИМПЛАНТЛАРИГА АСОСЛАНГАН ОЛИНАДИГАН ПРОТЕЗЛАР БИЛАН ЎЗАРО ТАЪСИРИ //Journal of new century innovations. – 2022. – Т. 15. – №. 2. – С. 98-101.

18. Хабилов Н. Л. и др. ЖАҒ ПРОТЕЗЛАРИ ВА ОБТУРАТОРЛАРИНИНГ ГИГИЕНИК ҲОЛАТИНИ БАҲОЛАШНИНГ УСУЛЛАРИГА АДАБИЁТЛАР ТАХЛИЛИ //Journal of new century innovations. – 2022. – Т. 15. – №. 2. – С. 89-91.

19. Хабилов Н. Л. и др. ЎСМИРЛАР ТИШ ҚАТОРЛАРИ ВА ОККЛЮЗИОН САТХДАГИ ЎЗГАРИШЛАРНИ ЧАККА ПАСТКИ ЖАҒ БЎҒИМИ РИВОЖЛАНИШИ //Journal of new century innovations. – 2022. – Т. 14. – №. 4. – С. 150-151.

20. ХАБИЛОВ Н. Л. и др. ОҒИЗ БЎШЛИҒИ ШИЛЛИҚ ҚАВАТИ ПАТОЛОГИЯСИНИ МАҲАЛЛИЙ ДАВОЛАШ УЧУН АДАБИЁТЛАР ШАРХИ //Journal of new century innovations. – 2022. – Т. 16. – №. 4. – С. 63-67.

21. ХАБИЛОВ Н. Л., ШАРИПОВ С. С., АБДУРАХИМОВ З. А. ТЎЛИҚ ОЛИНАДИГАН ПЛАСТИНКА ПРОТЕЗЛАРИНИ МАҲКАМЛАШНИНГ ТУРЛИ УСУЛЛАРИДАН ФОЙДАЛАНГАН ҲОЛДА ТИШЛАРИ ТЎЛИҚ БЎЛМАГАН БЕМОРЛАРНИНГ ҲАЁТ СИФАТИ ҲАҚДА АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ //Journal of new century innovations. – 2022. – Т. 16. – №. 4. – С. 68-74.

22. Xabilov N., Sharipov S. COVID-19 TUFAYLI TISHSIZ BEMORLARDA OG'IZ BO'SHLIG'I SHILLIQ QAVATIDAGI O'ZGARIZSHLAR //СБОРНИК ТЕЗИСОВ Международной научно-практической конференции «Актуальные проблемы ортопедической стоматологии и ортодонтии. – 2022. – Т. 10. – С. 139-140.

23. Xabilov N., Sharipov S. ЎСМИРЛАР ТИШ ҚАТОРЛАРИ ВА ОККЛЮЗИОН САТХДАГИ ЎЗГАРИШЛАРНИ ЧАККА ПАСТКИ ЖАҒ БЎҒИМИ РИВОЖЛАНИШИГА ТАЪСИРИ //СБОРНИК ТЕЗИСОВ Международной научно-практической конференции «Актуальные проблемы ортопедической стоматологии и ортодонтии. – 2022. – Т. 5. – С. 139-140.

24. Хабилов Н. Л., Шарипов С. С. ТА 'ЛИМ ИНСОННИ КОМИЛЛИККА УЕТАКЛАЙДИ //ТАЛИМ ФИДОИЙЛАРИ.–2021/4–Т. – Т. 1. – С. 398-401.

25. Хабилов Н., Шарипов С. ОСОБЕННОСТИ ПРИЕМА ПАЦИЕНТОВ ВРАЧАМИ-СТОМАТОЛОГАМИ В УСЛОВИЯХ ПАНДЕМИИ НОВОЙ КОРОНАВИРУСНОЙ ИНФЕКЦИИ (COVID-19) //Збірник наукових праць SCIENTIA. – 2021.

26. Xabilov N., Sharipov S. TO'LIQ ADENTIYASI BO'LGAN BEMORLARNI OLINADIGAN PLASTINKA PROTEZLAR BILAN DAVOLASHNING ASOSIY JIHATLARI //СБОРНИК ТЕЗИСОВ Международной научно-практической конференции «Актуальные проблемы ортопедической стоматологии и ортодонтии. – 2022. – Т. 10. – С. 176-178.

27. Шарипов С. С. и др. ТИШ ҚАТОРИДАГИ АНОМАЛИЯ ВА ДЕФОРМАЦИЯНИ ОЛДИНИ ОЛИШНИНГ ЗАМОНАВИЙ УСУЛЛАРИНИ АМАЛИЁТГА ТАДБИҚ ҚИЛИШ //Journal of new century innovations. – 2022. – Т. 15. – №. 2. – С. 86-88.

28. Шарипов С. С. и др. ЧАККА-ПАСТКИ ЖАҒ БЎҒИМИ ДИСФУНКЦИЯСИ ВА ТИШЛОВ АНАМАЛИЯЛАРИГА АДАБИЁТЛАР ШАРХИ //Journal of new century innovations. – 2022. – Т. 15. – №. 2. – С. 92-94.

29. Шарипов С. С., Ўткирбек А., Абдусатторович А. З. ЎСМИРЛАР ОККЛЮЗИОН САТХДАГИ ЎЗГАРИШЛАРНИ ЧАККА ПАСТКИ ЖАҒ БЎҒИМИ

РИВОЖЛАНИШ ТАЪСИРИГА АДАБИЁТЛАР ШАРҲИ //Journal of new century innovations. – 2022. – Т. 14. – №. 4. – С. 142-149.

30. Шарипов С. С. и др. ЧАККА ПАСТКИ ЖАФ БЎҒИМИ КАСАЛЛИКЛАРИНИ ОЛДИНИ ОЛИШ //Journal of new century innovations. – 2022. – Т. 16. – №. 2. – С. 79-82.

31. Шарипов С. С. и др. ЧАККА-ПАСТКИ ЖАФ БЎҒИМИ ДИСФУНЦИЯСИНИ БАРТАРАФ ЭТИШ УСУЛЛАРИ //Journal of new century innovations. – 2022. – Т. 16. – №. 2. – С. 70-73.

32. Шарипов С. С. и др. СТОМАТОЛОГИК ДАВОЛАНИШГА МУХТОЖ БОЛГАН КАТТА ЁШДАГИ БЕМОЛЛАРИНИНГ ОҒИЗ БЎШЛИҒИ КАСАЛЛИКЛАРИГА МУНОСАБАТИНИ ПСИХОЛОГИК БАҲОЛАШ //Journal of new century innovations. – 2022. – Т. 16. – №. 2. – С. 66-69.

33. Шарипов С. С. и др. ЧАККА ПАСТКИ ЖАФ БЎҒИМИ КАСАЛЛИКЛАРДА ИННОВАЦИОН УСУЛЛАРИНИНГ ТАЪСИРИ //Journal of new century innovations. – 2022. – Т. 16. – №. 2. – С. 74-78.

34. Шарипов С. С., Хабилов Н. Л. COVID-19 ПАНДЕМИЯСИ ДАВРИДА ТИШ ПРОТЕЗЛАШ АМАЛИЁТИНИ ХАФСИЗ САҚЛАШНИНГ УСУЛЛАРИ //EURASIAN JOURNAL OF ACADEMIC RESEARCH. – 2021. – Т. 1. – №. 2. – С. 845-854.

35. Шарипов С. Хабилов Нигман. COVID-19 ПАНДЕМИЯСИ ДАВРИДА ТИШ ПРОТЕЗЛАШ ЖАРАЁНИДА БЕМОЛЛАРДАН АЖРАЛГАН СЎЛАКНИНГ АҲАМИЯТИ //Вестник ТМА. – 2021. – Т. 2021. – С. 137-138.

36. Шарипов С. С. и др. ТУРЛИ МАТЕРИАЛЛАРДАН ТАЙЁРЛАНГАН ОЛИНМАЙДИГАН КЎПРИКСИМОН ТИШ ПРОТЕЗЛАРИНИНГ ОҒИЗ БЎШЛИҒИ ҲОЛАТИГА ТАЪСИРИ //Journal of new century innovations. – 2022. – Т. 17. – №. 4. – С. 14-20.

37. Шарипов С. С. и др. COVID-19 ВИРУСУ ТАРҚАЛГАН ДАВРИДА ТИШ ПРОТЕЗЛАШ АМАЛИЁТИДА БЕМОЛЛАРДАН АЖРАЛГАН СЎЛАКНИНГ ТАЪСИРИ //Journal of new century innovations. – 2022. – Т. 17. – №. 4. – С. 9-13.

38. Шарипов С., Хабилов Н., Алимов Ў. А. 3. А. COVID-19 TUFAYLI TISHSIZ BEMORLAR OG'IZ SHILLIQ QAVATI TIZIMIDAGI BUZILISHLAR //СБОРНИК ТЕЗИСОВ" АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СТОМАТОЛОГИИ" РЕСПУБЛИКАНСКАЯ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ. – 2022. – Т. 10. – С. 188-190.

39. Шарипов С. и др. СТОМАТОЛОГ ШИФОКОРЛАРИНИ COVID-19 ВИРУСИДАН ХАФСИЗ САҚЛАШ //Scientific Impulse. – 2022. – Т. 1. – №. 4. – С. 895-898.

40. Шарипов С. С., Саидов А. А., Гаффаров С. А. Кимёвий бўёқларнинг ишчилари оғиз бўшлиғига салбий таъсирини тажрибада асослаш ва даволашнинг самарали усуллари //Ўзбекистон Врачлар Ассоциацияси Бюллетени. – 2014. – Т. 2. – №. 2. – С. 50-53.

41. Sharipov S. S. et al." ASSESSMENT OF CHANGES IN THE MICROBIOLOGICAL PARAMETERS OF THE ORAL FLUID IN PATIENTS WHO UNDERWENT COVID-19 WITH COMPLETE EDENTULISM BEFORE AND AFTER PROSTHETICS." //NeuroQuantology. – 2022. – Т. 20. – №. 15. – С. 6734-6739.

42. Sharipov, S., et al. "TISH ATROFI TO'QIMA KASALLIKLARIGA CHEKUVCHILARNING TAMAKINI QIZDIRISH VOSITALARIDAN FOYDALANIB TAMAKINI ISTEMOL QILISHDAGI TA'SIRI." FORMATION OF PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY AS INTERDISCIPLINARY SCIENCES 2.14 (2022): 144-156.

43. Ким В. Э., Сафаров М. Т. КОМПЬЮТЕРНЫЙ АНАЛИЗ ОККЛЮЗИОГРАММ У ПАЦИЕНТОВ С ЧАСТИЧНОЙ АДЕНТИЕЙ //Conferences. – 2022. – С. 87-88.

44. Melikuziev K. K., Kim V. E. MATHEMATICAL SUBSTANTIATION OF MODELING THE OCCLUSIVE SURFACE OF TEETH //Conferences. – 2022. – С. 165-167.

45. Kim V. E., Melikuziev K. K. Advantages and disadvantages of cement and screw fixation during prosthetics on implants //Conferences. – 2022. – С. 162-164.

46. Хабилов Н. Л., Ким В. Э., Меликузиев К. К. КОНУСНО-ЛУЧЕВАЯ КОМПЬЮТЕРНАЯ ТОМОГРАФИЯ В СОВРЕМЕННОЙ СТОМАТОЛОГИЧЕСКОЙ ПРАКТИКЕ //Conferences. – 2022.

47. Жандарова М. А. и др. ADVANTAGES AND DISADVANTAGES OF CEMENT AND SCREW FIXATION DURING PROSTHETICS ON IMPLANTS //УЗБЕКСКИЙ МЕДИЦИНСКИЙ ЖУРНАЛ. – 2022. – Т. 3. – №. 2.

48. Zhabborovich N. O. et al. Evaluation of three-Point Contact Splint Therapy for Temporo-Mandibular Joint Joint Disorders //CENTRAL ASIAN JOURNAL OF MEDICAL AND NATURAL SCIENCES. – 2022. – Т. 3. – №. 3. – С. 17-22.

TA'LIMNING TO'GRILIGI INSONNI KOMILLIKKA YETAKLAYDI

Xabilov N. L

Safarov M. T

Rashidov R

Kim V

Sharipov Salim

ORCID 0000-0001-9960-9796.

Toshkent davlat stomatologiya instituti

Annotatsiya: *Inson nihoyatda murakkab, ko'p qirrali va ko'p o'lchamli mavjudot bo'lib, uning mohiyatini anglash yuzasidan turli qarashlar ilgari surib kelinmoqda. Sharq falsafasi tarixida ham inson va ta'lim bosh mavzulardan biri bo'lib kelgan. Mazkur maqolada inson kamolotida ta'limning o'rnini xususida yoritib beriladi. Foydalanilgan adabiyotlar ro'xatida maqola mualliflaridan birini shu kungacha nashir etilgan maqolalar (<https://scholar.google.com>da ko'rish mumkin) ro'yxati berildi.*

Kalit so'zlar: *ta'lim, tarbiya, inson, barkamollik, komillik, ilm, tafakkur.*

Inson kamolotga yolg'iz o'zi erisha olmaydi. U boshqalar bilan aloqada bo'lish, ularning ko'magi yoki munosabatlariga muhtoj bo'ladi. Bunga ta'lim-tarbiyani to'g'ri yo'lga qo'yish orqali ham erishish mumkin. Chunki maqsadga muvofiq amalga oshirilgan ta'lim-tarbiya insonni ham aqliy, ham axloqiy jihatdan kamolga yetkazadi. Natijada inson tabiat va jamiyat qonun-qoidalarini to'g'ri bilib oladi, hayotda to'g'ri yo'l tutadi, boshqalar bilan yaxshi munosabatda bo'ladi. Komil insonni shakllantirish tarbiyaning bir butun, yaxlit ikki yo'nalishi ekanligiga urg'u beradi.

Masalan, Forobiy falsafasida inson butun borliq taraqqiyotining mahsuli sifatida izohlanadi. Mutafakkir insoning barcha olijanob fazilatlarini ilm tufayli ekanligini, inson hayotining mazmuni-baxtli bo'lish va baxtli qilishga intilish, bunga esa faqat ilm va ma'rifat orqali erishish mumkinligini ko'rsatdi. Beruniy va Ibn Sino insonning boshqa mavjudotlardan ustunligi aql va tafakkur tufayli ekanligini isbotlashga harakat qildilar. Abu Homid G'azzoliy insonning boshqa mavjudotlardan ustunligi aqlda emas, balki inson qalbida ekanligini ko'rsatdi. Ulug' mutasavvuf Abduholiq G'ijduvoni insonni "kichik olam" deb hisoblagan.

Avloniyning fikricha, odam tug'ilishidan yomon xulq bilan tug'ilmaydi. Muayyan bir sharoitda yomon tarbiya natijasida ularda yomon xulq paydo bo'ladi va shakllanib boradi. Insondagi qobiliyatni kamolga yetkazish tarbiya bilan amalga oshadi. Agar inson yaxshi tarbiya topib, yomon xulqlardan saqlansa, go'zal xulqlarga odatlanib, voyaga yetsa, u barchaning hurmati va e'tiboriga sazavor bo'ladi. Aksincha bo'lsa, har qanday buzuvchi ishlarni qiladigan, nodon, johil, yovuz bir odam bo'lib yetishadi.

Hayot go'zaldir, - deydilar shoir va mutafakkirlar, lekin hayot inson bilan go'zaldir. Inson go'zalligini belgilovchi asosiy mezon uning ma'naviyligi, ya'ni ahloq va odobi hisoblanadi. O'zbek xalqining "Inson odobi bilan go'zal" degan maqolining mohiyatida chuqur falsafiy ma'no yotadi.

Konfusiy insonni o'z mohiyatini ma'naviy-ahloqiy fazilatlari va kamoloti orqali namoyon etadigan jonzot sifatida talqin etadi. U insonning insonligi o'zidagi har qanday tabiiy ehtiyoj, his va tuyg'uni ma'naviylikka bo'ysundira olishidir. Faqat insondagi ma'naviy mas'ullik ularga nima qilish keragu, nima qilish kerakmasligini o'rgatadi. Shu jihatdan qaraganda insondagi ma'naviylik inson va insonlar faoliyatiga maqsad, yo'nalish va mazmun beradigan omildir.

G'arb ilmida esa insonga, asosan biologik mavjudot, tabiatdagi evolyutsion o'zgarishlarning mahsuli deb qaraldi.

Inson tushunchasiga aniq ta'rif berish uchun uni boshqa biologik mavjudotlardan ajratib turuvchi eng muhim xususiyatlarini aniqlash zarur. Bular qatoriga quyidagilar kiradi. Inson eng avvalo boshqa mavjudotlardan o'zining xotirasi, tafakkuri, tili borligi bilan ajralib turadi. Boshqa mavjudotlardan insonning tub sifatiiy farqini ifodalovchi xususiyatlardan yana biri uning o'z amaliy faoliyatini tartibga sola bilishidir. Shuningdek, inson o'z turmushi uchun zarur bo'lgan moddiy va ma'naviy boyliklarni ishlab chiqarish, yaratish malakasiga ega ekanligi ham ana shunday xususiyatlardan biri hisoblanadi. Inson hayotida mehnat asosiy rol o'ynaydi. Mehnat tufayli inson o'zi yashayotgan tabiatga ta'sir etadi, uni o'zgartiradi, moddiy va ma'naviy boyliklarni yaratadi. Amerikalik olim B.Franklin "Inson mehnat quollarini yaratuvchi jonzotdir", deb ta'riflagan.

Inson ta'lim-tarbiya, mehnat, o'zaro muloqot jarayonida ijtimoiy tajriba, bilim, turli munosabatlar, ahloqiy-ma'naviy meyorlar, siyosiy qarashlar ta'siri ostida faoliyat yuritadi, ularni o'zlashtiradi va shu jarayonda asta-sekin ijtimoiylashib boradi, ya'ni shaxs bo'lib shakllanadi. Natijada insonda irsiy bo'lmagan yangicha fazilatlar paydo bo'ladi. U yaratuvchan mavjudot sifatida faoliyat ko'rsata boshlaydi.

Alisher Navoiy asarlarida komil inson muammosi markaziy o'rinni egallaydi va o'z orzusidagi yetuk shaxsni asarlarining qahramonlari timsolida gavdalantirishga urinadi. U komil inson aqlli, axloqli, bilimli, ijodkor, qobiliyatli, dono, kamtar, insonparvar, saxovatli, sabr-qanoatli, adolatli, muruvvatli, sog'lom, jismonan baquvvat, mard va jasur bo'lishi lozimligini ta'kidlaydi.

Shuningdek, ilm o'rganish mashaqqatli yumush bo'lib, uni o'rganishda ayrim qiyinchiliklarni yengib o'tishga to'g'ri kelishi, bu yo'lda chidamli, qanoatli, bardoshli bo'lish orqaligina mukammal bilimga ega bo'lish mumkinligini uqtiradi.

Husain Voiz Koshifiyning uqtirishicha, insonni ta'lim-tarbiya orqali qayta tarbiyalash, aqliy qobiliyatini o'stirish mumkin. U o'zining pedagogik qarashlarida bolalarda mustaqil fikrlash qobiliyatini o'stirish masalasiga alohida e'tibor beradi. Ota-onalar, muallimlardan bu masalaga jiddiy yondashishlarini talab etadi. Bunda oilaviy hamda tashqi muhit muhim o'rin tutadi. Bolaning to'g'ri so'zli, va'daga

vafodor, yaxshi xulqli bo'lib tarbiyalanishida ichki va tashqi muhitning ahamiyati katta.

Mirzo Ulug'bek Markaziy Osiyo xalqlari ilm-fani va madaniyatini jahon miqyosiga olib chiqqan, pedagogik fikr taraqqiyotiga munosib hissa qo'shgan ulug' siymolardan biri. U avvalo yosh avlodning aqliy va ma'rifiy tarbiyasiga katta ahamiyat berib, ularni dunyoviy bilimlarni egallashga da'vat etadi. Faqat rivojlangan fan va madaniyat inson tafakkurining kamol topishini ta'minlashiga ishonadi. Allomaning uqtirishicha, bolaning bilim olishga bo'lgan qiziqishi, havasini oshirishda u tarbiyalanayotgan muhit muhim o'rin egallaydi. Oilada ota-ona ayniqsa, o'qimishli ota-ona o'z farzandlarining haqiqiy inson bo'lib kamol topishiga alohida e'tibor berishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Shodiyev N. O'rta Osiyo mutafakkirlarining pedagogik merosi xorij zamonaviy ta'lim texnologiyasida. «Xorijiy ta'limning dolzarb muammolari» mavzusidagi xalqaro konferensiya materiallari. - Samarqand, 1999

2. Ta'lim tizimida talaba-yoshlarning g'oyaviy-mafkuraviy tarbiyasi va ularning uyg'unligini ta'minlashning dolzarb muammolari mavzusida Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Samarqand sh., 2007 y.

3. Ma'naviyat, mafkura va milliy qadriyatlarning kishilar istiqlol ongi va dunyoqarashini shakllantirishdagi roli mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – Samarqand: SamDU, 1999.

4. www.ziyonet.uz

5. Gaffarov S., Sharipov S. ANALYSIS OF MACRO AND MICROELEMENTS IN TEETH, SALIVA, AND BLOOD OF WORKERS IN FERGANA CHEMICAL PLANT OF FURAN COMPOUNDS //European Medical, Health and Pharmaceutical Journal. – 2014. – T. 7. – №. 2.

6. МУН Т. О. и др. ЯНГИ МИЛЛИЙ ТИШ ИМПЛАНТАТИ КОНСТРУКЦИЯСИНИ ЯРАТИШ ВА ҚўЛЛАНИЛИШИНИ //Journal of new century innovations. – 2022. – Т. 16. – №. 4. – С. 57-62.

7. Махсумова С. С. и др. ИММУНОЛОГИЧЕСКОГО СТАТУСА ПОЛОСТИ РТА У ДЕТЕЙ БОЛЬНЫХ ОСТРЫМ ГЕРПЕТИЧЕСКИМ СТОМАТИТОМ //Journal of new century innovations. – 2022. – Т. 16. – №. 4. – С. 53-56.

8. Lukmanovich X. N. et al. COVID-19 BILAN O'G'RIGAN TISHSIZ BEMORLAR OG'IZ SHILLIQ QAVATI TIZIMIDAGI BUZILISHLAR //Journal of new century innovations. – 2022. – Т. 14. – №. 4. – С. 152-154.

9. Lukmanovich K. N., Salomovich S. S. METHODS OF SAFETY OF DENTAL PROSTHETIC PRACTICE DURING THE COVID-19 PANDEMUM //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2022. – Т. 3. – №. 11. – С. 819-828.

10. Rafiqov K. M. et al. YUQORI JAG'BO'SHLIG'IDA BMP-2 YUKLANGAN KOLLAGENLANIB BO'LGAN IKKI FAZALI KALTSIY FOSFAT TOMONIDAN SUYAK REGENERATSIYASINI TAKOMILLASHISHI //MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH. – 2022. – Т. 2. – №. 18. – С. 303-317.

11. Salomovich, Sharipov Salim. "PERIODONTAL TO'QIMA KASALLIKLARIGA CHEKUVCHILARNING TAMAKINI QIZDIRISH VOSITALARIDAN FOYDALANGAN HOLATIDAGI O'ZGARISHLARI." Journal of new century innovations 16.3 (2022): 150-155.

12. Salomovich S. S., Miraziz o'g'li A. M., Yoqubjonovich A. T. TO'LIQ TISH SIZ BO'LGAN BEMORLARNI OLINADIGAN PLASTINKA PROTEZLAR BILAN DAVOLASHNING MOHIYATI //Scientific Impulse. – 2022. – Т. 1. – №. 4. – С. 881-884.

13. Salomovich S. S. et al. COVID-19 BILAN O'G'RIGAN BEMORLAR OG'IZ BO'SHLIG'I SHILLIQ QAVATIDAGI O'ZGARIZSHLAR //Scientific Impulse. – 2022. – Т. 1. – №. 4. – С. 890-894.

14. Tashpulatova K. et al. Technique for eliminating traumatic occlusion in patients using Implant-supported bridges //European Journal of Molecular & Clinical Medicine. – 2020. – Т. 7. – №. 2. – С. 6189-6193.

15. Иноятлов А. Ш. и др. Тиш қатори ва окклюзион тексликдаги ўзгаришлар ҳамда уларнинг чакка-пастки жаф бўғимига таъсири //Интегративная стоматология и челюстно-лицевая хирургия. – 2022. – Т. 1. – №. 2. – С. 40-47.

16. Иноятлов А. Ш. и др. Особенности клинических проявлений COVID-19 в ротовой полости //Интегративная стоматология и челюстно-лицевая хирургия. – 2022. – Т. 1. – №. 2. – С. 37-39.

17. Сафаров М. и др. Влияние несъемных зубных протезов различной конструкции на микробиологические и иммунологические показатели полости рта //Stomatologiya. – 2014. – Т. 1. – №. 1 (55). – С. 18-23.

18. Сафаров М., Мусаева К., Шарипов С. Олинмайдиган кўприксимон тиш протезларининг оғиз бўшлиғи микробиологик ҳолатига таъсири //Stomatologiya. – 2017. – Т. 1. – №. 2 (67). – С. 51-54.

19. Саломович Ш. С. THE INFLUENCE OF REMOVABLE DENTURES ON THE ORAL CAVITY MICROFLORA //Ёш олимлар кунлари тиббиётнинг долзарб масалалари: III. – 2014. – Т. 1. – С. 102.

20. Хабилов Н. Л. и др. ЧАККА-ПАСТКИ ЖАФ БЎҒИМИ КАСАЛЛИКЛАРИНИ ДАВОЛАШ УСУЛЛАРИ ҲАҚИДА АДАБИЁТЛАР ШАРҲИ ТОШКЕНТ ДАВЛАТ СТОМАТОЛОГИЯ ИНСТИТУТИ //Journal of new century innovations. – 2022. – Т. 15. – №. 2. – С. 79-85.

21. Хабилов Н. Л. и др. ТИШСИЗ ПАСТКИ ЖАФ СУЯК ТЎҚИМАСИ ТУЗИЛМАЛАРИНИНГ СУЯК ИЧИ ТИШ ИМПЛАНТЛАРИГА АСОСЛАНГАН ОЛИНАДИГАН ПРОТЕЗЛАР БИЛАН ЎЗАРО ТАЪСИРИ //Journal of new century innovations. – 2022. – Т. 15. – №. 2. – С. 98-101.

22. Хабилов Н. Л. и др. ЖАҒ ПРОТЕЗЛАРИ ВА ОБТУРАТОРЛАРНИНГ ГИГИЕНИК ҲОЛАТИНИ БАҲОЛАШНИНГ УСУЛЛАРИГА АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ //Journal of new century innovations. – 2022. – Т. 15. – №. 2. – С. 89-91.

23. Хабилов Н. Л. и др. ЎСМИРЛАР ТИШ ҚАТОРЛАРИ ВА ОККЛЮЗИОН САТҲДАГИ ЎЗГАРИШЛАРНИ ЧАККА ПАСТКИ ЖАҒ БЎҒИМИ РИВОЖЛАНИШИ //Journal of new century innovations. – 2022. – Т. 14. – №. 4. – С. 150-151.

24. ХАБИЛОВ Н. Л. и др. ОҒИЗ БЎШЛИҒИ ШИЛЛИҚ ҚАВАТИ ПАТОЛОГИЯСИНИ МАҲАЛЛИЙ ДАВОЛАШ УЧУН АДАБИЁТЛАР ШАРҲИ //Journal of new century innovations. – 2022. – Т. 16. – №. 4. – С. 63-67.

25. ХАБИЛОВ Н. Л., ШАРИПОВ С. С., АБДУРАХИМОВ З. А. ТЎЛИҚ ОЛИНАДИГАН ПЛАСТИНКА ПРОТЕЗЛАРИНИ МАҲКАМЛАШНИНГ ТУРЛИ УСУЛЛАРИДАН ФОЙДАЛАНГАН ҲОЛДА ТИШЛАРИ ТЎЛИҚ БЎЛМАГАН БЕМОРЛАРНИНГ ҲАЁТ СИФАТИ ҲАҚДА АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ //Journal of new century innovations. – 2022. – Т. 16. – №. 4. – С. 68-74.

26. Xabilov N., Sharipov S. COVID-19 TUFAYLI TISHSIZ BEMORLARDA OG'IZ BO'SHLIG'I SHILLIQ QAVATIDAGI O'ZGARIZSHLAR //СБОРНИК ТЕЗИСОВ Международной научно-практической конференции «Актуальные проблемы ортопедической стоматологии и ортодонтии. – 2022. – Т. 10. – С. 139-140.

27. Xabilov N., Sharipov S. ЎСМИРЛАР ТИШ ҚАТОРЛАРИ ВА ОККЛЮЗИОН САТҲДАГИ ЎЗГАРИШЛАРНИ ЧАККА ПАСТКИ ЖАҒ БЎҒИМИ РИВОЖЛАНИШИГА ТАЪСИРИ //СБОРНИК ТЕЗИСОВ Международной научно-практической конференции «Актуальные проблемы ортопедической стоматологии и ортодонтии. – 2022. – Т. 5. – С. 139-140.

28. Хабилов Н. Л., Шарипов С. С. ТА 'ЛИМ ИНСОННИ КОМИЛЛИККА УЕТАКЛАЙДИ //ТАЛИМ ФИДОИЙЛАРИ.–2021/4–Т. – Т. 1. – С. 398-401.

29. Хабилов Н., Шарипов С. ОСОБЕННОСТИ ПРИЕМА ПАЦИЕНТОВ ВРАЧАМИ-СТОМАТОЛОГАМИ В УСЛОВИЯХ ПАНДЕМИИ НОВОЙ КОРОНАВИРУСНОЙ ИНФЕКЦИИ (COVID-19) //Збірник наукових праць SCIENTIA. – 2021.

30. Xabilov N., Sharipov S. TO'LIQ ADENTIYASI BO'LGAN BEMORLARNI OLINADIGAN PLASTINKA PROTEZLAR BILAN DAVOLASHNING ASOSIY JIHATLARI //СБОРНИК ТЕЗИСОВ Международной научно-практической конференции «Актуальные проблемы ортопедической стоматологии и ортодонтии. – 2022. – Т. 10. – С. 176-178.

31. Шарипов С. С. и др. ТИШ ҚАТОРИДАГИ АНОМАЛИЯ ВА ДЕФОРМАЦИЯНИ ОЛДИНИ ОЛИШНИНГ ЗАМОНАВИЙ УСУЛЛАРИНИ АМАЛИЁТГА ТАДБИҚ ҚИЛИШ //Journal of new century innovations. – 2022. – Т. 15. – №. 2. – С. 86-88.

32. Шарипов С. С. и др. ЧАККА-ПАСТКИ ЖАҒ БЎҒИМИ ДИСФУНКЦИЯСИ ВА ТИШЛОВ АНАМАЛИЯЛАРИГА АДАБИЁТЛАР ШАРҲИ //Journal of new century innovations. – 2022. – Т. 15. – №. 2. – С. 92-94.

33. Шарипов С. С., Ўткирбек А., Абдусатторович А. З. ЎСМИРЛАР ОККЛЮЗИОН САТҲДАГИ ЎЗГАРИШЛАРНИ ЧАККА ПАСТКИ ЖАҒ БЎҒИМИ РИВОЖЛАНИШ ТАЪСИРИГА АДАБИЁТЛАР ШАРҲИ //Journal of new century innovations. – 2022. – Т. 14. – №. 4. – С. 142-149.

34. Шарипов С. С. и др. ЧАККА ПАСТКИ ЖАҒ БЎҒИМИ КАСАЛЛИКЛАРИНИ ОЛДИНИ ОЛИШ //Journal of new century innovations. – 2022. – Т. 16. – №. 2. – С. 79-82.

35. Шарипов С. С. и др. ЧАККА-ПАСТКИ ЖАҒ БЎҒИМИ ДИСФУНКЦИЯСИНИ БАРТАРАФ ЭТИШ УСУЛЛАРИ //Journal of new century innovations. – 2022. – Т. 16. – №. 2. – С. 70-73.

36. Шарипов С. С. и др. СТОМАТОЛОГИК ДАВОЛАНИШГА МУХТОЖ БОЛГАН КАТТА ЁШДАГИ БЕМОРЛАРНИНГ ОҒИЗ БЎШЛИҒИ КАСАЛЛИКЛАРИГА МУНОСАБАТИНИ ПСИХОЛОГИК БАҲОЛАШ //Journal of new century innovations. – 2022. – Т. 16. – №. 2. – С. 66-69.

37. Шарипов С. С. и др. ЧАККА ПАСТКИ ЖАҒ БЎҒИМИ КАСАЛЛИКЛАРДА ИННОВАЦИОН УСУЛЛАРНИНГ ТАЪСИРИ //Journal of new century innovations. – 2022. – Т. 16. – №. 2. – С. 74-78.

38. Шарипов С. С., Хабилов Н. Л. COVID-19 ПАНДЕМИЯСИ ДАВРИДА ТИШ ПРОТЕЗЛАШ АМАЛИЁТИНИ ХАФСИЗ САҚЛАШНИНГ УСУЛЛАРИ //EURASIAN JOURNAL OF ACADEMIC RESEARCH. – 2021. – Т. 1. – №. 2. – С. 845-854.

39. Шарипов С. Хабилов Нигман. COVID-19 ПАНДЕМИЯСИ ДАВРИДА ТИШ ПРОТЕЗЛАШ ЖАРАЁНИДА БЕМОРЛАРДАН АЖРАЛГАН СЎЛАКНИНГ АҲАМИЯТИ //Вестник ТМА. – 2021. – Т. 2021. – С. 137-138.

40. Шарипов С. С. и др. ТУРЛИ МАТЕРИАЛЛАРДАН ТАЙЁРЛАНГАН ОЛИНМАЙДИГАН КЎПРИКСИМОН ТИШ ПРОТЕЗЛАРИНИНГ ОҒИЗ БЎШЛИҒИ ҲОЛАТИГА ТАЪСИРИ //Journal of new century innovations. – 2022. – Т. 17. – №. 4. – С. 14-20.

41. Шарипов С. С. и др. COVID-19 ВИРУСУ ТАРҚАЛГАН ДАВРИДА ТИШ ПРОТЕЗЛАШ АМАЛИЁТИДА БЕМОРЛАРДАН АЖРАЛГАН СЎЛАКНИНГ ТАЪСИРИ //Journal of new century innovations. – 2022. – Т. 17. – №. 4. – С. 9-13.

42. Шарипов С., Хабилов Н., Алимов Ў А. З. А. COVID-19 TUFAYLI TISHSIZ BEMORLAR OG'IZ SHILLIQ QAVATI TIZIMIDAGI BUZILISHLAR //СБОРНИК ТЕЗИСОВ" АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СТОМАТОЛОГИИ" РЕСПУБЛИКАНСКАЯ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ. – 2022. – Т. 10. – С. 188-190.

43. Шарипов С. и др. СТОМАТОЛОГ ШИФОКОРЛАРНИ COVID-19 ВИРУСИДАН ХАФСИЗ САҚЛАШ //Scientific Impulse. – 2022. – Т. 1. – №. 4. – С. 895-898.

44. Шарипов С. С., Саидов А. А., Гаффаров С. А. Кимёвий бўёқларнинг ишчилари оғиз бўшлиғига салбий таъсирини тажрибада асослаш ва даволашнинг самарали усуллари //Ўзбекистон Врачлар Ассоциацияси Бюллетени. – 2014. – Т. 2. – №. 2. – С. 50-53.

45. Sharipov S. S. et al." ASSESSMENT OF CHANGES IN THE MICROBIOLOGICAL PARAMETERS OF THE ORAL FLUID IN PATIENTS WHO UNDERWENT COVID-19 WITH COMPLETE EDENTULISM BEFORE AND AFTER PROSTHETICS." //NeuroQuantology. – 2022. – Т. 20. – №. 15. – С. 6734-6739.

46. Sharipov, S., et al. "TISH ATROFI TO'QIMA KASALLIKLARIGA CHEKUVCHILARNING TAMAKINI QIZDIRISH VOSITALARIDAN FOYDALANIB TAMAKINI ISTEMOL QILISHDAGI TA'SIRI." FORMATION OF PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY AS INTERDISCIPLINARY SCIENCES 2.14 (2022): 144-156.

47. Ким В. Э., Сафаров М. Т. КОМПЬЮТЕРНЫЙ АНАЛИЗ ОККЛЮЗИОГРАММ У ПАЦИЕНТОВ С ЧАСТИЧНОЙ АДЕНТИЕЙ //Conferences. – 2022. – С. 87-88.

48. Melikuziev K. K., Kim V. E. MATHEMATICAL SUBSTANTIATION OF MODELING THE OCCLUSIVE SURFACE OF TEETH //Conferences. – 2022. – С. 165-167.

49. Kim V. E., Melikuziev K. K. Advantages and disadvantages of cement and screw fixation during prosthetics on implants //Conferences. – 2022. – С. 162-164.

50. Хабилов Н. Л., Ким В. Э., Меликузиев К. К. КОНУСНО-ЛУЧЕВАЯ КОМПЬЮТЕРНАЯ ТОМОГРАФИЯ В СОВРЕМЕННОЙ СТОМАТОЛОГИЧЕСКОЙ ПРАКТИКЕ //Conferences. – 2022.

51. Жандарова М. А. и др. ADVANTAGES AND DISADVANTAGES OF CEMENT AND SCREW FIXATION DURING PROSTHETICS ON IMPLANTS //УЗБЕКСКИЙ МЕДИЦИНСКИЙ ЖУРНАЛ. – 2022. – Т. 3. – №. 2.

52. Zhabborovich N. O. et al. Evaluation of three-Point Contact Splint Therapy for Temporo-Mandibular Joint Joint Disorders //CENTRAL ASIAN JOURNAL OF MEDICAL AND NATURAL SCIENCES. – 2022. – Т. 3. – №. 3. – С. 17-22.

ALI QUSHCHI**Sultonov Abdullaziz Jamshid o'g'li***Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti II kurs talabasi***Sattorov Firdavs Ulug'bek o'g'li***Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Tarix fakulteti talabasi*

Annotatsiya: *Amir Temur nafaqat mohir harbiy sarkarda edi. U o'z davrining ilmi insonlaridan biri bo'lgan. Ilm ahliga alohida hurmatda bo'lgan va ularning erkin ijodi uchun keng imkoniyatlar bergan. Temuriy hukmdorlardan faqat Mirzo Ulug'bekgina ilm ahliga katta e'tibor bergan. Mirzo Ulug'bek Samarqandda shunday ilmiy maskan tashkil etadiki u Samarqand akademiyasi edi. Uahbu akademiyada o'z davrining mashhur alloma va mutafakkirlari yig'ilgan edi. Olimlar ta'sirida yetuk bilim egalari yetishib chiqdi. Ali Qushchi Samarqand akademiyasi ta'limini olgan va uning rivojlanishi, qoldirilgan boy ilmiy me'roslarni saqlashi, Usmonli davlatida astronomiya faniga qo'shgan hissasi hamda G'arb aniq fanlar rivojiga katta hissa qo'shgani bilan o'z nomini tarixga muhladi. Ali Qushchining tadqiqotlari ilohiyot, grammatika, matematika va astronomiya yo'nalishlarida rivojlandi.*

Kalit so'zlar: *Ali Qushchi, olim, astronomiya, matematika, handasa, zij, Ulug'bek, Istanbul, Samarqand, Kirmon, Tabriz, o'nlik, oltmishlik, kasr, musbat manfiy, risola, hisob.*

ASOSIY QISM

"O'z davrining Batlimusi" deb tanilgan Ali Qushchining to'liq nomi Alouddin Ali ibn Muhammad al-Qushchi bo'lib, u Samarqandda tug'ilib o'sgan va XV asrda ilmiy faoliyat ko'rsatgan matematik va astronomlardandir. Uning tug'ilish sanasi ma'lum bo'lmasa-da, XIV asr oxiri — XV asr boshida tug'ilgan deb taxmin qilinadi. U Ulug'bek saroyidagi Muhammad ismli ovchi qushlarga qarovchi bir kishining o'g'li bo'lib, shu sababli unga Qushchi laqabi berilgan. U otasidan yetim qolganidan so'ng Ulug'bekning tarbiyasida bo'lgani bois, Ulug'bek uni o'z «Zij»ining so'zboshisida «farzandi arjumand» deydi.

Ali Qushchi boshlang'ich va shar'iy bilimlarni Samarqand olimlaridan, matematik va astronomik bilimlarni esa Qozizoda Rumiylar bilan Ulug'bekdan oladi. Bir ma'lumotga ko'ra, u yoshligida beruxsat Samarqanddan g'oyib bo'ladi-da, Kermonda biroz muddat mahalliy olimlardan bilim o'rganadi va yana Samarqandga, Ulug'bek huzuriga qaytib kelib, uzr so'raydi, Kermonda yozgan oyning shakllariga taalluqli eng birinchi asarini unga taqdim etadi.

Ulug'bek 1424-yili o'zining mashhur rasadxonasiga asos soladi, ish boshlanishi bilanoq Jamshid Koshiy, bir necha yildan so'ng Qozizoda Rumiylar ham vafot etadi. Shunda Ulug'bek rasadxonadagi qurilish ishlariga va astronomik kuzatishlarga yosh olim Ali Qushchini mutasaddi qilib qo'yadi. Ali Qushchiga ayni bu taxallusni Mirzo Ulug'bek bergan[]

Ali Qushchi umrining ko'p qismini Samarqandda o'tkazadi. Faqat 1449-yili Ulug'bek o'ldirilib, mirzolar o'rtasida ro'y bergan nizodan afsuslanib, asta-sekin bu yerda ilmiy ishlarni to'xtatishga majbur bo'ladi, lekin ulardan haj safariga ruxsat olishga muvassar bo'larkan, bu yerdan Ozarbayjonga ketib, biror muddat Tabrizda turadi. U yerda uni mahalliy hokim Uzun Hasan o'z saroyiga taklif qilib, unga nisbatan katta hurmat va ehtirom izhor etadi. Ali Qushchi hajni bajo keltirgan yo keltirmagani haqida ma'lumotga ega emasmiz. Lekin u o'z safarining pirovardida Usmonli sulton Muhammad II ning saroyiga keladi. Sulton uni juda iliqlik qabul qilib, o'ziga yaqin tutib, doimiy yashash uchun Istanbulda qolishni taklif etadi. Ali Qushchi bu taklifni qabul etadi va sultonning ruxsati bilan yana Tabrizga qaytib borib, u yerda turgan ikki yuzga yaqin qarindosh-urug'lari va yaqinlarini Istanbulga olib keladi. Sulton uni juda zo'r dabdaba bilan kutib oladi.

Ali Qushchi 1472-yil bahoridan boshlab kundalik 200 aqcha moyana bilan Ayo Sofiyo madrasasiga bosh mudarris etib tayinlanadi. Uning qarindoshlari va yaqinlari ham o'zlariga munosib vazifalarga tayinlanadilar. Ali Qushchining tug'ilgan yili aniq bo'lmasa ham, vafot etgan sanasi juda aniq. Bu sana uning qizi tarafidan nabirasi bo'lmish Miram Chalabiyning ushbu forsiy misralarida keltirilgan: Rahnamoyi ilm mavlono Ali Qushchi,

Chun bi-suyi ravzayi rizvon biraft:

Bud zi hijrat hashtsadu haftodu no'h, Ruzi shanba haftumi sha'bon biraft.

Ma'nosi:

Ilm-fan rahnamosi mavlono Ali Qushchi, Jannat gulzori sari yuzlangan vaqt: Hijratdin sakkiz yuz yetmish to'qqizinchi yil, Shanba kuni sha'bonning yettinchi kuni.

Bu yerda keltirilgan hijriy 878-sana, milodiy 1474-yil 17-dekabriga to'g'ri keladi. U Istanbuldagi Abu Ayyub Ansoriy maqbarasida dafn etilgan.

Ayvansarayli Husayn afandi o'z asarida aytganidek: "U Eyüp Sulton maqbarasi haramida dafn etilgan. U 1230-1235 yillargacha bo'lgan, keyin g'oyib bo'lgan". Shunga ko'ra, uning qabri 173-177 yildan beri yo'q. Ali Qushchining ilmiy asarlari Ulug'bek «Zij»idek shuhrat qozonmagan bo'lsa ham, uning ijodi fan tarixida nihoyatda muhim o'rin tutadi. U o'rta asrlardagi Movarounnahrda rivoj topgan aniq fanlar sohasidagi buyuk olimlarning eng so'nggi namoyandasi bo'lishi bilan birga Usmonli turklardagi birinchi eng yirik va ko'zga ko'ringan olim bo'lgan.

Fotih Sulton Mehmed Ali Qushchining bilimiga qoyil qoladi. U unga juda ko'p noz-ne'matlarni taklif qiladi va Istanbulda qolishini so'raydi. Sharq va g'arbning mashhur olim va san'atkorlarini o'zi bilan birga to'plamoqchi bo'lgan Fotihning bu iltimosini Ali Qushchi qabul qildi. Fotihning bu iltimosi elchilik vazifasini bajargandan keyingina amalga oshishi mumkinligini aytadi. Ali Qushchi elchilik vazifasini bajarib, hamma joyda hurmat bilan kutib olinib, Tabrizga qaytadi. Uzun Hasanga ruxsat so'rab Istanbulga qaytishini aytadi. Qabul qilingandan so'ng Istanbulga ko'chib o'tadi. [2] Hozirgi zamon turk tarixchilarining e'tirof etishicha, Istanbulga Ali Qushchi kelguniga qadar «ilmi hay'atda u daraja bir sohib vuqufi mavjud bo'lmagan edi». A.A.Adivar o'z asarida "Usmonli turklarining matematika va astronomiya nuqtai

nazaridan juda yorqin davri Fotih davrida Turkistondan Istanbulga kelgan Alaeddin Ali bin Muhammed Kushchi (Ali Kushchu) bilan boshlanadi”, deydi. Istanbulga Ali Qushchi kelishi bilan bu mamlakatda qisqa muddat ichida astronomiya fani sohasidagi ishlar yo‘lga qo‘yildi va pirovard natijada, Miram Chalabiy va boshqa atoqli zotlar yuzaga keldi.

Lekin u Istanbulda kam vaqt bo‘lgani bois bu yerda yirik ishlarni amalga oshirishning imkoni bo‘lmadi. Biroq shu qisqa muddat ham va umuman uning Istanbulga kelishining o‘zi ham nafaqat Usmonli turk fani tarixida, balki dunyo fanida muhim bir voqea bo‘ldi. Chunki Usmonli turklar 1453-yili Istanbulni fath etganidan so‘ng biroz o‘tmay bu shahar Sharq va G‘arb madaniyatlarining uchrashuv joyi bo‘lib qoldi. Ma‘lumki, o‘sha davrda Yevropada Sharq fani va madaniyatiga qiziqish juda katta bo‘lib, Yevropa Sharqning ilmiy yutuqlarini chanqoqlik bilan o‘ziga singdirayotgan edi. Istanbulga Italiya, Germaniya, Avstriya va Gollandiyadan rassomlar, muhandislar, harbiy mutaxassislardan tashqari astronomiya va matematika mutaxassislari ham to‘plangan edi. Xususan, Germaniyadan hisobdon «kossistlar» kelgan edi. Birinchi bo‘lib Samarqand olimlarining yutuqlaridan ana o‘shalar bahramand bo‘ldilar. Shu tariqa Ulug‘bek va uning «Zij»i haqidagi xabarlar milodiy XV asr oxiridayoq Ovro‘poga yetdi. Bunda esa Ali Qushchining xizmati kattadir.

Ali Qushchi Sulton bilan hamroh bo‘lganida ham ilmiy munozaralar olib borar edi. Hatto Sultonning Uzun Hasanga qarshi yirishida ham unga hamroh bo‘lgan. Safar davomida bu yurishga oid tarixiy asar yozgan. Ali Qushchining o‘z qo‘li bilan yozilgan ishbu asar “Fotih, Muhammediye” nomli asar bilan birlashtirilib, o‘z kutubxonasiga qo‘yilgan.[2]

Ali Qushchining qalamiga mansub asarlar quyidagilardir.

1. «Risola fi-l-hisob» («Hisob haqida risola»). Asar fors tilida 1425-yili Samarqandda yozilgan. U uch qismdan iborat: o'nlik hisoblash tizimi, oltmishlik hisoblash tizimi va handasa. Ali Qushchining bu risolasi o‘rta asrlarda keng tarqalgan bo‘lib, nafaqat Movarounnahr olimlarining, balki butun Yaqin va O‘rta Sharq olimlarining diqqatini o‘ziga jalb qilgan. Chunonchi, yozilganidan 150 yilcha keyin Bahouddin Omuliy (1547—1621) o‘zining «Xulosat ulhisob» nomli asarini yozganida undan foydalangan. Risolaning qo‘lyozmalari O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutida, Tojikiston poytaxti Dushanbe shahridagi Firdavsiy nomli kutubxonada, Sankt-Peterburgda, Rossiya akademiyasi kutubxonasida, Mashhadda imom Rizo kutubxonasida, Istanbuldagi (Turkiya) Ayo So‘fiyo kutubxonasida va Oksford (Angliya) universiteti kutubxonasida saqlanadi. 2. «Risoi qusur» («Kasrlar risolasi»). Bu asar ham Samarqandda fors tilida 1426-yili yozilgan., Bu risolaning qimmatini shundaki, unda Ali Qushchi o'nlik kasrlar tushunchasini va o'nlik kasrlar yordamida irratsional kvadrat ildiz chiqarish usulini bayon etadi. Risolaning yagona nusxas Sankt-Peterburgdagi Sharqshunoslik institutida saqlanadi.

3. «Risola at-fathiya» («G 'alaba risolasi»). Asar turk sultoni Muhammad II ning Iroq sultoni Azim ustidan g'alaba (fath) qilgani munosabati bilan 1473-yili Istanbulda yozilgan va astronomiyaga bag'ishlangan. Asarning qo'lyozmalari Mashhadda imom Rizo kutubxonasida, Istanbulda Ayo So'fiyo kutubxonasida, Tehron universiteti kutubxonasida, Kembrij universiteti kutubxonasida, Britaniya muzeyida, Berlindagi Germaniya davlat kutubxonasida, Dehlidagi Hindiston universiteti kutubxonasida va Mumbay kutubxonasida saqlanadi.

4. «Risola al-Muhammadiya fi-l-hisob» («Hisob haqida»). Asar arabiy imloda yozilgan hisobga doir eng nodir asarlardan bo'lib, turk sultoni Muhammad II ga bag'ishlangan. Unda o'nlik va oltmishlik hisoblash tizimlaridan arifmetika, algebra, geometriya va trigonometriya masalalari ko'riladi. Asarni muallifning o'zi 1472-yili forsiyga o'g'irgan. Risolaning muhim taraflaridan biri shundaki, unda birinchi marta «musbat» va «manfiy» iboralari hozirgi biz qo'llayotgan ma'noda ishlatiladi. Risolaning ikki qo'lyozmasi Istanbulda Ayo So'fiyo kutubxonasida va Leyden universiteti kutubxonasida saqlanadi.

5. «Risola fi halla ash-shakl al-hilol» («Hilolsimon shakllami o'lchash haqida risola»). Arab tilida yozilgan risola, qo'lyozmasi saqlanmagan.

6. «Sharhi Miftoh al-ulumi Taftazoniy» («Taftazoniyning «Miftoh al-ulum»ining sharhi»). Fors tilida yozilgan risola. Unga mashhur Qozizoda Rumiylar sharh yozgan. Birgina qo'lyozmasi Mashhaddagi imom Rizo kutubxonasida saqlanadi.

7. «Risola dar ilmi hay'at» («Astronomiya ilmi haqida risola»). Asar «Risola dar falakiyot», «Risolayi forsiya dar hay'at» va «Hay'ati forsiy» nomlari bilan ham ma'lum bo'lib, fors tilida bitilgan. Risolada Samarqand maktabi olimlarining astronomiya sohasida erishgan yutuqlaridan guvohlik beruvchi qator ma'lumotlar mavjud. Ali Qushchining shogirdlaridan biri Abulqodir ibn Hasan Ro'yoniy (vafoti 1520) risola haqida bunday deydi: «Men astronomiyaga doir ko'p asarlarni o'rgandim, Shamsiddin al-Koshiy, Husaynshoh Samoniy, Nosiri Sheroziy va Alishoh Xorazmiylarning «zij»larini sinchiklab mutolaa qildim. Lekin Ali Qushchining risolalarini o'qiganimdan so'ng astronomiya sohasidagi barcha anglamagan narsalarim menga ayon bo'ldi». Bu risolaning qo'lyozmalari O'zbekiston Respublikasi FA Sharqshunoslik institutining qo'lyozmalar fondida, Sankt-Peterburgdagi ommaviy kutubxonada, Parij milliy kutubxonasida, Mashhaddagi imom Rizo kutubxonasida, Oksford universiteti kutubxonasida, Britaniya muzeyida, Kembrij universiteti kutubxonasida, Berlinda Germaniya davlat kutubxonasida va Istanbulda Ayo So'fiyo kutubxonasida saqlanadi.

8. «Sharhi «Ziji Ulug'bek» («Ulug'bek «Zij»iga sharh»). Sharh ham «Zij»ning o'zi kabi fors tilida yozilgan. Uni avval Jamshid Koshiy va Qozizoda Rumiylar boshlagan edi. So'ng sharhni Ali Qushchi Istanbulda yakunladi. Bu sharhning qo'lyozmalari Tehran universiteti kutubxonasida, Leyden universiteti kutubxonasida, Parij milliy kutubxonasida hamda Sankt-Peterburg, Dushanbe, Mashhad, Istanbul va Angliyadagi kutubxonalarda saqlanadi.

9. «Sharhi risolai «Tuhfai shohiya» («Shohiy tuhfa» risolasining sharhi»). Mashhur matematik va astronom Qutbiddin Sheroziyning (vafoti 1311) risolasiga sharh, forsiy tilda yozilgan. Qo'lyozmalari Ayo Sofiyo, Oksford universiteti va

boshqa kutubxonalarda saqlanadi. 10. «Sharhi risolai «Sullam as-samo» («Sullam as-samo» risolasiga sharh»). Bunda Ali Qushchi o'zining Samarqanddagi ustodlaridan biri bo'lmish Jamshid Koshiyning «Sullam as-samo» nomli astronomik risolasiga sharh bergan. Qo'lyozmalari G'arbiy Ovro'po va Turkiya kutubxonalarida saqlanadi. 11. «Xitoyнома». Bu risolani Ali Qushchi 1438-yili Ulugbek tomonidan Xitoyga elchilikka yuborilganidan qaytganidan so'ng fors tilida yozgan. U o'zining shaxsiy kuzatishlariga ko'ra Xitoyning iqlimi, tabiati, xitoyliklarning urf-odatlarini bayon etgan. Undan tashqari bu asarda matematika, geografiya bilan birga olam xaritasi ham keltirilgan,

12. «Risolai mantiq» — 1430-yili Samarqandda, fors tilida yozilgan risola. Yagona qo'lyozmasi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Sharqshunoslik institutida saqlanadi.

13. «Sharhi tajvidi Xoja» («Xoja «Tajvidi»ning sharhi»). Asar mashhur astronom, matematik va faylasuf Xoja Nasiriddin Tusiyning (1201 — 1274) falsafaga doir «Tajvid» nomli asariga sharhdan iborat. Uni bo'lajak olim 1417-yili Kermondaligida yozgan bo'lib, uning qalamiga mansub ilk asar edi. Asarning qo'lyozmalari Britaniya muzeyida, Mashhaddagi imom Rizo kutubxonasida, Istanbulda Ayo So'fiyo kutubxonasida, Tehran universitet kutubxonasida, O'zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutida va Sankt-Peterburgdagi ommaviy kutubxonada saqlanadi. 14. «Risola al-Mufradiya». Arab tilidagi risola, mantiqqa bag'ishlangan. Yagona qo'lyozma nusxasi Leyden kutubxonasida saqlanadi. 15. «Mahbub ul-hamoyil fi kashfil masoyil» («Masalalarni hal qilishning mahbub bo'lganlari haqida»). Risola arab tilida yozilgan bo'lib, 20 bobdan iborat. Har bir bob alohida fanga bag'ishlangan. Birgina qo'lyozmasi Tehron universiteti kutubxonasida saqlanadi. 16. «Risola muta'olliqa bi kalimat at-tahvid» («Tahvid kalimasiga aloqador risola»). Arab tilida yozilgan ilohiyotga doir risola. Qo'lyozmalari Berlin, Rim va boshqa shaharlardagi kutubxonalarda saqlanadi. 17. «Risola tata'llaq bi kuiya» («Umumiyatga aloqador risola») arab tilida yozilgan falsafiy asardir. 18. «Risola al-istiorot». Arab tilida yozilgan mantiqqa doir risola. Ikki qo'lyozmasidan biri Leyden universiteti kutubxonasida, ikkinchisi Sankt-Peterburg ommaviy kutubxonasida saqlanadi. 19. «Sharh ar-risola al-Azudiya» («Al-Azudiya» risolasiga sharh»). «Al-Azudiya» risolasi aslida Izziddin ibn Abdurahim ibn Ahmad Ijijiy (vafoti 1335) tomonidan arab tilida yozilgan bo'lib, uni Ali Qushchi sharhlagan. U tilshunoslikka mansubdir. Qo'lyozmalari Leyden universiteti kutubxonasida, Sankt-Peterburg ommaviy kutubxonasida, Parij milliy kutubxonasida, O'zR F A Sharqshunoslik institutida, Istanbulda Ayo So'fiyo kutubxonasida va Oksford universiteti kutubxonasida saqlanadi.

20. «Al-unut va zavahir fi nazmil javohir» arab tilida yozilgan mantiqiy risola. Ayo So'fiyo va Leyden kutubxonasida ikki qo'lyozmasi saqlanadi. 21. «Risola al-mujas fit-tibb» («Tibbiyotga mansub mo'jaz risola»). Arab tilida. Birgina qo'lyozmasi Ayo So'fiyo kutubxonasida saqlanadi.

22. «Sharh risola al-fiqh» («Fiqh haqidagi risolaning sharhi»). Bu asar islomdagi to'rt mazhabdan biri bo'lmish «Imomi A'zam» mazhabiga asos solgan mashhur imom Abu Xanifa Nu'mon ibn Sobit tomonidan yozilgan «Al-fiqh» risolasiga sharhdir. Asar arab tilida yozilgan va islom huquqshunosligiga taalluqlidir. Qo'lyozmaning birgina nusxasi Qozon universiteti kutubxonasida saqlanadi.

23. «Risola fi hall al-misol al-handasa» («Geometriyaga doir bir masalaning yechilishi haqida risola»). Arab tilida yozilgan bu asarda muallif aylanaga o'tkazilgan urinma hosil qilgan burchak haqida bir teoremani isbotlaydi.[1] Xulosa. Olim hayoti davomida sermahsul ijod qilgan. Ali Qushchining astronomiya va matematikaga oid asarlari ham madrasalarda darslik sifatida o'qitildi. Faqat astronomiya va matematikaga oid asarlar yozmagan Ali Qushchi ilohiyot va falsafa sohalarida ham asarlar yozgan. Dastlab Temuriylar saroyida faoliyat ko'rsakgan olim Usmoniylar imperiyasida davom ettirdi. Olim ikki buyuk saltanatning peshqadam olimi bo'ldi. Ali Qushchining buyuk xizmatlaridan biri bu Mirzo Ulug'bek va uning davridagi ilmiy merosni saqlab qoldi, uni G'arb olamiga ham tanitdi. Usmonli zaminida aniq fanlar rivojiga o'z hissasini qo'shdi. Ali Qushchining butun hayoti va ijodi fan yo'lida sarflandi. U o'z asarlari bilan va ustoz Ulug'bek bilan hamkorligi tufayli o'z nomini tarix sahifalariga abadiy kiritdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. MA'NAVIYAT YULDUZLARI « O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti Toshkent 2011

2. Yildirim Beyazit universiteti dekani prof. Dr. Ahmet Kankalning Ali Qushchi haqidagi asaridan olindi. Foydalanilgan manbalar:

1. <https://haberlerankara-com>

2. yenisafak.com